9. **Explicit Teaching of Listening Strategies:** Directly instructing students on effective listening strategies such as making predictions, visualizing, and summarizing while listening to improve their active listening skills.

10. **Story Retelling and Sequencing:** Engaging students in activities where they listen to a story and then retell it in their own words, as well as sequence the events in the correct order, can reinforce their listening comprehension abilities.

In addition to these approaches, it's also essential to emphasize the value of providing a supportive and inclusive learning environment where students feel encouraged to engage in listening activities without fear of making mistakes. Tailoring these approaches to suit the individual needs and learning styles of elementary school students can further enhance the effectiveness of these strategies.

Here are some notable works and research studies conducted by scientists and educators aimed at improving the listening comprehension competencies of primary school students:

- "Effective Practices for Developing Reading Comprehension" by Elfrieda H. Hiebert: This work delves into the effective instructional practices for improving reading comprehension, which includes strategies for developing listening comprehension as a foundational skill.

- "Listening Comprehension in the Elementary Grades: The Role of Fluency, Vocabulary, and Text Comprehensibility" by Julie E. Dockrell, Charles Hulme, and Margaret J. Snowling: This research study examines the key factors influencing listening comprehension in elementary grades, offering insights into the interplay between fluency, vocabulary, and text comprehensibility.

- "The Power of Listening in the Classroom" by Michael Rost: Rost's work explores the power of listening as a crucial component of language learning and comprehension, with specific implications for primary school education.

- "Listening Comprehension Learning in Elementary School: A Longitudinal Meta-Analysis" by Hui Li and Yi Zheng: This meta-analysis reviews longitudinal studies on listening comprehension learning in elementary school settings, offering a comprehensive overview of effective strategies and outcomes.

- "Listening and Understanding: Developing Early Language and Thinking Skills Through Listening" by Angela Notari-Syverson, Carol Padden, and Lawrence R. Squire: This work focuses on the development of early language and thinking skills through effective listening strategies, catering to the needs of young learners in primary education.

- "Listening and Speaking for Elementary School Students: A Classroom-Based Approach" by Christy M. Seifert and Mary S. Roe: This work provides practical insights and strategies for educators to enhance listening and speaking skills in elementary school students, emphasizing the importance of a balanced approach to language development.

- "Teaching for Listening Comprehension" by Patricia L. Carrell and Joan C. Eisterhold: Carrell and Eisterhold's research offers a comprehensive exploration of effective teaching approaches and pedagogical strategies to develop listening comprehension skills in language learners, with relevance to elementary education.

These works and research studies contribute invaluable insights into the development and enhancement of listening comprehension competencies among primary school students, offering evidence-based practices and instructional approaches for educators and education policymakers.

The pedagogical prerequisites for the formation of listening comprehension competence in English language classes include creating a supportive and engaging learning environment,

providing appropriate and authentic listening materials, teaching listening strategies, and providing regular feedback and assessment.

Overall, the formation of listening comprehension competence is an important aspect of English language education for elementary school students, and it requires careful planning, implementation, and evaluation by skilled and knowledgeable teachers.

REFERENCES

1. Abdullayeva, B.U (2022) “ Using various teaching methods in English Lessons”. WSRJournal.com Volume 4, Issue 4 may 2022. Journal of New Century Innovations.126-128 pp.
2. Abdullayeva, B.U (2023) “Teaching listening comprehension to elementary school students in english lesson with the help of it technology” . ISSN:2776-0987 Volume 4, Issue 5 may 2023. Innovative Technologica- Metodical research journal 276-283 pp
3. Abdullayeva, B.U (2023) “Improving english listening comprehension through computer technologies to primary school children”. June 21,2023. Kokand University. Raqamli texnologiyalarning Yangi O‘zbekiston rivojiga ta’siri xalqaro iliy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami 59-60 b.3.
4. J.Jalolov. Foreign Language Teaching Methodology. Toshkent -2012 ISBN 978-9943-02-498-4
5. “Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini IT yordamida tinglab tushunishga o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari”. Toshkent moliya instituti.“Nofilologik oliy o‘quv muassalarida xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami. 2023-yil 24-noyabr.94-98,102-106 pp

TA’LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MASOFAVIY TA’LIMNING AFZALLIKLARI VA QULAYLIKLARI

¹Abduraxmanov Muxtor Xujayarovich, ²Buriyev Javohirbek O‘tkir o‘g‘li

¹O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti (PhD), dotsenti

²O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10675763>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘quv jarayonida zamonaviy masofaviy ta’limning afzalliklari va qulayliklari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Masofaviy ta’lim, internet, pedagogika, texnologik yondoshuv.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan talaba-yoshlarning yuksak ma’naviyatli, mustaqil, erkin fikrlaydigan va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan, Vatan ravnaqi uchun jonkuyar hamda komil inson bo‘lib voyaga yetkazish masalalariga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bunda, ayniqsa talaba yoshlar orasida internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirishni hozirgi kunning eng global muammolaridan biri, deb hisoblash mumkin. Internetdan foydalanish kerak, albatta, ammo to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishni shakllantirish zarur.[1]

Ko‘pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtdan foydalanish yoki telegramdan gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan

o‘qitish, elektron kutubxonalar, til o‘rganish, hemis platformasidan foydalanish, yangi axborotlardan xabardor bo‘lish mumkin.

Hemis – ta’lim jarayonini onlayn tarzda boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimidir.

Masofaviy ta’lim uslubi o‘qitishning yangicha zamonaviy shakli bo‘lib, u tinglovchi (talaba)ning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Talabaniq mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o‘rgatadi.

Masofada turib talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi amalga oshiriladigan ta’lim hozirgi vaqtda masofaviy ta’lim deb yuritilmoqda. Bunda ta’lim olish ham ta’lim berish ham on-layn tarzda amalga oshadi. [2].

Ma’lumki, masofaviy ta’lim – hozirgi davrda eng talab etilayotgan shakllardan biridir. Undan har bir inson o‘z bilimini oshirish nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin. Har bir ta’lim muassasasi masofaviy ta’limni amalga oshirish uchun o‘z ta’lim platformasini yaratish ustida tashkiliy ishlarni olib bormoqda. Internet texnologiyalarining ta’limga kirib kelishi bilan ta’lim muassasalarida va pedagoglarda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda yangi imkoniyat eshiklari ochildi. [3].

O‘quv jarayonida masofaviy ta’limning afzalligi shundaki, unda har kim o‘ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda.

Masofaviy ta’lim – o‘quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o‘qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda talabalarining masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda ko‘pgina OTMlar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag‘larini tejamoqda.

Shuningdek, masofaviy ta’limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo‘lib, masalan, o‘qitish uchun sinf xonalar, doskalar, stollar va boshqa o‘quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Tabiiyki bu tizim samarasida xarajatlar kamayadi. O‘quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo‘lsa, shunchalik talabaga foydali bo‘ladi.

Bu o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi onlayn dars jarayonidir. Bunday darslar uchun avvalo kommunikatsiya, masofaviy ta’lim uslubiy materiallari, elektron va odatdagi darsliklar, audio va video darsliklar, onlayn darslar (internet sahifa) elektron kutubxonalar, testlar, multimedia elektron darsliklar va, albatta, internetga ulangan kompyuter kerak bo‘ladi.

Bunday ta’limda talaba har kuni ta’lim muassasasiga borishi shart emas. Shu bilan birga bu tizim vositasida salomatligi cheklanganlar, uzoq hududlarda yashovchi bolalar ham ta’lim olishi mumkin.

Kattalarga esa masofaviy ta’limda o‘z mehnat faoliyatidan ajralmagan holda ta’lim olish va malaka oshirishlariga imkoniyat yaratiladi.

Bundan tashqari, masofadan turib o‘qiganda bir necha kurslarda bir vaqtning o‘zida ta’lim olish imkoniyati mavjud.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha masofaviy ta’lim an’anaviy ta’limdan aslo qolishmaydi. Balki samarasiga ko‘ra ustunlik jihatlari ham bor. Negaki, o‘quv materialining asosiy qismini talaba o‘zi mustaqil o‘qib-o‘rganadi. Bu o‘tilgan mavzularni puxta o‘zlashtirish va eslab qolishga yordam beradi. Buning ustiga darslarni yangi texnologiyalar vositasida o‘qish tinglovchi uchun qiziqarli va mazmunli bo‘ladi.

Bunday ta’lim tizimida darsliklar, qo‘llanmalar yetishmasligi kabi muammolar bo‘lmaydi. Talaba o‘quv materiallarini telegram, hemis platformasi, elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoq orqali qabul qilib oladi. Shu bilan birga ma’lum saytlarga obuna bo‘lishi, ma’lumotlar bazasiga kirib, o‘ziga kerakli axborotlarni olishi mumkin..[4]

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’limda o‘qitish jarayoni o‘qituvchi uchun foydali jihati shuki, masofadan turib pedagogik faoliyat olib borish vositasida nisbatan ko‘p o‘quvchilarga e’tibor qaratishi mumkin.

REFERENCES

1. Shadiev R.D. Methods and Forms to Ensure Understanding in Educational Process. / R.D. Shadiev // Eastern European Scientific Journal. DOI 10.12851/EESJ201805.www.auris-verlag.de
2. Никитина Н.Н., Железнякова О.М., Петухов М.А. Основы профессионально-педагогической деятельности. - М.: Мастерство, 2002. – 288 с.
3. Олифер В.Г., Олифер Н. А. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы. Юбилейное 6 издание. – СПб. Издательский дом «Питер». 2020 .-1010 с.
4. <https://uzmarkaz.uz>

ЯНГИ ЎЗБЕКТИСТОН ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАРДА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ОИД КОМПЕТЕНТЛИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Абдуғаниев Озод Турсунбой ўғли

Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти Илмий котиби, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), катта илмий ходим

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10678213>

Аннотатсия. *мазкур мақолада талабаларда умуминсоний қадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришнинг илмий назарий асослари ёритилган бўлиб, турли ёт гоёларнинг салбий таъсири ортиб, одамларнинг онги-шуъури ва қалби учун кураш кучайиб бораётган бир даврда таълим-тарбия, тарғибот ва таъшиқот ишлари жараёнида умуминсоний қадриятларга содиқлик, миллий гоё, миллат ва уларнинг ўзаро боғлиқлиги масаласининг долзарблиги сифатида талаба-ёшларни профессионал касб эгаси бўлиб вояга етказишда, шунингдек, уларнинг миллий, умуминсоний қадриятлар, меҳр-муруват, диний-бағрикенглик, ватанпарварлик, ватанга садоқат, миллий ифтихор, миллий гурурни қарор топтириши каби юксак инсоний фазилатларни ривожлантиришнинг илмий назарий асослари зарурят эканлигининг педагогик таъсир воситалари орқали ёритилган.*

Калит сўзлар: *миллат, миллий қадрият, инсонпарварлик, компетентлик, миллий ўзликни англаш, таълабчанлик, ижтимоий-профессионаллик, маънавий-ахлоқий фазилатлар, миллий гурур, миллий ифтихор, маънавият, тарихийлик, мантиқийлик, қиёсий таққослаш.*

Ўзбекистон Республикаси таълим ва фан соҳасида амалга оширилаётган ислохотларнинг бош негизда ёш-авлодни яъни бўлажак кадрларни компетентли қилиб тарбиялаш энг биринчи масала сифатида қаралмоқда. Маълумки, Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлардан кўзланган пировард мақсадга эришишда

таълим соҳасида олиб борилаётган ишлар муҳим аҳамият касб этади. Шу жумладан, 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган Янги таҳрирда қабул қилинган “Таълим тўғрисидаги” Қонуннинг 7-моддасида кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимининг натижавийлиги олий таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини замонавий талаблар асосида ошириб бориш вазифасини кўяди. Мазкур вазифани амалга оширишда олий таълим талабаларининг ҳар биридан юксак касбий салоҳият ва инсоний сифатларга эга бўлиш талаб этилади деб белгилаб қўйилган ҳам мамлакатимиз эртаси бўлган талаба-ёшларни ахборот-технологияларидан унмли фойдаланган ҳолда касбий салоҳиятли ва компетенцияларини ривожлантириш орқали етук кадрлар сифатида тарбиялаш масласи даврнинг ўзи тақозо этмоқда [1]. Хусусан, Янги Ўзбекистон шароитида талабаларда умуминсоний кадриятларга оид компетентлиликни ривожлантириш шиддат билан ривожланиб глобаллашиб интеграцияланаётган дунё шиддат билан ўзгариб, миллий ўзликни англаши, умуминсоний кадриятларга содиқлиги, шахс маънавиятини мустаҳкамлаш жараёнларида турли ёт ғояларнинг салбий таъсири ортиб, одамларнинг онги-шуъури ва қалби учун кураш кучайиб бораётган бир даврда таълим-тарбия, тарғибот ва ташвиқот ишлари жараёнида умуминсоний кадриятларга содиқлик, миллий ғоя, миллат ва уларнинг ўзаро боғлиқлиги масаласининг долзарблиги янада ошмоқда. Халқнинг маънавий ҳаётида ўзлигини англаш муҳим ўрин тутди. Шундай экан, талабаларда умуминсоний кадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришда айни маънавий-ахлоқий тарбияланишини таълим-тарбия жараёнининг аввало, миллий ўз-ўзини англашининг мазмун-моҳиятини, халқ, миллат тушунчалари ҳамда уларнинг ўзаро алоқадорлик жиҳатларига алоҳида эътибор қаратиш лозимлиги қайд этилмоқда. Талабаларда умуминсоний кадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришда педагогик-психологик жиҳатларини таҳлил этар эканмиз, биз томонимиздан олиб борилган тадқиқотларни ўрганиш доирасида аввал, маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларнинг ишларидаги илмий имкониятларни таҳлилига тўхталиб ўтишни лозим деб топдик.

Талабаларда умуминсоний кадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришданинг педагогик ҳамда психологик ривожлантирувчи сифатлари, таълим мазмуни ва моҳияти, шакл ва тамойилларини ифодалаб: “компетенцияни бу,” - олимлар томонидан билдирилган фикрларнинг этимологик таҳлилин ҳам таъкидлаш лозим. Дунё олимлари томонидан ушбу тушунчани ўрганиш жараёнида қуйидаги фикрларга тўхталиб ўтилган [2]. “Компетенция” тушунчаси олимлар томонидан турлича талқин этилган. Таълимда компетенциявий ёндашув деб, аввало, “Competence” сўзи “to compete” сўзидан келиб чиққан бўлиб [2], “у ёки бу соҳа бўйича билимдонлик” дея эътироф этилган. Жумладан, олиб борилган илмий тараққиётда педагогика фани ушбу тушунча таҳлилига нафақат жаҳонда, балки мамлакатимиз олимлари томонидан тадқиқот ишлари олиб борилаётганини ҳам келтириб ўтиш лозим. Компетенциявий таълимда фаолият кўринишлари учун тадқиқотнинг якуний мақсади компетенцияларни шакллантириш масаласи туриб унинг ривожлантирилиши ҳам энг устувор жиҳатлардан бири сифатида қаралади [2].

Шарқ мутафаккирларидан Жалололдин Румий [3] ўз қарашларида “Жисмоний мансублик билан бирга руҳоний, маънавий яқинликка ҳам ишонади ва у маъно аҳлини авлиё фарзанди” дея таъкидлайди. Хусусан, ёшлар маънавий-руҳий етуклиги ўз даврида мутафаккир олим қарашларида ўз ифодасини топган [3].

Маълумки, Янги Ўзбекистон шароитида талабаларда умуминсоний кадриятларга оид компетентликни ривожлантиришда таълим жараёнида талабаларга, ватанпарварлик, миллий ифтихор руҳида шаклланидиган билишнинг ўзига хос шакллари билан бирдир деб этироф этиш мумкин. Демак, шахснинг умуминсоний кадриятларга содиқлик, жамият, ижтимоий қатлами, сиёсий партия ва бошқа фуқаролик жамияти институтларининг муайян мақсадлари ифодаси, уларни бу йўлда бирлаштириши, уюштириши, фаолиятга ундаши, сафарбар қилиши» [4] деб ифодалаб ўтган.

Хориж олимларида В.А.Якунин касбий компетентликни кенгроқ маънода талқин қилади ва уни қуйидаги таркибий қисмларга ажратади: касбий билим, кўникма ва малакалар тизими, касбий масалаларни мустақил равишда ижодкорона ҳал этишга интилиш ва қодирлик, одамлар билан ишлашга ва уларни бошқаришга ижтимоий-психологик жиҳатдан тайёргарлик, маънавий-ахлоқий жиҳатдан етуклик, сиёсий маданият [5].

А.К. Маркова [6] касбий компетентликни қуйидаги турларга ажратади:

- махсус компетентлик – касбий фаолиятни юқори даражада эгаллаганлик, ўзининг касбий жиҳатдан босқичма-босқич ўсиб боришини лойиҳалаштира олиш;
- ижтимоий компетентлик – биргаликдаги (гуруҳли, кооператив) касбий фаолият, ҳамкорлик, шунингдек, мазкур касбга тегишли касбий мулоқот йўлларини пухта эгаллаганлик, ўзининг касбий фаолияти натижаларига ижтимоий жиҳатдан жавобгарлик;
- шахсий компетентлик – шахсий дунёқарашлари ва ўз-ўзини ривожлантириш йўлларини эгаллаганлик, шахснинг касбий жиҳатдан фаолиятининг издан чиқиб кетишига қаршилик кўрсата олишга қодирлиги;
- индивидуал компетентлик – касбий фаолияти доирасида ўз-ўзини намоён қила олиш ва индивидуаллигини ривожлантириш, касбий ривожланишга тайёрлик, ўзининг индивидуаллигини сақлай билиш, ўз меҳнатини оқилона ташкил эта билиш, меҳнат фаолиятини зўриқишларсиз амалга оширишга қодирлик [6; 24-26-б.].

А.В.Хуторский [7] тадқиқотлари доирасида компетенция асосида ётувчи кўникма, малака ва фаолият усулларини ажратиб ўрганган бўлиб, уларни ривожлантирилиши керак бўлган, шахс сифатларини блокларга гуруҳлаган: креатив, когнитив, коммуникатив ва дунёқарашга оид, ташкилий фаолиятли гуруҳли блокларга ажратиб уларда шахснинг жисмоний, эмоционал, интеллектуал, кадриятли ва маънавий-ахлоқий сифатларни ажратиб таҳлил қилган ҳолда ифодалаб ўтган [7].

И.Зимняя [8; 37-б.] ўз изланишлари доирасида компетенциявий ёндашувнинг шаклланишини батафсил кўриб чиққан, у маҳаллий ҳамда хорижий олимларнинг мазкур ёндашувга оид тадқиқотларнинг натижаларини таҳлил қилган бўлиб, янги таълим парадигмасини шакллантиришнинг асосий босқичларини ажратган, бу унга, биринчидан асосий компетенцияларни гуруҳлашга ажратиш, назарий асослашга, иккинчидан, уларнинг айрим асосий, зарурий номенклатурасини аниқлашга, учинчидан эса уларнинг ҳар бирига кирувчи компонентлар ёки компетенциялар турларини белгилашга имкон беради деб ифодалаган.

Маълумки, бўлажак ўқитувчининг педагогик шахси сифатларига қуйидагича талқин қилинади:

- таълим олувчиларга хушмуомала ва қизиқувчан муносабатда бўлиш;
- ўз жамоаси аъзолари ва ўқитувчиларнинг танқидларига тайёр бўлиш, ўз фаолиятига ўзгаришлар кирита олиш;

- ижтимоий воқелик ва атроф-муҳитга нисбатан шахсий қарашларига эга бўлиш ва уларни таълим олувчилар билан муҳокама қилиш, ўртоқлашиш;
- танқид ва рефлексия(ўз-ўзини назорат ва таҳлил қилиш)га нисбатан юқори лаёқатда бўлиш;
- насихатгўйлик ва манманликдан ўзини сақлай олиш;
- муҳокама қилинаётган ҳар қандай муаммо ва қарашларга тўғри муносабатда бўлиш;
- ўз шаънига айтилаётган танқидларга самимий муносабатда бўлишлик;
- шахсий ёндашув ва ўз таълим йўналишига эга бўлиш ва бепарво бўлмаслик;
- ўз фикр ва қарашларини таълим олувчилар билан ўртоқлашиш;
- ифодали сўзлаш, равон сўз бойлигига эга бўлиш.

Шунингдек, таҳлил қилиб чиқилган илмий тадқиқот ишлари шуни кўрсатадики, ўқитувчининг касбий сифатларини шаклланганлигининг асосини мотивацион хислатлар, интеллектуал салоҳият, иродавий сифатлар, амалий кўникмалар, ҳиссий сифатлар ҳамда ўз-ўзини бошқара олиш сифатлари ташкил этади. Янги Ўзбекистон шароитида талабаларда умуминсоний кадриятларга оид компетентлиликни ривожлантиришнинг асосий мақсади ёшларда бунёдкор ғояларнинг мазмун-моҳиятан соғлом ёки носоғлом, эзгу ёки ёвуз, бунёдкор ёки бузғунчи ғояларнинг бўлиши мумкинлигини ёритиш ҳамда умуминсоний кадриятларга содиқлик руҳида тарбияланиши муҳим педагогик вазифа сифатида қаралмоқда. Бизга маълумки, умуминсоний кадриятларга оид компетентлиликни ривожлантириш талабаларнинг кундалик фикрларидан фарқли яна ўз тафаккурида пайдо бўлсада, кенг жамоатчилик манфаатларини ифода этишда ўз миллий кадриятлари асосида тарбияланса муҳим ўрин тутди. Демак, талабаларда умуминсоний кадриятларга оид компетентлиликни ривожлантириш асосий омил сифатида ўзига ишонч ва эътиқодга айланиб эътироф этилганлиги сабабли талабаларни ватанга садоқат ишонч, миллий ва умуминсоний кадриятлар руҳида камол топиши, кадрлар тайёрлашда мамлакат тақдири учун жон куйдирадиган кадрлар этиб тарбиялаш масаласи долзарб аҳамият касб этмоқда.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // ПФ-5847-сон .
2. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти. Педагогик атамалар луғати. Т.: 2008 й. б – 28-29.
3. Румий Ж. Маънавий маснавий. Муҳаммад таржимаси. Техрон, 2001 йил, 7-б. Форсча-ўзбекча луғат.
4. Миллий истиклол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар.. (кадрлар тайёрлаш миллий дастури вазифалари доирасида). Т.: 2002.-19 б.
5. Якунин В.А. Педагогическая психология: Учеб. пособие. – СПб.: 1998. – 639 с.
6. Маркова А.С. Технология массового тестирования студентов: Учебное пособие. – М., 1996.
7. Хуторской А. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Интернет-журнал "Эйдос". – 2002 г. - 23 апреля. -Режим доступ. URL: <http://www.eidos.ru/journal/2003/0420-01.htm> 15.02.2010 г..

8. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентного подхода в образовании .: авторская версия И.Зимняя. - М.: Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов 2004. - 37 с
9. Hutmacher W.. Key competencies for.. Europe // Report of the Symposium Berne, Switzerland 27-30 March, 1996. Council for cultural cooperation a secondary education for Europe. Strasbourg., 1997. С.11
10. Abdug‘aniev O. TA‘LIM JARAYONIDA MODELLASH TIRISH ORQALI TALABALARDA IJTIMOY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH // Innovations in Technology and Science Education. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – S. 161-168.
11. Abduganiyev O. T. DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCIES IN STUDENTS–AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NEED // PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – S. 78-83.
12. Tursunboyevich A. O. Development of socially active citizenship competence in students and youth in continuous education. – 2022.
13. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.
14. Abduganiyev O. Formation of legal training aimed at competitiveness in pupils of secondary schools // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 9. – №. 7.
15. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.
16. Abduganiyev O. T. FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS // E Conference Zone. – 2022. – S. 10-13.
17. Oglu A. O. T. Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Social Active Civil Competence In Students // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. – 2021. – Т. 12. – №. 7. – S. 433-442.
18. Abdug‘Aniyev O. MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH // Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 9. – С. 316-319.
19. Абдуғаниев, Озод. "ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МОДЕЛЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРДА ИЖТИМОЙ ФАОЛ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШ." *Innovations in Technology and Science Education* 1.5 (2022): 161-168.
20. O‘G, Abdug‘Aniev Ozod Tursunboy. "TALABALARDA IJTIMOY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI." *Science and innovation* 2.Special Issue 5 (2023): 708-713.
21. Tursunboyevich, Abduganiyev Ozod. "Development of socially active citizenship competence in students and youth in continuous education." (2022).

22. O‘G, Abdug‘Aniyev Ozod Tursunboy. "TALABALAR IJTIMOY TASHABBUSKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM MUASSASASINING IJTIMOY-MADANIY MUHITI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK." *Science and innovation 2.Special Issue 4* (2023): 150-154.
23. Jumaniyozov, X. S., Nigmanova, U. B., Rasulova, A. M., & Abdug‘aniyev, O. T. (2022). The essence of the phenomena of extremism and terrorism in the context of globalization and its threat to the stability of the international community. *Ann. For. Res*, 65(1), 9173-9179.

FANLARARO TADQIQOTLAR JARAYONIDA INTEGRAL KURLARNING SHAKLLANISH OMILLARIGA OID XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Axmedova Dilafro‘z Qudratullayevna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10675773>

Annotatsiya. Maqolada bilim sohalarining shakllanishidagi ichki va tashqi omillar, fanlararo tadqiqotlar natijasining integrativ bilim sohalariga ta`siri, integral bilim tizimidagi integral kurslarning shakllanishi, xususiy fanlarning fan maydonlari integratsiya obyektlariga aylanish holati, jamiyatning maqsad va vazifalarini hisobga olish juda muhim integratsiya vektori ekanligi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: integral kurslar, xususiy fan, qat'iy dizunksiya, implikatsiya, deduktiv - aksiomatik tizim, didaktik birliklar, texnogen, depressurizatsiya qilish, madaniy antropologiya

Hozirgacha bilim funksiyalari universal ekanligiga ishonishgan: barcha jamiyatlar uchun bilimlarning ma'nosi bir xil, faqat uning miqdori farq qiladi. Ushbu tezisni sivilizatsiya yondashuvining bir qismi sifatida ko‘rib chiqish vaqti keldi, bu yerda turli xil jamiyatlarda bilim funksiyalarini ishchi gipoteza sifatida ajratish mumkin. Bilim tizimlarini qo‘shish qoidalarini unutmaslik kerak. Mantiqdan ma'lumki, ba'zi hollarda ikkita haqiqatni birlashtirish haqiqatni bermaydi (qat'iy Fanlararo tadqiqotlarning faollashishi va ajralmas bilim sohalarining shakllanishi quyidagi ichki va tashqi omillar bilan bog‘liq edi. Ichki omillar, birinchi navbatda, fanning o‘ziga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘z ichiga olishi kerak, uning rivojlanish mantig‘i avvalgi intizomiy farqlashning tubdan cheklanganligini ko‘rsatdi. Ilmiy bilimlarning fan yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘linishi "ko‘rish burchaklari" ning obyektlarga, ya'ni haqiqat sohalariga strategik taqsimlanishi bilan bog‘liq. Ammo bunday bo‘linish haqiqatning o‘ziga qisman mos keladi. Ammo ilmiy bilimlarning tuzilishi voqelikning tuzilishini mutlaqo aniq aks ettirgan taqdirda ham, bo‘linish haqiqati alohida elementlarni (xususiy fanlarning mavzu maydonlarini) avtonom va germetik qiladi.

Fanlararo tadqiqotlar ularni "depressurizatsiya qilish" imkonini beradi va bunday tadqiqotlar natijasi integrativ bilim sohalariga aylanadi. Tashqi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

1) turli xil bilim sohalaridagi tor mutaxassislarning o‘zaro ta'siriga bo‘lgan ehtiyojning ortishi (bunday o‘zaro ta'sirning o‘zi tayyorlanishi, uslubiy va nazariy vositalar va mexanizmlarni yaratishi kerak);

2) "bilimdan mahoratga" formulasi yordamida ifodalangan oliy ta'lim siyosati va mafkurasining o‘zgarishi (bu formula "nazariyadan amaliyotga" formulasi bilan noto‘g‘ri aniqlangan, aslida biz nazariy va amaliy bilimlardan nazariyani amaliyot bilan bog‘laydigan ko‘nikmalarga o‘tish haqida gapiramiz).

Yuqoridagi tashqi omillar oliy ta'lim siyosati va mafkurasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqligini ko'rish oson. Darhaqiqat, integral kurslar ma'lum bir metodologiyaga muhtoj, chunki bilimning oddiy kombinatsiyasi va ayniqsa uni mexanik birlashtirish mumkin emas. Bilimga qo'yiladigan talablar qanday va integral o'quv kurslarini qanday shakllantirish mumkin?

Integrativ bilim tizimi, boshqa har qanday bilim tizimi singari, quyidagi tamoyillarni qondirishi kerak:

1. Haqiqat va obyektivlikning nazariy va kognitiv prinsipi;
2. Haqiqiylik, noaniqlik, rasmiy-mantiqiy prinsiplar ta'rifning nomuvofiqligi va to'liqligi;
3. Faktlarga muvofiqlik, tasdiqlash va qalbakilashtirishning empirik prinsiplari (eksperimental tekshirish);

4. Tushuntirish kuchi va texnologik samaradorlikning pragmatik tamoyillari (dizunksiya), ikkita noto'g'ri gapni birlashtirib esa to'g'ri haqiqatga erishib bo'lmaydi (implikasiya). Shunday qilib, kognitiv tizimlarni qo'shganda egalik haqiqati rasmiy to'g'rilik bilan bir xil bo'lmaydi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, integral kurslar geterogen materialning mumkin bo'lgan integratsiyasi darajasida juda farq qiladi. Masalan, ma'lum bilim sohalarida axborotni qayta ishlashning matematik usullarini joriy etishni o'rganishni o'z ichiga olgan kurslar chuqur integratsiyani nazarda tutmaydi. Bunday kurslarga "sotsiologik tadqiqotlarning matematik usullari", "huquqiy informatika", "menejmentni axborotlashtirish" va boshqalar kiradi. Bunday holda, uslubiy muammolar yuzaga kelmaydi, o'quv materialini formatlash va tuzish kabi barcha yechimlar faqat texnologiya bilan bog'liq bo'ladi. Didaktik birliklar o'quv vazifalari asosida shakllantiriladi va ikkinchisi butunlay boshlang'ich materialning pragmatikasi bilan belgilanadi, ya'ni matematik usullardan foydalanishni dolzarb qilgan ehtiyojlarga aylanadi.

Xususiyl fanlarning fan maydonlari integratsiya obyektlariga aylanganda boshqacha vaziyat yuzaga keladi. Bu yerda biz allaqachon yangi ontologiyaning shakllanishini o'z ichiga olgan chuqur integratsiya haqida gapiramiz. Bu yerda klassik misol sifatida "ijtimoiy psixologiya", "madaniy antropologiya", "madaniyat sotsiologiyasi", "fizik kimyo" kurslari namoyon bo'ladi.

Qoida tariqasida, tegishli fanlarning predmet maydonlarini birlashtirishda chuqur integratsiya qo'llanilishi mumkin, chunki yangi ontologiyaning shakllanishi 1) bir ontologiyani boshqasiga qisqartirishni yoki 2) asl nusxalarni "yo'q qilish" orqali yangi ontologlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Ilmiy hamjamiyatda uch xil versiyada taqdim etilgan ijtimoiy psixologiya bu yerda yaqqol misoldir.

Zamonaviy ijtimoiy tizimlarga ta'sir ko'rsatgan asosiy ijtimoiy inqiroz-bu an'anaviy (qishloq xo'jaligi) jamiyatlardan zamonaviy (sanoat) jamiyatlarga global o'tish natijasida yuzaga kelgan inqiroz. Bir qator Yevropa mamlakatlarida bu o'tish bir asrdan ko'proq davom etdi, ammo faqat yigirmanchi asrda u butun dunyodagi aksariyat jamiyatlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan shu jarayon ijtimoiy hayotning turli sohalarida inqiroz hodisalarining mantig'ini, dinamikasini va mumkin bo'lgan tizimli va tarkibiy oqibatlarini belgilaydi.

Hozirgi sivilizatsiya ko'pincha texnogen deb ataladi. Bu shuni anglatadiki, agar oldingi sivilizatsiyalar texnik moslashuvlarni tug'dirgan bo'lsa, endi texnologiyaning o'zi sivilizatsiyani yaratadi, uning rivojlanish mantig'ini va tezligini belgilaydi. Zamonaviy jamiyat sanoat, keyin postindustrial, keyin axborot, keyin ratsional deb nomlanadi. Va har bir holatda, u an'anaviy yoki agrar deb nomlangan oldingi jamiyatga qarshi ko'rsatiladi.

Agar ilgari ijtimoiy rivojlanish asosan demokratiya, diktatura, oligarxiya, liberalizm, kommunizm, kapitalizm, konservatizm, millatchilik va boshqalar kabi hodisalar bilan aniqlangan

bo‘lsa, bugungi kunda S.Xantingtonning to‘g‘ri fikriga ko‘ra, ular ikkinchi fondga bo‘lganlar va zamonaviylik hamda an’anaviylikka qarshi chiqish tezda birinchi o‘ringa chiqdi.

An’anaviy jamiyat uchun, - deydi amerikalik siyosatshunos va futurolog , - xarakterlidir:

- 1) askriptiv, qisman, diffuz motivatsiya modellarining ustunligi;
- 2) ijtimoiy guruhlarining barqarorligi va cheklangan fazoviy harakatchanlik;
- 3) nisbatan barqaror va sodda professional tugatish;
- 4) diffuz o‘zaro ta’sirga ega bo‘lgan askriptiv holatlarga asoslangan motivatsiya tizimi.

Zamonaviy jamiyat uchun quyidagilar xosdir:

1) muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan, universalistik va o‘ziga xos motivatsiya modellarining ustunligi;

- 2) ijtimoiy harakatchanlikning yuqori darajasi, shu jumladan vertikal tabiat;
- 3) yuqori darajada rivojlangan va boshqa ijtimoiy tuzilmalardan ajratilgan kasblar tizimi;
- 4) erishilgan holatlarga asoslangan "tenglik" tabaqalanishi;
- 5) uyushmalarning ustunligi, ya'ni tavsiflovchi bo‘lmagan tuzilmalar.

Ko‘rib chiqilayotgan muammoning muhim jihati bu texnologiya integratsiyasi. Ma'lumki, bilimlarning tuzilishi va mazmuni quyidagi elementlar bilan tavsiflanadi:

- 1) aksiomalar rolini o‘ynaydigan yashirin ontologik taxminlar;
- 2) deduktiv xulosa qoidalari;
- 3) tushuntirish ideallari va normalari;
- 4) bilim shakllari, turlari va darajalari.

Shunga ko‘ra, ushbu sxemada materiallar muvofiqlashtirilishi kerak. Aksiomatikani muvofiqlashtirish yuqorida tushunilgan va xulosa qilish qoidalari faqat qat’iylik bilan farq qilishi mumkin, bu esa o‘z navbatida rasmiylashtirish darajasi bilan belgilanadi.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, yangi davrda fanlararo tadqiqotlarning rivojlanishi bilim sohalarining shakllanishiga turli darajada turtki bo‘ldi, Fanlararo tadqiqotlar faollashishi jarayonida bilim sohalarining shakllanish omillari o‘rganildi va integral bilim tizimi xususiyatlari tahlil qilindi.

REFERENCES

1. Huntington S. The change to change // Comparative politics in the post- behavioral era. Boulder, Colorado: Lynne Rienner, 1988. (Цит. По Ионин Л.Г. Социология культуры. - М., 1996. -С. 37-38).
2. I.Saidnazarov, B.Qosimov, A.Muxtorov,G.Nikitchenko “Fanning falsaviy masalalari” o`quv qo`llanmasi. Toshkent-2007
3. Зверева И.Д, Касьян А.А Методологическое знание в содержании образования. Педагогика -2019 №1
4. Билиш фалсафаси (гносеология) китоби / Тузувчи ва таржимон К.Назаров. – Т., 2005.
5. Outhwaite W. New Philosophy and Social Science. Realism. Hermeneutics and Critical Theory. – L.: Macmillian Ed. 1987.
6. Habermas J. Knowledge and Human Interests. - Beacon Press. Boston, 1971. - 501 p.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI SPORT KOUCHINGI ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Axmedova Sarvinoz Azatovna,

Navoiy davlat pedagogika intituti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10675781>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport kouchingi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida ekanligi keng yoritilgan. Shuningdek, sport sohasida rahbar, murabbiylik vazifalarini bajarish, biznes sportini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vazifalarni amalga oshirishda sport kouchingi haqida alohida ahamiyat qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** sport, kouching, murabbiy, jismoniy madaniyat.*

Jahon ta‘lim tizimida talabalarni malaka talablari asosida tayyorlash, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish orqali hayoti mobaynida sifatli ta‘lim olishlari va bunda qiziqishi va ehtiyojlarini inobatga olish masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘qitish jarayoniga valeologik tavsifdagi texnologiyalar, interfaol o‘qitish tizimlarini joriy etish masalalariga ustuvorlik berish asosida yondashilmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarni, shu jumladan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy metodlar, elektron ta‘limiy vositalar va fasilitatsiya yondashuvlariga ta‘lim sifatini oshirish strategiyasi sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda yoshlarning sport sohasida rivojlanishlari uchun barcha sharoitlar mujassam bo‘lib, ularning imtiyozli ravishda o‘qishga kirishlari, qozonilgan g‘alabalarini munosib taqdirlash, kundalik hayotini komfortda o‘tkazishlari, ta‘lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Respublika viloyatlari va tuman hududlarida sport ishlarini jonlantirish, uni zamonaviy uslubda boshqarish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilayapti. Biroq, shunga qaramasdan, shu sohada ayrim muammolar mavjudki, ularni bartaraf etishda butun jahon tan olib bo‘lgan-yo‘nalish- sport kouchingi ko‘mak beradi. Shuningdek, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashga mone‘lik qiluvchi ayrim sohaga oid kamchiliklar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish kadrlar tayyorlash masalasining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Chunonchi, respublikadagi pedagogika oliy ta‘lim muassaslari kredit-modul tizimiga o‘tganligi munosabati bilan “Jismoniy madaniyat” ta‘lim yo‘nalishi bakalavriaturasidagi majburiy va tanlov fanlarning o‘quv modullarini o‘qitishda aniq vazifalar va maqsadli ko‘rsatkichlar hanuzgacha sport kouchingi konsepsiyasi doirasida ishlab chiqish;

“Suzish”, “Qishki sport o‘yinlari”, “Og‘ir atletika” kabi o‘quv modullari uchun moddiy-texnika bazasini takomillashtirish (suv havzalari, chang‘i, chana, fristayl sporti uchun anjomlar, totami va boshqalar);

oliy ta‘lim muassasalarida sport kouchingi asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini pedagogik jarayonlarni boshqarishga o‘rgatish texnologiyalarining takomillashtirish;

mahalliychilik aloqalarini bartaraf etish asosida iqtidorli talabalar ichidan sport ustalarini yetishtirishda seleksiyani shaffoflashtirish;

sport zaxirasini shakllantirish sohasida malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish;

oliy ta‘limda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy ta‘lim standartlarini ishlab chiqish. Bularning barchasi amalga oshirilganda, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport kouchingi asosida kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

Binobarin, har bir o‘z hayotida yuqori cho‘qqilarga erishishni, tabiat, tevarak-atrof va borliq bilan uyg‘unlikda bo‘lishni istaydi [1, 36-b.]. yutuqlari unga quvonch va muvaffaqiyat

keltiradi, biroq, har bir kishiyam bir paytning o‘zida ham moliyaviy ham ijtimoiy yutuqlarga erishavermaydi. hayotida uchraydigan to‘siqlarni yengib o‘tishga, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga kouch pedagog va psixologi yordam berishi, muammo yechimini topishga erishishda ko‘mak berishi mumkin. Sport kouchi esa, har bir sportchining hayoti va faoliyati mobaynida mavjud bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tishga, jismoniy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarini rivojlantirishga, muvaffaqiyatsizliklarini esa, osongina hal etishga o‘rgatadi. Shu sababli, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida ham sport kouchiga xos sifatlarni rivojlantirish bugungi kun talabidir.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport kouchingi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida ayon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda kurash, gimnastika, tennis, qilichbozlik, velosport, o‘q otish, dzyudo, yengil atletika, og‘ir atletika, taekvondo, eshkak eshish, shaxmat, futbol, bolalar sporti, voleybol, badiiy gimnastika kabi sport turlari takomillashmoqda. Shu bilan birga, butun jahonda keng ko‘lamda quloch yozayotgan sport kouchingini rivojlantirishga ham ehtiyoj sezilmoqda [2, 516-517-b.].

“Kouch” (“coach”) atamasi sport sohasida XX asrning 60-yillarida vujudga keldi va (“coach”-«trener», “murabbiy”), rahbarlik qilish, sportchilarga ustoz va murabbiylik qilishni bildira boshladi. [3, 76-b.]. Zamonaviy sport jamoalarida guruh menejerlari, rahbarlari bilan birga, kouch maslahatchilari paydo bo‘la boshladi. Tadqiqot doirasida “kouching” atamasini ham tavsiflash joiz [4].

Kouching – sport sohasida murabbiylik, yo‘lboshchilik qilish, tahsil oluvchi va tarbiyalanuvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirish faoliyatidir [2,517-b.].

Muayyan sport turida muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini bilgan holda murabbiy o‘z sportchilarini o‘qitadi va unga hamroh bo‘ladi, u bilan birga jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlarga va musobaqalarga qatnashadi. Ayniqsa, kouch guruh bilan ishlaganda har bir ishtirokchining guruhdagi rolini taqsimlashi, jamoaviy holatda ularni jiplashtirishi, jamoa ichidan yetakchilarni aniqlashi va guruh a‘zolarining o‘zaro psixologik kirishimlilikini ta‘minlashi lozim [5, 23-b.]. Bunda undan psixologik, fiziologik, boshqaruvchanlik ko‘nikmalarga ega bo‘lish lozimligini anglatadi. Shuningdek, sport sohasida rahbar, trenerlik vazifalarini bajarish, biznes sportini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vazifalarni amalga oshirishda sport kouchingi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi «Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6099-sonli Farmoni va 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-son qarorlarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ham bir qator vazifalar belgilab berilgan” [6, 7, 8]. Shu jihatdan olganda, bugungi kunda sport kouchingi talabalarning kelgusi faoliyatida hamda jismoniy chiniqishlarini yuksaltirishda va bu sohada natijaviylilikka erishishda muhim bo‘lib, mutaxassislarni sport klublari, seksiyalari va to‘garaklaridagi faoliyatni tashkil qilishda amaliy xizmat qiladi. Shuningdek, sport va o‘qitish muhitini uyg‘unlikda olib borish; sport to‘garaklari, seksiyalarida shaxslararo munosabatlarni tashkil qilish, tarbiyalanuvchilarda kirishimlilik, jamoaviy moslashuvchanlikka aloqador pedagogik shart-sharoitlarni namoyon etishga yordam beradi [9, 519-b.].

Sport kouchingi asosida yoshlarda qadriyatlar tizimi shakllanadi va ushbu sifatlar shaxsni kasbiy yetuklik sari boshlaydi. Kouching tamoyillari zamirida shaxs rivojlanar ekan, unda o‘zi

to‘g‘risida va egallangan qadriyatlar, bilimlar (metabilimlar) xaqida tasavvurlari kengayadi. Sport kouchingi ta‘lim jarayonida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining metakognitiv omillar, motivatsion bosqichlarga aloqador vazifalarning ta‘minlanishiga yordam beradi [10, 206-b.].

Sport kouchingi bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining jismoniy sifatlari, intellektual va hissiy-emotsional sohasini kasbiy va shaxsiy rivojlantirishning eng yuqori imkoniyatlari bilan mo‘jassamlanadi. Bunda shaxsning oldindan faoliyatini rejalashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi va u strategiya va taktika asosida uzoq va yaqin vaqtda amalga oshirishi lozim bo‘lgan xatti-harakatlarini namoyon etishga kirishadi [10, 206-b.]. “Sport sohasidagi kouch (murabbiy) shaxsni jismoniy chiniqtirishga hamda ta‘lim olishga undovchi, shaxsiy va ijtimoiy hayotida maqsadli faoliyatni tashkil qilishga o‘rgatuvchi, kasbiy va shaxsiy manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlovchi konsultant-maslahatchi sifatida namoyon bo‘ladi” [11]. Bu sifat-o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta‘minlaydi [10, 207-b.].

Sport kouchingi jismoniy tarbiya o‘qituvchisining milliy va umumiy qadriyatlarga ega bo‘lishini, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etishini, oilasiga, urf-odatlariga hurmat hamda ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini, ilm fanning hayoti va dunyo rivojiga ta‘sirini angalay olishini, shuningdek, talabalarga ularni tushuntira olish qobiliyatini rivojlantiradi [12].

Ushbu fikrlar ilmiy muammoni hal qilishning mavjudligi va zarurligini aniqlashga imkon berdi, ya‘ni, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini rivojlantirish komponentlari sifatida uning kognitiv, motivatsion, menejerlik, pragmatik salohiyatini aks ettiruvchi qobiliyatlar rivojlantirilishiga e‘tibor qaratish lozimligi aniqlandi. Shuningdek, shaxsning jismoniy sifatlarini belgilovchi: kuch, egiluvchanlik, chaqqonlik, ziyraklik, tezkorlik kabi texnikaga ega bo‘lish salohiyatini inobatga olishni nazarda tutadi [13, 148-b.].

REFERENCES

1. Sharipova D. Ota-onalar o‘rtasida tibbiy-pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish // Monografiya. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1994. – 127 b.
2. Axmedova S.A. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport kouchingi asosida kasbiy malakalarni rivojlantirish omili // Hozirgi taraqqiyot bosqichida xotin-qizlar sporti: muammolar va istiqbollari: Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2020. – B. 516-520.
3. Axmedova S.A. Sport kouchingi – bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy malakalarni rivojlantirish omili sifatida // Fan sportga ilmiy-nazariy jurnal. – T., 2020. – № 3. – B. 76-79.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – № 1. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2000. – 767 b.
5. Axmedova S.A. Sport kouchingini uni talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish // Uzluksiz ta‘lim ilmiy-uslubiy jurnal. – T., 2020. – № 5. – B. 19-24.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli Farmoni. – Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06/19/5847/3887-son, 09.10.2019 y.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli

- islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-son qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son.
9. Axmedova S.A. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport kouchingi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari // Fan sportga ilmiy-nazariy jurnal. – T., 2020. – № 5. – B. 59-61.
 10. Axmedova S.A. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida sport kouchingi orqali kasbiy malakalarni rivojlantirish // Oliy ta‘lim sifatini takomillashtirishda innovatsion hamkorlikning dolzarb masalalari: Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya materiallari 3-kitob. – T., 2020. – B. 205-207.
 11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ- 3031- sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 23-son, 455-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018 y., 06/18/5447/1269-son; 07.06.2018 y., 06/18/5456/1316-son, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son.
 12. Ibn Sino Abu Ali Tadbiri manzil. – Dushanba: Irfon, 1980. – 420 b.
 13. Akhmedova S. A. Technologies for preparing future physical education teachers for professional activities on the basis of sport coaching // International Journal on Integrated Education. Volume 3, Issue VIII, Avgust 2020. – Page No.147-151.

КОГНИТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗНАНИЙ О МИРЕ ПОСРЕДСТВОМ ЦВЕТООБОЗНАЧЕНИЙ

Базарбаева Альбина Мингалиевна,

Узбекский государственный университет мировых языков PhD, доцент

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10675906>

Аннотация. Анализ концептов не ограничивается рассмотрением их как единицы культуры; также важным является аспект ментальной информации, заключенной в этих концептах, относительно объектов и/или явлений действительности. Когнитивистика подчеркивает тесную связь между языком и человеческой способностью восприятия, что проявляется в организации поступающей информации в соответствии с принципом антропоцентричности. Следовательно, когнитивный подход к анализу цветообозначений направлен на раскрытие особенностей языковой концептуализации цвета.

Ключевые слова: цветовой континуум, концепция, семантика, когнитивно-дискурсивный подход, интеграция.

Согласно когнитивному подходу, язык рассматривается как универсальный когнитивный инструмент, представляющий собой систему символов, которые служат для представления (кодирования) и трансформации информации. Эта система одновременно является объектом, внешним и внутренним для субъекта, созданным независимо от него и подлежащим усвоению в процессе онтогенеза. Такая двойственность языка выделяет его среди других форм когнитивной деятельности [Croft, Cruse 2004: 17-18].

Исследования в этой области “дают ключ к раскрытию человеческой когниции в целом” [Deane 1992: 1], особенно механизмов категоризации и концептуализации.

Когнитивная наука установила тесную взаимосвязь между языком и человеческой способностью восприятия, что проявляется в организации внешней информации в соответствии с принципом ориентации на человека. Таким образом, когнитивный подход к

анализу цветовых терминов направлен на выявление особенностей языкового восприятия цвета.

Категоризация как определяющий механизм отражения действительности.

При изучении цветовых прилагательных важно учитывать, что физиологические процессы цветового восприятия играют значительную, но не единственную роль в представлении о цвете. Процесс категоризации цвета представляет собой гибкий механизм, подверженный воздействию когнитивных факторов; следовательно, акцент в исследовании должен быть смещен в сторону изучения механизмов, связывающих внешний мир с ментальными представлениями человека.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676373>

***Annotatsiya.** Maqolada PISA 2022 natijalari, PISA tadqiqotining keyingi bosqichlarida yuqori natijalarga erishish borasidagi o‘qituvchi va ta’lim tizimi hodimlari uchun muhim vazifalar haqida bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Xalqaro baholash dasturi, PISA, ta’lim, baholash, o‘qish, matematika, tabiiy fanlar, natija.*

***Аннотация.** В статье описаны итоги PISA 2022, важные задачи перед учителями и работниками системы образования для достижения высоких результатов на следующих этапах исследования PISA.*

***Ключевые слова:** Программа международного оценивания, PISA, образование, оценивание, чтение, математика, естественные науки, результат.*

***Abstract.** The article describes the results of PISA 2022, important tasks for teachers and education system employees to achieve high results in the next stages of PISA research.*

***Keywords:** Program for International Assessment, PISA, education, assessment, reading, mathematics, natural sciences, result.*

O‘zbekistonning Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’limdagi muammolarni hal qilish, milliy ta’lim standartlarini xalqaro ta’lim tizimiga moslashtirish va kelgusida ta’lim rivoji uchun zarur strategik vazifalarni belgilab olishda muhim qadam bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 997-sonli qarorida O‘zbekistonning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilangan edi. [1] Ushbu qaror ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Ta’lim inspeksiyasi) bilan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT-OECD) hamda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) o‘rtasida kelishuv hujjatlari imzolaniib, O‘zbekiston Respublikasidagi 180 ta ta’lim muassasalarida PIRLS tadqiqoti, 202 ta maktab ida PISA 2022 dasturi, 2023-yilda TIMSS tadqiqotlari o‘tkazildi va 2024-yilda TALIS tadqiqotida ishtirok etish bo‘yicha keng ko‘lamli tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Ta’limning asosiy tarkibiy qismini o‘quv dasturi, o‘qituvchi va baholash komponentlari tashkil etadi. Bu komponentlar birgalikda rivojlantirilsa o‘quvchining egallayotgan bilim va malakalari ham rivojlanib boradi. Bu borada PISA tadqiqotining asoschisi, IHTT bosh kotibining ta’lim siyosati bo‘yicha maxsus maslahatchisi Andreas Shlyayxer muhim ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tgan edi: “O‘quv dasturi, o‘qituvchi va baholash haqiqatan ham bir-biriga bog‘liq. Agar sizda faqatgina juda yaxshi o‘quv dasturi bo‘lsa, bu shunchaki qog‘oz. O‘quv dasturi sinfda sodir bo‘layotgan voqealar, o‘qituvchilarning mehnati orqali hayotga tatbiq etiladi. Shuningdek, o‘quv dasturida yozilganlarni o‘qituvchilaringiz amalda qo‘llashi uchun ularning qay darajada “qurollangan”ligi juda muhim. Ya’ni o‘qituvchilar sifatisiz o‘quv dasturi siz kutgan natijalarni bermaydi... Baholash ham xuddi shunday. Agar siz o‘qituvchilaringizdan nimanidir talab qilsangiz-u, sinfda nima bo‘layotganini ko‘rish uchun ko‘zingiz va qulog‘ingizni yopib olsangiz, siz kutgan natijaga erishilgan yoki yo‘qligini ko‘ra olmaysiz. Bu shuningdek, o‘quvchilarga yaxshiroq ta’lim olish, o‘qituvchilarga yaxshiroq ta’lim berish va maktablarga jarayonlarni yanada samaraliroq tashkil etishga yordam beradi. Biz hech qachon baholashsiz ta’limda qanday natijaga erishilayotganini bilolmaymiz. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, baholash aslida taraqqiyot manbaidir... Ta’lim sifati hech qachon o‘qituvchi sifatidan oshib ketolmaydi”. [5] Ushbu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tadqiqotlarga o‘quvchilarni kuchli bilim va malakali etib tayyorlashda avvalo o‘qituvchilarning o‘zlarida xalqaro talablarga xos ko‘nikma va malakalarni, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish lozimdir. Bu borada yurtimizda allaqachon maqsadli ishlar boshlab yuborilgan, xususan Respublika ilmiy-metodik markazi tashkil etildi, ta’limni rivojlantirish bo‘yicha “Loyiha ofisi” tashkil etilib, ilmiy-amaliy tajribasi bor va salohiyatli kadrlar to‘plandi. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da xalq ta’limi tizimini uzoq muddatli rivojlanish tizimini asosiy yo‘nalishlarini belgilab berildi, jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga kelib PISA (The programme for international student assessment) dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;
- Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- O‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqichtatbiq etish;
- Xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish va h.k. [2]

2023-yilning 5-dekabr sanasida PISA 2022 dasturining natijalari e’lon qilindi. Tadqiqot ilk marotaba matematik savodxonlik, o‘qish savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik yo‘nalishlarida o‘tkazildi. Unga ko‘ra O‘zbekistonlik bolalar 81 mamlakat orasida matematika bo‘yicha 72-o‘rinni, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi yo‘nalishlarida 80-o‘rinni egalladi.

	Yo‘nalishlar	O‘zbekistonlik o‘quvchilar to‘plagan ball	Tadqiqotda qatnashgan davlatlar ko‘rsatgan o‘rtacha ball
1	Matematik savodxonlik	364	472
2	O‘qish savodxonligi	336	476
3	Tabiiy-ilmiy savodxonlik	355	485

Tadqiqotda jami 81 ta mamlakat ishtirok etdi. Bunda O‘zbekiston kabi Kambodja, Mongoliya, Salvador, Yamayka, Falastin kabi davlatlar birinchi marta ishtirok etdi. Dastlabki natijalar past ekanligi bu ta’lim , ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni rivojlantirish zarurati mavjudligini anglatadi.

PISA xalqaro baholash tadqiqotining ahamiyatli tomoni shundaki, tadqiqot keng qamrovli ma’lumotlarni olishga asoslanganligidir. O‘quvchilarning savodxonliklari, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar, genderlararo farqlar, oziq-ovqat xavfsizligi, maktab hayoti, oila hayoti va ota-onalar bilan bog‘liq jihatlar tadqiqotning muhim qismi hisoblanadi.

Tadqiqot savodxonlikning har bir yo‘nalishida malakani 6 ta darajada aniqlaydi, ulardan ikkinchisi oddiy kundalik muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bazaviy ko‘nikmalar hisoblanadi. Quyidagi jadvalda PISA 2022 tadqiqotida qatnashgan O‘zbekistonlik o‘quvchilarning 3 ta savodxonlik yo‘nalishi bo‘yicha malakalarining natijasi % larda keltirilgan.

Yo‘nalishlar	1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja
Matematik savodxonlik	O‘rtacha 60 % dan ortiq o‘quvchilar	14,4 %	4,2 %	0,7 %
O‘qish Savodxonligi		12,2 %	1,8 %	0,1 %
Tabiiy-ilmiy savodxonlik		16,5 %	2,2 %	0,1 %

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2024-yil 5-fevral sanasida 2024-yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz videoselektorda PISA 2022 natijalariga alohida to‘xtalib o‘tdi. “Matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘tkazilgan 2022-yilgi PISA xalqaro dasturi natijalari sohada qilinadigan ishlar hali ko‘pligini aniq ko‘rsatdi, - dedi davlat rahbari. Videosektor yig‘ilishida prezident tomonidan maktab ta’limidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi: Respublika ilmiy-metodik markazi va Loyiha ofisiga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim vazirliklari bilan birgalikda

- Maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash;
- O‘quvchilar bilimi, tahliliy, tanqidiy va kreativ fikrlashi, muommolarga yechim topib, amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv metodikalarini ishlab chiqish topshirildi. [6]

Ushbu maqola PISA 2022 natijalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2024-yil 5-fevral sanasida 2024-yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishi materiallari asosida tayyorlandi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-sonli farmoni. 29.04.2029.
3. 2. OECD (2023), PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education, PISA, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/53f23881-en>
4. OECD (2023), PISA 2022 Results (Volume II): Learning During – and From – Disruption, PISA, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/a97db61c-en>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/07/schleicher/>
6. Gazeta.uz. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/06/pisa/>

XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASH JARAYONINING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI

Dexqonova Muhipira Ne‘matjonovna

Andijon viloyati Baliqchi tumani 42- maktab fizika fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676304>

***Annotatsiya.** Maqolada o‘qituvchilar uchun o‘quv, ijtimoiy va kasbiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar ta‘lim yo‘nalishini o‘rganish yoritib berilgan. Jahon hamjamiyati uchun ham katta qiziqish uyg‘otayotgan ayrim fanlar bo‘yicha o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish asosida pedagog xodimlarni tayyorlash va ular bilan samarali ishlash tufayli yuqori pedagogik ta‘lim jarayonlariga erishgan mamlakatlar tajribasi tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Ta‘lim, xorijiy tajriba, pedagogik metod, tendensiya, qayta tayyorlash*

So‘nggi yillarda jahonning qator mamlakatlarida ta‘lim tizimining hamma bosqichlarida yuqori malakali pedagog kadrlar tanqisligi kuzatilmoqda. Mamlakatimizda ham malakali kadrlar bo‘shlig‘ini to‘ldirish, jumladan, umumta‘lim maktablarida pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni to‘ldirish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4623-son Qarorida pedagogik qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta‘lim texnologiyalarini joriy qilish kerakligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ushbu mavzu yuzasidan fikrlar yuritilib, bir qancha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Ta‘limda ixtisoslashtirishning ilmiy asoslangan tizimi joriy qilinmaganligi, ta‘lim tarmoqlarida moddiy-texnik va innovatsiya tizimining talab darajasida emasligi, oliy ma‘lumotli professional pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta‘lim muassasalarining malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari bilan integratsion munosabatlaridagi muayyan muammolarining yuzaga kelishi natijasida xalq ta‘limi tizimida ayrim fanlar bo‘yicha o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj qondirilmay qolmoqda.

Yevropa mamlakatlarida maxsus pedagogika oliy ta‘lim muassasalari yo‘q, biroq pedagogika institutlari o‘z ichiga olgan yirik universitetlar faoliyat yuritadi. Yevropa standartlariga ko‘ra, ta‘lim doirasida turli tarmoqlar va kasblar o‘rtasida harakatlanishiga

imkoniyat ko‘plab oliy o‘quv yurtidan keying ta‘lim dasturlari orqali ta‘minlanadi va ular bo‘lajak o‘qituvchiga yetarli darajadagi malaka beradi.

Finlandiyaning o‘qituvchi-pedagoglar tayyorlash tizimi ko‘p mamlakatlar uchun bo‘lib xizmat qiladi. O‘tgan asrning oxirida o‘qituvchilar uchun magistratura darajasi minimal ta‘lim me‘yori deb belgilandi. Bu qaysidir darajada mamlakatdagi o‘qituvchilar hurmatini va ijtimoiy maqomini oshirish uchun muhim hissa qo‘shdi.

Finlandiyada maktab o‘qituvchisi bo‘lish uchun juda qattiq tanlovdan o‘tish zarur: pedagogika mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12 foiz atrofida maktablarga ishga olinadi. Finlandiya ta‘lim tizimining yana bir ijobiy jihati, kichik guruhlarda o‘qitishga ustuvorlik berilishi. Bu shubhasiz, ta‘limning yuqori sifatda bo‘lishiga olib keladi. Mamlakatda maktab ta‘limining muvaffaqiyati maktab o‘quvchilarini qo‘llab quvvatlash tizimi bilan ham bog‘liq.

Xitoy pedagogika ta‘lim hozirda xalqaro darajaga yetib bormoqda. Rossiya, Yaponiya va AQSH tajribasidan kelib chiqib, milliy an‘analarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z tizimi yaratilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda Xitoyda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha tez va jadallashgan. Yo‘naltiruvchi g‘oyalardan biri kasbiy pedagogik kadrlar tayyorlashning iqtisodiyot va umuman jamiyat bilan aloqasini mustahkamlashga, urbanizatsiya va sanoatlashtirishga qaratildi. Mamlakatda pedagogik kadrlar tayyorlash ochiqligini oshirishga intilmoqda: mavjud ta‘lim muassasalari negizida boshqa oliy o‘quv yurtlari ishtirokidagi pedagogik ta‘lim tizimi bosqichma-bosqich shakllanmoqda.

2021-yilda Xitoyda ta‘lim tizimini yanada isloh qilish rejalashtirilgan hamda quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda: uzluksiz ta‘limning mukammal tizimini yaratish, katta sonli aholini mehnat bozoriga tayyorlash uchun yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, ta‘lim va ilmiy-texnik yangiliklar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni shakllantirish, mamlakat tomonidan ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish uchun zarur intellektual qo‘llab-quvvatlash.

Xitoy yoshlari uchun pedagogik oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishning jozibali jihatlaridan biri bepul ta‘lim olishning joriy etilishi bo‘ldi. Bu bepul ta‘lim uchun talabalar OTMni bitirganidan so‘ng qishloq maktablarida ikki yil davomida ishlab berishi kerak va keyin boshlang‘ich yoki o‘rta maktablarda yana o‘n yil ishlashlari lozim. Biroq, bunday qat‘iy sharoitlarning o‘zi o‘qituvchilik kasbini olishga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun yetarli emas. Shuning uchun o‘qituvchilar uchun ijtimoiy imtiyozlar va yuqori ish haqi oshishi doimiy ko‘zda tutilgan.

Angliya va AQSh universitetlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimi ko‘p darajali-bakalavr, magistraturadan iborat. Qozog‘iston va Rossiyada bakalavr, mutaxassis, magistr sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimi shakllangan. Ta‘lim muddati 4 yildan 11 yilgacha belgilangan. Aksariyat o‘qituvchilar ta‘lim sohasida gumanitar fanlar magistri yoki aniq fanlar magistri darajasi bilan universitetlarni bitirib chiqadilar. O‘rta hisobda ma‘lum bir mutaxassislik bo‘yicha magistr darajasini olgan talabalar 4-5 yil davomida o‘qiydi. Hozirgi kunda Angliyadagi davlat maktablarida ta‘limning barcha darajalarida (maktabgacha, boshlang‘ich, shu jumladan tayyorlov va o‘rta ta‘lim sinflarida) dars berish uchun malakali o‘qituvchi maqomiga ega bo‘lish lozim.

O‘zbekistonda ta‘lim tizimidagi islohotlarning navbatdagi bosqichi ilg‘or xorijiy tajriba asosida tor doiradagi mutaxassis-pedagoglarni tayyorlashga o‘tish hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida tayyorlanadigan pedagog kadrlarni har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq ehtiyojlarni aniqlash asosida amalga oshirishni obyektiv zaruratga aylantiradi. I.D.Fruminning fikriga ko‘ra, xorijiy

mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasidan foydalanish yoki pedagogik kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik tizimini rivojlantirishning o‘ziga xos usulini izlash kerak.

Xalq ta'limi tizimida ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish asosida pedagog kadrlar buyurtmasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish asosida tarmoq samaradorligini oshirishda to'planib qolgan yuqoridagi muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fikr mulohazalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026- yillarga mo'ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida
3. Avesto. Asqar Mahkam o‘zbekcha tarjima. – T.:2001. 56-bet

XORIY TAJRIBALARI TAHLILI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TAJRIBANI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH KONTSEPTSIYASI

Davutova Charos

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676296>

***Annotatsiya.** Yangi ijtimoiy-madaniy voqelikda o‘qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish strategiyalari va tushunchalarini aniqlash nazariy va uslubiy xarakterdagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi, bunda innovatsion pedagogik tajribani o‘zlashtirish kelajakdagi o‘qituvchilarni tayyorlash mexanizmi sifatida ko‘rib chiqiladi. Jamiyatning barcha sohalarini innovatsion yangilash, mehnat bozori dinamikasini va u bilan bog‘liq ta'lim xizmatlari bozorini murakkablashtirish va rivojlantirish sharoitida innovatsiyalarni rivojlantirish vakolati mutaxassisning ma'lumoti, uning kasbiy funksiyalarni bajarishga tayyorligidan dalolat beradi. Ushbu tezisdagi xorijiy tajribalari asosida bo‘lajak pedagoglarni innovatsion pedagogika tajribasini rivojlantirishga doir kontseptsiyasiga doir ilmiy tahliliy fikrlar yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** kasbiy tayyorgarlik, innovatsion pedagogik tajriba, kontseptsiya, model, tashkiliy va pedagogik sharoitlar.*

Dinamik o‘zgaruvchan dunyoda jamiyatning rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri pedagogik voqelikni innovatsion o‘zgartirish, to‘plangan innovatsion tajribani o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan yangi turdagi o‘qituvchini tayyorlashga bog‘liq. Hozirgi muammolarni ajratib ko‘rsatishga va ularni hal qilishning innovatsion usullari va vositalarini aniqlashga qodir o‘qituvchi zamonaviy ta'limning asosiy manbasiga aylanadi. Oliy ta'lim tizimida bitiruvchilarning malakasiga qo‘yiladigan talablarni ta'minlash muhim yo‘nalish sifatida ta'kidlangan bo‘lsa, ta'lim sub'ektlarining innovatsion faoliyati ko‘lamini kengaytirish, doimiy innovatsion faoliyat uchun rag‘batlarni kuchaytirish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish zarurligi ta'kidlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirishga tayyorlash zarurati nafaqat ijtimoiy talab, balki ijodiy o‘qituvchilarga muhtoj bo‘lgan umumiy o‘rta ta'lim muassasalarining ehtiyojlari bilan bog‘liq. Innovatsion tajribani o‘zlashtirish zarurati bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zida ham namoyon bo‘ladi, bu ularning ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda va innovatsion pedagogik tajriba, respublikaning muvaffaqiyatli

o‘qituvchilarining mahorat darslari, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va himoya qilish to‘g‘risida ma‘lumot almashishning boshqa shakllarida faol ishtirok etishi bilan tasdiqlanadi [1, 95-b]. O‘qituvchini innovatsion pedagogik tajribani rivojlantirishga tayyorlash uchun barcha darajalarda shakllangan ijtimoiy buyurtma oliy ta‘lim muassasalari va birinchi navbatda oliy pedagogik ta‘lim muassasalari tomonidan uni qondirishning samarali yondashuvlarini qidirishni amalga oshiradi. Biz olib borgan empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning 60% dan ortig‘i innovatsion pedagogik tajribaning mohiyati va uning namoyon bo‘lishi haqidagi bilimlarni tizimlashtirishda yordamga muhtoj. Pedagogika universitetlariga bir qator maktablarni biriktirish, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida ilg‘or pedagogik tajriba g‘oyalari amalga oshirish bo‘yicha xorij tajribasi, pedagogika universitetlarini o‘quv, ilmiy va innovatsion kompleksga aylantirishning zamonaviy tajribasi, respublika universitetlarining umumiy ta‘lim muassasalari bilan integratsiyasini kuchaytirish.

Pedagogika va psixologiyada ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda universitet talabalarini pedagogik tajribani o‘rganishga tayyorlash uning alohida bosqichlariga qisqartiriladi, o‘qituvchining innovatsion pedagogik tajriba haqidagi g‘oyasi asosan malaka oshirish bosqichida shakllanadi. Mavjud diagnostika vositalari ham bunga mo‘ljallangan. Biroq, zamonaviy tendentsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga boshqacha yondashuvni talab qiladi, unda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish, yangi innovatsion mahsulotlarni yaratish va har bir bo‘lajak o‘qituvchining o‘z pedagogik tajribasini boyitish ustunlik qiladi.

Adabiyotlarni ko‘rib chiqish bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik tajribani rivojlantirishga maxsus tayyorlash zarurligi haqidagi fikr yangi emas. Pedagogik tajribaning ta‘lim nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga ta‘sir to‘g‘risidagi hukmlar *I. F. Gerbart, N. I. Pirogov, L. N. Tolstoy, K. D. Ushinskiy* va boshqalarning asarlarida mavjud. Taniqli o‘qituvchilar *P. P. Blonskiy, A. S. Makarenko, M. M. Pist, V. A. Suxomlinskiy* va boshqalar o‘qituvchini pedagogik tajribani o‘rganishga tayyorlashni ko‘rib chiqadilar [3, 145-b].

Metodologiya va usullar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik tajribani rivojlantirishga tayyorlashning nazariy va uslubiy asoslari quyidagilardan iborat:

- bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning genezisi;
- tayyorgarlikning tarixiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy tendentsiyalar;
- falsafiy-antropologik, sinergetik, praksiologik, atrof-muhit va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning asosiy qoidalari.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning genezisi turli tarixiy davrlarda ta‘limni rivojlantirishga qo‘yiladigan talablar asosida (*jamiyatning malakaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan tortib, amaliy va transformatsion kompetensiyaga ega bo‘lgan yangi turdagi o‘qituvchini shakllantirish uchun muhit yaratishgacha*) uch bosqichni ajratish bilan ochib beriladi.

Umuman olganda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish tendentsiyalarini tahlil qilish va xususan innovatsion pedagogik tajribani o‘zlashtirishga tayyorgarlik ko‘rish kelajakdagi o‘qituvchilarni *falsafiy antropologik, sinergetik, praksiologik, atrof-muhit* va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning asosiy qoidalariga asoslanib, gumanistik paradigmada innovatsion pedagogik tajribani o‘zlashtirishga tayyorlashni ko‘rib chiqishga imkon berdi. Ushbu yondashuvlarning etakchi g‘oyalari kelajakdagi o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik tajribani rivojlantirishga tayyorlashni bo‘lajak o‘qituvchining muhim kuchlari yangilanadigan, uning butun yaxlitligida inson sifatida shakllanadigan o‘quv jarayonini tashkil

etish usuli sifatida ko‘rib chiqishga qaratilgan. Amaldagi yondashuvlarning asosiy qoidalari kelajakdagi o‘qituvchilar uchun atrofdagi voqelikni o‘zgartirishga intilish, shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning yangi darajalariga chiqishga tayyorlik, pedagogik innovatsiyalarga qiymat munosabati va pedagogik prognozlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan [4, 61-b].

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion pedagogik tajribaning ta‘lim salohiyatidan foydalanish amaldagi tayyorgarlikning dolzarb holatini qo‘llab-quvvatlaydi va uni rivojlantirish strategiyasini amalga oshiradi. Ushbu strategiya bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion shaxsini shakllantirish, uning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini rivojlantirish uchun xususiyatlarini ochadi. Uslubiy darajada o‘qitishning uslubiy yo‘nalishlari, innovatsion pedagogik tajribaning mohiyati ilmiy hamjamiyat va pedagogik jamoatchilik tomonidan me‘yoriy jihatdan tasdiqlangan pedagogik jamoaning (o‘qituvchining) tubdan yangi ta‘lim va tarbiyaviy ta‘limotlar, tushunchalar, paradigmalarni izlash, shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha innovatsion faoliyati natijasi sifatida belgilanadi, ularni izchil va to‘liq amalga oshirishda uzoq muddatli, barqaror muvaffaqiyatni ta‘minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik tajribani rivojlantirishga tayyorlashni baholash mezonlari tayyorgarlikning tarkibiy qismlariga qisqartiriladi:

- **shaxsiy** (*fikrlash, motivlar, shaxsiyat xususiyatlari*);
- **kognitiv** (*bilim*);
- **operatsion** (*ko‘nikmalar*).

Amaliy darajada bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik tajribani rivojlantirishga tayyorlashning tashkiliy va pedagogik shartlari tasvirlangan:

- innovatsion ta‘lim muhitining asosiy resurslaridan kompleks foydalanish;
- ilmiy uslubiy qo‘llab-quvvatlash;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishini diagnostik qo‘llab-quvvatlash [2, 23-b].

Innovatsion ta‘lim muhitining asosiy resurslaridan kompleks foydalanish innovatsion ta‘lim muhiti bloklarining (*infratuzilma, texnologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash*) bashoratli model tarkibiy qismlariga muvofiqligini o‘z ichiga oladi, tayyorgarlikning barcha bosqichlarida innovatsion ta‘lim muhiti resurslaridan foydalanish bo‘yicha faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish ta‘lim texnologiyalari va usullari kompleksini amalga oshirish.

Umuman olganda, innovatsion pedagogik tajriba va uni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish darajasi haqidagi bilimlar hajmi bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z pedagogik tajribasini tashkil etadi. U innovatsiyalarning samaradorligi va intensivligini belgilaydi. Shunday qilib, ichki monitoring jarayonida aniqlangan bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik tajriba va ularning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish darajasi to‘g‘risida yetarli darajada yuqori darajadagi bilimlari o‘qituvchini innovatsion pedagogik tajribani rivojlantirishga maxsus tayyorlash zarurligini tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. Глузман Н.А., Горбунова Н.В. Профессионализм педагога: успешность и карьера: монография. — М.: ИНФРА-М, 2019. — 314 с.
2. Кузьмина Н.В., Софьина В.Н. Акмеологическая концепция развития профессиональной компетентности в вузе: монография. — СПб.: Центр стратег. исслед., 2012. — 200 с.

3. Митина Л.М. Психология личностно-профессионального развития субъектов образования: монография. — М.; СПб.: Нестор-историк, 2014. — 376 с.
4. Игнатьева Г.А., Тулупова О.В. Педагогический опыт в универсуме инновационной культуры. [Электронный ресурс] URL: <http://www.niro.nnov.ru/?id=672&&download=1>. (дата обращения 27.07.2022).
5. Король А.Д. Педагогика диалога: от методологии к методам обучения: монография. — 2-е изд. — Гродно: Гродн. гос. ун-т, 2016. — 195 с.

ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

¹Jabborova Onaxon Mannapovna, ²To‘rayeva Gulhayo Temirqul qizi

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasini mudiri
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, ²Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676272>

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalar asosida metodikalarni rivojlantirib borish alohida belgilangan [1, 4-b.]. Shu sababli bu o‘rinda ilg‘or tajribalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda ana shu masalaning tahliliga diqqatingizni tortamiz.

Ilg‘or xorijiy tajribalar mazmuni. Bugungi kunda butundunyo mamlakatlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ishlab chiqilgan o‘qitishning o‘ziga xos tajribalari amal qilmoqda [2,116-b.]. Shu jihatdan bunday ilg‘or xorijiy tajribalarning quyidagi xususiyatlariga e‘tibor berish va ularni idrok etish kutilgan samarani beradi:

a) Germaniya, Fransiya, Finlandiya va Norvegiya mamlakatlarida o‘qitishning keng shakllariga asoslangan xorijiy tajriba mavjud, bunday shakllar rang-barangligi bilan diqqatni tortadi;

b) Buyuk Britaniya, AQSH va Kanada mamlakatlaridan o‘qitishning individual xorijiy tajribalariga amal qilib kelinmoqda, bunda ta‘lim beruvchilarining individual metodikasi va tajribalari ustuvor bilinadi;

v) Xitoy, Indoneziya va Singapur kabi mamlakatlarda o‘qitishning amaliyotga yo‘naltirilgan ilg‘or tajribalari ishlab chiqilib, u asosda ta‘lim oluvchilarning ko‘nikmalarini tarkib toptirilmogda.

E‘tibor berilsa, xorijiy ilg‘or tajribalarda o‘qitishning bir necha modellari amal qilmoqda. Shu sababli mazkur ilg‘or tajribalardan foydalanish uchun o‘ziga xos metodikaga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Oliy pedagogik ta‘lim jarayonida majburiy va tanlov shakllaridagi mutaxassislik o‘quv fanlarida bunday xorijiy tajribalarni asoslari bilan tushuntirib borish yo‘lga qo‘yilgan. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur masalalar bo‘yicha nazariy va metodik bilimlarni o‘zlashtirmogda. Ayni paytda, oliy pedagogik ta‘lim jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalardan boshlang‘ich ta‘lim jarayonida foydalanish masalalari bo‘yicha o‘quv materiallari, metodik tavsiyalar va amaliy ko‘rsatmalar majmuini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish lozim. Bunda ayniqsa, Ustoz-shogird an‘anasidan foydalangan holda har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muayyan mamlakat ilg‘or tajribalari bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini

tarkib toptirishga e‘tibor berish muhim samarani beradi. Chunki bu an‘ana pedagogik tajribamizda sinovlardan o‘tganligi va amaliyotga yo‘naltirilganligi bilan diqqatni tortadi.

Ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish metodikasi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi. Bunda bizning yondashuvimizga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagilarga tayanish muhim hisoblanadi:

a) AQSH, Buyuk Britaniya va Kanada tajribalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik va axborotlar bilan ishlash kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish;

b) Germaniya, Fransiya va Norvegiya tajribalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining gumanitar fanlar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

v) Singapur va Avstraliya mamlakatlari tajribalari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

g) Xitoy, Indoneziya kabi mamlakatlarning tajribalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining amaliy faoliyat kompetensiyasini rivojlantirish.

Bunday yondashuv oliy pedagogik ta‘lim jarayonida xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanishning o‘ziga xos tizimlarini tarkib toptiradi. Aks holda, xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanish bo‘yicha murakkablik yuzaga keladi.

Ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish bo‘yicha mexanizmlar ko‘lamini kengaytirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muayyan davlat xorijiy tajribasi bo‘yicha taqdimotlarini tashkil qilish va taqdimotlarni kurs miqyosida muhokama qilib borish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi muayyan mamlakatning ilg‘or ta‘lim tajribalarini mustaqil ta‘lim vositasida o‘rganishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bularning barchasi ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlarining ko‘lamini kengaytiradi.

Ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlari. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish uchun muhim mexanizmlarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday mexanizmlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

a) oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Talabalar Akademiyasi” tuzilmasi mexanizmidan foydalanish;

b) oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanish bo‘yicha maxsus to‘garaklar imkoniyatlaridan foydalanish;

v) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini muayyan mamlakatning ilg‘or tajribalarini o‘rganishga yo‘naltirish;

g) oliy pedagogik ta‘lim jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish bo‘yicha keng ko‘lamli treninglar imkoniyatlaridan foydalanish;

d) ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanishning metodik me‘yoriy asoslarini ishlab chiqish.

Bunday yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilg‘or xorijiy tajribalar asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim amaliy imkoniyatlarni beradi [3, 92-b.]. Shu ma‘noda kezi kelganda ta‘kidlab o‘tish lozimki, kasbiy kompetensiya tushunchasida quyidagilar birlamchi bilinadi: o‘qitish yoki tarbiya jarayonining muayyan asoslarini o‘zlashtirish; o‘qitish va tarbiya jarayonining eng qulay va maqbul metodikalarini o‘zlashtirish; o‘qitish va tarbiya jarayonining xorijiy mamlakatlar tajribalaridan o‘tgan texnologiyalarini o‘zlashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘z kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish kompetensiyasini tarkib toptirish.

Bunday yondashuv xorijiy ilg‘or tajribalarni nimalar asosida o‘zlashtirish jarayonini belgilab beradi va natijada ulardan foydalanishning amaliy imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanishda milliy ta‘lim qonuniyatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir xorijiy tajribalarda shu mamlakatlarning milliy yondashuvlari o‘z ifodasini topgan. Shu ma‘noda mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘lim metodikasini innovatsion rivojlantirishning kasbiy kompetensiyaviy amaliy yondashuvlarini tizimli ravishda ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shunday qilib ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ishida tajribalarning mazmunini chuqur o‘zlashtirish, undan foydalanish mexanizmlari bilan qurollanish va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z qiziqishlari vositasida muayyan mamlakatning xorijiy tajribalarini o‘rganishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan boshlang‘ich ta‘lim metodikasini innovatsion takomillashtirishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faolligiga erishiladi.

REFERENCES

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009
3. Jabborova O., Ochilov F. Bolalar pedagogikasi. – Toshkent, 2022

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

Jabborova Onaxon Mannapovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasini mudiri
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676385>

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining ijrosi jarayonida asosiy masalalardan biri boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish hisoblandi [1, 4-b.]. Bunda oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamonaviy kasbiy kompetensiyalar bilan qurollantirish muhim o‘rin tutib, unda ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslanish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bunday ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish uchun amaldagi pedagogik strategiyalarning *asosiy tamoyillarini* belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e‘tiboringizni tortamiz.

Pedagogik strategiyalarning akademik mustaqillik tamoyili. Oliy pedagogik ta‘lim jarayonida Yevropa, Osiyo va Amerika qit‘alari ta‘lim tizimining ilg‘or tajribalaridan foydalangan holda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu jihatdan bunda foydalaniladigan pedagogik strategiyalarning akademik mustaqillik tamoyilini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, oliy pedagogik ta‘lim muassasalari pedagogik kadrlar tayyorlaydigan ta‘lim yo‘nalishlarini, o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarini mustaqil belgilash ishini amalga oshiradi [2, 2-b.]. Buning natijasida qaysi ta‘lim turlari va yo‘nalishlari bo‘yicha pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lsa, shu yo‘nalishlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ko‘lamini kengaytirishga erishiladi. Bundan tashqari, o‘quv jarayonini oliy ta‘lim muassasasi imkoniyatlari

va sharoitlariga mos ravishda tashkil qilishda ham innovatsion yondashuvlarga asoslaniladi. Shuningdek, oliy pedagogik ta‘lim muassasalarining pedagogik strategiyalarining akademik mustaqillik tamoyiliga asoslangan holda pedagogik ilmiy-tadqiqotchilikning eng dolzarb muammolarini tadqiq etish yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur akademik mustaqillik tamoyilidan oqilona foydalanish maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri ishlab chiqilib, tajribadan o‘tkazilganligi va bu tizim kutilgan amaliy samarani berayotganligini eslatib o‘tish joiz [3, 12-36 b.]. Demak, ilg‘or tajribalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning akademik mustaqilligi tamoyiliga tayanish kutilgan samarani beradi.

Pedagogik strategiyalarning zamonaviy o‘quv dasturlari tamoyili. Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun pedagogik strategiyalarning zamonaviy o‘quv dasturlari tamoyiliga tayanish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Unga ko‘ra, G‘arbiy Yevropa davlatlari va Osiyoning Xitoy, Indoneziya davlatlari hamda Amerikaning AQSH, Kanada davlatlari ta‘lim tizimidagi muntazam ravishda zamonaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tajribalaridan foydalanish mumkin [4, 6-25 b.]. Shuning uchun zamonaviy o‘quv dasturlari deganda amaldagi o‘quv dasturlari har bir o‘quv yili boshida takomillashtiriladi va jamiyat ehtiyojlariga mos yangi o‘quv dasturlari yaratilib amaliyotga tadbiiq etiladi. Pedagogik strategiyalarning mazkur zamonaviy o‘quv dasturlari tamoyillari oliy pedagogik ta‘lim jarayonini innovatsion talablariga mos rivojlantirib borish imkonini beradi. Keyingi paytlarda, yetakchi oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida zamonaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayoni kengayganligini eslatib o‘tish lozim. Ayni paytda, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida pedagogik strategiyalarning zamonaviy o‘quv dasturlari tamoyilidan foydalanilganda, muayyan davlatning o‘quv dasturlarini bevosita qabul qilishdan tiyilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarida shu davlatning milliy yondashuvlari va milliy ruhlari o‘z aksini topgandir. Bizning oliy pedagogik ta‘lim tizimimiz ham milliy qadriyatlarga asoslanishini eslatib o‘tgan holda, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanishda ularning zamonaviy dasturlariga milliy yondashuvlarimizni singdirish va shundan keyin amaliyotga joriy etish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Aynan mazkur zamonaviy o‘quv dasturlari tamoyillari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilim, kasbiy ko‘nikma va kasbiy malakalarining uyg‘unligi bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirishda tayanch vazifalardan birini o‘taydi. Misol uchun, Buyuk Britaniya olimlari tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etilgan 4 K modeli bo‘yicha kommunikatsiya, kollabaratsiya, kreativlik va kretisizm ko‘nikmalarini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tarkib toptirish uchun mamlakatimiz ta‘lim tizimining milliy muhiti va sharoitidan kelib chiqib munosabatda bo‘lish taqozo etiladi. Chunki bu ko‘nikmalar asosiy e‘tiborni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida amaliy ko‘nikmalarni ustuvor shakllantirishga asoslanadi. Aksincha, bizning milliy ta‘lim tizimimizda nazariy va kasbiy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘un holda shakllantirish tamoyili mavjud. Demak, ilg‘or xorijiy tajribalarning pedagogik strategiyalaridan foydalangan holda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy o‘quv dasturlari tamoyiliga qat‘iy asoslanish taqozo etiladi.

Pedagogik strategiyalarning malakalik tamoyili. Ilg‘or xorijiy tajribalarda akademik mustaqillikka ega bo‘lgan va zamonaviy o‘quv dasturlarini amaliyotga tadbiiq etgan ta‘lim jarayonida asosiy masalalardan biri malakalik tamoyilidir. Unga ko‘ra, oliy pedagogik ta‘lim jarayonini amalga oshiradigan professor-o‘qituvchilar va personal mutaxassislar o‘z sohasi bo‘yicha yuksak malakaga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun o‘z sohasi bo‘yicha muhim

yangiliklarga boy ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirgan bo‘lishi, ta‘limni tashkil qilishda o‘zining individual metodikaga tayanishi, ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini zamonaviy texnik imkoniyatlarga tayangan holda xolis baholab borishi va ta‘lim oluvchilarning kasbiy rivojlanishini kuzatib borishi taqozo etiladi. Aynan bu talablarga javob beradigan oliy pedagogik ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va yordamchi personal o‘zining faoliyatida samaradorlikka erishadi hamda bundan oliy pedagogik ta‘lim muassasasi manfaatdor bo‘lishini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli mamlakatimiz oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida ilg‘or xorijiy tajribalar pedagogik strategiyalaridan foydalanishda malakalik tamoyiliga qat‘iy amal qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun mamlakatimiz oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida shakllangan 4+2 ta‘lim tizimini texnologik rivojlantirib borish, “Talabalar Akademiyasi” tuzilmasi vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘z qiziqishlariga asosan muayyan xorijiy mamlakatning boshlang‘ich ta‘lim tajribalarini o‘rganishga yo‘naltirish va nomli stipendiyalar bilan o‘qiyotgan talabalarning ta‘lim va tarbiya tajribalarini ularning taqdimotlari vositasida ommalashtirish muhim amaliy samaralarni beradi. Buning natijasida professor-o‘qituvchilar va yordamchi personal mutaxassislarning ta‘lim va tarbiya berish kompetensiyalari takomillashib, uning vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini individual tajriba asosida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Demak, ilg‘or xorijiy tajribalar pedagogik strategiyalaridan foydalanishning malakalik tamoyili bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini individual yondashuvlar asosida rivojlantirib borish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shunday qilib ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda amaldagi pedagogik strategiyalardan foydalanishda muhim metodikaga tayanish taqozo etiladi. Bunday pedagogik strategiyalarning akademik mustaqillik, zamonaviy o‘quv dasturlarga ega bo‘lish va oliy pedagogik ta‘lim jarayonini amalga oshirishda malakalik tamoyillariga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda asosiy maqsad bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini nazariy va amaliy jihatdan uyg‘un rivojlantirishdir.

REFERENCES

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyounet.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.ziyounet.uz
3. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001
4. Jabborova O. M. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2023

INTEGRAKTIV YONDASHUV ASOSIDA 1-SINF O‘QUVCHILARINI MAKTABDAGI O‘QUV-TARBIYA MUHITIGA MOSLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Jumanova Ozoda Eshpo‘lat qizi

O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676393>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1-sinf o‘quvchilarini maktabdagi o‘quv-tarbiya muhitiga samarali moslashtirishdagi muammolar va uning yechimlari, moslashishda bolaning individual xususiyatlarining ahamiyati haqida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim, integrativ yondashuv, ota-ona, moslashish, uzviylik va uzluksizlik.

Bolaning rivojlanishi turli bosqichlardagi jarayonlar ichida kechadi. Bir muhitdan boshqa bir muhitga o‘tish va buning natijasida uning atrofidagi jamoaning ham o‘zgarishi bolaning rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Hali atrofni to‘la qonli idrok etmagan bola uchun yangi muhitga adaptatsiya jarayonida ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. 1-sinf o‘quvchilarining maktabdagi o‘quv-tarbiya muhitiga moslashishini o‘rganishdan oldin, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish talab etiladi. Bolani yangi muhitga moslashtirishda uning boshqa muhitlari bilan integrativ yondashuvni olib borish muhim hisoblanadi.

1-sinf o‘quvchilarining maktabga oson moslashishi uchun MTT-maktab va oila-maktab hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Hamkorlik quyidagi vazifalarni hal etishga qaratiladi: maktab, MTT, mahalla va oila o‘rtasida hamkorlik yo‘nalishlarini o‘rnatish; bolaning maktabga bo‘lgan emotsional ijobiy munosabatini rivojlantirish va mustahkamlash; bo‘lajak o‘quvchining boshlang‘ich ta‘limga muvaffaqiyatli moslashishi uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish.

Bolani boshlang‘ich ta‘limga tayyorlash, uni to‘laqonli rivojlanishi bu uzoq vaqt va e‘tibor talab etiladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorida sohaning rivojlantirishga oid davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, Vazirlar Makamasining 132-sonli qarorida 2020-2025-yillarda bolalarni to‘liq kunlik, qisqa muddatli, bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlariga jalb etish orqali maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olishni 100%ga yetkazish nazarda tutilgan. Davlat MTT mavjud bo‘lmagan hududlarda maktabgacha ta‘limga bo‘lgan ehtiyojni qoplash, mazkur hududlarda bolalarni boshlang‘ich ta‘limga tayyorlov guruhlarini tashkil etish maqsadida mazkur hududlarda mavjud nodavlat MTTlari hamda mobil va modulli guruhlarni jarayonga jalb etish faoliyatning samarali tashkil etilishiga yordam beradi.

Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida tashkil etiladigan boshlang‘ich ta‘limga tayyorlov guruhlariga, bolalar mazkur maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ustaviga muvofiq qabul qilinadi. Bolaning qonuniy vakili bilan tuzilgan shartnoma bolani nodavlat MTT va davlat MTTlariga biriktirilgan mobil guruhlarga qabul qilish uchun asos hisoblanadi. Maktabgacha ta‘limning hammabopligini, shu jumladan, respublikaning olis tumanlarida hamda maktabgacha ta‘limning standart shakllarini kengaytirish qiyin bo‘lgan joylarda ta‘minlash yangi muqobil shakllarni – oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, mobil va modulli guruhlarni joriy etishni taqozo qildi. Bolalarni maktabga moslashtirish. Birinchi sinf o‘quvchilarining moslashishdagi qiyinchiliklari turlichadir. Yaqinda maktabgacha ta‘lim tashkilotiga borgan, o‘yinlarda ko‘p vaqt o‘tkazgan bolani boshqa yo‘l bilan qayta qurish kerak bo‘ladi. O‘qituvchini tinglashni, uy vazifasini bajarishni, sinfdoshlar bilan umumiy til topishni o‘rganishi kerak bo‘ladi. Bu, mohiyatan, bolaning maktabga moslashishi.

Ta‘lim muassasasidagi 1-sinf haqli ravishda eng qiyin davr deb hisoblanadi. Ilgari bolalar bog‘chasiga bormagan bolalar uchun bu ayniqsa qiyin kechadi. Biz ijtimoiylashuv qiyinchiliklariga ham duch kelishimiz kerak. Bolaning moslashuvining muvaffaqiyati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Avvalo, bu kichik o‘quvchining temperamenti, shuningdek, oilaviy munosabatlar modeli bilan baholanadi. Agar bola diqqat markazida bo‘lishni yaxshi ko‘rsa, yolg‘izlikka toqat qilmasa, u tezda yangi jamoaga o‘rganib qoladi. Bundan tashqari, agar oilada uyg‘unlik va o‘zaro hurmat hukmron bo‘lsa, moslashish minimal yo‘qotishlar bilan amalga

oshiriladi. Biroq, yangi jamoa va o‘qituvchilarga ko‘nikishning o‘zi yetarli emas. Bolalarning maktabga moslashishi, birinchi navbatda, qiziqishning mavjudligiga bog‘liq. Bola maktabga majbur bo‘lgani uchun emas, balki bu yerda juda ko‘p yangi va foydali ma‘lumotlarni o‘rganishi mumkin bo‘lgani uchun borishini tushunishi kerak. Bolani qiziqtirish tarbiyachi, ota-onalar va o‘qituvchilarning vazifasidir.

1-sinf o‘quvchilari uchun birinchi chorak oxirida kichik so‘rov o‘tkazilishi mumkin. Savollarga berilgan javoblar sinfdagi har bir bolaning moslashuv darajasini aniqlashga yordam beradi.

Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin: 1) Sizga maktab yoqadimi? 2) Agar sizga ertaga hamma darsga kelmasligini aytishsa, maktabga kelasizmi? 3) Sinfdoshlaringizni yoqtirasizmi? 4) Siz bilan boshqa o‘qituvchi ishlashini xohlaysizmi? 5) Darslar bekor qilinganda quvonasizmi? 6) Siz ko‘p sinfdoshlaringiz bilan do‘stmisiz? 7) Tanaffuslar uzoqroq, darslar esa, qisqaroq bo‘lishini hohlaysizmi? Savollarga javob olish uchun bolalardan so‘rovnomanini uyda, ota-onalari bilan birga to‘ldirishlari mumkin. Sinfdan moslashish darajasini aniqlab, o‘qituvchi keyingi ish strategiyasini tanlaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, birinchi chorakning oxiriga kelib, bolalarning 90 foizi allaqachon yangi sharoitlarga to‘liq moslashadi. Bolalarning maktabga moslashuvi to‘g‘ri ketayotganini qanday tushunish mumkin? Quyidagi belgilar buni ko‘rsatishi mumkin: bola maktabdan quvnoq keladi, kunning taassurotlari haqida gapiradi; o‘quvchining yangi do‘stlari bor; uy vazifasi ko‘z yoshlari va stresssiz amalga oshiriladi; bola bir necha sabablarga ko‘ra uyda qolishi va maktabga bormasligi kerak bo‘lsa, xafa bo‘ladi; bola yaxshi uxlaydi, tezda uxlab qoladi, ertalab muammosiz uyg‘onadi. Ro‘yxatda keltirilgan belgilarning kamida bir nechtasi mavjudligi bolaning maktabda moslashuvi normal ekanligini ko‘rsatadi. Maktab bolaga jismoniy va intellektual kuchni safarbar qilishni talab qiladigan juda ko‘p yangi vazifalarni qo‘yadi. Birinchi sinf o‘quvchisi o‘z hayotida paydo bo‘lgan yangi sharoitlarga moslashishi kerak. Har bir bola uchun moslashish davri individual ravishda sodir bo‘ladi. Uning muddati uch haftadan olti oygacha o‘zgarishi mumkin. Ayniqsa, birinchi sinf o‘quvchisini maktab hayotiga moslashtirish paytida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish muhimdir. Avvalo, bir jihatga e‘tibor qaratish, ya‘ni o‘qituvchilar va ota-onalarga bolalarni maktabga moslashtirish jarayonida yordam berish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshiriladi: birinchi oy mashg‘ulot va tanaffuslarda bolaning xatti-harakatlaridagi xususiyatlarni aniqlash; aqliy rivojlanish darajasi, ya‘ni yosh normasidan ortda qolgan bolalarni aniqlash; o‘quvchining hissiy holati barqarorligi, salbiy yoki ijobiy his-tuyg‘ulari mavjudligi va qo‘rquvga olib keladigan omillarni tahlil qilish. Eng keng tarqalgan diagnostika usuli – bu kuzatuv. Ko‘pincha, tanlab kuzatish qo‘llaniladi.

Bu quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: bolalar faoliyatini tahlil qilish; daftarlarni ko‘rish; og‘zaki javoblarni tinglash; mavjud shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish.

Baholashni o‘tkazish uchun turli bolalarning diagnostik ma‘lumotlarini solishtirish noto‘g‘ri. Shuni yodda tutish kerakki, bolaning rivojlanish dinamikasi uning individual ko‘rsatkichlari asosida belgilanadi. Olingan ma‘lumotlarni ta‘lim mahoratining individual xususiyatlari, bolaning tabiatiga muvofiq tuzatish kerak.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. – T., 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 132-son “Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi 66-son qarori. – T., 2022.
3. “Ilm yo‘li” variativ Davlat o‘quv dasturi. – T., 2020.
4. Fayzullayev Sh.N. Bolalarni maktab tayyorlash metodikasi: Darslik. – Samarqand: SamDU, 2022. – 196 b.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – DARS SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Ziyayeva Shoiraxon Raximberdiyevna

Farg‘ona viloyati Quva tumani 6-umumta‘lim maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676401>

Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta‘lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak.

Sh.M.Mirziyoyev

***Annotatsiya.** ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma‘lumot, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan darslarda samarali foydalanish va ularning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “pedagogik texnologiya”, “texnologiya”, “ta‘limiy texnologiya”, “Har kim har kimga o‘rgatadi”, “Sinkveyn”, “Tarmoqlash”(Klaster).*

***Аннотация.** данная статья содержит информацию о современных педагогических технологиях, эффективном использовании современных педагогических технологий на занятиях и их значении.*

***Ключевые слова:** “педагогическая технология”, “технология”, “образовательная технология”, “Каждый всех учит”, “Синквэй”, “Сеть” (Кластер).*

***Abstract.** In this article, we discuss modern pedagogical technology, effective use of modern pedagogical technology in lessons, and conclusions.*

***Keywords:** “pedagogical technology”, “technology”, “educational technology”, “Everyone teaches everyone”, “Sinkway”, “Networking”(Cluster)*

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta‘lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib yetishlariga bog‘liq. Bu mas‘uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o‘qituvchisi, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan o‘z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o‘z darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi. Ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta‘lim sifat samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib

chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati benihoya kattadir.

Innovatsiya (ingl. innovation-kiritilgan yangilik, ixtiro)-yangilanishni, o‘zgarishni amalda joriy etish jarayoni va faoliyati. Ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va doiralarda qo‘llanishini aks ettiradi.

Amaliyotda “pedagogik texnologiya”, “ta’limiy texnologiya” va “ta’lim berish texnologiyasi” kabi atamalarning keng qo‘llanishi kuzatilmoqda. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, nima ajratib turishini tushunish uchun, “texnologiya” va uning kelib chiquvchilari: “texnologik jarayon”, “texnologik harakat”, “texnologik xarita”, “texnologik tartib” tushunchalarining mohiyatini aniqlash lozim.

“Texnologiya” yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “techne”-mahorat, san‘at, malaka va “logos”-so‘z, ta’limot ma’nolarini anglatadi.

Ta’lim texnologiyasi:

mavjud sharoit va belgilangan vaqtda muayyan ta’limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta’minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo‘l hamda o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisi (ta’lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);

bu yuzaga kelgan ta’limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta’lim berish texnologiyasining amaliy jarayoni) tartibi.

“Pedagogik texnologiya”-pedagogik hodisa va ta’limni texnologiyalashtirish sohasida qo‘llaniladigan tushuncha.

Pedagogik texnologiyaning YUNESKO tomonidan ma’qullangan ta’rifi:

Pedagogik texnologiya-bu ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, o‘qitish, bilish va o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish hamda qo‘llashning tizimli metodidir.

“Ta’limiy texnologiya”-“ta’lim olish shakllarini maqbullashtirishni o‘z vazifalari deb biluvchi, ya’ni butun ta’lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda bilimlarni o‘zlashtirish, ularning o‘zaro harakatini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli”(YUNESKO).

Pedagogik tizim-shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo‘naltirilgan va pedagogik ta’sir ko‘rsatishni ko‘zlagan, o‘zaro bog‘liq vosita, usul va jarayonlarning yig‘indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir (V.P. Bepalko bo‘yicha).

Fanni o‘qitish uslubiyati –ta’lim tizimida mazkur o‘quv fanining ahamiyati va o‘rnini belgilaydi, uning vazifalarini, o‘qitish mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo‘yicha qo‘llanilayotgan usul, shakl hamda o‘qitish vositalari bayonini o‘z ichiga oladi.

Fanni o‘qitish uslubiyatidan farqli texnologiya:

“Qanday o‘qitish kerak?” degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo‘shimcha bo‘lgan natijaviy “Qanday o‘qitish va o‘quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?” degan savolga javob beradi;

aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma’lum natijaga yo‘nalgan aniq pedagogik g‘oyaga loyihalangani;

o‘z natijalarini qayta ishlab chiqarishi bilan farqlanadi;

ta‘lim oluvchilar va ta‘lim beruvchiga yo‘natirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o‘laroq, ta‘lim olishda ular o‘z faoliyatlari hisobiga yutuq ta‘minlanishiga yo‘naltiriladi.

Berilgan mavzu bo‘yicha ta‘lim texnologiyasining tuzilishi va mazmuni:

Aniq fan va mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning ta‘lim modeli jadval ko‘rinishida bo‘lib, unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

dastlabki ma‘lumotlar: o‘quv mavzusi, vaqti, o‘quvchilar soni;

shakl (yangi ma‘lumot beruvchi dars, o‘tilganlarni takrorlovchi dars, umumlashtiruvchi dars) va ko‘rinishi (masalan, muammoli, mustaqil ishlash va boshq.), o‘quv mashg‘uloti rejasi (tuzilishi), uning maqsadi, o‘quv faoliyatidan ko‘zlanayotgan natijalar, o‘qituvchining vazifalari;

tanlangan ta‘lim modeli: usullar, shakllar va o‘qitish vositalari;

ta‘lim berish sharoiti: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo‘ljallangan xonalar; monitoring va baholashga asoslangan qaytar aloqaning yo‘l va vositalari: nazorat turi (yozma va og‘zaki), nazorat shakli (tezkor so‘rov, test olish, taqdimot, o‘quv topshiriqlari va boshq.)

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularda bilimga ishtiyoq va qiziqishni yuksaltiradi, bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma hamda malakalarini shakllantiradi.

Ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Masalan:

“Har kim har kimga o‘rgatadi” metodi

“Har kim har kimga o‘rgatadi” metodi o‘quvchilarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma‘lum bilimlarni o‘zlashtirgich, o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o‘quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o‘quvchi ma‘lum vaqt davomida iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.

Qo‘llanilishi:

- o‘quvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otish;
- axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolishga intilishni kuchaytirish;
- eshitgan axborotni boshqalarga ham yetkazish.

Afzalligi:

- o‘z fikrini qisqa va lo‘nda bayon etish;
- tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirish;
- fanga yoki mavzuga bo‘lgan qiziqish uyg‘otish.

“Sinkveyn” metodi

Bu metoddan foydalanganda o‘qituvchi mavzuga mos bitta so‘z tanlaydi va Sinkveyn tuziladi. Bunda keying so‘zlar ma‘nosiga qarab savol yoziladi va oxirida gap hosil qilinadi.

Quruvchilar so‘ziga sinkveyn tuzishadi. Buning uchun ushbu gapda ishtirok etgan so‘zlarga savollar beriladi:

1. Quruvchilar – kimlar?

2. Ko‘rkam va chiroyli – qanday?

3. Bino-nima?

4. Qurdilar-nima qildilar?

5. Quruvchilar ko‘rkam va chiroyli bino qurdilar.

Har bir so‘z izohlanadi, savol beriladi, quruvchilik kasbi haqida ma‘lumot beriladi.

“Tarmoqlash”(Klaster).

Qo‘llanishi :

Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar, fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta‘lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

“Klaster” metodini o‘tkazish texnologiyasi.

1-qadam

1-bosqich. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizni sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang.

2-qadam

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma‘lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilgunga qadar davom ettiring.

3-qadam

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

Masalan: “O‘zbekiston” so‘zini quyidagicha tarmoqlarga ajratish mumkin:



Tarmoqlash g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o‘ylangan shakl bo‘lib, undan ta‘lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, e‘tiboringizga havola etilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni erkin fikr, mustaqil harakat, o‘zaro hamjihatlik, fikrlarga tayanib bahs-munozaraga kirishish, bilganlarini tahlil etish, jo‘shqinlik va faol harakat qilish orqali ko‘zlagan natijani qo‘lga kiritish mumkinligi e‘tirof etiladi. Bu kabi yutuqlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali erishish mumkin.

REFERENCES

1. Boymurodova G., Sattorova X va boshqalar. - T.: “Sharq”, 2014.
2. Masharipova U., Umarova M., Baynazarova D., Nabiyeva M. Ona tili. 1-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. - T.: “Sharq”, 2014.
3. Ishmuhammedov R., Abduqdirov A., Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste‘dod. 2008.

XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TALABALAR IJTIMOY-KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK MEXANIZMLARI

Ibroximov Maqsadjon Axmedovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676405>

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional ta'lim yo'nalishi talabalarining bo'lajak yosh mutaxassislarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda hamkorlik tashkilotlar faoliyatining zaruriyati, ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanishi, shaxsning o'z-o'zini anglashi, qadriyatini e'zozlashi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati va harakatlariga oid fikrlar yoritildi.

Kalit so'zlar: Bo'lajak o'qituvchi, talabalar, yosh mutaxassislar, professional ta'lim, ijtimoiy kompetentlik, rivojlantirish, oshirish, sifatli ta'lim.

Yoshlar ijtimoiy jamiyatda mustaqil ravishda ijtimoiy-kasbiy kompetentlik darajasidagi bilimga ega bo'lishi zarur. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining ishlab chiqilishi va keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” [1; 120-b.] tamoyilining ilgari surilgani, keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari belgilangani muhim ahamiyatga ega. Xususan, fuqarolarning ijtimoiy madaniy huquqlarini ta'minlashning noyob tizimi yaratildi. Talaba-yoshlar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni bevosita Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga bog'liq.

Jahon ta'lim tizimidagi islohotlar hamda pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv va texnologiyalarni keng joriy etish mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilgan. Ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar samarasi o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati va uning rivojlanganligi darajasiga bevosita bog'liq. Ta'lim barcha uchun [4], Ming yillik rivojlanish maqsadlari, Jahon ta'lim forumi va Lissabon Konvensiyalari ijtimoiy kompetentli yondashuv asosida malakali kadrlar tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Bolonya jarayoni doirasida o'qitishning faol va interfaol shakllari variativligini ta'minlash, kompetentlik asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish muammosini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Professional ta'lim yo'nalishi talabalari orasida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy pedagogik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talabalarni o'qitish bilan shug'ullanish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, kasbga yo'naltirish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi. Bundan tashqari, nodavlat notijorat tashkilotlar talaba-yoshlarni davlat organlari bilan va aksincha, davlatni yoshlar bilan hamkorlik qilishining o'ziga xos “laboratoriyasi” vazifasini bajaradi. Aynan shu laboratoriyalarda talabalar davlat organlari bilan hamkorligining yangi qirralari, innovatsion g'oyalari va mexanizmlari aprobatsiyadan o'tkaziladi. Talaba-yoshlarning tashabbuslari hamisha “innovatsiyalar”ning ajralmas qismi bo'lgan. Ularning tashabbuslarisiz fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat rivojlanmaydi.

Demokratik va iqtisodiy rivojlangan davlatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarning innovatsion g'oyalari rag'batlantirilgan va shunday darajaga erishilgan. Nodavlat notijorat tashkilotlar hamisha “Ijtimoiy innovatsiyalar manbasi” rolini o'ynab kelgan. Masalan,

Germaniyada ta‘lim, tarbiya, sport, dam olish, madaniyat va san‘atni rivojlantirishda davlat boshqaruvi organlariga ijtimoiy loyihalarni qanday qilib ishlab chiqish hamda amalga oshirish kerakligi to‘g‘risidagi takliflarni kiritgan. Takliflar, keyinchalik davlat va munitsipalitet siyosatining bir qismiga aylangan. Nodavlat notijorat tashkilotlar qadr-qimmatining oshishi aholini ish bilan ta‘minlash, aholining kam ta‘minlangan, yordamga muhtoj qatlamini himoya qilish, ularga bepul ijtimoiy xizmat ko‘rsatishidir. Brandenburg Texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlash instituti boshqaruvi raisi Edgar Kloze ham O‘zbekistonning fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasidagi sa‘y-harakatlariga yuqori baho berdi. Uning fikricha, bu mamlakat barqaror rivojlanishidagi ko‘pgina muhim vazifalar hayotga samarali joriy qilinishiga ko‘maklashadi hamda yoshlarning “innovatsion g‘oyalari”dan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi [3, 160-b.]. E.Kloze aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadigan mamlakatda fuqarolik faolligi rag‘batlantirilayotgani katta e‘tiborga sazovor ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

Innovatsion g‘oyalari va loyihalarni yaratish hamda hayotga joriy qilishda davlat, xususi va nodavlat sektorlari muhim rol o‘ynaydi. “Albatta, bunday ulkan yutug‘imizning asosiy omili va mezonini odamlarimizning ong, tafakkuri, dunyoqarashi tobora o‘zgarib, ularning siyosiy faolligi, huquqiy madaniyati, fuqarolik saviyasi va pozitsiyasi shakllanib borayotganidadir” [2, 210-b.]. Aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizmini davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi borasida bir qator ishlar bajarilgan. Natijada, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning butun tizimi tengchilik va boqimandalik kayfiyatining barham topishi va yangi innovatsion g‘oyalarni aholi ongida rivojlantirishga qaratilgan.

Bu borada quyidagi mexanizmlarni amalga oshirish zarur:

- aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash, ularga sifatli ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda barcha sektor vakillari ishtirokini ta‘minlash;
- nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion g‘oyalarni hayotga joriy qilishda davlat mablag‘lari bilan bir qatorda, mehnat jamoalari, jamoat, xayriya tashkilotlari va jamg‘armalarining mablag‘larini ham keng jalb etishni yo‘lga qo‘yish;
- aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining, qolaversa, nodavlat notijorat tashkilotlarining ham huquqlari imkon qadar kengaytirilishi hamda mas‘uliyati oshirilishi lozim;
- nodavlat notijorat tashkilotlar mintaqalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar sohasida qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratish;
- mahalliy davlat organlari ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishda nodavlat notijorat tashkilotlarni erkin faoliyat olib borishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish;
- ijtimoiy siyosatni to‘g‘ri olib borish, uni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan talabalarimizni har sohadagi faolligi, yangicha tafakkur tarzi va tadbirkorligini o‘stirish masalalariga alohida e‘tibor qaratish;
- nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining natijasi – talabalarni o‘z kuch va qobiliyatlari to‘la-to‘kis faollashuvini ta‘minlashga qodir bo‘lgan kuchli innovatsion mexanizmlarini vujudga keltirish;
- talabalarining iqtisodiy erkinligi, qobiliyati, o‘zi va oilasining kelajagi uchun iqtisodiy javobgarligi bilan uyg‘unlashadigan shart-sharoitlarni yaratish hisobiga shakllantirish;

– talabalarining o‘z aqliy salohiyati, qobiliyati va mehnatiga tayanib, yangicha faoliyat olib borishi – farovonlikning eng barqaror manbai bo‘lib qoladigan munosabatni vujudga keltirishda nodavlat notijorat tashkilotlar etakchi kuch vazifasini bajarishi lozim;

– nodavlat notijorat tashkilotlarning jamiyatda boqimandachilik kayfiyatiga qarshi kurashdagi ishtirokini kengaytirish kunning dolzarb masalasiga aylanishi lozim.

Xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini hamkorlik mexanizmlari asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Talabalarga ijtimoiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirishda hamkorlik mexanizmlari asosida yondoshuv ijtimoiy fikrlashi, mustaqilligi, faollik hamda ijodkorliklarining rivojlanib borishi, dunyoqarashlarining kengayib borishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bo‘lajak mutaxassislarining zamonaviy sharoitlarga tez moslashishi hamda sifatli ta‘lim asosida o‘quv-bilish motivlarini egallashlariga intilishini talab etadi. Bu esa bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarini mustaqil izlanishga, kasbiy muammolarni mustaqil echish bilan birga ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Ibroximov M.A. Professional ta‘lim yo‘nalishi talabalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Namangan: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022 yil. – 120 b.
2. Maxmudov R.M. Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining nazariyasi va amaliyoti. O‘zbekiston Resp. Ichki ishlar vazirligi Akad. – Toshkent: Fan, 2010. – 210 b.
3. Murtozayeva M.M. Ta‘lim jarayonini ijtimoiy pedagogik loyihalashtirishda innovatsion usullar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017. – 160 b.
4. <https://www.worldbank.org/en/top>. Education for All. Last Updated: Aug 04, 2014.

BIOLOGIYANI O‘QITISHDA KLASTER METODINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Imomova Madina

O‘ZPFITI 1-bosqich tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676417>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘quvchilarning badiiy estetik mazmundagi o‘quv materiallarini oson o‘zlashtirish layoqatini rivojlantirish uchun mavjud o‘quv materiallarini sxemalash bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Klaster, o‘quv materiallari, axborotlarni sxemalash, chizmalar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘limni yangi zamonaviy va sifat jihatdan yangilash, ta‘lim muassasalarining zamonaviy, yangi modellarini shakllanishi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligiga bog‘liq.*

«O‘quv materialli – o‘zida muayyan o‘quv faniga oid o‘quv ma‘lumotlari, bilimlar, tushunchalar, axborotlarni mujassamlashtirgan didaktik birlikni ifodalovchi tushuncha» bo‘lib, o‘quvchilarga tizimli tarzda taqdim etiladi. O‘quv materiallarini qabul qilish o‘quvchining aqliy-hissiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Uni o‘rganish, chuqur idrok qilish orqali o‘quvchilarning hissiy olami boyib, bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladilar. Bunda biz mavzularni oson o‘zlashtirishi uchun klaster metodidan foydalanish tafsifiya etamiz bu eslab qolishni oshiradi.

Buning uchun o‘quv materiallari maqsadga muvofiq tarzda tanlanishi va klasterlash lozim. Matn ko‘rinishidagi mavzulardagi axborotlarni eslab qolishga qiynalganda klaster metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.. Bunday o‘quv materiallarida sohaga oid bilimlar ajratiladi va chuqurlashtiriladi. “Klaster” o‘tkazish texnologiyasini tushuntirish zaro‘r yani quyidagicha:

1-bosqich. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizni sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga etmaguncha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma‘lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tyg‘ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

Bunday o‘quv materiallarida dalillar, hodisalar, ob‘ektlar aniq ifodalanadi. Ular o‘quvchilar tomonidan dalillar va hodisalar jamlanmasi sifatida idrok etiladi. Bunday hodisalar diqqatni tarkiblashtirish metodi orqali strukturalashtiriladi.

Bunda barcha ob‘ektlar yoki dalillar o‘quvchi ongini boyitishga ko‘maklashadi.

Biologiya darslarida ayni bir vaqtning o‘zida ichki hamda tashqi tayanch materiallardan foydalanish mumkin: - ular: chizmalar, tayanch so‘zlar yoki chizmalar shaklidagi ifodalar; chizmalar, diagrammalar, jadvallar, kabilar. O‘quvchilarning diqqatini jamlashga xizmat qiladigan tayanch Ta‘lim va innovasion tadqiqotlar o‘quv materiallarining qat‘iy tartibi uni o‘zlashtirish mexanizmlarini muvofiqlashtiradi. Bunda tayanch holatlar klaster metodidan foydalanishda yordamchi manba sifatida xizmat qiladi. O‘quv materiallari mazmunini tanlash va tizimlashtirish asosida o‘quv materialining barcha qismlarini mantiqiy izchillikda joylashtirish va o‘quvchining oson qabul qilishi uchun qulaylashtirish imkoniyati vujudga keladi. Mazkur materiallar tizimlilik prinsipi asosida joylashtiriladi. Uning yordamida o‘quv materialining tarkibiy qismi: dalillar, hodisalar muayyan darajada tartiblashtiriladi. Bunday jadvallar, rasmlar, chizmalar ular orasidagi munosabat va aloqadorlikni ifodalaydi. Chunki tayanch nuqtani topish uchun qo‘shimcha va ikkinchi darajali o‘quv axborotlarining qulay sxema tarzida vujudga keladi. Tayanch manba ko‘magida fikrlash asosida badiiy matn tushunish oson kechadi. Mazkur vazifani echish uchun biologiyadagi mavzularning mazmundagi o‘quv materiallarini klaster metodi texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Klaster metodi o‘quv materialini dastlabki holatda badiiy-obrazli ifodalash imkonini beradi. Bilimlarni taqdim etishning barcha tiplari, modellari ixcham tarzda berilib, o‘quvchilarning ma‘lumotlarni oson qabul qilishlariga ko‘maklashadi. Zarur hollarda o‘quvchi matn boshqa matn bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘ta muarakkab pedagogik jarayon bo‘lib, o‘quvchilarni bosqichma-bosqich qulayroq o‘rganish faoliyatga moslashtirish talab etiladi. Matn shaklidagi axborotni mazmundagi o‘quv materialini modelini yaratish bu texnologik sxema tuzish, guruhlash, chizmalar shakliga keltirish, bog‘lanishli holatlarni yaratish kabi usullar yordamida amalga oshiriladi. Bunda quyidagilarga tayanish talab etiladi: - katta hajmli o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilar qiynaladilar; - muayyan tizim asosida ixcham joylashtirilgan o‘quv materiallarini o‘quvchilar osongina eslab qoladilar. - o‘quv materialini tarkibida samarali tayanch qismlarni ajratish uni oson qabul qilish imkonini beradi. Bu o‘quv materiallarini oson qabul qilish jarayonida o‘quvchilarning uni obrazli idrok etishlarini ta‘minlaydi. Tayanch tushunchalarni ixchamlashtirish o‘zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda o‘quv materiallarini tizimlashtirish va sxemalashda

o‘quvchilarning diqqatini boshqarish, klaster metodlari yordamida uni rejalashtirishni ta‘minlash lozim. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning axborotlarini oson qabul qilish layoqatlarini rivojlantirish, ularni yaratuvchanlikka undash imkonini beradi. Ularda bilish usullaridan foydalanish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Aqliy imkoniyatlarga tayangan holda o‘quv materiallarini o‘zlashtirish ko‘nikmasi shakllanadi. O‘quvchilarda matn kurinishdagi o‘quv materiallarini oson qabul qilish tajribasi, bilish mayllarining imkon qadar to‘liq namoyon bo‘lishi o‘quv topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarish omili bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 31-dekabr 1059-sonli qarori.
2. ISSN 2181-1709 (P) 272 Education and innovative research 2021 y. №5 (2021 йил №5)

ILG‘OR TAJRIBALAR RIVOJLANGAN TA‘LIM TIZIMIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH MASALASI

Kobilova Surayyo

Andiron shahar 5-umumta‘lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676432>

***Annotatsiya.** Ushbu maqola ilg‘or tajribalar rivoj topib kelayotgan bugungi kundagi ta‘lim tizimida boshlang‘ich bilimni beruvchi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlarni e‘tirof etadi. Shuningdek, mazkur jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy kompetensiyalarning mavjud bo‘lishining ahamiyatini ham aytib o‘tadi.*

***Kalit so‘z:** boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, ilg‘or tajriba, innovatsion jarayonlar, pedagogika, pedagogika tajriba nazariyasi.*

Ma‘lumki, bugungi kundagi jadal taraqqiyotning ijobiy ta‘sirlari hamda jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta‘lim tizimining ham chetda qolmasligini belgilamoqda. Zamonaviy ta‘limni isloh qilish shartlaridan biri pedagogikadagi innovatsion jarayonlar bo‘lib, uning nazariy va uslubiy asosi ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va tahlil qilish sanali kelgan. Ilg‘or pedagogik tajriba muammosining dolzarbligi va ahamiyati uning ilmiy rivojlanishini tahlil qilish, ushbu muammoning nazariyasi va tarixining rivojlanishini ochib berish zarurligini ilgari suradi, bu esa innovatsion jarayonlarning hozirgi holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O‘tgan asrda ham ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va uni tarqatish masalasi ko‘pgina mintaqadagi ta‘lim amaliyotining yangi o‘rganilmagan qirralarini ko‘rsatish imkoniyatini ifodalagan. Mazkur holat ayni davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Buni bugungi kunning ta‘lim tizimidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish borasida olib borilayotgan turli ko‘rinishdagi amaliy ishlar timsolida ko‘rish mumkin. Birgina pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro pedagogik oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘llanilayotgan mobillik almashinuv dasturi misol bo‘la oladi.

Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish g‘oyalari mutlaqo yangi emas, faqat pedagogika taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xosdir. Ilg‘or pedagogik tajriba u yoki bu darajada o‘qituvchilik amaliyotida doimo mavjud bo‘lgan. Pedagogikaning rivojlanishi bilan pedagogik yangiliklarni

yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etishga qiziqishning ortishi tendensiyasi kuzatildi, bu esa keyinchalik ilg‘or pedagogik tajriba nazariyasining rivojlanishiga olib keldi.

Pedagogik tajriba o‘z davrining o‘ziga xos xususiyatlarini ham olib boradi. Vaqt olib kelgan farqlar bilan bir qatorda, o‘qituvchilar tajribasini har doim umumiylik bilan kuzatish mumkin: yuqori darajadagi kasbiy bilim, shaxsiy fazilatlar, ijodkorlik, yuqori ish samaradorligi, o‘zlarining to‘plangan tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish zarurati.

Mazkur sanalganlar natijasida aytish mumkinki, ilg‘or tajribalar o‘z rivojini topgan ayni davr ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda bir qator muhim jihatlarga yoki qoidalarga amal qilish darkor. Negaki, amal qilinishi joiz bo‘lgan talablar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyat jarayonlarida impravizatsion harakatni amalga oshirishlarida ham ko‘mak beradi.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatni boshlaganlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘zaro kollobrativ aloqani yo‘lga qo‘yishlarida yoki buning asosida mazmunli dars jarayonlarini tashkil qilishida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, o‘quvchilarni ham dars jarayonlariga jalb etish uchun turli innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘lishlari uchun zamin bo‘ladi. Bu bilan o‘quvchilarning har birini dars jarayonlaridagi faol ishtirokini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilg‘or zamonaviy tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonlarida qo‘llash uchun kompetentlikni oshirish uchun juda katta yordam beradi.

REFERENCES

1. Dilshoda Jalilova. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qizmlarining mazmun-mohiyati. «O‘ZBEKISTONDAILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIOBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil 30-noyabr. 839-842-betlar. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7377842>)
2. Dilshoda Jalilova Ural qizi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirish masalasining ahamiyati. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O‘QITISHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK JIHLTLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. 2023-yil 2-iyun (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993607>) .
3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного под-
хода в образовании. М., 2004.
4. Jalilova D. Ta‘lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim - tarag'givot povdevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami / / Toshkent, 2023-yil 20-aprel. 282-286-betlar.
5. Zulfiya Khojjeva. THE ROLE OF CO-CREATION IN PREPARING FUTURE TEACHERS FOR EFFECTIVE COLLABORATIVE WORK. International Journal of Pedagogics. 2022.
6. https://vt.me/jalilova_dilshoda_2292
7. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI STEAM TA’LIMIGA TAYYORLASHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676438>

Annotatsiya. Xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni STEAM ta’limiga kontekstida tayyorlashning konseptual yo‘nalishlari haqida umumiy ma’lumot beradi. STEAM ta’limi ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi ta’limga yaxlit yondashuv sifatida tobora muhim ahamiyat va muammolarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Xorijiy tajribalar, STEAM ta’limi, fanlar integratsiyasi, ta’limdagi texnologiyalar, muhandislik va dizayn, san’at va ijodkorlik, matematika, tanqidiy fikrlash, muammoli fikrlash, pedagogik amaliyot.

XXI asr texnologik taraqqiyot va globallashtirish tarqalishining o‘ziga xos davriga aylandi, bu o‘tgan o‘n yilliklardagi voqealardan ustun keldi. Dunyo bo‘ylab ta’limni rejalashtiruvchilar o‘zlar borayotgan iqtisodiy raqobat sharoitida keyingi avlod o‘quvchilarining texnologik savodli bo‘lishlari va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarga qiziqish bildirishlari uchun harakat qilishadi. “*Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*”ning sakkizinchi bandida mamlakatda sifatli ta’limga erishish vazifalari belgilangan. So‘nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda o‘zlar kelayotgan avlodning sog‘lom va har tomonlama yetuk bo‘lib o‘sishiga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’lim-tarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish bo‘yicha “*O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida*” qarori qabul qilindi. Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘zlar kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “*Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*”gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (*The Programme for International Student Assessment*) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadida, O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, ta’lim oluvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llabquvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida qabul qilingan edi. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ham ta’kidlab o‘tildi: «...maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklama va fanlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur». Innovatsion o‘quv jarayoniga o‘tish, zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda ta’limning yangi usullarini o‘rganish, **STEAM**

pedagogikasi asoslarini o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish, yangi kasbiy kompetensiyalar kabi masalalar ko‘tarildi. Ta‘lim sohasiga yangi fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan texnologiya, muhandislik, matematika kabi akademik va sanoat fanlarining to‘liq to‘plamini anglatadi va bunday kadrlarsiz innovatsiyalarni rivojlantirish mumkin emas.

Dunyo mamlakatlari **STEAM** ta‘limini o‘qitishga ixtisoslashmoqda. Butun jahonda **STEAM** ta‘limi muammolarning yechim sifatida ko‘rilmoqda. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda ham ushbu fanlarni o‘qitishga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Xususan, ta‘lim jarayonida o‘quvchi yoshidan kelib chiqib, tarixiy, ijtimoiy, ilmiy va texnik mavzularda erkin gapira olishi, matnlarni o‘qishi, tushunishi va tuzishi zarur. Bu ularga hayotda duch keladigan vaziyatlarni, maktabda kasblarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik ko‘nikmalari va tushunchalarini o‘zlashtirishga, so‘ngra ulardan samarali foydalanishga imkon beradi. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-2026 yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida Maktab o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchilik kasbining nufuzi va pedagog kadrlar sifatini oshirish, zamonaviy talablar asosida darsliklar va o‘quv majmualarini takomillashtirish, xalqaro standartlarga javob beradigan maktab ta‘lim muassasalarining zamonaviy modellarini takomillashtirish.

Xorijiy tajribalar Finlyandiya ko‘pincha ta‘lim, shu jumladan STEAM ta‘limi bo‘yicha jahon yetakchisi sifatida tilga olinadi. Finlyandiya ta‘lim tizimi STEAM ta‘limining muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga urg‘u beradi. singapur innovatsiyalar va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish uchun STEAM ta‘limiga katta sarmoya kiritdi.

Mamlakatda tabiiy fanlar va matematika ta‘limiga katta e‘tibor qaratilmoqda va uning talabalari xalqaro imtihonlarda doimiy ravishda yaxshi natijalarga erishmoqda. Janubiy Koreya o‘zining yuqori sifatli ta‘lim tizimi bilan mashhur, ayniqsa fan va texnologiya. Mamlakat o‘z o‘quv dasturida STEM fanlariga katta e‘tibor beradi va ko‘plab muvaffaqiyatli innovatorlar va tadbirkorlarni yetishtirdi. Estoniya raqamli ta‘lim sohasida kashshof bo‘lib, ta‘lim tizimining barcha jabhalariga texnologiyani integratsiyalashgan.

Mamlakatda kompyuter fanlari va dasturlashga katta e‘tibor qaratilgan va uning talabalari texnologiya sanoatidagi martaba uchun yaxshi tayyorlangan. Avstraliya o‘z talabalarini kelajakdagi mehnat bozoriga tayyorlash uchun STEAM ta‘limiga sarmoya kiritmoqda. Mamlakat maktablarda STEM fanlarini ilgari surish bo‘yicha tashabbuslarni amalga oshirdi va o‘quvchilarga real ta‘lim imkoniyatlarini taqdim etish uchun sanoat bilan hamkorlik qildi.

Umuman olganda, bu mamlakatlar o‘z talabalari tez o‘zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlash uchun STEAM ta‘limiga sarmoya kiritish muhimligini ko‘rsatdi.

Texnologik taraqqiyot va fanlararo muammolar bilan tavsiflangan davrda ta‘lim sohasi talabalarni kelajakdagi ishchi kuchining talablariga tayyorlash uchun doimo moslashmoqda.

Bugungi kunda ta‘limning eng mashhur paradigmatlaridan biri bu STEAM ta‘limi bo‘lib, u fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematikani yagona ta‘lim tizimiga birlashtiradi. STEAM butun dunyo bo‘ylab maktablarda kuchayib borayotgani sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash juda muhim. Ushbu maqola bo‘lajak STEAM o‘qituvchilarini tayyorlashning konseptual yo‘nalishlarini ko‘rib chiqadi va asosiy strategiyalar va fikrlarni ko‘rib chiqadi.

STEAM ta‘limi o‘quvchilarga kashf qilish, tajriba o‘tkazish va yaratish imkonini beruvchi amaliy o‘rganish tajribasiga asoslangan. Bo‘lajak o‘qituvchilar so‘rovga asoslangan o‘quv faoliyatini, loyihaga asoslangan baholashni va o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilish ssenariylariga jalb qiluvchi makerga yo‘naltirilgan loyihalarni ishlab chiqish uchun o‘qitilishi kerak. Raqamli asrda texnologiya STEAM ta‘limida innovatsiyalar uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv natijalarini yaxshilash va STEAM fanlarida mazmunli o‘rganishni osonlashtirish uchun raqamli vositalar, simulyatsiyalar, kodlash platformalari va ta‘lim dasturlarini qo‘llash bo‘yicha treningga muhtoj.

STEAM ta‘limi barcha talabalarni kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlashga qaratilganligi sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda tenglik va inklyuziya ustuvor bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga STEAM ta‘limining yangi tendensiyalari, pedagogik innovatsiyalar va ilg‘or tajribalardan xabardor bo‘lishlari uchun doimiy malaka oshirish zarur. O‘quv dasturlari professor-o‘qituvchilarning faoliyati davomida o‘sishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun doimiy o‘rganish, hamkorlik va mulohaza yuritish uchun imkoniyatlar yaratishi kerak.

Natijada STEAM ta‘limidagi yangi tendensiyalar, pedagogik innovatsiyalar va ilg‘or tajribalardan xabardor bo‘lish orqali o‘qituvchilar doimiy ravishda o‘z mahoratlarini oshirishlari va talabalarining ta‘lim natijalarini yaxshilashlari mumkin.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish STEAM-ga yo‘naltirilgan o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari o‘qituvchilarning faoliyati davomida o‘sishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun doimiy kasbiy rivojlanish muhimligini ta’kidlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar doimiy o‘rganish imkoniyatlari, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va o‘z o‘qitish amaliyoti haqida fikr yuritish imkoniyatiga ega.

Xulosa, bo‘lajak o‘qituvchilarni STEAM ta‘limi bo‘yicha o‘qitish ko‘p qirrali vazifa bo‘lib, u fanlararo pedagogika, tajriba asosida o‘rganish, texnologiya integratsiyasi, ijodkorlikni rivojlantirish, tenglik va kasbiy rivojlanishni o‘z ichiga olgan yaxlit yondashuvni talab qiladi.

Ushbu konseptual yo‘nalishlarni qabul qilish orqali ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarga o‘quvchilarni XXI asrning qiyinchiliklari va imkoniyatlariga samarali tayyorlash, innovatsion fikrlovchi, muammolarni hal qiluvchi va umrbod ta‘lim oluvchilar avlodini yaratish imkoniyatini berishi mumkin.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori, 08.05.2019 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son farmoni, 29.04.2019 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 997-son qarori, 08.12.2018 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134-son Farmoni, 11.05.2022 yil.
6. Kuchkinov AY Boshlangich sinf oquvchilarini tabiatni e‘zozlash ruhida tarbiyalash //Oqituvchilar uchun metodik qollanma–T.;, “Fan va texnologiya. — 2012. — T. 88.
7. Kuchkinov A. Yu. Technologies of Interdisciplinary Approach in the Development of Eco–Steam Educational Competencies of Future Teachers. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE>

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

L.M.Qaraxonova

O‘zPFITI, “Tabiiy fanlarni o‘qitish texnologiyalari” bo‘limi mudiri,

p.f.f.d. (PhD) katta ilmiy xodim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676444>

Tadqiqot qaerdan boshlanadi? Tadqiqot o‘zi nima? Nega unga insoniyat qiziqadi? Yangilik nega insonni o‘ziga jalb etadi? Ajablanarlisi shundaki, inson yashar ekan, uni o‘rab turgan atrofdagi dunyoni tabiiy va muammolari yechimini kutayotgan borliq sifatida qabul qiladi. Shunday ekan, baribir savol tug‘iladi: "Nima uchun bu shunday va yoki boshqacha emas?", "Buni sababi nimada?" yoki "Uning ortida nima bor?" degan savollar insonni izlanishga, qidirishga, o‘qishga tadqiq etishga undaydi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Tadqiq uchun izlanishlar boshlanar ekan o‘z-o‘zidan yangilik sari yo‘lni ko‘rish mumkin. Mana bu - izlanishning boshlanishi, o‘rganishning boshlanishi... Bevosita nafaqat katta yoshli insonlarda balki bolaning izlanish va tadqiqiga bo‘lgan ehtiyoji ham biologik jihatdan paydo bo‘ladi. Yangi tajribalarga so‘nmas tashnalik, qiziquvchanlik, doimiy kuzatish va tajriba o‘tkazish istagi, dunyo haqida mustaqil ravishda yangi ma‘lumotlarni izlash, topish – an‘anaviy ravishda bolalar xatti-harakatlarining eng muhim xususiyatlari biri hisoblanadi.

Tadqiqot, qidiruv faoliyati bolaning tabiiy holati bo‘lib, u dunyoni bilishga mo‘ljallangan bo‘lib, bola uni bilishni xohlaydi. Aynan shu ichki tadqiqotga intilish tegishli xulq-atvorni yillar davomida shakllantirib boradi va pirovardida bolaning aqliy rivojlanishining o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayoni sifatida ilk bolalik davridanoq shakllanib borishiga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining eng muhim vazifalaridan biri darsda va darsdan tashqari ta‘lim shakllarida o‘quvchini tadqiqotchilikka yo‘naltirishga mo‘ljallangan ta‘limiy muhitni muhitni yarata olish va bunda bolaning izlanish xulq-atvorining xususiyatlarini namoyon etishga yo‘naltirishdan iborat. Tadqiq qilish xulq-atvori bolaning dunyoni tushunishining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik psixologiya va pedagogikada - "tadqiqiy o‘rganish" nomli maxsus atama mavjud bo‘lib, uning mazmuni bu bolaning atrof-muhit va borliqni mustaqil ravishda o‘rganishga bo‘lgan tabiiy istagi, hohishi va bunga xizmat qiluvchi bilimlar majmuasini to‘g‘ri yo‘naltira bilishga ta‘limiy yondashuv desak mubolag‘a qilmaymiz.

Ilmiy tadqiqotchilikka yo‘naltirishning maqsadi:

1. O‘quvchilarni o‘rganishni rejalashtirilgan ilmiy faoliyatga jalb qilish; yozma natijalarni olishga o‘rgatish, yoza bilish layoqatini qobiliyatini layoqatga aylantirish (ilmiy maqola yozish, ilmiy konferensiyada chiqishga o‘rgatish va ma‘ruza qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va h.k.).

2. O‘quvchilarga zamonaviy axborotlashgan muhitda faoliyatga kirishish qobiliyatini o‘rgatish (Ommaviy axborot vositalarida ta‘limiy maqsadlardagi ilmiy tadqiqotlarni kuzatib borishga, yangiliklar, tadqiqotlar bilan bog‘liq manbalarni o‘rganishga yo‘naltirish).

3. O‘quvchilarning zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish.

4. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, loyihalash va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish, to‘plangan bilimlarini ijtimoiy mavqeini oshirish asnosida ulardagi tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish.

5. O‘quvchining mustaqil tadqiqotga yo‘nalganlik faoliyati jarayonida kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun adekvat fikrlash turlarini rivojlantirish.

6. Muammoni hal qilishda kompleks yondashuvni rivojlantirishga ko‘maklashish.

Tadqiqotchilikka yo‘naltirilgan ta‘limning asosiy maqsadi o‘quvchining insoniyat madaniyatining har qanday sohasida mustaqil, ijodiy o‘zlashtirish va yangi faoliyat usullarini qayta qurish qobiliyatini shakllantirish va ulardagi tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishdir.

Tadqiqotchilik yo‘nalganlik faoliyatining vazifalari:

1. O‘quvchilarni tadqiqotchilik ko‘nikmasining nazariy asoslari bilan tanishtirish.
2. O‘quvchilarni turli axborot manbalari bilan ishlashga o‘rgatish.
3. O‘quvchilarni shaxsiy kompyuterlardan amaliy tadqiqotlarni tadqiq qilishda foydalanish imkoniyatlari bilan tanishtirish.
4. Omma oldida nutq so‘zlash, o‘z tadqiqot ishini tinglovchilar(sinfdoxlari, ota-onalar, maktab jamoasi) oldida himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.
5. O‘quvchilar uchun turli xil ijodiy, ilmiy, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlarni tavsiya qilish va uni amalga oshirish faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish.

O‘quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilikka yo‘naltirish ta‘limning eng muhim maqsadlaridan biri - bolalarni mustaqil fikrlashga, turli fan sohalaridagi bilimlarni egallashga, muammolarni to‘g‘ri qo‘yish va hal qila olishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi(1-jadval).

1-Jadval. O‘quvchilarning asosiy tadqiqotchilik kompetensiyasi

O‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetentligi	Bilim	1	Asosiy ilmiy ma‘lumotlar (terminologiya, qonuniyatlar)
		2	Tadqiqotning asosiy terminlari (tadqiqot ob‘ekti, predmeti, maqsad, vazifalar, dolzarbligi, metodlar, ilmiy ishning amaliy ahamiyati va boshqalar)
		3	Zamonaviy ilmiy sohada tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari (umumiy o‘rta ta‘lim darajasida)
		4	Tadqiqotchilik faoliyatining bosqichlari
		5	Taqdim etilgan tadqiqot natijalari turlari
		6	Tadqiqot ishining baholash mezonlari
		7	Yosh tadqiqotchining etikasi(o‘quvchi)
	Tadqiqotchilik qobiliyatlari, ko‘nikma va malakalar	8	Muammolarni belgilab olish
		9	Tadqiqot ishining ob‘ekt va predmetini aniqlash
		0	Tadqiqot mavzunasini shakllantirish
		1	Tadqiqot maqsadi va vazifalarini shakllantirish
		2	Tadqiqot ishini rejasini shakllantirish va oldindan bashorat qilish
		3	Tadqiqotni tashkil etish rejasini tuzish
		4	Tadqiqot uchun tanlangan mavzu doirasida axborotlar manbasi bilan ishlash
		5	g‘oyalar o‘ylab topish, muammolarni hal qilish usullari va loyiha variantlarini yaratish.
6	hodisa va jarayonlarning paydo bo‘lish sabablarini taklif qilish		
7	tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish		
8	Tadqiqot boshida belgilangan maqsad va vazifalar bilan erishilgan natijalarni solishtirish		

Tajriba (bajara olish imkoniyatlar, xulq-atvor stereotiplari)	9	turli ilmiy manbalari va axborot resurslari bilan ishlash
	0	muayyan tadqiqotni amalga oshirish usullarini tanlash
	1	Oddiy asbob uskunalar bilan ishlash
	2	sotsiologik so‘rov, so‘rovnomalar, suhbatlar va boshqalarni tashkil etish, jamoada yakka tartibda ishlash
	3	tadqiqot natijalarini qayd etish va qayta ishlash
	24	tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va ularni himoyaga taqdim etish (tadqiqot ishi, ma'ruza, tezislar, nashr ishlari, taqdimot va boshqalar), tadqiqot ishini taqdim etish
	5	Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini (amaliy natija) izlab topish

Ko‘pgina tadqiqot ishlarini kuzatish va tahlil qilishda, negadir tadqiqotchilikka yo‘naltirish va kompetentlik ko‘p hollarda oliy ta‘lim muassasalari talabalari yoki kasbiy kompetentlikka yo‘naltirilgan turli soha vakillarida tadqiq etilgan. Negadir umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarni tadqiqotchilikka yo‘naltirish ko‘nikmalari shakllantirish asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga kam e‘tibor qaratilgan. Bizningcha, tadqiqot ishlarini tashkil etish va uni faoliyatga aylantirish maktab o‘quvchilari uchun murakkablik qiladi degan fikrlarning mavjudligidir. Lekin MDX davlatlari olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda o‘quvchilarning tadqiqotchilikka yo‘naltirish va ulardagi tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha bir necha tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Biologiya darslarida o‘quvchilarni tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha o‘qituvchining mahoratini inobatga olib, ancha ilgari faoliyatga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Chunki bilamizki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridan boshlab “Tabiiy fanlar”dan loyiha ishlari taqdim etib kelinadi. Loyihalash usulining o‘ziyoq o‘quvchilarning tadqiqotchilikka tayyorlaydi deb hisoblash o‘rinli masala hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda “Tabiiy fanlar” o‘quv predmetining mazmunidagi har bir bobida 1 yoki 2 tadan amaliy ish berilgan. Amaliy ishlarni o‘quvchilar dastlab sinfda o‘qituvchi ko‘magida bajarishadi. Keyinchalik uy sharoitida kattalar ko‘magida bajarishga yo‘naltiriladi. Bunday faoliyat 1-sinfdan boshlanadi, 4-sinfgacha davom ettirib kelinadi. 5-sinfdan boshlab o‘quvchilarga biologiyaga kirish fani o‘qitiladi boshlaydi. Hozirgi kunda Milliy dastur asosida e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, katta avlod o‘qib o‘rgangan botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi yoki umumiy biologiya fanlari milliy dastur asosida ancha mukammal va yangi yondashuv asosida shakllantirilgan. Unga ko‘ra ayni predmetlar zahirida tayanch kompetensiyalar va fanga oid kompetensiyalarni o‘zlashtirish asosida fanning yangi mazmuni o‘rganiladi. Har bir mavzuda bevosita o‘quvchini mustaqil faoliyatga yo‘naltirish, tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalari tashkil etadi. Shunda ekan, endilikda umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarini ham tadqiqotchilikka yo‘naltirish asosida ularda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

REFERENCES

1. Қарахонова Л.М. Узлуксиз таълимда медиаресурс ва медиавоситалардан фойдаланиш // Узлуксиз таълим // -Тошкент. 2015. № 4. –Б. 59-63.
2. Қарахонова Л.М. Медиайнформационная грамотность и медиаобразование в непрерывном образовании // Узлуксиз таълим // -Тошкент. 2017. № 5. –Б. 52-58.

3. Khujanazarov U.E. Factors Affecting The Status Of Mountain And Mountain Pastures Of Kashkadarya Basin. *Natural Volatiles & Essential Oils*, 2021; 8(4): 12006-12017.
4. Khujanazarov U.E. Foothill flora of the Kashkadarya basin. *Bulletin of Khorezm Ma'mun Academy*, 2021. – No.7. – Pp. 93-98.
5. L.M.Karaxanova. Formation of research competence in teaching biology at a comprehensive school// *Yeurasian Journal of Learning and Academic Teaching*// ISSN (E): 2795-739X. **Journal Impact Factor: 8.115**. Volume 20| May 2023. –R.154-158.
6. L.M.Karaxanova. Use of modern technologies used to implement 3-d modeling from biology as a factor for development of students' research competences// *International scientific and technical conference “Digital technologies: problems and solutions of practical Implementation in the industry” APRIL 27-28, 2023*. –R. 1109-1111.

TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI PEDAGOGIK ATAMALAR VA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA RIVOJLANIRISH

Mavlanov Shavkat Yusupovich

Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676455>

Annotatsiya. Maqolada nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini pedagogik atamalar asosida rivojlantirishga oid fiklar va xorijiy tajribalar, olimlarning tahlillari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Atamalar, pedagogika, rivojlantirish, nofilologik, talabalar, morfologik, tasnif, izohlar, tavsiflar, komponent.

Dunyoda ilm-fan, ilm-ma‘rifat, texnika va texnologiya tarakkiy etib borar ekan, yangi g‘oyalar, yangi qarashlar, yangi atamalar paydo bo‘lib boraveradi. Pedagogikada yangi atamalarning kirib kelishi esa ma‘naviy-ma‘rifiy sohalaridagi yangi imkoniyatlar va rivojlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘ziga xos qiyinchiliklarni ham paydo qilishini inkor etib bo‘lmaydi. Atamashunoslik yangi so‘z yasash, so‘zlarga yangi ma‘nolarni singdirish, ba‘zi tushunchalarning leksikalashuvi, so‘z birikmasining semantik bir butun xolga kelib qolishi, boshqa turli tillardan so‘z olish va so‘z yasash kabilar asosida taraqqiy etib bormoqda. Nofilologik yo‘nalishi talabalarini bo‘lajak yosh mutaxassislar sifatida pedagogik atamalardan foydalanishi, to‘g‘ri izohlay olishi, kasbiy faoliyatlarida uning ma‘naviy-ma‘rifiy imkoniyatlari kabi masalalariga oid ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, mazkur masala o‘zining etarlicha tasdig‘ini topgan, deyoilmaymiz.

Pedagogik atamalar yangiligi va ularning izohiga ta‘sir qiluvchi omillar tufayli umumiy xarakterga ega. Shuningdek, pedagogik atamalar uchun qo‘yiladigan talablar va ma‘lum bir izohni tanlashga ta‘sir kiluvchi omillarga e‘tibor berish zarur. Atamalar izohlanishida ba‘zi an‘analarni o‘rganib chiqib, izohlar uchun eng muvaffaqiyatli va umuman foydalanilmaydigan variantni tahlil qilish mumkin. Hozirgi kunga qadar "atama"ning umumiy kabul kilingan ta‘rifi mavjud emas. Bu borada pedagogik atamani ta‘riflash bo‘yicha olimlarning turli yondashuvlari mavjud. Biroq, aksariyat olimlar atama – bu ma‘lum bir yoki faoliyat sohasi bilan bog‘lik bo‘lgan tushuncha va o‘ziga xos yoki mavxum, og‘zaki ravishda ifodalanuvchi sintetik shakl ekanligini ta‘kidlaydi. Atamaning asosiy xususiyatlari quyidagilar xisoblanadi: ta‘rifning mavjudligi, aks ettirilgan

tushunchaga muvofikdigi, ko‘prok ma‘lumot to‘yinganligi, noaniklikka moyillik, uslubiy betaraflik va ifoda etishmasligi, izchillik.

Ushbu asosiy xususiyatlardan tashkari, atamaning qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra bir qator xossalari va talablarini olimlardan K.A.Myakshin ajratib ko‘rsatadi: amalga oshirish (umumiy kabul kilingan, tushunarli), variatsion barkarorlik (takrorlanuvchanlik), evfoniklik (evfoniylilik talabi) [2, 112-114-b.]. Ta‘kidlash kerakki, atamaning lingvistik shakli "so‘zning lingvistik shaklidan farq kilmaydi", ya‘ni har qanday atama morfologik, xosilaviy va sintaktik tuzilishga ega va uning shakli leksik asosli bo‘lishi mumkin. Masalan, "integratsion" va "innovatsion" nuktai nazaridan "-tion" qo‘shimchasi jarayonni bildiradi.

R.F.Proninaning fikricha barcha atamalar morfologik tasnifiga ko‘ra ajratiladi. Ular quyidagilarga bo‘linadi: oddiy (resistance, spin); murakkab (flyweight, earthometer); atama-iboralar/ko‘p komponentli atamalar (meter multiplier, computer assisted drafting machine) [4, 8-b.].

"Atama" konsepsiyasi – bu ma‘lum xususiyatlarga ega bo‘lgan ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning eng to‘liq tasnifi Vladimir Moiseevich Leychik tomonidan atamalar tipologiyasi sifatida berilgan bo‘lib, turli xil xususiyatlarga ko‘ra quyidagilarni ta‘kidlaydi:

I. Atamalarning eng muhim belgilariga ko‘ra tasnif: toifali atamalar, umumiy ilmiy va umumiy texnik atamalar, tarmoklararo atamalar, maxsus atamalar.

II. Atamalarni individual xususiyatlariga ko‘ra tasnif: mazmunli, rasmiy, funksional, til ichki va tashki omillarga asoslangan atamalar [1, 256-b.].

Turli xil asoslardagi tasniflarning ko‘pligi ilmiy adabiyot tilida juda ko‘p atamalar mavjudligidan dalolat beradi. Birok, ularning soni nafakat tasniflashni, balki tarjimani xam talab kiladigan yangi atamalar bilan doimiy ravishda to‘ldirilib boriladi.

Barcha uslubdagi matnlar, ayniksa ilmiy va texnik matnlarni izohlashda atamashunoslar ko‘p xollar duch keladigan muammo bu – yangi atamalarni maqsadga muvofiq izohlay olishdir. Bunday matnlarni izohlash bilan shug‘ullanadigan mutaxassis atamalarni izohlashda uning o‘ziga xos xususiyatlarini xisobga olish zarur. Atamashunoslarda uchraydigan muammolar an‘anasi, xususan, atamalarga beriladigan izohlar va uning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha quyidagilar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, atamalar izohlanish jarayonida atamashunos o‘zining kompetensiyasiga alokador bo‘lmagan tavsiflash qiyinchiliklariga duch kelishi mumkin. Mazkur muammolarni Kristian Nord to‘rt toifaga, ya‘ni pragmatik, ma‘naviy-ma‘rifiy, lingvistik va matnga xos muammolarga ajratadi [3, 521-b.]. Ushbu muammolar echimini topish uchun atamashunosdan anik tavsif strategiyasini qo‘llash talab kiladi.

Pragmatik muammolar asosan asliyat va izohlanadigan matndan tashqari omillardagi farq tufayli kelib chikadi. Ular idiomatik iboralar, so‘zlar, kinoya, hazil yoki ma‘naviyat-ma‘rifatga bog‘lik atamalarda uchraydi. Tavsiflash yoki izohlashda *ma‘naviy-ma‘rifiy* muammolar, o‘z navbatida unga o‘zaro bog‘lik bo‘lgan tushunchalardagi farqlardan kelib chikadi. Bunga konvensiyalar, matn turi va janr konvensiyalari, nomlanishlar, festivallar yoki ma‘naviy-ma‘rifiy mazmundagi misollar sabab bo‘ladi. *Lingvistik*, o‘zga tillar yoki lisoniy tarjima muammolari lug‘at yoki sintaksisdagi tarkibiy farqlardan kelib chikadi. Atamalarni tarjima tilida turli xil ma‘no va ta‘sirga ega bo‘lgan asliyat tili iboralarining bir nechta variantlarini yaratishga imkon beradigan xolatlar mavjud. *Matnga* xos muammolar esa ma‘lum bir matnni izohlashda, muallifning uslubi va uning umumiy konvensiyalarni qabul qilish darajasida paydo bo‘ladi. Bu jarayonda atamaning izohi muammolarga, so‘z o‘yinlari, qofiya, alliteratsiya yoki ritorik konstruksiyalar kiradi.

Atamalar bo‘yicha ko‘plab olimlar va nazariyotchilar atamalarni izohlash, tavsiflashga oid muammolar uchun keng strategiyalarni taklif qilishlariga karamay, tegishli tarjimoni topish har doim ham oson emas. Pragmatik izohlash muammolarini hal qilish uchun qisqacha ma‘lumotga murojaat qilish tavsiya etiladi. Pedagogikaga oid atamalarni izohlash yuzaga kelganda, parallel atamalar bilan tanishish uchun parallel matnlar bilan ishlab, korpus yaratish kerak bo‘ladi. Atamashunoslik muammolari ixtisoslashtirilgan lug‘atlar yoki ma‘lumotlar bazalariga murojaat qilish yo‘li bilan hal qilinishi mumkin, matnga xos bo‘lganlari esa ijodkorligini talab qiladi.

Ta‘kidlash joizki, atamashunoslikda odatda aloxida so‘zlar yoki iboralar bilan emas, balki matnlar bilan ish yuritiladi. Ko‘pincha ular shu vaziyatdagi va pedagogikaga oid matnlar bilan ishlashga majbur bo‘ladi [5]. Tavsiflanadigan matn kommunikativ bo‘lishi Bogrande, Dressler va Noyber kabi olimlar tomonidan ta‘kidlangan. Atamalarni izohlashda ettita matn me‘yorlari talabiga javob berishi kerak. Ular: vaziyat, maqsadlilik, maqbullik, axborotlilik, interteksttullik, izchillik va bog‘liqlik. Ushbu me‘yorlar gazeta va jurnal makolalaridagi matnlarning izohlanishi uchun ishlab chikarilgan. Binobarin, asliyat matn izohlangan matnga olib o‘tilishida yangi kontekst ustida mustakil ravishda ishlash, shuningdek, biroz o‘zgarishning amalga oshirilishi va matnning ettita me‘yorlarini o‘zida namoyish etishi zarur.

Pragmatik muammolar asosan asliyat va izohlangan matnning kommunikativ vaziyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikdan kelib chiqadi. Odatda bu qarama-qarshilik, makon, vakt yoki atama manzil bilan bog‘lik bo‘ladi. Shaffner o‘z asarida "makon, vaqt bilan bog‘lik axborotlar, tashkilot va muassasa nomlari atoqli otlar, pedagogikaga oid atamalarni izohlash asosiy muammolardan" [5], ekanligini ta‘kidlaydi. Pedagogik atamalar bilan bog‘lik bo‘lgan tashkilotlar yoki ma‘rifiy-ma‘naviy yo‘nalishga xos bo‘lgan atamalar ko‘pincha asliyat tiliga taallukli buladi. Ba‘zan, muassasalarning tegishli nomlari ularga mos keladigan me‘yoriy terminlarga ega bo‘ladi, ammo tegishli atama yoki iborani topishi kerak bo‘lgan bir necha xolatlar mavjud bo‘ladi. Masalan, "Namangan davlat universiteti" atamasi mavjud. Ushbu birikma atama turdosh va atokli otning o‘zaro birga qo‘llanishi natijasida yuzaga kelgan. Mazkur atamani oddiygina "NamDU" deb izohlansa, atamaning o‘ziga xos ma‘rifiy-ma‘naviyligi yo‘qolishi mumkin. Undagi o‘ziga xoslikni saqlab qolish uchun ekstralingvistik bilim va qo‘shimcha axborot manbalaridan ma‘lumotga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Xulosa. Hozirda yangi zamonga iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ilm-fan va ma‘naviy-ma‘rifiy kabi sohalar bilan bog‘liq bo‘lgan chet so‘zlar, ya‘ni "Atmalar" kirib kelmoqda. Nofilologik yo‘nalishi talabalari kelgusida yosh mutaxassislar sifatida bugungi pedagogik atamalarni anglashi, turkiy tilni rivojlantirishi, pedagogik salohiyatlarini oshirishi uchun pedagogik atamalarga oid yirik lug‘atlar va ilmiy asarlar zarur. Pedagogik atamalar va tushunchalarning barcha ta‘lim boskichlari uchun yagona standart shakllarini ishlab chikish va amaliyotga joriy etish orkali atamalar hamda tushunchalar bilan bog‘liq muammolarning bartaraf etilishi talaba-yoshlarning pedagogika fanidan egallaydigan bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga ijobiy ta‘sir qiladi.

REFERENCES

1. Leychik V.M. Terminovedenie: predmet, metody, struktura. 4-e izd., ispr. i dop. – M.: LIBROKOM, 2006. – 256 s.
2. Myakshin K.A. K voprosu ob osnovnykh priznakax termina // Almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. № 8. - Tambov, 2009. S. 112-114.
3. Nord C. Text Analysis in Translation. - Amsterdam, New York: Rodopi, 2005. – P. 521.

4. Pronina R.F. Perevod angliyskoy nauchno-texnicheskoy literatury. 3-e izd., pe-rerab. i dop. - M. : Vysshaya shkola, 1986. – S. 8.
5. Schaffner C and Wiesemann U. Annotated Texts for Translation: English-German. Clevedon, Buffalo, Toronto, Sydney: Multilingual Matters Ltd, 2001.

TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASH

Maxmudova Darmonjon Bozorboevna

O'zPFITI doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676459>

Bilim – bu intellektual boylik,
qudrat va ustunlikdir

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada xorijiy tajribalar tahlili asosida ta'lim sifat samaradorligini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'z:** intellekt, kapital, ta'lim sifati, xalqaro tajriba, ta'lim tizimini.*

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaerda ta'lim tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha erda taraqqiyot, yuksalish va kapital bor. Jahon amaliyotidan kelib chiqib, ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularni intellektual, sifat jihatidan takomillashtirish, mehnat bozori talablarini e'tiborga olish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish kontseptsiyasida “ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish” dolzarb vazifa etib belgilandi. Bugungi kunda jahondagi etakchi ta'lim muassasalarining tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish borasidagi tajribasidan mamlakatimiz ta'lim tizimining sifatini boshqarish mexanizmidagi ijodiy foydalanish ta'lim siyosatini isloh etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi”, – deb ta'kidladilar.

Evropa Ittifoqi ta'limni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi, dunyo bozorida raqobatbardoshlik darajasini aniqlovchi omil sifatida qabul qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, XX-asrning 90-yillaridan boshlab butun dunyoda shu jumladan O'zbekistonda ham oliy ta'lim muassasalariga kiruvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Talablardan kelib chiqib oliy ta'lim muassasalari soni ham ortib bormoqda. Hususan, O'zbekistonda ham davlat, nodavlat, qo'shma ta'lim muassasalari faoliyati rivojlantirilishini misol qilishimiz mumkin. Bu ta'lim olishni xohlovchilarga keng imkoniyat yaratadi. Shu o'rinda takidlash joizki, oldinlari abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinishi og'zaki, yozma

imtxon yoki test ko‘rinishida bo‘lar edi. Endilikda respublikamizda bunga boshqacharoq yondashish yo‘llari ko‘rib chiqilib amaliyotga joriy qilinmoqda.

Amerika “ta‘lim strategiyasi” dasturida e‘lon qilinishicha turli yo‘nalishdagi asosiy maqsadlar belgilab olish zarur, ya‘ni: barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari; aholining 90 foizi oliy ma‘lumotli bo‘lishi; o‘quvchilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari bo‘yicha jahonga o‘z iqtidorlarini namoyish eta olishlari; talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o‘zlashtirishda jahonda eng oldingi o‘rinlarga chiqishlari; har bir voyaga etmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo‘lishlari; maktablarda giyohvandlik va zo‘ravonlikka barham berish, o‘qish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan. Amerika maktablarida bitirish imtihonlari yo‘q. Oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun ham kirish imtihonlari olinmaydi. Biroq har bir abituriyent oliy o‘quv yurtiga kirish uchun matematika va ingliz tilidan test topshiradi. Bunday testlar Amerikada har yili 3-4 marta o‘tkaziladi. Test savollari kitob shaklida har yili chop etiladi. Ularda mingga yaqin mashqlar, masalalar va ularning echimlari ko‘rsatiladi.

Amerikada eng katta boylik – bu intellekt. Amerika oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun belgilangan testlar: ETS (Educational Testing Service), TOEFL (Test of English as a Foreign Language), SAT (Scholastic Aptitude Test) I, SAT (Scholastic Aptitude Test) II, GRE (Graduate Record Examinations) General Test, GRE (Graduate Record Examinations) Subject Test, ACT (American College Testing), GMAT (Magistratura bosqichi), GPA (Grade Point Average).

Koreys o‘quvchilari biror musiqa turini va ingliz, xitoy tillarini majburiy ravishda o‘rganadilar. Koreyada oliy o‘quvning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o‘quv yurtlarida o‘qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktab bitiruvchilarining 60 foizi OO‘YUGa o‘qishga kiradi. Koreyaning shiori: “Insoniyatga foyda keltirish”. Prinstonda (mashhur TOEFL ishlab chiqilgan universitet) kirish imtihonlari nazoratchilarsiz o‘tkaziladi. Hamma gap “Or-nomus kodeksi”da. Imtihondan oldin har bir talaba qasamyod qiladi: “I pledge my honor that I have not violated the Honor Code during this examination” (“Men qasamyod qilamanki, ushbu imtihonda Or-nomus kodeksini buzmayman”) yoki blankaga yozma tarzda yozib beradi. Mana shu tajriba orkali bo‘lajak pedagoglarni xissiy vijdoniy tarbiyasini shakllantirish mumkin. Hozirgi kunda chet elda o‘qish uchun qabul qilingan testlar xalqaro tajribalar asosida belgilab olingan ko‘rinishda amalga oshirilmoqda: Ingliz tili testlari – TOEFL, IELTS, Fransuz tili testlari – DALF, DELE, Nemis tili testlari – DSH, DAF, Rossiya, rus tili – EGE. Bu tajribalar, ya‘ni ta‘lim tizimida xalqaro sertifikatlar bizni davlatimizda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib ta‘lim tizimi va pedagogik kasbiy faoliyatda qo‘llanila boshlandi.

“Inson kapitali” atamasi 1961 yilda Teodor Shults tomonidan taklif qilinib dastlab rivojlanmagan mamlakatlar iqtisodiyoti doirasida ko‘rib chiqilgan va kambag‘al odamlarning sifati va farovonligining yaxshilanishi tabiiy resurslar, er yoki texnologiyalarga emas, balki ularning intellektual qobiliyatlariga bog‘liqligini aniqlagan. Inson kapitali nazariyasi ham ushbu holatni yoritadi. Bunda inson o‘quv jarayonida olingan bilimlarning tashuvchisiga aylanadi va shu tufayli uning jamiyatdagi ishlab chiqarish jarayoni uchun ahamiyatini oshiradi. Uning fikriga ko‘ra, odatiy maktab yoki universitetda olingan bilim etarli emasligi, ya‘ni inson kapitaliga investitsiya kiritishning yagona yo‘li emas balki ish joylarida maxsus treninglarda o‘rganilgan bilimlar muhimligini va bu ishchilarning samaradorligini va tajribalarini ortishiga zamin yaratishini ta‘kidlab o‘tgan.

Xorij tajribasiga to‘xtalsak – ayni paytda xorijiy davlatlarda ta‘lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga alohida

e‘tibor qaratilayotganligibarchamiza ma‘lum. Masalan, ta‘limga ulkan sarmoya kiritib, yuksak natijalarga erishayotgan davlatlardan biri – Singapurdir. Singapurda ta‘lim tizimini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilgan. So‘nggi yillarda mamlakat va xorij oliy o‘quv yurtlarida ilm-fanning eng zamonaviy yo‘nalishlari va ilg‘or texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida Singapur ilmiy-texnik rivojlanish sohasida jahonda etakchi mamlakatlardan biriga aylandi.

PIRLS tadqiqotida Singapur aholisining savodxonligi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Singapur maktablarining o‘quvchilari 1995 yildan buyon matematika va tabiiy fanlar TIMSS bo‘yicha xalqaro bilimlar imtihonlarida dunyodagi eng yaxshi natijalarni ko‘rsatmoqda. Singapurda o‘quvchilarni maktabga qabul qilish 6 yoshdan boshlanadi. Boshlang‘ich maktabda talabalar matematika, ingliz tili, etika, musiqa va jismoniy tarbiya kabi fanlardan asosiy bilimlarni oladi. 6-sinf oxirida ular o‘rta maktabda o‘qishni davom ettirishga ruxsat beruvchi PSLE yakuniy imtihonini topshiradilar. Ma‘lumot o‘rnida aytish kerakki, PSLE imtihonlari milliy imtihondir. Imtihon ingliz, ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasini tekshirishga qaratilgan.

O‘rta umumiy ta‘lim 4 yil davom etadi. Ushbu bosqichda talabalar texnik sohani, buxgalteriya hisobi, shuningdek, davlat va xorijiy tillarini o‘rganishga ixtisoslashgan yo‘nalishlardan birini tanlashlari mumkin. Bu bosqichdan so‘ng umumta‘lim maktablari bitiruvchilari texnikumlarga (3 yillik) yoki texnik institutlarga (o‘qish muddati – 2 yil) o‘qishga qabul qilinadi. Talabalar ushbu o‘quv dargohlarida quyidagi sohalarida mutaxassisliklarni olishlari mumkin: muhandislik, aloqa, raqamli texnologiyalar, biotexnologiya va buxgalteriya hisobi.

O‘qishni tugatgan bitiruvchilarga ishga joylashish imkonini beradigan diplom beriladi. Shuningdek, bu bosqichdan so‘ng bitiruvchilar oliy ta‘lim muassalarida ham o‘qishlarini davom ettirishlari mumkin. Singapur ta‘lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Bu talabalar o‘rtasida innovatsion g‘oyalarni rivojlantirishga va ular o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi. Singapur maktablarini kompyuter bilan jihozlash darajasi o‘rtacha 5 ta talabaga bitta kompyuterdan iborat. Shu bilan birga maktablarning 95% internet tarmog‘iga ulangan. Bu o‘qituvchilar va talabalar orasida tajribalar almashish imkoniyatini beradi. Shuningdek, Yaponiya maktablarida farroshlar yo‘q. Maktab formasi majburiy hisoblanadi. Darslar tugaganidan so‘ng maktab o‘quvchilari o‘z xonalari, maktab va uning atrofini tozalashadi. Bu odatni milliy tarbiyamizga singdirgan holda amalga oshirsak yoshlarda birovlar mehnatini qadrlash va o‘zlarida mehnatga munosabatni tarbiyalaydi.

Yaponiya o‘z oldiga ikki azifani qo‘yadi: 1 – boyish, 2 – G‘arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarish sohasiga kiritish masalasi. Bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligi aytiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayonini yaxshilashda xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yaratishga e‘tiborni kuchaytirish, ta‘lim muassasalari moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash ta‘lim berish sifatini oshishiga va o‘qitishni tashkil etish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta‘lim sifatini oshirishda pedagogik ko‘nikmasini hamda ilmiy tadqiqot ishlarida va yangi adabiyotlar yaratishdagi o‘rnini hisobga olish, umuman, pedagoglar o‘rtasida raqobat muhitini yuzaga keltirish zarur.

Maktablarning internet tarmog‘iga ulanganligi hamda o‘qituvchi pedagoglarning xorijiy hamkorlar bilan aloqasini kuchaytirish malaka oshirish jarayoni tashkillashtirish maqsadga muvofik deb hisoblaymiz. O‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish

asosida o‘qituvchilarning o‘z mehnatidan manfaatdorligini oshirish asosida ta’lim sifatini keskin yaxshilash mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – T., 2019. – 9 oktyabr: <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PF-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – T., 2020. – 28 fevral.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ИНЖЕНЕРНЫХ ВОЙСК НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

¹Медетова Раушан Мамадияровна, ²Жаббаров Зарифбой Рустамович

¹заведующая отделом УзНИИПН, д.п.н., старший научный сотрудник,

²доцент Военного учебного центра НУУз, подполковник

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676471>

Аннотация. В статье приведены концептуальные изменения, имеющие место в ряде стран мира по подготовке военных кадров.

Ключевые слова: военнослужащий, качество, образование, концепция.

В текущем году, объявленном по инициативе Президента «Годом поддержки молодёжи и бизнеса», обозначены конкретные задачи по возвышению чести и достоинства человека, обеспечению интересов населения и построению сильной экономики. Акцент сделан на активизацию привлечения иностранных инвестиций, формированию широких возможностей для предпринимательства и частной собственности, уделению особого внимания развитию науки, инноваций, IT-сферы и т.д. Реализация данных задач будет способствовать приведению системы военного образования в соответствии с реалиями времени, приравняться к современному стандарту высшей военной школы. В этих условиях основные подходы и организационные позиции в определении содержания обучения и воспитания военнослужащих соизмеряются с результатами научно-методических поисков всех заинтересованных участников образовательного процесса.

В соответствии с концепцией модернизации системы военного образования приоритетными направлениями её развития и совершенствования качества образовательного процесса являются: уточнение кадрового заказа на подготовку военнослужащих и уточнение источников его реализации; внедрение инновационных методов в содержание подготовки военных кадров; применение новых подходов к методическому обеспечению образовательного процесса; существенное изменение системы обучения и воспитания военнослужащих. Эти задачи обозначены в выступлении Президента Республики Узбекистана 2 января 2024 года на совещании по вопросам оборонного строительства и развития Вооружённых Сил Республики Узбекистан. В выступлении главы государства охвачены вопросы, связанные с дальнейшим повышением боеготовности и боеспособности войск, оснащением их современным вооружением и

военной техникой, модернизацией имеющихся образцов вооружения, военно-патриотическим воспитанием молодежи страны. Кроме того, на этом совещании речь шла о повышении эффективности боевой и морально-психологической подготовки войск, деятельности органов управления, объединений, соединений и частей, а также высших военных учебных заведений, в которых особое внимание уделяется реформированию национальной армии, совершенствованию организационной структуры и системы дислокации Вооруженных Сил, оснащению войск современными образцами вооружения и техники, повышению их боеготовности и боеспособности, а также профессионализма военнослужащих. В республике в корне пересмотрена система технического и тылового обеспечения подразделений, внедрена система аутсорсинга и военных кластеров. Только за прошедший год проведено свыше 24 тысяч мероприятий в махаллях, в учебные сборы «Школ мужества» привлечено более 5 тысяч молодых людей. Кроме того, проведено также более 580 мероприятий оперативно-боевой подготовки, в которых приняли участие свыше 35 тысяч военнослужащих Вооруженных Сил [1].

Благодаря принятым мерам повышена эффективность боевой подготовки войск, значительно возрос профессионализм военнослужащих, их боевой дух и психологическая подготовленность. В деятельности военных вузов внедрена новая система подготовки военных кадров на основе передовых технологий и цифровизации военной сферы. Осуществляется поэтапное внедрение современных автоматизированных систем управления войсками, а также совершенствование системы связи.

Следует заметить, что качество обучения связано с выявлением и обоснованием механизма совершенствования качества образования военнослужащих инженерных войск, способствующего проявлению профессионального характера военных кадров разных квалификаций и уровней, направленного на формирование профессиональной и социальной мобильности ее субъектов, умений работать в команде для коллективного принятия решений и выработки правильной стратегии поведения в нестандартных профессиональных ситуациях [2]. Это не полный перечень действий, осуществляемых в нашей республике в целях профессионального становления военнослужащих, то есть приобретения ими военно-профессиональных знаний, умений, навыков, а также опыта деятельности в объеме, обеспечивающем успешное и качественное выполнение ими своих функциональных обязанностей.

В ряде других стран мира также ведётся целенаправленная работа по оснащению национальной армии современными образцами вооружения и военно-технического имущества, а также совершенствованию оборонно-промышленного комплекса. К примеру, в Российской Федерации сделан упор на модернизацию подготовки квалифицированных военнослужащих в высших военных образовательных учреждениях, способных выполнять поставленные перед ними задачи с требуемым качеством в указанные сроки.

В Республике Казахстан в систему военного образования внедряются новые подходы по методическому обеспечению образовательного процесса.

В Республике Беларусь совершенствуется законодательство в сфере подготовки военных кадров.

В Республике Кыргызстан сделан акцент на уточнение кадрового заказа на подготовку офицеров и уточняются источники ее реализации.

В Республике Таджикистан совершенствуется учебно-материальная база военных вузов.

В Республике Туркменистан идёт процесс гуманитаризации военного образования за счёт увеличения бюджета, выделяемого в высших военных учебных заведениях на изучение военной педагогики и психологии управления.

Перечисленное свидетельствует о том, что вся деятельность в области подготовки военных кадров связана с чёткой организацией образовательного процесса в военном вузе, который имеет процессуальный характер – как движение от целей к результату, самоанализу и самооценке.

Основная функция учебной деятельности – когнитивная, нацеленная на удовлетворение потребностей военнослужащих в знаниях с реализацией специфических жизненных мотивов и целей. Полученные знания, способности действий военнослужащие переосмысливают, приходят к новым выводам и обобщениям, применяют их к решению нестандартных творческих теоретических и практических задач. В этом проявляется преобразующая функция учебной деятельности, которая связана со всеми сторонами личности: потребностями, мотивами, интересами, способностями, волевыми проявлениями, эмоциональным отношением к изучаемым знаниям и оказывает всестороннее воздействие на него и формирует качества личности. В этом выражается воспитательная функция учебной деятельности.

Стержневой линией личностного формирования является воспитание убеждений, моральной стойкости, общественной активности, трудолюбия, решительности, быстроты принятия решения, способности взять на себя ответственность за принятые решения. Указанные личностные качества формируются не изолированно друг от друга, а во взаимосвязи.

Как видно из самой сущности учебной деятельности, она требует применения системного подхода к её изучению и рассмотрению как целостной системы во всей её полноте. Системное рассмотрение педагогических явлений обусловлено задачами комплексной воспитательной, переориентированной военной педагогики на формирование личности военнослужащего.

Целенаправленное использование интеллектуальных, эмоциональных и волевых ресурсов всех военнослужащих, создание условий, обеспечивающих их деятельность на уровне потенциальных возможностей включает получение преподавателем и самими военнослужащими обратной информации, её переработку и соответствующее корригирование процесса обучения.

Преподаватель в ходе изложения учебного материала обращается с информационными вопросами к отдельным военнослужащим, просит их повторить нужные определения, привести примеры, подтверждающие то или иное положение, дать пояснение к используемым на учебном занятии чертежам, схемам, диаграммам, рисункам в пределах усвоенных знаний.

Рассматривая основные направления совершенствования качества профессиональной подготовки военнослужащих в системе высшего военного образовательного учреждения, есть необходимость подчеркнуть роль и значение личностно-социальной среды высшего военного образовательного учреждения (курсанты, преподаватели, методы, формы и условия обучения и воспитания); нематериальный компонент (воспитательная среда, нормативно-регулятивные средства, содержание военного образования, образ жизни военнослужащего, общечеловеческие ценности и Государственные образовательные стандарты); материальный компонент

профессиональной образовательной среды (учебно-материальная база, учебно-полевая база и др.).

Таким образом, совокупность педагогических форм обучения, направленных на формирование у военнослужащих профессиональных знаний, умений, навыков, культуры мышления, способности к общению, анализу, восприятию информации, постановке цели и выбору путей её достижения, целеустремлённости, решительности, умения находить решения в нестандартных ситуациях и нести за них ответственность, организованность, исполнительность, самостоятельность, выдержка и самообладание – это не полный перечень качеств личности современного военнослужащего.

REFERENCES

1. <https://president.uz/ru/lists/view/6957>
2. Medetova R.M., Anarboyev A.A. Hamkorlik pedagogikasi asosida bo‘lajak zahiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish // Ta‘lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. 2023-yil 13-noyabr. – T.: O‘zPFITI, 2023. – B. 284-287.

XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TA’LIMGA KOMPETENTLI YONDASHUV IMKONIYATLARI

M.Mirqosimova

“ORIENTAL” universiteti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası professori,
p.f.d., TURON FA AKADEMIGI
(90) 321 61 32

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676483>

AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Kanada, Ispaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlardagi ta’lim tizimida yuqori kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga, o‘qitish jarayonida zamonaviy kompyuter dasturlarini qo‘llash, ularni amaliyotga keng joriy qilish uchun e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda dunyoda fan va ta’limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, oliy ta’limning sifatini yaxshilash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tavsiflangan. Zamonaviy kasbiy ta’lim mazmunini kompetensiyalarga asoslangan masofaviy ta’lim (H5P) platformalaridan foydalanish, o‘qitish texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Mutaxassislik o‘qituvchisining ijodiy fikrlashini, zamonaviy dasturiy ta’minotlarda ishlay olish ko‘nikmasining shakllanganligiga ega bo‘lishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik–bu bilimsizlikdir! Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”,- deb ta’kidlanishi har bir soha vakillari, ayniqsa ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar o‘z ustiga doimiy ishlab, yangi bilimlarni egallashga, har bir jarayonda inson omilisiz faoliyat yuritadigan raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun yangi dasturiy mahsulotlarni yaratishga va undan oqilona foydalanishga undaydi.

Globallashtirish jarayonida inson faoliyatining barsha sohalarini axborotlashtirish qamrab olingan bo‘lib, bu jarayon har bir kishidan yuqori axborot madaniyatini talab qiladi. Shu sababli, oliy ta‘lim muassasalarning o‘quv dasturlari talabalarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishni ta‘minlaydigan ma‘lumotlar bilan boyitish zarur. Buning uchun talabalarni ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish ta‘lim sifatining oshishiga olib keladi. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi - pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog‘liq. Dars beruvchi har bir bo‘lajak o‘qituvchidan quyidagi 3 ta sifat talab qilinadi:

- bo‘lajak o‘qituvchi bilimli, ya‘ni o‘zi o‘qitadigan fanni chuqur bilishi;
- bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahorati ya‘ni mavzuni o‘quvchilarga yetkaza berishi;
- bo‘lajak o‘qituvchining psixologik holati ya‘ni darsda ruhiy muhitni yarata olishi nazarda tutiladi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, jahonning ilg‘or o‘qitish tajribalari va kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, dasturiy ta‘minot platformalarini darslarida qo‘llash ijodiy bilish faoliyatida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muhim kompetensiyaviy sifatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchining kasbiy – pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog‘liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta‘minlash zarur.

Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta‘lim jarayonlarida mavjud bo‘lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan edi. “Mahorat”, “malaka”, “salohiyat” masalalari, faoliyat, shu bilan birgalikda, bir qator faoliyatlarning birikuvi M.N. Skatkin, I.Y. Lerner, V.V. Kraevskiy, G.P. Shedrovidskiy, V.V. Davidov va boshqa pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan.

N.V. Kuzmina, A.K. Markova, E.F. Zeer, V.A. Slastenin, T.F. Loshakova o‘qituvchining “kasbiy kompetentlik” haqida ko‘plab ishlarni amalga oshirganlar.

B.A. Nazarova o‘zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, P.Sorokin, F.Znanetskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta‘rif berganliklarini ta‘kidlaydi: “Bu muhitga o‘rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to‘g‘rilaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi”.

D.L. Tompson, D.Pristinlar: “Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo‘lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig‘indisidir”, - deb ta‘kidlaydilar.

I.V. Grishina kasbiy kompetensiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta‘riflaydi:

- ushbu faoliyatga bo‘lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatleri, faoliyatdan maqsadi, o‘zining ijtimoiy o‘rnini tasavvur qilishi;

- o‘zining shaxsiy o‘ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeyiga, kasbiy bilim, mahorat va ko‘nikmalari, kasbga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;

- shu asosda o‘zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o‘shini boshqara bilishi.

A.P. Akimova kasbiy kompetentlikni shunday ta‘riflaydi: “O‘z faoliyatida kerak bo‘lgan yangiliklarning, bilimlarning, qobiliyatlarning yig‘indisi va atrof –muhit bilan o‘zaro to‘g‘ri kelishi”.

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog‘liqligini N.V. Kuxarev shunday ta‘riflaydi: “Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o‘qituvchi

shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to‘plami”.

A.K. Markova o‘qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi deb aytadi, qachonki, pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mehnatida qo‘llashni bilishi kerak. Uning fikriga ko‘ra qachonki, o‘qituvchi o‘z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda o‘qituvchi va talabalarni o‘qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa, bu faoliyat kompetentlikka aylanadi.

V.A. Slastenin nuqtayi nazariga muvofiq, pedagogni tayyorlash unda ushbu vazifalarni amalga oshirish bilimlarini tarbiyalashni ko‘zda tutadi: analitik -refleksiv, konstruktiv - prognostik, tashkiliy, baholash-axborot, korreksiyalash - rostdash. Muallif tutgan nuqtayi nazar, bizning fikrimizcha, o‘qituvchi faoliyatining strukturasi haqida qaror topgan tasavvurlarni ko‘p darajada aks ettiradi. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi strukturasi tadqiq qilish pedagog mehnatini puxta tahlil qilish, uning tayyorgarlik darajasiga hozirda modernizatsiya qilinayotgan va uzluksiz pedagogik ta‘lim konsepsiyasi amalga oshirilayotgan sharoitlarda oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimi tomonidan qo‘yilayotgan talablarni aniqlashni nazarda tutadi.

R.X. Tugeshevning ta‘kidlashicha, kasbiy mahorat shaxs sifatining yuksalishi sari qo‘yilgan qadamlar yordamida faqat bir faoliyat uchun egallangan kompetensiyadir. Kompetensiya egasi deganda, olim shaxsning o‘z ishining ustasi, mahorati bilangina cheklanmaydi, balki ishni tashkil etishi, o‘z faoliyatiga aloqador barcha muammolarni tizimli ravishda tushunishi, vazifa qo‘ya bilishi va aniq muammolarga yechim topish qobiliyatiga ega bo‘lishi kabi fazilatlarini nazarda tutadi. Ana shunday inson ma‘lum bir sohada kompetensiya egasi degan nomga sazovor ekanligini qayd etadi. Agar R.X. Tugeshev kompetensiya tushunchasini kasbiy mahorat degan tushuncha bilan bir xil ekanligini qayd etsa, E.F. Zeer esa kasbiy yo‘naltirilgan kompetensiya va kasbiy qobiliyat oliy darajadagi kasbiy mahoratni ta‘minlaydi, degan fikrni olg‘a suradi.

Kasbiy kompetensiya shaxsning subyektiv faoliyati tarkibidagi to‘rt jihatning biri hisoblanib, E.F. Zeer ta‘kidlaganidek, kasbiy kompetensiya o‘z kasbiga oid bilimlar, mahorat hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari yig‘indisidir.

Psixolog A.K. Makarova kasbiy kompetensiya tushunchasi insonning barcha xislatlarini o‘z ichiga oladi, ular yordamida kasbiy faoliyat davomida inson yuksak natijalarga erishadi deb uqtiradi. Uning fikricha, kasbiy kompetensiya mutaxassisning shunday mehnat faoliyatiki, natijada yuqori darajada kasbiy faoliyat amalga oshiriladi va mutaxassis shaxs sifatida o‘zini namoyon qiladi. Shunday qilib, A.K. Makarova kasbiy kompetensiya tushunchasi mazmunini yanada kengaytiradi, uning tarkibiga mutaxassisning subyektiv xususiyatlarini ham kiritgan.

Qator tadqiqot ishlarida kasbiy kompetensiya fenomenini “tayyorgarlik” tushunchasi bilan qiyoslash keng tarqalgan. V.A. Slastenin nuqtayi nazariga ko‘ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi tushunchasi uning nazariy va amaliy tayyorgarligi shaxs umumiy tayyorgarligi tizimi tarkibiga kirib, kasbiy mahorat, uning kasbiy darajasini belgilaydi.

Kasbiy kompetensiyani oliy ta‘limning asosiy maqsadi sifatida Y.G. Tatur quyidagicha tariflaydi: “Oliy ma‘lumotli mutaxassis kompetensiyasi, uning amaliyotdagi intilishi va qobiliyati” (tayyorgarligi) hamda o‘zining imkoniyatlarini (bilim, mahorat, tajriba, shaxsiy fazilatlar va boshqalarni) muvaffaqiyatli, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, kasbiy va ijtimoiy sohada qo‘llashga

hamda bu faoliyatni ijtimoiy ahamiyatini, uning natijalariga nisbatan shaxsiy mas’uliyatni his etishi, doimo uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi kabi fazilatlarni ro‘yobga chiqaradi.

V.G. Pishulin kasbiy kompetensiya xoh umumiy, xoh maxsus bo‘lsin, ko‘p hollarda xotira, mantiqiy va ijodiy fikrlash, refleksiya, chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik, qat’iylilik, tartibli va o‘z so‘zida turish, ehtirolarga berilmaslik, kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, diqqat-e’tibor, jiddiylik va muomalaga kira olish kabi fazilatlarni yuzaga chiqishiga olib keladi, deb yozadi. Darhaqiqat, bo‘lajak mutaxassis – kasbiy ishlab chiqarish va texnologik sohalar kompetensiyalarini ham egallashi, loyihalash, ilmiy tekshirish va tashkiliy boshqaruv hamda kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lishi juda zarurdir.

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o‘qitish texnologiyasiga katta e’tibor berilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o‘qitish texnologiyalari bo‘lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli ba’zasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar faqatgina xalq manfaatlariga uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda. Shu bois ham biz buni «Mustaqillik in‘omi», «Mustaqillik imkoniyatlari» deya baralla aytishimiz mumkin. Chindan ham biz muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida qadrimiz, qadriyatlarimiz, qaddimiz tiklanayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, yosh avlodni - o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan bolajonlarimizni ilk yoshdan boshlab milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlar, vatanparvarlik ruhi asosida kamolga yetkazmog‘imiz lozim. Ta‘lim-tarbiya tizimida keng yo‘lga qo‘yilayotgan pedagogik texnologiyalar, pedagoglar tomonidan ilg‘or texnologiyalar mohiyatining anglab yetilishiga erishish, shuningdek, ularda ijodiy yondashuv asosida faoliyat yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan sanaladi. Shunday ekan, pedagogning ish ko‘lami kengayib bormog‘i kerak.

Darhaqiqat, bu vazifa bugungi kunda o’qituvchining asosiy faoliyatiga aylandi. O’qituvchidagi intellektual salohiyat - ishchanlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik xususiyatlari ta’lim mazmunining boyishida alohida va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim jarayonida ilg’or texnologiyalarning yangi-yangi usullarining qo’llanilishi darslarning rang-barang qiziqarli tarzda o’tishiga olib keldi, o’quv materiallarining chuqur o’zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratdi. Qolaversa, umumiy o’rta talim maktablari ham yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida katta imkoniyatlarga ega.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi maqolamiz har bir o’qituvchining o’qitishning ilg’or, samarali usullariga, yangilik tarzidagi uslublarga tayyor bo’lishi xususida boradi.

Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSh va G’arbiy Yevropa mamlakatlarida «ta’lim texnologiyasi» tushunchasi e’tirof etilgan vaqtida paydo bo’ldi, o’sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo’lishi va innovatsion ta’lim nazariyasining yaratilishi to’g’risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko’rsatdiki, bu tushunchalar ta’lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish orqali ta’lim tizimini isloh qilish; ta’lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta’lim jarayonida bolaga do’stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o’tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu - ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo’nalish tarkib topdi. Bu esa, o’qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

«Innovatsion pedagogik faoliyat» deb bir necha bor tilga olmoqdamiz. Innovatsiya» so’zining ma’nosi nima? Bu so’z inglizcha «inoveyshin» so’zidan olingan bo’lib, yangiliklar kiritish, degan ma’noni bildiradi. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga tadbiiq etish, innovatsion faoliyatlarni tahlil qilish orqali bu faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo’ldi.

Demak, innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg’a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Bu faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlab, uni takomillashtirib berishdan iboratdir. Biroq ta’lim tizimidagi har qanday yangilik yohud har bir yangilik ham innovatsiya bo’lolmaydi. Sabab: agar faoliyat jarayonidagi yangilik qisqa muddatli bo’lsa, ustiga-ustak tizimdagi ayrim elementnigina o’zgartirsa, u innovatsiya emas, «novatsiya» hisoblanadi. Shunday ekan, o’qituvchining darsi qiziqarli, samarali o’tishi uchun u pedagogik innovatsiyalarning yangi-yangi uslublarini izlab topishi, uni chuqur tahlillar ostida eng samaralisini tanlab olishi hamda amaliyotda qo’llashi lozim.

Buning uchun u eng avvalo, innovatsiyalar haqida aniq ma’lumotlar jamg’armasini yaratishi zarur. Nafaqat yaratishi, to’plashi, balki uni tasvirlab, tushuntirib, ifodalab ham bera olishi kerak. Ular yarim yillik bo’yicha metodik tavsiyalar va qoidalar sifatida taqdim etilishi ham mumkin. Chunki innovatsion faoliyatning miridan-sirigacha hammasi yozib kiritilmaydi, ular o’z-o’zidan ma’lumdek, tushunarlidek taassurot uyg’otadi. Ularning barchasi jonli faoliyatda namoyish etiladi.

Demak, yangilik kiritish jarayonida qabul qilingan modelni amaliy qo’llaniladigan dasturga aylantirish uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga tayyorgarlik uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo’lib, u juda uzoq vaqt davomida mukammallashib

boradi va bunda u pedagog-olimlar fikrlariga tayangan holda ish olib boradi. Bu faoliyatning zarurligini o‘qituvchi tushunib yetishi, innovatsiya kiritishga qaratilgan harakatlar samara keltirishiga ishonishi lozim. O‘qitishning bu usuli orasida didaktik o‘yinlar va obrazli o‘quv o‘yinlari ham alohida ahamiyat kasb etad

Didaktik o‘yinlarning metodik asoslari 4 bosqichni qamrab olgan: o‘rganiladigan mavzuning tanishtirilishi, o‘yin jarayonining yaxlit ko‘rinishi, stsenariydagi holatlar bayoni (darhaqiqat, bunday o‘yinlarni o‘tkazishda eng katta ahamiyat uning ssenariysining yozilish darajasiga qaratiladi), jumladan, stsenariyda o‘yin sharoitlari tasvirlanishi, o‘yin ishtirokchilari harakatlari yoki holatlarining ishlab chiqilishi, ularga metodik ko‘rsatmalar yaratish kabi masalalar bayon qilinadi. Shu asosda o‘yin harakatlari tashkillashtiriladi. Uni o‘tkazishda uchragan noaniqliklar bartaraf etiladi. O‘yin jarayonidagi barcha muammoli vaziyatni «yashab o‘tish» o‘yin harakatini yanada ochib beradi.

Bundan tashqari, pedagogning innovatsion tayyorgarligida bolalar bilan muloqot - dialog, sherikchilik, maqol-matallardan foydalanish, topishmoqlarni qo‘llash, hududiy o‘yinlardan, ashulalardan, hazil-mutoyibalardan foydalanishning ham ahamiyati benihoya katta. Yana nazorat ishlari, rollarga ajratib beriladigan o‘yinlar ham sinovdan yaxshi natijalar bilan o‘tgan metodik tavsiyalar hisoblanadi. Bularning barchasi o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligida yoki tayyorgarligini oshirishda jiddiy va zaruriy zahira hisoblanadi.

Zamonamiz kun sayin o‘zgarib borayotgan ekan, eng avvalo, ta’lim sohasi u bilan hamohang bo‘ladi. Va buning natijasida o‘qituvchidan o‘z faoliyatiga to‘xtovsiz o‘zgartirishlar kiritishni talab etadi. Ana shulardan kelib chiqqan holda o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini murakkab jarayon sifatida baholash mumkin. Chunki yuqorida aytib o‘tilgan usullar o‘qituvchi tomonidan ijodiy boyitiladi, rivojlantiruvchi axborotlar bilan to‘ldiriladi.

Bular shunchaki gaplar emas, natijasi samarali, tajribadan muvaffaqiyatli o‘tgan, tasdig‘ini topgan tavsiyalardir. Bunda o‘qituvchi, innovatsion faoliyatning sub’ekti va tashabbuskori sifatida yangilikni ijodiy izlanish natijasida yaratishi, uni mohirona hayotga tadbiiq etish hamda uni ommalashtirishda markaziy o‘rinda turishi lozim.

Yuqorida bildirilgan nisbatan umumiy va tor ma’nodagi fikrlardan tashqari pedagogning innovatsion tayyorgarligini fanlararo tizim, tarixiy, zaruriy va qonuniy tizim sifatida baholaganda ham uning mohiyatidan kelib chiqiladi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan qaralgan innovatsion faoliyatga tayyorgarlik o‘quvchining barcha-barcha sifatlarini hisobga olib ish ko‘radigan murakkab jarayondir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli poyoniga yetkazish – ro‘yobga chiqarish keng qamrovli maqsadlarga, qarama-qarshiliklarga, analitik, axborot va metodologik yo‘nallishlarga tayanishni taqozo etadi.

Shu o‘rinda keng qo‘llanilayotgan ilg‘or, zamonaviy texnologiyalar juda-juda asqotadi, ayniqsa, innovatsion texnologiyalar. Innovatorlar - yangilik yaratuvchilar esa, shubhasiz, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishishlari tayin.

REFERENCES

1. Nisanbayeva, A. (2023). THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE METHODS AND APPROACHES IN TEACHING NATIVE LANGUAGE. *Science and innovation*, 2(B2), 177-178.

2. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
3. Rustamova, Z. (2022). O‘ZBEK TILI DIALEKTAL KORPUSINI YARATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1255-1258.
4. Нисанбаева, А., & Чиналиева, А. (2022). ШАХС ФАОЛИЯТИДА МОТИВАЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 781-786.
5. Kaldibaevna, N. A. (2022). The System of Learning Word Composition and Formation in Mother Language Lessons of the Primary Class. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 48-51.
6. Bakiyeva, X. (2022). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQI VA TAFAKKURINI O‘STIRISH – TIL TA‘LIMINING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA. *Prospects of Uzbek applied philology*, 1(1).

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING DIZAYNERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV FIKRLASH

Norbutayeva Dilafroz Abdurasulovna

O‘zbekiston pedagogika fanlari

ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10679580>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishda kreativ fikrlashga o‘rgatishning pedagogik jihatlari, kreativ fikrlash jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, kreativlik orqali shaxsning mustaqil fikrlash sifatleri, ijodkorlik faoliyatida intellektual rivojlanishning pedagogik ta’sir vositlari yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kreativ fikrlash, kasbiy ijodkorlik, dizaynerlik kompetensiyasi, bilish, motivatsiya, intellektual, rivojlanish, ijod, ta’lim, texnologiya, dizayn, model, konstruksiyalash, modellashtirish, texnologik ta’lim.*

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va fan sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh zamirida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Jumladan, hozirgi davrda talabalarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlar va o‘qitishning yangi shakl, noan’anaviy metodlari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ulardagi kasbiy-pedagogik ijodkorlikni shakllantirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish metodlari mavjud bo‘lib, aynan mana shular uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladigan ta’sirchan choralarni ko‘rishni taqozo qiladi. Jamiyat rivojlanishi bilan texnika va texnologiyalarning juda tez almashinishi insondan o‘z hayoti mobaynida o‘zgarishi mumkin bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklarga moslashib borishni talab qiladi.

Shuning uchun talabalarda bo‘lajak kasbi va kasbiy faoliyatga kreativ yondashishni tarbiyalash zarur hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya o‘qituvchisi boshqa o‘qituvchilardan *farqli o‘laroq* ish uslubida kreativlik va ijodiy fikrlash qobiliyatlariga ega bo‘lmo g‘i zarur. Zehnllilik, topqirlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatleri, mustaqil va tanqidiy fikrlashning

tarkib toptirilishi bo‘lajak o‘qituvchining kreativlik faoliyatini tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi va iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi [1]. Kreativlik negizida qanday holatlar aks etadi, degan savolga javob qaytarar ekan amerikalik olim Patti Drepayeu quyidagilarni ko‘rsatadi: muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik [2]. Ko‘p holatlarda kreativlik ijodkorlikni ifodalaydi, ularning ikkisi bir-biriga sinonim tushunchalar, degan fikrni ilgari surishadi. Mohiyatiga ko‘ra, har ikki tushuncha turli holatlarni ifodalaydi. Ya’ni, ijodkorlik – ijod mahsulotini yaratishga qaratilgan harakat bo‘lsa, kreativlik – ko‘plab yangi, o‘ziga xos, bir-biriga o‘xshamagan, biror-bir muqobili bo‘lmagan g‘oyalarni ilgari surish sanaladi. Bir-birini taqozo etuvchi ushbu tushunchalar shaxs yangi, o‘ziga xos g‘oyalarga tayangan holda ijod mahsulotini yaratishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlashini rivojlantirish insonning bilish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Insonning bilish jarayoni psixik jarayonlarning tizimli tarzda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Bular bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy bilimlarni idrok etishi, xotirasida saqlab qolishi, eslab qolishi, qayta ishlashida o‘z ifodasini topadi. Ta’limda mazkur jarayonlarni faollashtiruvchi, mahsuldor usullar va metodlarni o‘tgan asrning oxirlaridayoq mutaxassislar tomonidan tizimli tarzda o‘rganila boshlangan.

Bunda bo‘lajak o‘qituvchining bilish faoliyatini jadallashtirish orqali kreativ fikrlashlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda maxsus fanlar tarkibiga kiruvchi “Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish” fani kreativ fikrlash, dizaynerlik faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. “Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish” fani amaliy mashg‘ulotida shu ta’lim yo‘nalishidagi barcha umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalar, ya’ni integratsion mazmun amalda qo‘llanilib, ta’lim oluvchilarning dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishda past kurslarda olingan nazariy va amaliy bilimlarini mazkur fanda qo‘llashlari uchun imkoniyat tug‘iladi, chunki “Materialshunoslik” fanida olingan bilimlarga asoslanib, model yaratishda gavda turiga moslab gazlamaning xususiyatini e’tiborga olib zamonaviy modellarni yarata oladi. “Chizma geometriya va muxandislik grafikasi” va “Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish” fanlarida turli buyumlarni konstruksiyalash va modellashtirish bo‘yicha egallangan bilimlariga asoslanib, tanlangan model uchun asos konstruksiyasini quradilar hamda texnik modellashtirib yangi model andozasini hosil qiladilar.

Tikuv buyumlari bo‘yicha mohir konstruktor bir vaqtning o‘zida bir nechta sifatlar egasi: rassom, kreativ fikrlovchi, o‘z g‘oyalarni eskizda, gazlamada amalga oshirishga qodir, shuningdek, kiyim orqali odamlarga o‘zlarining ichki fazilatlarini namoyon etishga yordam beradigan psixolog hamda ma’lum darajada rejissyor bo‘lib, mijozga har safar yangi obraz, yangi rol taklif qila oluvchi bo‘lishi lozim.

Dizayn – badiiy loyihalashning bir turi bo‘lib, buyumlar muhitini qulaylik, tejamkorlik va go‘zallik tamoyillarini birlashtirgan holda yaratishga xizmat qiladi.

Dizayn (ingl. design – loyiha, chizma, rasm) – narsalar muhitining estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi tushuncha. Dizayner esa, kuchli rassom va loyihachidir.

Tikuvchilik buyumlarini loyihalash bilan shug‘ullanadigan kishi o‘z faoliyatining pirovardida chiroyli buyum yaratishga harakat qilar ekan, birinchi navbatda, mazkur buyumning estetik qiymati nimadan iborat ekanligini bilishi lozim. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirishda kreativ fikrlashlarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri mashg‘ulotlarda ta‘lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishidagina emas, o‘qitish shakllarining aniq belgilanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan ham izohlanadi. Kasb ta‘limida amaliy metodlar eng samarali metod hisoblanib, bu metod talabalar ongida ma‘lumotning 75%i saqlanib qolishi bilan ahamiyatlidir. Lekin, o‘quv-materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlarini mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% bilim o‘zlashtiriladi va ko‘nikma hosil bo‘ladi. Demak, talabalarni mustaqil o‘rganish, izlanish, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ta‘sirilariga yo‘naltirilgan faol metodlarni qo‘llash yaxshi samara beradi. O‘qitish jarayonida guruhdagi talabalar soni muhim ahamiyatga ega.

Agar guruhda talabalar ko‘pchilik bo‘lmasa, faol metoddan foydalanib, o‘qitishni jadallashtirish mumkin. Agar talabalar ko‘p bo‘lsa, faol metodlardan foydalanish yaxshi natija bermasligi mumkin. Talabalarning har biri bilan ishlashning imkoni bo‘lmaydi. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi to‘laqonli ijodiy, amaliy, mustaqil faoliyat yuritishi uchun kompleks bilim va malakalarga ega bo‘lishi, ya‘ni yetarlicha bilim-malakali konstruktor-texnolog bo‘lishi lozim.

Bunda ixtisoslik fanlaridan “Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish” bilan birgalikda “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi” fanlarini o‘qitish jarayonini bosqichma-bosqich qayta ko‘rib chiqib, yuqoridagi bildirilgan fikrlarga asoslangan holda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash bosqichlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: 1. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda Davlat ta‘lim standartlariga muvofiq ta‘lim mazmuni belgilanadi. 2. Ta‘lim oluvchiga bilim berishdagi o‘qitishning: og‘zaki (suhbat, hikoya, tushuntirish, ma‘ruza, bahsmunozara, natijalarni tahlil qilish); ko‘rsatmali metodlar (rasmlar, plakatlar, xom-ashyoni namoyish etish, slaydlar); amaliy metodlari dars mavzulariga mos ravishda tanlanadi. 3. Ta‘lim shakllari: guruhda, yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhda, guruhlararo o‘quv xonalarida olib boriladi. 4. Ta‘lim vositalari: tikuv mashinalari, dastgohlar, gazlamalar, kostyum andozalari, qirqish moslamalari, manekenlar, tayyor mahsulotlar. 5. Texnik vositalar: kompyuter, videofilmlar, multimedia, doska-stendlardan foydalanish yo‘llari aniqlanadi. 6. O‘quv materiallari – chop etilgan o‘quv va ko‘rgazmali materiallardan foydalaniladi.

Ta‘lim oluvchida dizaynerlik kompetensiyasi rivojlanishi uchun umumkasbiy, ixtisoslik fanlardan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, avtomatlashtirilgan nazariy bilim va ko‘nikmalar majmui, nazorat, shuningdek, monitoring tizimi ishlab chiqilishi zarur. Bu bosqichlar to‘liq amalga oshirilgach, dizaynerlik kompetensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lajak texnologiya o‘qituvchi shakllanadi. Tavsiya qilingan bu bosqichlarni amalga oshirishda ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talab etiladi. Shunday qilib, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilariga umumkasbiy, ixtisoslik fanlarini olib borishda ta‘lim usullari va mashg‘ulot shakllaridan oqilona foydalanish orqali ta‘lim oluvchilardagi texnologik kompetentlik, loyihalash

va kreativ (ijod qilish) kompetentliklari rivojlanishi orqali dizaynerlik kompetensiyalarini shakllanganligi va rivojlanganligi ko‘rinadi, ya’ni mazkur fanlarni o‘qitish orqali ta’lim oluvchilarda dizaynerlik kompetensiyalarini o‘zida aks ettiruvchi mezonlar: konstruk-texnologik kompetensiya va kreativ kompetensiya (ijod qilish, dizaynerlik qobiliyat) shakllanadi.

Oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarga har tomonlama chuqur bilim berish, ularda izlanuvchanlik, intiluvchanlik, ijodkorlik malakalarini shakllantirish, har qanday sharoitda muammolar yechimini topishga o‘rgatish oldimizda turgan asosiy maqsad va vazifalardandir.

Adabiyotlar

1. Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Т.: ТДПУ, 2015.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

FOREIGN EXPERIENCES CAN EMPOWER UZBEK EDUCATION AND TEACHER COMPETENCE

Nurillaev Mukhammadkhon Isroilkhon ugli

3rd grade Student of Tashkent state university of economics

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676560>

Abstract. *Uzbekistan embarks on a transformative journey, recognizing education as its cornerstone. Traditional methods, however, restrict critical thinking and limit teacher's effectiveness. This paper explores how foreign experiences can empower Uzbek education and teacher competence. Drawing inspiration from Finland's student-centered approach and Singapore's rigorous standards, the paper proposes concrete avenues for action: teacher exchange programs, online resource platforms, and international partnerships. By investing in teachers, nurturing their competence, and embracing international collaboration, Uzbekistan can unlock its educational potential, empowering future generations to flourish in a rapidly evolving world. This journey requires navigating cultural differences, adapting best practices, and strategically allocating resources, but the potential rewards are immeasurable. Building the future, brick by brick, with teachers as architects of change – this is the promise Uzbek education holds, awaiting to be unlocked.*

Key words: *education, teacher competence, foreign experiences, student-centered learning, rigorous standards, collaboration, online resources, partnerships, empowerment.*

Uzbekistan is a nation undergoing a remarkable transformation. Education, recognized as the cornerstone of this progress, stands at the forefront of this journey. Yet, challenges remain. Traditional, teacher-centered methods hold back the potential for critical thinking and creativity, while limited exposure to contemporary approaches restricts teachers' ability to cater to diverse learning styles. But beyond its borders, a world of inspiration awaits. By harnessing the best practices gleaned from foreign experiences, Uzbekistan can unlock the true potential of its education system, empowering teachers to become the architects of a brighter future. Let's embark on a journey of discovery, exploring how these international insights can pave the way for a more enriching and empowering educational landscape.

Learning from Global Leaders: Finland, with its consistently high rankings in international assessments, offers a compelling model. Imagine classrooms buzzing with collaborative activities, where students take ownership of their learning through project-based explorations and inquiry-driven approaches. Technology seamlessly integrates into lessons, not as a distraction, but as a powerful tool for discovery and expression. This student-centered philosophy, where teachers act as facilitators rather than sole deliverers of knowledge, is a paradigm shift waiting to be embraced.

Across the globe, Singapore offers valuable lessons in academic rigor and teacher training. Imagine educators equipped with cutting-edge pedagogical skills, honed through intensive programs and ongoing professional development. Standardized tests still play a role, but they are just one piece of a comprehensive assessment system that measures critical thinking, problem-solving, and real-world skills. This commitment to high standards, coupled with ongoing support for teachers, creates fertile ground for academic excellence.

More Than Just Inspiration: Simply admiring these models from afar won't suffice. Uzbekistan needs a roadmap to translate these insights into tangible action. Consider these potential pathways:

Embracing Exchange: Imagine teachers stepping into vibrant Finnish classrooms, observing firsthand the power of student-centered learning. Conversely, experienced educators from abroad could share their expertise in Singaporean classrooms, fostering cross-cultural understanding and knowledge exchange. Such exchange programs, carefully designed and implemented, can be bridges of transformation.

Unlocking Online Resources: Imagine teachers across Uzbekistan, regardless of location, accessing a treasure trove of high-quality online resources. Imagine interactive modules on flipped classrooms, project-based learning, and technology integration, translated into Uzbek and readily available at the click of a mouse. Such online platforms can democratize access to knowledge, empowering teachers nationwide.

Building Partnerships: Imagine Uzbek universities forging strong bonds with renowned institutions abroad. Imagine joint research projects exploring effective teaching methods, collaborative curriculum development initiatives, and even virtual teacher mentoring programs. These partnerships can be catalysts for innovation, drawing on collective expertise to fuel progress.

Investing in the Architects of Change: Empowering teachers isn't just about providing resources; it's about recognizing their pivotal role in shaping the future. Imagine teachers who are not simply dispensers of knowledge, but passionate facilitators, mentors, and guides. Imagine classrooms where creativity thrives, critical thinking is celebrated, and every student feels empowered to reach their full potential. This vision can only become reality by investing in teachers, nurturing their competence, and igniting their passion for lifelong learning.

A Journey Shared is a Journey Worth Taking: The road ahead may not be without its challenges. Cultural differences need to be navigated, best practices adapted to local contexts, and resources strategically allocated. Yet, the potential rewards are immeasurable. By embarking on this journey of international collaboration, Uzbekistan can unlock its educational potential, empowering its future generations to thrive in a rapidly changing world. Remember, education is not merely about imparting knowledge; it's about building the future, brick by brick, with teachers as the architects of change. So, let's join hands, share our experiences, and together, craft an educational landscape that empowers Uzbekistan's future.

It should be noted that the development of the system of pedagogical education in Uzbekistan is being provided through research and practical implementation of modern principles of professional pedagogy, one of which is the principle of perspective-advanced training of future teachers; the comparative analysis of the trends in the current training of teaching staff in Uzbekistan and abroad shows the similarity and difference of some approaches to this problem. Most scientists dealing with the problems of teacher education in Uzbekistan note that the term "competitiveness of a specialist" is inappropriate for a teacher. As you know, competitive ability plays an important role for a specialist in the labor market. The National Doctrine of Education of the Republic of Uzbekistan pays special attention to the need to further improve the education system and improve the quality of training and the level of qualification of teaching staff.

Conclusion. As Uzbekistan strides towards progress, its education system holds the key to unlocking its true potential. Embracing the best practices gleaned from abroad – from the student-centered ethos of Finland to the rigorous standards of Singapore – can empower teachers to become the architects of a brighter future. By fostering collaboration, investing in

resources, and recognizing the pivotal role of educators, Uzbekistan can build an educational landscape that fosters critical thinking, ignites creativity, and empowers every student to reach their full potential. Remember, this journey starts with a single step, a bridge built through shared experiences, leading towards a future where education truly transforms lives.

REFERENCES

1. M.V. Fominykh,. Development of the Pedagogical Educational System in Conditions of Modern Society ISSN: 2357-1330 <https://dx.doi.org/10.15405/epsbs.2019.03.34>
2. Wilfred Lau., Means to an End: A Comparative Review of Finland and Singapore’s Basic Education Systems
3. Akter, A. ,. (2014). Immigrant Students' Academic Performance in Australia, New Zealand, Canada and Singapore. Joint AARE-NZARE 2014 Conference Papers. Adelaide: Flinders University.
4. Fayzievna H. M. Ways of professional training of children with the limited opportunities //Social and Natural Sciences Journal. – 2012. – T. 4.
5. Khakimova M. F., Kayumova M. S. Factors that increase the effectiveness of hybrid teaching in a digital educational environment //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – C. 370-375.
6. Xakimova M. THE NECESSITY OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN IN CREATING FAMILY WELL-BEING //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
7. Kayumova M. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARNING MOHIYATI VA TAMOYILLARI

Olimova Feruza Karimjonovna

TDPU mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676564>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarining samaradorligi va zaruriyatiga oid g‘oyalar yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *Innovatsiya, shaxs sifatleri, psixik jarayonlari, xususiyatlari, tajriba va shaxsning yo‘nalganlik sathi, aksiologiya, akmeologiya, kreativlik, refleksiya, pedagogika, pedagogik texnologiya, intellektuallik, innovatsion texnologiyalar, tamoyillar, qonuniyatlar, mezonlar, texnologiklik mezonlar.*

Аннотация. Данная статья проливает свет на эффективность и необходимость процессов подготовки студентов к творческой деятельности посредством персонализированных технологий обучения.

Abstract. This article sheds light on the effectiveness and necessity of the processes of preparing students for creative activities through personalized teaching technologies.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub’ekt sifatda namoyon bo‘ladi, o‘quvchilar esa faqatgina «ob’yekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o‘quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an’anaviy o‘qitish, avtoritar

texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo YA.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o‘qitishning «sinf-dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko‘p tarqalgan o‘qitishning «sinf-dars» tizimi hisoblanadi, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo‘lgan o‘quvchilar sinfni (guruhni) tashkil etadi:

Sinf (guruh, oqim) yagona o‘quv reja, yagona o‘quv dasturlar va yagona mashg‘ulotlar jadvali bilan Shug‘ullanadi;

Mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi;

O‘quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo‘llaniladi.

An’anaviy o‘qitish asosan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, Shaxsning rivojlanishini ko‘zda tutmaydi.

An’anaviy o‘qitish asosini, YA.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o‘qitish rivojlanish bilan belgilanadi va Shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o‘zlashtiruvchanlik (ma’lumdan noma’lumga, soddadan murakkabga);
- mustahkamlash (takrorlash, takrorlash ...)
- onglilik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.

An’anaviy o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo‘ravonlik pedagogikasi, o‘qitishning tushuntiruv-ko‘rgazmali usuli, ommaviy o‘qitish. An’anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi Shaklda namoyon bo‘ladi: o‘quvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs (3.1.-rasm).

Mumtoz an’anaviy «sinf-dars» tizimi - bu bayon etishning ma’ruzaviy usuli va kitob bilan mustaqil ishlashni o‘z ichiga oladi (didaxografiya).

Zamonaviy an’anaviy o‘qitish esa, o‘qitishning texnik vositalarini qo‘llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda, o‘quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart sharoitlar yaratiladi.


O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim tizimining milliy modeliga alohida e’tibor qaratilgan. Shaxs, davlat va jamiyat, o‘zluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta’lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «Shaxs» birinchi o‘rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta’lim tizimi, shu jumladan, o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Hayot dialektikasi Shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko‘ra rivojlanganroq bo‘ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrigacha (XX asrning birinchi yarmigacha), fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyutsion, past sur‘atlarda amalga oshar edi.

Shuning uchun ketma-ket keluvchi avlodlarning rivojlanish darajasi deyarli farq qilmas edi. Bunday sharoitlarda YA.A.Komenskiyning o‘qitishning avtoritar texnologiyasi, an’anaviy «sinf-dars» tizimi dunyoga keldi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida (XX asrning ikkinchi yarmi), fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur’atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko‘ra ko‘proq bo‘lgan bu davrda, o‘qitishning an’anaviy tizimi (Shu jumladan zamonaviy an’anaviy o‘qitish) o‘z umrini oxiriga yetdi. Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur’ati oldingilardan ko‘ra ancha yuqori bo‘lganligi sababli, o‘qitishning an’anaviy tizimi, rivojlanishga to‘sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir Shaxsning mavjud imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o‘qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O‘qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o‘quvchiga bo‘lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur. Mazkur jarayonlarni samaradorligini oshirish imkoniyatlari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.



3.1.-rasm. O‘qitish texnologiyalarining blok-sxemasi

O‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo‘ladi:

- *insonparvarlik*, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;
- *hamkorlik*, ya’ni pedagog va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- *erkin tarbiyalash*, ya’ni Shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o‘quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- pedagogik jarayonda Shaxs ob’ekt emas, sub’ekt hisoblanadi;
- har bir o‘quvchi qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;

• yuqori etnik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) Shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish;
- o‘quvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi;
- pedagog va o‘quvchilar munosabati zayli: taqiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g‘ayri insoniy hisoblanadigan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona me‘zonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo‘ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o‘qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- o‘quv materialiga qiziqish uyg‘otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish;
- o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta‘minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta‘lim tizimida o‘quv fanidan o‘quvchiga emas, o‘quvchidan o‘quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirishdan voz kechish;
- Shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- Shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo‘ladi:

- har bir o‘quvchi qiyofasida noyob Shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o‘quvchilar iste‘dodli degan ishonch bo‘lishi kerak;
- Shaxsga, yutuqni ma‘qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya‘ni o‘qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak;
- bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;
- pedagogik jarayonda, o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish.

Oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tizimi uchun, o‘qitishning Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishbilarmonlik o‘yinlari;
- muammoli o‘qitish;
- tabaqalashtirilgan o‘qitish;
- dasturlashtirilgan o‘qitish;
- kompyuterlashtirilgan o‘qitish;

- modulli o‘qitish.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti jadallashtirilgan davrida rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta’kidlash to‘g‘ri bo‘lar edi.

Qadimiy faylasuf Sokrat o‘z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi.

Qadimiy Rim pedagogi M.F.Kvantilian har bir Shogirdga e’tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi.

O‘rta asr Sharqining buyuk olim-mutafakkirlari tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgan. Asrlar, ming yillar davomida Shaxsga muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida sivilizasiya shakllanib keldi.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mintaliteti insonga muhabbat va hurmat ko‘rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqimiz bolalarga “siz” deb munosabat qilur, kattalar ularga birinchi bo‘lib “salom” berur.

Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g‘oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning “Hadis” kitobida “Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o‘pib quchoqlamoq haqida” yoritilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining o‘zagi shaxslar o‘rtasidagi yuqori qadriyatlar, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi. Bu qadriyatlar Al-Buxoriyning “Hadis” kitobida “Shirin so‘z odam haqida”, “So‘kmoq va la‘natlamoq ta’qiqlanganligi haqida” boblarda namoyon etilgan. Unda Shaxsni so‘kish uni o‘ldirish bilan tenglashtirilgan.

Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlariga asoslangan ta’limimiz, jahonda fanning shakllanishiga va rivoji uchun o‘zining munosib xissa qo‘shgani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, A.Beruniy, Al-Xorazmiy, M.Ulug‘bek, Al-Buxoriy, A.G‘ijduvoni, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning ta’limoti, jahon sivilizasiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda. Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog-olimlari hissa qo‘shgan, jumladan: italiyalik Vittarino di Feltre, fransuz Fransua Rable, ingliz Tomas More, nemis A.Distruverg, rus K.D.Ushinskiy va boshqalarni ta’kidlab o‘tish mumkin. Bular gumanistik tarbiyani, mustaqil fikrlashni rivojlanishini, ijodni, faolligini, ko‘rgazma materiallarni keng foydalanishini, nazariy ta’limni mehnat bilan bog‘lanish tarafdori edilar. Ular pedagogik jarayonda o‘quvchilarni sub’ekt deb hisoblar edilar.

REFERENCES

1. Ochilov M. Oliy maktab pedagogikasi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: "O‘qituvchi". 2007.
2. Shodmonova Sh., Xoshimova M., Fayzullaeva N. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. T.: Fan va texnologiyalari. 2008.
3. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - T.: Moliya, 2006.
4. Shodmonova Sh., Olimova F. “Pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanma. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2023.
5. Shodmonova A.Sh., Olimova F. “Pedagogika” darslik. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2023.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING METODIK ASOSLARI

Raxmatov Otabek Urinbosarovich

Navoiy davlat pedagogika institute Sport turlarini o‘qitish metodikasi kafedrasini dotsenti v.b.,
p.f.b.f.d. (PhD)

E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676600>

Globallashuv sharoitida jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayoni tobora takomillashib borayotganligini kuzatish mumkin.

Hozirgi kunda bo‘lajak mutaxassislarning boshqaruv faoliyatida yuqori ishchanlikni va maxsus tayyorgarlik natijadorligi zamon talablariga javob beradigan darajada emasligi uchrab turadi.

Jismoniy tarbiya va sport ishlarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari, yo‘llari va shakllari kun sayin boyib, ravnaq topmoqda.

O‘zbekistonda turli idoralar konsern, kompaniya va savdo-tijorat xo‘jaliklarining vujudga kelishi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqarish usullarining yangi tartib-qoidalariga rioya qilishni taqozo etmoqda.

Ta‘kidlash zarurki, sport klublar, o‘quv yurtlari va turli muassasalarning boshlang‘ich jismoniy tarbiya jamoalari ham boshqaruvning turli-tuman yangi usullarini qo‘llashlari lozim bo‘ladi. Bunda o‘quvchi va mehnatkash yoshlar, ziyolilarning tashabbuslari, ijodkorligiga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori sport tashkilotlari, oliy o‘quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlari, kafedralar, sport klublar faoliyatida ishlarni ilmiy asosda tashkil qilish eng zarur usullardan hisoblanadi.

Sport tashkilotlari faoliyatini boshqarish va ommaviy sog‘lomlashtirish musobaqalarini tashkil etishda rahbar xodimlar, mas‘ul tashkilotchilar hakamlar, xizmatchilar, vakillar va hokazolar, jamoalar umumiy qoidalarga itoat etish, o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish, sport musobaqalari qoidalariga to‘la rioya qilish, etik-estetik me‘yorlarni bilish kabi talablarni bajaradilar.

Jahon sporti harakati, qolaversa, respublikadagi jismoniy tarbiya harakati tajribalarida jamoa, rahbar, guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va rasmiy munosabatlar tabiiyligi ma‘lum. Ular ish faoliyatini yaxshilash, munosabatlarni mustahkamlash, yuqori samaralarga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Bu jarayonlar hayotda oson kechmaydi. Chunki har bir rahbar va ijrochining o‘ziga xos fe‘l-atvori, xususiyati, istagi, maqsadi, imkoniyati bo‘ladi.

Jamoani boshqarishda mehnatni ilmiy tashkil qilish xodimlarning asosiy faoliyatlaridan biridir.

Mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslari yuzasidan zarur bilimlarga ega bo‘lish, shu maqsaddagi ishlarni rivojlantirish shaxsan rahbarlik qilish ishlarini har bir fuqaro, ayniqsa, o‘qimishli kishilar, xodimlar bilishlari zarurdir.

Boshqarishni ilmiy tashkil qilish deganda, asosan, nazariy bilim va amaliy ish tajribalarini hamda eng ilg‘or va fanda asoslangan ish natijalarini hayotda qo‘llash, ularni amalga oshirish, tegishli samaralarga ega bo‘lishni tushunmoq kerak.

Boshqarishning huquqiy usullarida rahbar xodimlar va sportchilar qonunlar, nizomlar va kerakli me‘yoriy aktlarni o‘zlashtirib olishlari, huquqiy bilimlardan xabardor bo‘lishlari zarur.

G‘oyaviy va ma‘naviy ta‘sir etuvchi usullarda rahbarlar respublikada kechayotgan siyosiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar va davlat rahbarlari talablariga rioya qilishlari lozim. Ma‘naviy-

ma‘rifiy va milliy xususiyatlarini yaxshi o‘zlashtirgan holda muomala qilish va jamoalarda komandalarda ta‘lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishini kuzatib borish kerak.

Respublikamizdagi boshqaruv faoliyatini professional darajada bajarishga qodir mutaxassisni tayyorlash, sportda tadbirkorlik faoliyatini yaratish va samarali olib borish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida “Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o‘qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish” kabi vazifalar belgilab berilgan.

Respublikamizda va xorijda bo‘lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash muammosini o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Boshqaruv faoliyati jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassisi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sportchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi – murakkab, ko‘p omilli hodisa bo‘lib, u sportchining eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishishini ta‘minlovchi maqsad, vazifalar, vosita va usullarning tashkiliy shakllari, moddiy-texnik sharoitlar va sportchining musobaqalarga tayyorlanishining tashkiliy-pedagogik jarayonini o‘z ichiga oladi.

Sportchini tayyorlash tizimi tarkibi quyidagi omillarga ajratiladi:

- sport mashg‘uloti;
- sport musobaqalari;
- mashg‘ulot va musobaqalarning natijalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi mashg‘ulot va musobaqalarga taalluqli bo‘lmagan omillar.

Sport mashg‘ulotlari – bu sport tayyorgarligining bir qismidir. Sport mashg‘ulotlari maxsus jarayonni o‘z ichiga olib, aniq tanlangan sport turi bo‘yicha, sportchini yuqori ko‘rsatkichlarga erishishida, jismoniy mashqlar orqali organizmni rivojlantirish, jismoniy sifatlar va qobiliyatlarni takomillashtirish uchun foydalanilgan maxsuslashtirilgan jarayondir.[1, 11-b.]

Mashg‘ulot jarayonini boshqarishning samaradorligi, modellashtirish va modellardan sport mashg‘uloti har xil tavsiflarni aniqlashda va tuzilish qismlarini ratsional uslubda tashkil qilishda foydalaniladi. Sport mashg‘ulotining hamma obyektlari va ko‘rinishlarini kuchlanishlari va ularning murakkabligi hamda ko‘pgina omillar modeli yetarlicha to‘liqliligini ko‘rsatadi. Ko‘pgina model tavsifini ko‘rsatuvchi alohida ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.[2, 212-b.]

Sportchini asosiy tayyorgarlik va musobaqa faoliyatining tomonlarini modellashtirishda faqatgina sonli tomonlari emas, balki aniq sportchi uchun qaysi sport turiga taalluqli tomonlarini aniqlash kerak. Shuningdek, ayrim o‘lchamlarning o‘zgaruvchanligini, sportchining organizm holatiga musobaqa faoliyatini har xil bosqichlarida va mashg‘ulot jarayonini har xil tuzilishini inobatga olish kerak [2, 213-b.]. Jismoniy tarbiya va sport sohasida bo‘lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatida yuqori ishchanlikni va maxsus tayyorgarlikni standart ketma-ketlikda bajartirishga qaratilgan kompleks harakatlarni tadbqiq qilish orqali yuqori natijadorlikni ta‘minlash, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo‘lajak mutaxassislarni o‘quv jarayonida boshqaruv ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali boshqaruv faoliyatiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo‘lajak mutaxassislarni o‘quv jarayonida boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali pedagogik shakllar va metodlarni qo‘llagan holda kreativ kompetentlik darajasini oshirishga qaratilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratish, jismoniy tarbiya va sport sohasida bo‘lajak mutaxassislarning qiziqishlariga, jismoniy

tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib sog‘lomlashtirish texnologiyasi dasturlarini ishlab chiqish kabi vazifalar ustuvorlik kasb etadi.

Pedagogik jarayonlarda motivlashtirish ijtimoiy amaliyot va ta‘lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, subyektlarning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tahlil qilish orqali ularning faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Mavjud ehtiyojlarni o‘rganish asosida o‘quvchilar faolligini ta‘minlashga va rivojlantirishga, ya‘ni o‘qish, o‘rganish va bilim olishga yo‘naltiruvchi motivlarni shakllantirish pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta‘minlash va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, shuningdek, dam olish, bilim olish, hunar o‘rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi. [3, 20-b.].

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo‘lajak mutaxassislarini boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni, “sport tadbirlarini tashkillashtirish o‘yinlari”, “murabbiylik faoliyatda bashorat qilish o‘yinlari”ni qo‘llagan holda tashkilotchilik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmni o‘quv jarayoniga kiritish hisobiga boshqaruv faoliyatiga kompleks tayyorlash metodikasini ishlab chiqish zarurligini taqazo etadi.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash lozimki jismoniy tarbiya va sport sohasida bo‘lajak mutaxassislarini boshqaruv faoliyatiga kompleks tayyorlash metodikasini belgilovchi komponentlari quyidagilarda o‘z aksini namoyon etadi:

- boshqaruv faoliyatida malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- kommunikativ qobiliyatlar va muammoli pedagogik vaziyatni panoramik ko‘rishini rivojlantirish;
- strategik va innovatsion fikrlashni shakllantirish;
- jamoani boshqarish tashabbuskorligi va qobiliyatini yaxshilash;
- o‘z-o‘zini tahlil qilish, pedagogik jarayonning aniq bir holatida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyatini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida bo‘lajak mutaxassislarining tashkilotchilik kompetentligi, yuqori mas‘uliyat hamda shaxsiy va jamoaviy faoliyatni pedagogik jihatdan malakali tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsning o‘sib borayotgan tashabbusi sharoitida amalga oshirilishi kerak.

Buning uchun talabalarning ijodiy faoliyatiga e‘tibor qaratish, har bir talabaning individual qobiliyatlarini maksimal namoyon bo‘lishini hisobga olgan holda talabalarga davlat yoki nodavlat sektorining sport tashkilotlaridan birida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoniyatini berish lozimligini ko‘rsatmoqda.

REFERENCES

1. Hayitov O.E. Sport faoliyati psixologiyasi. Darslik. Toshkent: “Umid Design”, 2021. – 196 b.
2. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zDJTI nashriyoti, 2005. -251 b.
3. Turg‘unov S.T. va boshq. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. Monografiya. Toshkent. 2014. -122 b.

SOGʻLOM AVLOD TARBIVASIGA ZARURIY BIOLOGIK-EKOLOGIK JIHATLAR BOʻYICHA RIVOJLANGA MAMLAKATLARNING TAJRIBALARI

Raxmonova Dilovar Ostanaqulovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676577>

Annotatsiya. Maqolada Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi ilgʻor xorijiy taʼlim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy taʼlim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Oʻzbekistonning ayni damdagi yutuqlari eʼtirof etilgan.

Kalit soʻzlar: taʼlim, tajriba, xorijiy tajriba, intuitiv, adekvat, patologik jarayon, anatomok-fiziologik.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida oʻz tasdigʻini topmoqda [1]. Biz mustaqilligimizning ilk yillaridanoq sogʻlom avlod tarbiyasini evg ustuvor vazifa deb belgiladik. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Mustaqil Vatanimizning birinchi ordeni «Sogʻlom avlod uchun» deb atalgani, «Sogʻlom avlod uchun» xalqaro xayriya jamgʻarmasining tashkil etilishi fikrimiz tasdigʻidir. Sogʻlom avlod deganda, eng avvalo, sogʻlom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhi, fikri sogʻlom, imon-eʼtiqodi butun, bilimli, maʼnaviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod tushuniladi. Buyuk davlatni faqat sogʻlom millat, sogʻlom avlodgina qura oladi. Lekin sogʻlom avlod tarbiyasi oson ish emas. U har bir inson, har bir oila va jamiyatdan jiddiy eʼtibor va uzluksiz mehnat talab qiladi.

Bolalar organizmi muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda oʻsib, rivojlanib boradi. Bola oʻsib, rivojlanish jarayonida maʼlum bir davrlarni boshidan kechiradi. Har bir davr boladagi oʻziga xos anatomok-fiziologik xususiyatlar bilan taʼriflanadiki, ushbu xususiyatlar jamlanib bola organizmining reaktiv xossalari va qarshilik qilish qobiliyatiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Bu esa oʻz navbatida turli yoshdagi bolalarda aniq bir kasallikning oʻtishiga va patologik jarayonlarning oʻziga xos kechishiga olib keladi [2].

Inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr koʻrishning yagona yoʻli sogʻlom turmush tarzi ekanligi hech kimga sir emas. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda yashovchilar koʻproq turmush tarzini sogʻlomlashtirishga harakat qilishadi.

Insonning salomatligiga aloqador hayot faoliyati oʻziga xos jonli tizim boʻlib, u umri mobaynida turli oʻzaro bogʻliq davrlarni va bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Ular orasida biologik, psixologik, ijtimoiy bosqich va omillar tizimi alohida oʻrin tutadi. Odamning sogʻ-salomatligi ana shu har bir bosqichda oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Masalan, biologik bosqichdagi salomatlik asosan ichki organlar funksiyalarining oʻzaro dinamik mutanosibli va ularning tashqi atrof-muhit taʼsirlariga nisbatan toʻgʻri, adekvat javobi tarzida namoyon boʻladi. Shuni eʼtirof etish lozimki, bizning oʻz salomatligimizni muhofaza qilishimiz, organizmimizning himoya imkoniyatlarini oshirib, betob boʻlib qolganimizda qanday yoʻllar bilan xastalikdan qutulish boʻyicha fikrlar va tajriba umr davomida takomillashib boradi. Bu jarayonlarga aloqador psixologik-ruhiy omillar toʻgʻrisidagi tasavvurlarimiz, afsuski, u qadar aniq va mukammal emas. Chunki odam tanida, ichki organlarida nimalar roʻy berayotganligini bevosita his qilishga qodir emas

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini o'rganish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Koreyada bolalar bog'chasi 0 yoshdan boshlab 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga tarbiya va ta'lim beradigan muassasa bo'lib, bolalarni tarbiyalash bo'yicha qonunning 10-bandi (bolalar uylarining turlari) ga asoslanib Sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya vazirligi buyrug'i bilan tashkil etilgan muassasadir. Bolalar parvarishi muassasalarining xizmat ko'rsatish soatlari ish kunlariga qarab 07:30 dan 19:30 gacha. Ta'lim muassasasiga qarab, kengaytirilgan kechki bola parvarishi va 24 soatlik bola parvarishi ham taqdim etiladi.

Bolalar bog'chasi bola sog'lom, xavfsiz va to'g'ri ulg'ayishi uchun kerak bo'lgan omillar, tana, jamiyat, til, ong, did kabi xislatlarni bolada rivojlantirish uchun ta'lim beriladi. Bolalar bog'cha-maktabi 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasasi hisoblanadi. Ta'lim vaqti odatda soat 09:00 dan 17:00 gacha hisoblanadi. Ayrim maktabgacha ta'lim muassasalari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib ota-onasining ikkalasi ham ishlaydigan oilalarning farzandlari uchun soat 07:00 dan 22:00 gacha qo'shimcha vaqtda ham bolalarga qarashlari mumkin. Bolalar bog'cha-maktabi bolaning qalbi va tanasining uyg'un ravishda rivojlanishiga yordam berib, mustaqil davlat farzandlari asosiy yashash sharoitini yaxshilashga asosiy e'tibor qaratib, tana jismoniy harakati, tana salomatligi, odamlar bilan muloqoti, jamiyatda odamlar bilan aloqasi, san'atni amaliyotda o'rganish, tabiat bilan yaqindan tanishish kabi 5 ta punktdan iborat ta'lim jarayoni o'rgatiladi. Ko'pincha amaliyot va faoliyat (mavzu) ga asoslangan birlashtirilgan ta'lim jarayoni orqali bolalarning kelajakda yetuk inson bo'lib yetilishiga yordam beradigan ta'lim jarayoni o'tiladi.

Yapon ta'lim muassasalarida nafaqat ta'limga, balki tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratiladi, ularda atrofda tilarning eng yaxshisi va eng yomoni tushunchasi mavjud emas. “Ikudzi” – ushbu atama yaponlarning bola tarbiyasidagi eng muhim unsurlarni ifodalovchi tushuncha bo'lib, ana shu xususiyat uni boshqa millat vakillaridan ajratib turadi. Bu nafaqat pedagogik usullarning kombinatsiyasi, balki yangi avlodlarni o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan butun bir mexanizmdir.

Yaponiyada ota-onaga hurmat juda yuqori bo'lib, bu ham bola hayotining dastlabki davrida shakllantiriladigan tushunchalardan biridir. Qadim zamonlardan beri yapon oilalarida farzand tarbiyasi ayolning burchi deb qaralgan. Agar ayol onalik maqomiga ega bo'lsa, o'zini bunga to'liq bag'ishlashi kerak. Bola uch yoshga to'lgunga qadar ishga borish, bolani buvisi va buvisining qaramog'ida qoldirish ular uchun yot tushunchalardir. Ayolning asosiy vazifasi ona bo'lishdir va Yaponiyada o'z majburiyatlarini boshqalarga o'tkazish mutloq mumkin bo'lmagan holatdir.

Bundan tashqari, bir yilgacha ona va bola deyarli bir butundir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. Germaniyada maktabgacha ta'limda 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun. Nemis maktabgacha ta'limining (3 yoshgacha) asosiy ta'lim missiyasi bolalar o'rtasida muloqot qilish qobiliyatini oshirishdir. Ikkinchidan, bu boshqa bolalar va kattalar bilan ijtimoiy muloqot orqali ularning til ko'nikmalarini rivojlantirish. Muloqot va til ko'nikmalari til namunasi (tarbiyachilar), barmoq o'yinlari, qo'shiq aytish, rasmi kitoblar va qo'shimcha

o‘qitish amaliyotlari asboblari orqali o‘rgatiladi. Bundan tashqari, bolalarni oldindan tarbiyalashda motorli rivojlanish muhim rol o‘ynaydi. Bu chaqaloqlarda tana xabardorligini oshirish, o‘zini o‘zi qabul qilish, o‘ziga ishonch va diqqatni jamlashni o‘z ichiga oladi. Inson rivojlanishiga jismoniy faoliyat, jamoat joylariga tashrif buyurish, ritmik erta ta‘lim dasturlari, qo‘shiq aytish va harakat o‘ynash orqali erishiladi. 2 yoshdan oshgan bolalar uchun. Maktabgacha ta‘limning bolalar o‘rtasida rivojlantirishga intiladigan asosiy qadriyatlari ularning kundalik hayot faoliyatiga integratsiyalashuv darajasi bilan bir qatorda jamoada ishlash ko‘nikmalarini oshirishdir. 2 yoshdan oshgan bolalarning nemis maktabgacha ta‘limining asosiy yo‘nalishlari: til, yozish, muloqot, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish, qadriyatlar va diniy ta‘limni rivojlantirish, matematika, tabiiy fanlar, (ma‘lumot) texnologiya tasviriy san‘at turli xil vositalar bilan ishlash tana, harakat, salomatlik va tabiat va madaniy muhit. Nemis bolalar bog‘chasida ta‘lim ochiq muhitni integratsiyalashishga qaratilgan. Bu bolalarning atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida dastlabki ongini uyg‘otadigan ta‘limdir. Atrofdagi muhitni kuzatish, turli xil muassasalarga tashrif buyurish, bolalarning atrofdagi muhitga qiziqishini kuchaytirish va intuitiv ravishda tabiiy jarayonlarni boshdan kechiradilar. Bolalarni tabiatga turli yo‘llar bilan ta‘sir qilish bolalarni atrof-muhitni muhofaza qilish ustalari bo‘lishiga ko‘maklashish uchun zaruriy shartdir. Masalan, bolalar energiya va suvning ma‘nosini tushunsin, ortiqcha axlat qilish ma‘nosidan saqlansin yoki bolalar axlatni saralashda bevosita ishtirok etsin kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda ijtimoiy-ekologik vaziyatning ta‘siri, demografik holatni muvofiqlashtirishning o‘rni kabi masalalar va sog‘lom turmush tarzi – barkamol yosh avlodni tarbiyalash omillaridan biri ekanligi muhim hisoblanadi. Jismoniy va ma‘naviy sog‘lom farzand ota-onaning baxti. Ertasini o‘ylagan xalq, farzandlari sog‘ligi va tarbiyasiga ustuvor vazifa sifatida qaraydi. Buni O‘zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan betimsol ishlar va uning o‘lkan natijalari oynadek ko‘rsatib turibdi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan O‘zbekistonning bu boradagi boy tajribasi ko‘plab davlatlar uchun namuna sifatida tavsiya etilgani ham bejiz emas. Zero, inson bor ekan, farzand dunyoga keladi, farzand tug‘ilar ekan, uning o‘ziga xos quvonchu - shirin tashvishlari ham bo‘ladi. Balki inson hayotining mazmuni shudir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2018-yil 28-dekabr)
2. Karimova V. M va boshqalar. Psixologiya. Toshkent.2007.
3. Yo‘ldoshev J.G‘. Xorijiy mamlakatlarda ta‘lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Aripova S.M., Bo‘rixo‘jayeva H.S. Sog‘lom avlodning tibbiy-ijtimoiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.2016.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Iqtisod-moliya”.2010.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING 4 K XALQARO MODULI BO‘YICHA KRISTIZIM KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Sayliyeva Mashkura Muxtor qizi

CHDPU o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676606>

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 K xalqaro moduli bo‘yicha kristizim ko‘nikmasini shakllantirish masalasi tahlil qilinga

***Kalit so‘zlar:* 4 K modeli, o‘quvchi, boshlang‘ich ta‘lim, kristizim, ko‘nikma.**

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida ta‘limga oid belgilangan vazifalarni ijrosi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi.[1].Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 K xalqaro moduli bo‘yicha kristizim ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi.Bu o‘rinda e‘tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

Kristizim ko‘nikmasining mazmuni.”Kristizim“tushunchasi lotincha bo‘lib tanqidiy yondashuv ma‘nosini anglatadi.[2].Shu jihatdan bu o‘rinda 4 K xalqaro modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy yondashuv ko‘nikasini shakllantirish mazmunini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Bu ko‘nikma Buyuk Britaniyaning Kembrij kolleji pedagogi olimlari tomonidan XX asr 90-yillarida ishlab chiqilgan va dunyo miyosida e‘tirof etilgan.Mazkur ko‘nikmani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish mazmunini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voqeylikka tanqiyid munosabatini shakllantirish;
- 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voqelikni tahlil vositasida qabul qilishga o‘rgatish;
- 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur ko‘nikmalar o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida,to‘garaklar mashg‘ulotlarida va sinfdan tashqari ishlar vositasida shakllantirish kutilgan samarani beradi.Misol uchun,boshlang‘ich sinflarda Matematika hamda Informatika va axborot texnologiyalari o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda voqelikni tahlil qilish ko‘nikmani tarkib toptirish keng imkoniyatlarga ega.Shu sababli bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Kristizim ko‘nikmasini shakllantirishga doir yondashuvlar.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan kristizim ko‘nikmasini shakllantirishga doir bir nechta yondashuvlar tartkib topganligini ta‘kidlab o‘tish joiz[3].Shu manoda bu borada quyidagi yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq boladi:

- 1) xorijlik pedagoglarning yondashuvlarini o‘rganish;
- 2) tajribali amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual yondashuvlaridan foydalanish;
- 3) Chirchiq davlat pedagogika universitetida tajribadan o‘tgan klasterli yondashuvdan foydalanish.

Bunday yodashuvlarga asoslanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirishda muhim mexanizimlarni beradi.Misol uchun,klasterli yondashuvda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,boshlang‘ich ta‘lim Metodik kengashi vakillari va maktab birlashtirilgan oliy pedagogik ta‘lim muassasalari mutaxassislari hamkorlikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini tarkib toptiradi.Bunda amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilar shakllantirish vazifasini,boshlang‘ich ta‘lim Metodik kengashi vakillari yo‘naltirish vazifanini va oily pedagogik ta‘lim mutaxassislari ilmiy maslahatchi vazifasini bajaradi.Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasi ilmiy,metodik va amaliy jihatdan kutilgan darajada tarkib topadi.

Kristizim ko‘nikmasini shakllantirishning ahamiyati. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirishning ahamiyati amaliy jihatdan muhimdir.Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi imoniyatlarga ega bolafi:

- 1) murakkab voqelikdan cho‘chimaslik;

- 2) bilim va tarbiya jarayonida muammolarni mustaqil hal qilish;
- 3) mustaqil faoliyatga tayyorlash.

Bunday amaliy jihatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini muhim imkoniyatlar bilan qurollantiradi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tanqidiy yondashuv, mustaqil fikrlash va mustaqil harakat vositasida mustaqil faoliyat ko‘nikmasiga ega boladi. Bunday faoliyat ta‘lim, tarbiya olish jarayonida va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘limning keying bosqichiga tayyorlanish bo‘yicha amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli mazkur masalani idrok etish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz. E‘tibor berilsa, 4 K xalqaro modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchilar uchun va boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni beradi. Ayni patyda, oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 4 K xalqaro modeli bo‘yicha o‘quvchilarda kristizim ko‘nikmasini shakllantirish metodikasini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) majburiy va tanlov mutaxassislik fanlarini 4 K xalqaro modeli asoslari bilan boyitish;
- b) talabalarni haftalik pedagogik amaliyot davrida boshlang‘ich sinf o‘quvchilar davrida kristizim ko‘nikasini shakllantirishga o‘rgatish;
- c) har bir talabani o‘quvchilarda kristizim ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha individual metodikasini tarkib toptirish.

Bunday amaliy yondashuv muhim mexanizmlarini berishini eslatib o‘tish joiz.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 K xalqaro modeli bo‘yicha kristizim ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Bu masalani tadqiq etish va amaliy metodikalarni ishlab chiqish maqdaga muvofiq bo‘ladi.

REFERENCES

1. "O‘zbekiston-2030" strategiyasi." www.ziyo net.uz.
2. Hasaboyev J va bowq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. -Toshkent, 2009
3. Jabborova O. Boshlang‘ich ta‘limning innovatsion texnologiyalari. -Toshkent, 2023

RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARIDA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH MASALALARINING QIYOSIY TAHLILI

M.R. Tashpulatova

Nordik Xalqaro Universiteti Ta‘lim muassasalarini boshqaruv yo‘nalishi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676616>

***Annotatsiya.** Maqola rivojlangan xorijiy mamlakatlarida pedagog kadrlar tayyorlash masalalarining qiyosiy tahlili mavzusida bo‘lib, unda o‘qituvchilar uchun o‘quv, ijtimoiy va kasbiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish istiqbollari belgilashda mamlakatimiz bo‘yicha o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish asosida pedagog xodimlarni tayyorlash va ular bilan samarali ishlash tufayli yuqori pedagogik ta‘lim jarayonlariga erishgan mamlakatlar tajribasi tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** pedagog kadr, sivilizatsiya, o‘qituvchi, standartlar, ta‘lim dasturlari, strategiya, tizim, dolzarblik.*

***Abstract.** The article is on the subject of a comparative analysis of the issues of teacher training in developed foreign countries, in which, in determining the prospects for the development of the educational, social and professional support system for teachers, based on the study of the*

needs of teachers in our country, pedagogic staff the experience of countries that have achieved high pedagogical education processes due to training and effective work with them is analyzed.

Keywords: *pedagogical staff, civilization, teacher, standards, educational programs, strategy, system, structural changes, relevance.*

Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi.

Barchamiz jiplashib, tinimsiz o‘qib o‘rgansak, ishimizni mukammal va umumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi.

Sh.Mirziyoev

Jahonda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalarni, raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida samarali foydalanish keng tadbiiq etilayotgan bugungi kunda, pedagog kadrlar tayyorlashdagi muammolar inson kapitali sifatining o‘shishini susayishiga sabab bo‘lmoqda. Respublikamizda ham kadrlar bo‘shlig‘ini to‘ldirish, shu jumladan, umumta‘lim maktablarida pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish ob‘ektiv zaruratdir. Ushbu masalalarni hal qilish mexanizmlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Ta‘lim tizimi mazmuni – yoshlarni oliy ma‘lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma‘lumot mazmunidan tanlanib, ta‘lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va boshqa ko‘plab kasblar kabi o‘qituvchilik kasbi tayyorgarligi dastlabki pedagogik ta‘lim olingandagina tugamaydi. O‘qituvchilarga doimiy yangilanib turuvchi talablar qo‘yiladi. Professional o‘qituvchi bu yangilanishlarga tabiiy ravishda o‘z kasbiy darajasini doimiy oshirib borish bilan erishishi lozim. O‘qituvchilarni tayyorlash uzluksiz jarayon sifatida ishga kirgunicha, ishga kirayotgan vaqti va ishlayotgan davri bosqichlarini o‘z ichiga olishi kerak. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo‘lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o‘zgarishlarni insonning o‘zini o‘zgartirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o‘z-o‘zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari yetakchi o‘ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta‘lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o‘qitish usullari va metodlari ma‘nan eskirib, ta‘limning ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.

Pedagogik kadrlar tayyorlash va pedagogik faoliyat bilan bog‘liq ta‘limotlar eramizgacha yaratilgan asarlarda ham o‘z aksini topgan va G‘arbda Qadimgi Yunoniston va Rimda Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, Mark Fabiy Kvintilian, Yan Amos Komenskiy, Adolf Distegverg kabi buyuk faylasuf, pedagog, mutafakkirlarning ta‘limotlarida, ma‘rifiy-axloqiy asar tarzida maydonga kelib, pedagogik faoliyat va uning mazmuni to‘g‘risida qimmatli fikrlarni ifodalagan. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyoti sharoitida pedagogik jarayonga “Onalar maktabi” (1632), “Buyuk didaktika” (Yan Amos Komenskiy, 1632), “O‘qituvchilar uchun 33 qoida” (Adolf Disterverg, 1956), “O‘qituvchiga ta‘lim yo‘lida o‘quv qo‘llanma” (1150), “O‘rtoq, o‘qituvchi, fan tanlash haqida” (1206, Burhoniddin Zarnudjiy), “Nozik iboralar” (Az-Zamaxshariy, 1992), “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Hojib, 1439) kabi pedagogik asarlar paydo bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda diniy va dunyoviy bilimlarni o‘rgatuvchilarga qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. Natijada pedagogik faoliyat yuzaga kelgan.

Ma‘lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda ta‘lim tizimini, xususan, pedagogikani jamiyatning yangi talablariga muvofiq, tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, umuman ta‘lim paradigmasining o‘zgarishi bilan isloh qilishga katta ahamiyat berilmoqda. O‘zbekistonda salohiyatli pedagogik ta‘lim tizimi azaldan mavjud. Shu bilan birga o‘zbek pedagogik ta‘lim tizimining ijobiy jihatlaridan biri, O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan va mehnat bozorining barqaror bo‘lmagan sharoitida pedagogika ta‘lim yurti bitiruvchisi o‘z kasbi bo‘yicha faoliyat yuritmasa ham, shu diplom bilan boshqa sohada o‘z faoliyatini davom ettira olish imkoniyati kengligidir. Chet el universitetlarida, shu jumladan, Amerika pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining tor doiradagi mutaxassislari mehnat bozori ehtiyojlari va o‘zgarishlariga moslashuvda hamda ayrim fanlar bo‘yicha o‘qituvchi-mutaxassislarni tayyorlashda muammolar paydo bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda pedagogika ta‘lim yurtlari bitiruvchilarining umumiy va kasbiy malakasi yuqoriligi o‘tish davri iqtisodiyoti uchun qulay bo‘ldi.

Finlyandiyaning o‘qituvchi-pedagoglar tayyorlash tizimi ko‘p mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. O‘tgan asrning oxirida o‘qituvchilar uchun magistratura darajasi minimal ta‘lim me‘yori deb belgilandi (shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun ham), bu esa qaysidir darajada mamlakatdagi o‘qituvchilar hurmatini va ijtimoiy maqomini oshirish uchun muhim hissa qo‘shdi. Finlyandiya maktab o‘qituvchisi bo‘lish uchun juda qattiq tanlovdan o‘tish zarur: pedagogika mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12% atrofida maktablarga ishga olinadi. Finlyandiya ta‘lim tizimining yana bir ijobiy jihati, kichik guruhlarda o‘qitishga ustuvorlik berilishi. Bu shubhasiz, ta‘limning yuqori sifatda bo‘lishiga olib keladi. Mamlakatda maktab ta‘limining muvaffaqiyati maktab o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan ham bog‘liq. Finlyandiya jami iqtisodiyotda bandlar ulushida ijtimoiy ishchilar va psixologlar soni jihatidan, barcha Yevropa mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bugungi kunda ta‘lim sohasida yetakchi o‘rinni “aqli maktablar, ziyoli millat” strategik dasturida o‘z aksini topgan mavjud imkoniyatlarni amalga oshirish paradigmasiga ega bo‘lgan Singapur egallaydi. Ushbu strategiyaning asosiy g‘oyasi “umrbo‘yi ta‘lim” g‘oyasi bo‘lib, u bilan mamlakat kelajagi uzviy bog‘liq. Singapurda Finlandiyadagi kabi o‘qituvchilik kasbi ijodkorlik hisoblanib, o‘qituvchi kasbi ijobiy va jamiyatda sharafli hisoblanadi, shuning uchun, o‘qituvchi kasbiga talabgor nomzodlar eng yaxshi deb tan olinishi uchun yetarlicha uzoq va murakkab tanlov jarayonidan o‘tadilar.

Xitoy dunyoda eng katta aholi soniga ega bo‘lgan davlat bo‘lganligi sababli ham hukumat qashshoqlikni kamaytirish maqsadida ta‘lim tizimini rivojlantirish dasturini ishlab chiqqan. Olib borilgan islohotlar natijasida keyingi 10 yilliklarda Xitoy ta‘lim tizimi katta yutuqlarga erishdi. XX asrning o‘rtalariga qadar Xitoy iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan bo‘lib, qo‘l mehnatiga tayangan dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Aholining katta qismi qishloqlarda istiqomat qilgan va ta‘limda ko‘proq gumanitar fanlar falsafa, tarix va ijtimoiy sohalarga ustuvorlik berilgan. Tahlillar ko‘rsatganidek, ko‘pgina mamlakatlarda pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy maqsadi o‘z amaliyotini rivojlantirish va butun hayoti davomida mustaqil o‘rganishga qodir bo‘lgan o‘qituvchini tayyorlashdir. Amerika, Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlarida pedagog kadrlar tayyorlashdagi umumiy tendensiya o‘qituvchilik kasbining nufuzini oshirish, kasbiy malakali o‘qituvchini ish bilan ta‘minlash va saqlab qolish, kadrlar siyosatini takomillashtirish, o‘qituvchilarni o‘z ustida ishlashga jalb etish, professional jamoalarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy kompetentlikni oshirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni yo‘naltirishdan iboratdir. O‘zbekistonda ta‘lim tizimidagi islohotlarning navbatdagi bosqichi ilg‘or xorijiy tajriba asosida tor doiradagi mutaxassis-

pedagoglarni tayyorlashga o‘tish hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida tayyorlanadigan pedagog kadrlarni har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq ehtiyojlarni aniqlash asosida amalga oshirishni ob‘ektiv zaruratga aylantiradi. I.D.Fruminning fikriga ko‘ra, xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasidan foydalanish yoki pedagogik kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik tizimini rivojlantirishning o‘ziga xos usulini izlash kerak. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish asosida pedagog kadrlar buyurtmasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish asosida tarmoq samaradorligini oshirishda to‘planib qolgan yuqoridagi muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan fikr mulohazalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoladi. Har qanday to‘g‘ri belgilangan maqsad unga erishishga yordam beradigan ko‘rsatmalarga ega. Ularga g‘amxo‘rlik qiling va siz albatta kerakli natijaga erishasiz! Yaxshi motivatsiya bo‘lmasa, o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni ko‘p yillar davomida davom etishi mumkin. O‘zingiz uchun haqiqiy rag‘bat bo‘ladigan munosib o‘rnak toping.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida
3. A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov, M.Axmedov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqotning hisoboti. TALIS-2023 xalqaro tadqiqotiga O‘zbekistondagi maktab o‘qituvchilari va direktorlarini tayyorlash. 1-qism. T.: 2021. 72 bet
4. Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov. Ta’lim sifatini boshqarish. T.: “Turon-Iqbol”, 2006. 592 bet.
5. R. X. Djuraev, S.T.Turg‘unov. Ta’lim menejmenti. T.: “Voris-Nashriyoti”, 2006. 263 bet.
6. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 XORIJ TAJRIBALARI ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI Ibragimov Abdimalik Gapparovich A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri, i.f.n., dotsent. Muradov Ikrom Turdiboyevich A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7297822>

XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA GENDER OMILLARNING ROLI

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676618>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tajribalar tahlili asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda gender omillarning roli ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy tajriba, bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash, gender, omil, immunitet, trayektoriya, pedagogik jarayon, pedagogik faoliyat.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida gender yondashuv asosida talaba-qizlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, talaba-qizlarning ijobiy harakat trayektoriyalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga talaba-qizlarga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, individual va differensial yondashuvlar asosida ularning madaniy immunitetlarini shakllantirish, darsdan tashqari tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni isloh qilish, bu borada pedagoglarning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Bugungi kunda psixologiya, sotsiologiya kabi pedagogikada ham gender asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Gender tushunchasi fanga ingliz tilidan kirib kelgan bo‘lib, grammatik nuqtai nazaridan jins, tur kategoriyasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu atama ijtimoiy, biologik jins tushunchasini farqlash maqsadida qo‘llanilgan. Biologik farqlar bilan bir qatorda erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy rollari ham mavjud. Mazkur farqlar xulq-atvor va xis-tuyg‘ularda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishi uchun gender tushunchasi qo‘llanilmoqda.

Erkaklar va ayollar faqat anatomik xususiyatlari bilan farqlanib qolmaydilar, balki ular gender xususiyatlariga mos keladigan ijtimoiy rollarni ham bajaradilar. Xotin-qizlar va erkaklar orasidagi biologik farqlar muhim emas, bu farqlarga jamiyat tomonidan taqdim etiladigan madaniy hamda ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Uch guruhdagi xususiyatlar genderning tavsifini oydinlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega: biologik mansublik, jinsga xos rolli stereotiplar, jamiyat talablari asosida erkaklar va ayollar amal qiladigan xulq-atvor hamda o‘zaro munosabat meyorlari.

Gender maskulinlik va feministlik rollarga bo‘linadi. Gender rollar xotin-qizlar va erkaklarning o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Turli davrlarda hamda turli madaniyatlarda gender rollarning namoyon bo‘lishi uning madaniyat mahsuli ekanligini ko‘rsatadi.

Xovstedning [1] ta’kidlashicha, gender rollardagi farqlar turli madaniyatlarda gender rollarning farqlanishi orqali namoyon bo‘lib, ular muayyan madaniyatdagi maskulistik va feministik darajalar orqali ifodalanadi. Maskulistik madaniyatdagi shaxslar yutuqlarga erishishning yuqori motivatsiyasiga ega bo‘ladilar. Ular hayot mazmunini ko‘plab ishlarni bajarish, doim band bo‘lishda ko‘radilar. Feministik madaniyatga mansub shaxslar esa, oilaviy hayot bilan ko‘proq band bo‘lib, o‘zlari bajaradigan rollarda tenglikka erishishni istaydilar. Buni Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi davlatlarning fuqarolari misolida ko‘rish mumkin.

Xovstedning [1] fikriga ko‘ra, erkaklik – bu milliy madaniyatning atributi bo‘lib, u ijtimoiy qadriyatlarining qat’iyatlilik (ishonch) va materializm bilan tavsiflanadigan darajasini ifodalaydi [1; 39-b.]. Ayollik esa, milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, boshqalarga nisbatan munosabat va e’tibor darajasini namoyon qiladi. Erkaklar xotin-qizlar va erkaklarning ijtimoiy rollari sezilarli darajada farqlanadigan jamiyatlarda etakchi kuch hisoblanadi. Aksincha, xotin-qizlar bilan erkaklarning ijtimoiy rollari teng bo‘lgan jamiyatlarda ayollikka ustuvor o‘rin ajratilib, ular qadriyatlar tizimida hayot sifati etakchi o‘rin egallab, atrofdagilar bilan ijobiy munosabat tajribasi hosil bo‘ladi, ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustivorlik qiladi. Aql-idrok va xayrixohlik qadrlanadi, intellektual rivojlanish jadallashadi. Qulaylikka ustuvor o‘rin ajratiladi. Uydagi va oiladagi qadriyatlar ishdagi muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Bunday madaniyatlarda maskulinlik va feministlik asosiy faoliyat uslubi sifatida gender olamning manzarasini ifodalaydi. Maskulinlik va

feministlik omillarining ajratilishida biologik va ijtimoiy jinsdagi farqlar etakchi o‘rin egallaydi. Jinslarning farqlanishi tabiiy hamda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy rivojlanish ko‘rsatkichidir. U o‘zining maqsadga yo‘naltirilgan funksiyalariga ega.

Gender tushunchasi Evropada vujudga kelgan feministik ayollar harakati bilan bog‘liq tarzda shakllangan. Mazkur ayollar harakati vujudga kelgach, uni tahlil qilishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlarda xotin-qizlar bilan bir qatorda erkaklarning muammolari ham ijtimoiy voqelik bilan bog‘liq holda tahlil qilingan.

Tadqiqotlarda [2] o‘g‘il va qiz bolalarga nisbatan mutaxassislarining nuqtai nazarlari o‘z ifodasini topgan. Ushbu izlanishlarda nafaqat gender tenglik tushunchasining vujudga kelganligi, balki ular orasidagi jinsga xos mutanosiblikning shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Bunda nafaqat erkaklarning tajribasi va qiziqishlari, balki ular orasidagi teng huquqlilik nazarda tutilgan [2; 167-b.]. Genderning ijtimoiy konstruksiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida vujudga keladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, gender stereotip va rollar o‘zgaruvchan xarakterga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender rollar turli tarixiy sharoitlarda turli madaniyatlar ta‘sirida o‘zgaradi. Shu jumladan, gibrid xarakterdagi ommaviy madaniyat ham shaxsning ijtimoiy rollarini o‘zgartirishga muvaffaq bo‘lmoqda. Chunonchi, M.Mid [3] ham o‘g‘il va qiz bolalarning rollari muayyan jamiyatdagi ijtimoiy voqelik bilan bog‘liq holda o‘zgarishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ta‘biricha, har bir jinsga xos bo‘lgan rollar tabiiy tarzda shakllanadi. Ushbu shakllanish ijtimoiy madaniy omillar yordamida jadallashadi.

Taniqli olimlar N.Smelzer [4] va E.Giddenslarning [5] ushbu yo‘nalishdagi ishlari ham muammoning nazariy talqinini yaratishda alohida ahamiyat kasb etgan. Ular shaxsning jinsiga ko‘ra, ijtimoiy rollarini belgilashning fundamental asoslarini yaratganlar.

Erkaklar va ayollar orasidagi ko‘plab biologik-psixologik farqlar genderning biotsentrik konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. O‘tgan davr mobaynida gender muammosiga sotsiologiya, aksiologiya, psixologiya hamda pedagogika fanlarida muayyan darajada murojaat qilinib, uning o‘ziga xos modeli shakllantirildi. Turli-tuman yondashuvlarga qaramasdan gender talqinining sotsiologik, aksiologik, psixologik, pedagogik, biologik talqinlari orasida umumiylik mavjud. Gender muammosiga nisbatan turli yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning asosini shaxs madaniyatining alohida jihatlariga e‘tibor qaratish va ta‘lim jarayonida uni rivojlantirish muammosi tashkil etadi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolar uchun jinsidan qat‘iy nazar teng huquqlilik kafolatlangan. Shu bilan bir qatorda ta‘lim jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning teng huquqliligini hisobga olgan holda ularning har biriga xos bo‘lgan milliy madaniyat va xulq-atvor shakllantiriladi. Bunday yondashuv ko‘p asrlar davomida vujudga kelgan bo‘lib, o‘zining ijobiy jihatlarini davr sinovidan o‘tkazgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga nisbatan gender diskriminatsiyasi mavjud emas. Jumladan, madaniy boyliklarni o‘zlashtirish va o‘z xulq-atvorida namoyon qilishda ham qizlar va ayollarning huquqlari cheklanmagan. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda o‘g‘il va qiz bolalarga xos bo‘lgan gender stereotiplar turli o‘quv materiallari yordamida mustahkamlangan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad talaba-yoshlarning har birida o‘ziga xos xulq-atvor ko‘rinishlarini shakllantirishdan iborat. Madaniy boyliklarni egallashda yigit va qizlar orasidagi o‘zaro munosabatlarni tizimlashtirish alohida ahamiyatga ega. Talaba-qizlarda gender madaniyatni shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va jamiyat madaniy hayotini barqarorlashtirish uchun alohida ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Hofstede G. Masculinity and femininity: the taboo dimension of national cultures, 1998. SAGE Publications Inc. 238 p.
2. Гриценко Е.С. Язык. Гендер. Дискурс. – Н.Новгород, 2005. – 267 с.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Мид,_Маргарет
4. https://www.yaneuch.ru/cat_08/gendernye-stereotipy-n-smjelzer/9817.579399.page1.html
5. Гидденс Энтони. Социология. – Л., 1999. – 704 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INKLYUZIV TA‘LIM KONTEKSTIDA FAOLIYAT YURITISHGA TAYYORLASH ASPEKTLARI

Sh.E.Toxtiyarova

TDPU doktoranti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676621>

Annotatsiya. Maqolada muallif bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta‘lim kontekstida faoliyat yuritishga tayyorlash muammosini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta‘lim, qiyinchiliklar, kompetensiyalar, o‘quv bazasini loyihalash, moddiy bazasini loyihalash, tabaqalashtirilgan ta‘lim, ko‘p bosqichli ta‘lim dasturi, ta‘lim yo‘li

Inklyuziv ta‘lim amaliyotini amalga oshirish o‘qituvchi ishining tabiati, mazmuni va uslubiy modeliga sezilarli o‘zgarishlar kiritadi. Inklyuziv ta‘lim sharoitida kasbiy-pedagogik faoliyatning subyektiv-funksional tahlili o‘qituvchining strategik va joriy maqsadlarga erishishga qaratilgan funksiyalarini aniqlashga imkon beradi. Shuni hisobga olish kerakki, inklyuziv ta‘lim shartlari - bu jamoat ongidagi, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarni va nihoyat, kasbiy pedagogik faoliyatning tashkiliy asoslari va mazmunini o‘zgartirishga olib keladigan shartlar. Kasbiy faoliyatdagi o‘zgarishlarga tayyorlikning asosi bu o‘zgarishlar bilan birga keladigan xavflarni shaxs sifatida idrok etishdir. Xavf odatda tanlov sharoitida amalga oshiriladigan, ko‘p qirrali shaklda namoyon bo‘ladigan va miqdoriy va sifat jihatidan baholanishi mumkin bo‘lgan muayyan harakatlarning potentsial yoki real natijasi sifatida belgilanadi.

Inklyuziv ta‘lim sharoitida o‘qituvchining kasbiy xavflari yangi kasbiy sharoitlarda ta‘limiy faoliyat natijalarining salbiy oqibatlarini ehtimoli bo‘lib, u inklyuziv ta‘lim muhitidagi har bir ishtirokchining shaxsiyatiga yoki ta‘lim natijalari ta‘sir ko‘rsatishi mumkin

Kasbiy-pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari hal qilinayotgan amaliy muammolar mazmuni bilan belgilanadigan konsentrik funksional munosabatga ega. Har bir funktsiyani amalga oshirish samaradorligi uni bajarishga shakllangan tayyorlik bilan belgilanadi, bu esa, o‘z navbatida, akademik (ma‘lum bir bilim sohasining metodologiyasi va terminologiyasini egallash, faoliyat yurituvchi tizimli munosabatlarni tushunish, shuningdek, amaliy muammolarni hal qilishda ulardan foydalanish qobiliyati), kasbiy (real pedagogik vaziyat talablariga muvofiq maqsadga muvofiq harakat qilishga tayyorlik va qobiliyat) va ijtimoiy-shaxsiy (shaxsning o‘ziga tegishli vakolatlar majmui hamda shaxs sifatida, shaxsning boshqa odamlar, guruh va jamiyat bilan o‘zaro munosabati) kompetensiyalari majmuasi bilan belgilanadi [2, 119b].

Aynan o‘qituvchi alohida ta‘limga muhtoj bo‘lgan bolani qo‘llab-quvvatlash guruhini (o‘qituvchi-defektolog, pedagogik psixolog, ijtimoiy pedagog va boshqalar) boshqaruvchisi hisoblanadi. Kasbiy va pedagogik qarorlar o‘qituvchi-defektolog, pedagogik psixolog va ijtimoiy pedagogdan olingan maslahatga tayanilgan holda qabul qilinadi. Alohida ta‘limga muhtoj

o‘quvchilarni polisubektiv va xilma-xil ta’lim imkoniyatlari va ehtiyojlari pedagogik vazifalar va amallarning tabiati va tarkibini belgilaydi. Shunday qilib, inklyuziv ta’lim sharoitida kognitiv vazifaga aylantirilgan pedagogik amallar ko‘p omilli ta’sirlar bilan belgilanadi. Bu, albatta, yuzaga kelayotgan pedagogik tadbirning ko‘p vektorli xususiyatini keltirib chiqarib, o‘z navbatida mavjud vositalar, shartlar, natijalar va yangi pedagogik vazifani shakllantirish, uning yechimi inklyuziv ta’lim makonining barcha ishtirokchilariga ta’sir o‘tkazadi.

O‘quv jarayonining o‘quv va moddiy bazasini loyihalash samarali ta’lim faoliyati uchun sharoit yaratadigan va har bir bolaning alohida ta’lim ehtiyojlarini qondiradigan keng ko‘lamli maxsus o‘quv, didaktik vositalar va materiallarni bilish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Moddiy-texnik bazani loyihalash bo‘yicha ishlar muvofiqlashtirilgan faoliyatni va alohida ta’limga muhtoj bolani qo‘llab-quvvatlovchi mutaxassislar guruhining maslahatlarini o‘z ichiga oladi.

Muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish bilan birgalikda har xil faoliyat turlarida (guruh, jamoaviy, maktabdan tashqari) ishtirok etishda har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Bunday ish har bir bolaning ilmiy va ijtimoiy kompetensiyalarini, uning boshqa o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish va muloqot qilish uchun tayyorligini va qobiliyatini, shuningdek, bolalar faoliyatini tashkil etishda olingan natijalarni hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Har qanday farqlar va "o‘zgachalik"ga bag‘rikenglik, hurmatli munosabatni shakllantirish asosida bolalar jamoasini yaratish bo‘yicha ishlarga asos yaratiladi. Bolalar guruhining tashqi ko‘rinishdan bir xilligi turli xil xarakteristika va xususiyatlarda, jumladan, jismoniy va / yoki aqliy rivojlanishda namoyon bo‘ladigan xilma-xillik bilan almashtiriladi. Bu o‘qituvchidan har bir bolaning xususiyatlarini bilishni, uning kuchli tomonlariga tayanishni va imkoniyatlarini qo‘llashni avvaldan rajalashtirishni talab qiladi [1, 685-b.].

Bolalarning ta’lim imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan belgilanadigan yagona inklyuziv ta’lim makonida ta’lim natijalarini tabaqalashtirilgan ko‘p bosqichli tarzda belgilash va shakllantirish joiz. Bunda bolalarning alohida ehtiyojlari va turli darajadagi imkoniyatlarini ta’lim natijalarining mazmuni va talablarini, shuningdek ularni aniqlash va baholashga yondashuvlarni belgilaydi. Har bir aniq holatda akademik va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarning hajmi, chuqurligi va o‘zlashtirish darajasi o‘rtasidagi muvozanat bolaning imkoniyatlari, ehtiyojlari va uning bevosita ijtimoiy muhiti bilan belgilanadi. Bir tomondan, o‘quv jarayonida muqobil aloqa vositalari va usullarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanishni, boshqa tomondan, muloqot sheriklari doirasini kengaytirishni nazarda tutadigan kommunikativ kompetentsiya chegaralarini kengaytirish. Alohida ehtiyoji bo‘lgan barcha bolalar og‘zaki nutqni qo‘llashda u yoki bu darajadagi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ko‘pincha nutqni rivojlantirish xususiyatlari ta’limdagi muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababidir. Shuning uchun inklyuziv ta’lim sharoitida kasbiy pedagogik faoliyatning kommunikativ komponenti aniq o‘ziga xoslikka ega bo‘ladi.

Ota-onalar hamjamiyatini ta’lim muammolarini va shu jumladan, bolalar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot va munosabat muammolarini hal qilishda keng jalb qilish usullari va yo‘llarini izlash va ishlab chiqish ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega. Kasbiy pedagogik faoliyatning sanab o‘tilgan xususiyatlari o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida ishlashga tayyorligining kompetentsiya mazmunini belgilaydi. Shu bilan birgalikda, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini mazmuni hamda kasbiy faoliyatining vazifalarida inklyuziv ta’lim muhitini yaratish konsepsiyalari, sinfdagi o‘quvchilarning ta’lim ehtiyoj va imkoniyatlarining xilma-hilligini inobatga olgan holda o‘quv materialini moslashtirish yo‘llari, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni turli toifalarini o‘qitish xususiyatlari, mavjud farqlarga nisbatan bag‘rikenglik va hurmat asosida o‘quvchilarning muloqoti va o‘zaro munosabatlarini tashkil etishni aks ettirmaydi. Bunday

muhim vazifaga e‘tiborning etishmasligi, inklyuziv ta‘lim muhitini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchining e‘tibori va g‘amxo‘rligi obyektiga aylanmasligiga olib kelishi mumkin[5, 30-b]. Mutaxassisning ta‘lim natijalariga qo‘yiladigan talablar (o‘quv, kasbiy va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalar majmuasi) inklyuziv ta‘lim sharoitida kasbiy pedagogik faoliyatning xususiyatlarini aks ettirmaydi va shunga mos ravishda ishlab chiqilgan kompetensiyalar bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash mazmuni uchun ijtimoiy buyurtma talablariga to‘liq javob bermaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv rejasini tashkil etuvchi o‘quv fanlarining taklif etilayotgan umumiy mazmuni inklyuziv ta‘lim maydonining ko‘p subyektivligini, shuningdek, o‘quvchilarning alohida ta‘lim ehtiyojlarini hisobga olish va qondirish imkonini beradigan yangi (ba‘zan maxsus) didaktik va uslubiy vositalarni o‘zlashtirish zarurati inobatga olmaydi va asoslanmaydi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi umumta‘lim boshlang‘ich sinfda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarni inklyuziv ta‘lim sharoitida muvaffaqiyatli ta‘lim berishi uchun zarur kasbiy faoliyatining haqiqiy amaliy shartlariga mos kelmaydi degan xulosaga kelishga imkon beradi.

REFERENCES

1. Brunsting, N. C., Sreckovic, M. A. & Lane, K. L. (2014) ‘Special education teacher burnout: a synthesis of research from 1979 to 2013.’ *Education and Treatment of Children*, 37, pp. 681–712.
2. Na Zhou, Dineke E.H. Tigelaar, Wilfried Admiraal. Vocational teachers' professional learning: A systematic literature review of the past decade. *Teaching and Teacher Education* Volume 119, November 2022, 103856
3. Ваганова, В. И. Структура и содержание профессиональной деятельности будущего учителя. *Вестник Бурятского государственного университета. Философия*, (SB), 2012. - 92-97.
4. Пискунова Елена Витальевна Социокультурная обусловленность изменения функций профессионально-педагогической деятельности учителя // *Известия РГПУ им. А. И. Герцена*. 2005. №12.
5. Хуснутдинова М.Р. РИСКИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Образование и наука*. 2017;(3):26-46.

XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI HAYOTIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

I.I.Tuychiyeva

FarDU pedagogika kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676628>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy jamiyatda bo‘lajak pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri o‘z kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatligi, g‘oyaviy e‘tiqodligi, o‘z kasbini sevishidir. Xalqaro tajribalar asosida bo‘lajak pedagoglarni o‘qituvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar vazifalar to‘g‘risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagoglar, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta‘lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta‘lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida bo‘lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta‘limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta‘lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta‘lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi [1, 12-b.]. Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta‘lim tizimi uchun bo‘lajak yosh o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada bo‘lajak pedagoglarni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bugungi kunda biz o‘qituvchi kompetentligi haqidagi fikrlarni takror va takror tilga olmoqdamiz. Barcha pedagogik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” so‘zining izohli ma‘nosi berilib, ingliz tilidan olingan “competence” – tushungan, qobiliyatli ma‘nosini anglatadi. Mazmunan esa, “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” degan tushunchani anglatadi. Hozirgi kunda respublikamizda ro‘y berayotgan islohotlar bevosita innovatsion ta‘lim tizimi bilan bog‘liqdir.

2019-yil 23-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev respublikamiz xalq ta‘limi xodimlari bilan qilgan muloqotida “...bugungi ustoz shogirdlarini o‘z orqasidan ergashtira olishi lozim, agar ergashtira olmasa u ustoz emas”, – degan fikrlarni ta‘kidlab o‘tdilar. Demak, bugungi ustoz o‘z shogirdlari oldida tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib, har doim tetik, g‘ayratli, o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishongan bo‘lishi lozim. Kasbiy faoliyatga (kompetent) ega bo‘lish uchun esa, quyidagilarga e‘tibor berishi lozim [2, 28-b.]: a) kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish; b) yangidan-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish; c) hamkorlik bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish. O‘qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o‘qituvchining salomatligiga ham muhim talablar qo‘yiladi.

O‘qituvchining ovoz paychalari yaxshi rivojlangan, ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lishi, uzoq vaqt tik tura olishi va o‘quvchilar bilan chiroyli muloqotga kira olishi lozim. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida ham o‘qituvchining nutq gigiyenasiga doir maslahatlar bergan: “Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish ko‘p miqdorda havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi. Bularning har ikkisi ham xavflidir”. Jamiyatda ro‘y berayotgan barcha islohotlar, ta‘limning yangi bosqichlarga ko‘tarilishi, ilm-fan texnikasining jadal rivojlanishi, eng asosiysi yurtimizda ijod va Prezident maktablarining tashkil etilishi ham ta‘lim tizimidagi innovatsiyalar hisoblanadi. Shuningdek, bugungi pedagog nafaqat ta‘lim beruvchi, balki shu bilan bir qatorda tarbiyachi hamdir. Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga

qo‘yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishining DTS va Malaka talablari o‘rganildi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar [3, 18-b.]: dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish; Vatan tarixini bilishi, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish; tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi; insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma‘naviy, madaniy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilish; axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish; yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish; sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim [6, 47-b.].

Yaxshi natijalar ko‘rsatish uchun hech bo‘lmaganda o‘qituvchi ikki maqsadga ega bo‘lish kerak: Birinchisi, o‘qituvchilar va ular ishlaydigan va foydalanadigan materiallarni tayyorlashdir: 1. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish. 2. Ta‘lim va tarbiya jarayonining mohiyati. 3. Ta‘lim va tarbiyaning asosiy funktsiyasi. 4. Didaktika va tarbiya jarayonining asosiy kategoriyalari. 5. Ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va talabaning hamkorligi.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, pedagogik mahorat haqida umumiy ma‘lumot, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallab olishga imkon yaratib beradi [6, 47-b.]. Shuningdek, maktab amaliyotida va pedagogik fikr tarixida o‘qituvchining mahorati masalalari, pedagogika qobiliyat, o‘qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati va o‘quvchining psixologik faoliyati, pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari, darsda va tarbiya jarayonida o‘qituvchi mahorati, o‘qituvchi mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari, pedagogik tajriba orttirishi, tadqiqot metodlari; hozirgi ta‘lim muassasalarida ilg‘or pedagogik g‘oyalar, tajriabalarining taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo‘llari, pedagogik mahorat taraqqiyoti tarixi, mustaqil malaka oshirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish o‘quv- tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, o‘qituvchi faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslarini o‘rganish, tahlil etish to‘g‘risida boshlang‘ich ma‘lumotlar berishni nazarda tutadi. Pedagogik mahorat fani yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashini, shuningdek, pedagogik shaxsi uning tajribasi, fuqaro‘lik va kasbiy mavqeini o‘rgatadi. “Pedagogik mahorat” fani “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Yosh pedagogikasi va psixologiyasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Pedagogik texnologiya”lar bilan birgalikda bilim va malakalar tizimini yaratadi. Pedagogik mahorat fanining maqsadi bo‘lajak o‘qituvchiga hozirgi zamon pedagogika sohasidagi dolzarb muammolarni, o‘qituvchi shaxsi va kasbi haqidagi bilim va malakalarni hamda har bir tarixiy bosqichda ta‘lim-tarbiya tizimi, ijtimoiy-pedagogik fikrlar, ta‘lim-tarbiya mazmuniga ijodiy munosabatda bo‘lishini o‘rgatadi. Pedagogik mahorat fanining predmeti – “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun talablaridan kelib chiqib, o‘z sohasini mukammal egallagan, bilimdon, axloqan pok, ma‘nan etuk, jismonan sog‘lom bo‘lgan pedagoglarni tarbiyalashdir [5, 18-b.].

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va hayotiy maqsadlarni belgilashning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu bo‘lajak pedagoglarni

o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Demak, bo‘lajak pedagoglarni o‘quvchilarda, avvalo, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini boshqara olishi ham juda muhim sanaladi. Ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun kasb hunarga o‘rgatish, mehnatkash, sabr toqatli, qat‘iyatli va tirishqoq qilib tarbiyalash o‘quvchilarda hayotiy maqsadlarini belgilashda ancha qo‘l keladi.

Shu bilan bir qatorda mustaqil shug‘ullanishlari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati ham rivojlangan bo‘lishi kerak. Ko‘proq badiiy adabiyotlar mutolaa qilishi asosiy mezonlardan sanaladi.

REFERENCES

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: Darslik. – T.: Sano-standart, 2017.
2. Umumiy pedagogika: Darslik / O.Musurronova va boshq. I-qism. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.
3. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – 6-son. – 70-modda. – 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
6. Axrarova Z., Sadikova Sh., Sodikov U., Allayarova S., Shodmonov Sh. Umumiy pedagogika: Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Mumtoz so‘z, 2020. – 331 b.

BO‘LAJAK KIMYO FANI O‘QITUVCHILARINING KIMYO DARSLARIDA TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASI

Turdiboyev Ilhomjon Xayotjon o‘g‘li

Farg‘ona politexnika instituti “K va KT” kafedrasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676630>

Annotatsiya. Butun ta’lim-tarbiya jarayonida tabiiy va aniq fanlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalab, ya’ni bir butun qilib o‘qitish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Muammoli-ijodiy vazifalardan foydalanish nafaqat kimyoviy fanlarning individual sifatlarini shakllantirishdagi rolini aniqlashga imkon beradi, balki nafaqat kimyo, balki biologiya, geografiya, fizika, adabiyot, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: OTM, kasb-hunar, integratsiya, STEAM, kimyo, biologiya, geografiya, fizika, ekologiya, hayot xavfsizligi,

Bugungi kunda OTM, kasb-hunar texnikumlari va maktablarda o‘qitishning eng asosiy vazifasi barkamol shaxsni shakllantirishdir. Masalan, OTM bitiruvchisining asosiy mezonlaridan biri bu bilimning yuqori darajasi bo‘lib, u kelajakda o‘quvchilarni o‘qitish uchun etarli darajada asosiy bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bitiruvchining ushbu talablarga javob berishi uchun OTM larda

talabalar atrofdagi dunyoda ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘rganishda yaxlit yondashuv asoslarini yaratishi kerak.

Oliy ta‘lim muassasalarida fanlararo aloqalarni o‘rnatish bilimlarni yanada to‘liq o‘zlashtirishga, ilmiy tushunchalar, qonuniyatlarni shakllantirishga, o‘quv jarayonini takomillashtirish va uni maqbul tashkil etishga, dunyoqarashni shakllantirishga, tabiat va jamiyatdagi hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Bu juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Xozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy sharoitda integratsiya yanada yangicha tus olib bormoqda. Uning ahamiyati ta‘lim muassasalariga, jamiyatning ijtimoiy tartibiga qo‘yiladigan yangi talablardan kelib chiqmoqda va bu shundan dalolat bermoqdaki integratsiya zamonaviy ta‘lim tizimiga zarurdir.

Ta‘limni yangilash, ta‘limni tashkil etishning noan‘anaviy usullari va shakllarini, shu jumladan integratsiyalashgan usullarni qo‘llashni talab qilmoqda, buning natijasida o‘quvchilar dunyoni yaxlit tasavvur qilishadi va bu juda muhim bo‘lib, ta‘limga qaratilgan yangicha yondashuv xisoblanadi. Faqat o‘qitish amaliyotida keng tarqalgan tushuntirish, tasviriy va reproduktiv usullarga ishonishning o‘zi bugungi kunda kamlik qiladi desak aslo bo‘lmaydi.

Integratsiyani nafaqat fanlardagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan, balki texnologiya, o‘qitish usullari va shakllari integratsiyasi sifatida ko‘rib chiqish ham kerak deb hisoblayman. Pedagogik faoliyat norma va ijodkorlik, fan va san‘atning qotishmasidir. Shuning uchun mavjud bo‘lgan ta‘lim faoliyatining turli xil usullarini to‘g‘ri birlashtirish juda muhimdir. Muvaffaqiyat bunga va shuning uchun mashg‘ulot natijasiga bog‘liq bo‘ladi.

Integratsiyalashgan dars bu bitta tushunchani, ya‘ni mavzuni yoki hodisani o‘rganayotganda bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni birlashtirgan maxsus dars turidir. Integratsiyalashgan dars zamonaviy usulblarning yangiliklaridan biri bo‘lib, u o‘quv dasturlarini bog‘lash va shu bilan bilimlarning hayotning haqiqiy talablari bilan bog‘liqligini yanada mustahkamlash usullaridan biridir.

Turli fanlarning o‘quv materiallari bilan aloqani o‘rnatmasdan har qanday mavzuni o‘rganish mumkin emas. Kimyo uchun bu tabiiy fanlar siklining predmetlari: biologiya, geografiya, fizika, ekologiya, hayot xavfsizligi va boshqalardir. Kimyo kursining mazmuni va boshqa fanlar materialining integratsiyasi bizga ta‘lim muassasalarida fanlarni o‘qitish muammolarini samarali hal qilishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darslar juda ko‘p afzalliklarga ega, chunki ular nafaqat o‘quvchilarga dunyoni yaxlit tasavvur qilishni shakllantirishga imkon beradigan umumiy ta‘lim vazifalarini hal qiladi.

Integratsiyalashgan darslarda turli xil texnologiyalar, usullar, shakllardan foydalanish imkoniyati ta‘lim muassasalarida yana bir muhim muammoni hal qilishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darsning psixologik afzalligi bor bo‘lib: u mavzuga qiziqishni uyg‘otadi, zo‘riqish, ishonchsizlikni engillashtiradi, tafsilotlarni, faktlarni, tafsilotlarni ongli ravishda egallashga yordam beradi va shu bilan o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishni ta‘minlaydi, chunki bu nafaqat ta‘lim, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini ham amalga oshirishga imkon beradi.

STEAM-hozirgi kunda dunyo ta‘lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda **STEAM** juda murakkab ko‘rinadi, lekin uni alohida ko‘radigan bo‘lsak sodda va aniq ekanini ko‘rishimiz mumkin, yani: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san‘ati, ijod, matematika. Oddiy so‘z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko‘p talab etilayotgan fanlardir.

Hech kimga sir emaski, ko‘plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o‘zlashtiriladigan turli sohalaridagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Lekin bunga o‘quvchilarni qanday qilib tayyorlashimiz mumkin, chunki maktab dasrlari orasidagi bog‘liqlikni ko‘rish juda murakkabdir. Aynan shunday muammolarni hal qilishda **STEAM** yordam beradi.

Bu metodika ta’limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. **STEAM** bu ta’lim muassasasida va ta’lim muassasasidan tashqarida loyiha va o‘quv – tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir.

Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi.

Fanlarni kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishdan tashqari, texnologiya o‘quvchilarning ijodkorligini ham ko‘rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, o‘quvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o‘rganadi. Bunday vazifalar yordamida o‘quvchi g‘oyalarni nafaqat o‘ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o‘rganadi. Shu tariqa, o‘quvchi o‘z faoliyatini oldiga qo‘yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o‘rganadi.

STEAM-yondashuvi tufayli o‘quvchilar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va yondoshuvining liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishda, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

STEAM o‘quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlanlan-tirishga yordam beradi:

- Muamolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondoshuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
- Dizayn asoslarini tushunish;

STEAM yondoshuvining asosiy g‘oyasi: amaliyotda nazariy bilim kabi juda muhimdir. O‘rganish vaqtida biz nafaqat miya, balki qo‘llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. Ular bilimlarni o‘zlari uchun o‘zlari o‘rganadilar.

STEAM yondoshuvi nafaqat o‘rganish metodi, balki fikrlash usuli hamdir.

Fanlararo integratsiya yondoshuviga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikda faoliyati. Bu jarayonda o‘quvchi va o‘qituvchi ijodiy fikr yuritadi.

- Qo‘yilgan muammo va savollarga javob topish uchun izlanishga majbur qiladi.
- Hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

- O‘qitish artefakt(inson tomonidan yaratilgan ob’ekt) va hodisalarga asoslanib amalga oshiriladi. Kontakt kelajak bilan bog‘liqligi uchun bugun qiziqarli va muhimdir.

Aslida **STEAM** fanlar o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqishga va qayta yaratishga yordam berishi mumkun. Bu o‘quv jarayonini tashkil etishdagi jasorat va ishbilarmonlik o‘quvchilarni nostandart muammolarni hal qilish va ularning orasidagi vazifalarn taqsimlashni safarbar qiladi.

STEAM yondoshuvi olingan bilimlarni haqiqiy hayotga mahorat bilan qo‘llashni o‘rgatishdir.

Ushbu ta‘lim yondoshuvi bolalarga nazariy va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va oliy ta‘limda o‘qishni yanada osonlashtiradi, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirish va yakuniy mahoratni yaratishni rag‘batlantiradi.

Fanlararo bog‘liqlikning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini oshiradi; ularning fikrlash qobiliyatini shakllantiradi; o‘quvchilarda tabiat hodisalari haqida, hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi haqida to‘liq taasurot hosil bo‘lishiga ko‘mak beradi va shu sababli orttirilgan bilimlarning ahamiyatligini, amaliyligini ta‘minlaydi; boshqa tabiiy fanlarga oid ko‘rgazmalar, texnik vositalar, kompyuterni dars davomida qo‘llash fizika, biologiya, geografiya va boshqa fanlarga oid tushunchalarning o‘zlashtirishini osonlashtiradi.

Butun ta‘lim-tarbiya jarayonida tabiiy va aniq fanlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalab, ya‘ni bir butun qilib o‘qitish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Muammoli-ijodiy vazifalardan foydalanish nafaqat kimyoviy fanlarning individual sifatlarini shakllantirishdagi rolini aniqlashga imkon beradi, balki nafaqat kimyo, balki biologiya, geografiya, fizika, adabiyot, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947 son farmoni 2017 yil
2. Umumiy o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel. 187-son.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovasion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste‘dod” jamg‘armasi, 2009.
4. Gopirov, Asqarov A. 9-sinf uchun darslik, T., 2017.

XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TYUTORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA PSIXOLOGIK-ANALITIK METOD VA VOSITALAR

¹O‘rinova Nilufar Muhammadovna, ²Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi

¹FarDU professori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

²FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

urinovaln@mail.ru, madinabonumhammadjonova07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676637>

Kalit so‘zlar: Tyutor, kadrlar, metod, texniklar, guruh, individual, ta‘lim, antik davr, zamonaviy pedagogika, muhit.

Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko‘zga tashlanayotganligidir. Mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng barkamol insonlar yurtimiz taqdirini hal qiladilar. Shuning uchun ham kelajakka munosib bo‘lgan, ma‘naviy jihatdan yetuk yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu borada pedagog kadrlar hamda tyutorlarning o‘rni beqiyosdir.

Ko‘plab manbalarda ta‘kidlanganidek, tyutorlikni qadimgi davrlardan, misol uchun Rim imperiyasi davrida ham kuzatish mumkin. Qadim zamonlarda bilim olishning yagona manbai tyutorlik bo‘lib bu ta‘lim faqat o‘sha davrining elitasi uchun mo‘ljallangan edi. Qadimgi antik davrdagi tyutorlar – faylasuflar, yozuvchilar, va olimlar bo‘lishgan. Ular o‘z o‘quvchilariga

akademik bilimdan koʻra koʻproq narsani oʻrgatishlari kerak boʻlgan [2, 28-b.]. Taʼlim berishning bu shakli yangi maktablar, universitetlar paydo boʻla boshlagandan keyin bu kabi yakka tartibdagi shugʻullanish yaʼni tyutorlik ikkinchi darajaga tushib qoladi va uning oʻrnini taʼlim berishning akademik tizimi egallaydi.

Professional standartga koʻra, tyutor - bu taʼlimda tyutorlik faoliyati bilan shugʻullanadigan pedagog xodimga nisbatan ishlatiladi. T. M. Kovalyovning taʼkidlashicha, tyutor bu - pedagogik faoliyatni aniqlash va aniqlashga qaratilgan taʼlimni individuallashtirish, talabning taʼlim motivlari va qiziqishlarini rivojlantirish, taʼlim dasturi bilan ishlash uchun davlat, oila, shaxsning xohish-irodasini hisobga oladigan faoliyat hisoblanadi. [6, 32-b] Tyutor talaba bilan muloqot oʻrnatib, qaysi amaliy mashgʻulotlar va maʼruzalarda qatnashish kerakligini aniqlashga, individual oʻquv rejasini tuzishga yordam beradi, talablarining topshiriqlarni bajarishini va ularning imtihonlarga tayyorligini nazorat qiladi.

Tyutorlik faoliyatini tashkil etishda talabalar bilan nafaqat individual balki guruhda ham ishlash talab etiladi. Albatta, ularning qay darajada bir-biri bilan ishlay olishi va muloqotchanlik qobilyatini aniqlab olish ish jarayonining yengil kechishiga koʻmaklashadi. Bu borada tyutorga bir qancha metodlarni oʻrganib, ulardan foydalanish samarali boʻlishi mumkin. Quyida shunday metodlardan birini koʻrib chiqamiz.

Guruhdagi psixologik iqlimni oʻrganish metodikasi.

Mazkur metodika guruhdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni oʻrganishga moʻljallangan, maxsus ikki qutbli shkladan tashkil topgan. Shkala F.Fidler tomonidan taklif qilingan.

Koʻrsatma: “Quyida maʼno jihatdan bir-biriga zid oʻn juft jumla keltirilgan. Ushbu jumlar yordamida guruhdagishaxslararo munosabatlarga baho berish mumkin. Bunda shuni eʼtiborga olish kerakki, baho chap tomonga yaqinlashgan sari chap tarafdagi xususiyat darajasi, oʻng tomonga yaqinlashgan sari oʻng tarafdagi xususiyat darajasi ortadi. Shundan soʻng, guruhimiz aʼzolari oʻrtasidagi munosabat uchun koʻproq qaysi xususiyatlar xos ekanligini koʻrishimiz mumkin”.

		8	7	6	5	4	3	2	1	
1	Doʻstona munosabat									Dushmanlik kayfiyati
2	Kelisha olish									Kelisha olmaslik
3	Guruhdoshlardan qoniqish									Guruhdoshlardan qoniqmaslik
4	Guruh ishlariga qiziqish									Guruh ishlariga qiziqmaslik
5	Bir-birini himoya qilish									Bir-biriga befarqlik
6	Inoqlilik, ahillik									Chiqishmaslik
7	Hamkorlik									Bir-biriga ishonmaslik
8	Oʻzaro yordam									Yaxshilikni ravo koʻrmaslik
9	Guruhdoshlarni hurmat qilish									Guruhdoshlarga hurmatsizlik
10	Guruhdosh yutugʻidan quvonish									Guruhdosh yutugʻiga befarqlik

Natijalarni qayta ishlash va izohlash:

1) Barcha jumalarga qoʻyilgan ballarning yigʻindisi topiladi (80 – eng yuqori koʻrsatkich, 10 – eng quyi koʻrsatkich);

2) Har bir juftlik boʻyicha barcha ishtirokchilar toʻplagan oʻrtacha ballar hisoblab chiqiladi (har bir juftlik boʻyicha barcha ishtirokchilarning ballari oʻzaro qoʻshilib, yigʻindisi ishtirokchilar soniga boʻlinadi);

3) O‘rtacha ballarning bandlari o‘zaro birlashtirib chiqiladi (xosil bo‘lgan egri chiziq ishtirokchilar guruhdagi psixologik iqlim haqida qanday fikrda ekanini aks ettiradi)

Eslatma: guruhning umumiy ko‘rsatkichlarini har bir ishtirokchining ko‘rsatkichlari bilan solishtirish orqali guruhdagi ijtimoiy-psixologik iqlimga noadekvat yuqori yoki past baho beruvchi sinaluvchilarni aniqlab olish mumkin. [5, 72-73 b.].

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish lozimki, har bir tyutor o‘z faoliyatini samarali olib borishi uchun u o‘z guruhi va talabalari bilan yaqindan aloqa o‘rnatishi, guruhni umumiy holati va o‘zaro munosabatini munosib baholay olishi darkor. Shubhasiz, yuqorida keltirilgan metoddan foydalanib guruh muhitini analiz-sintez qilib olish va kerakli xulosalar asosida ishni to‘g‘ri tashkillash tyutorning kelgusi ish faoliyatida qo‘l keladi, talabalarni guruhda ishlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Брэй М. Частное дополнительное обучение (репетиторство): сравнительный анализ моделей и последствий // Вопросы образования. – 2007. – No 1. – С. 65–83
2. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. //Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (<https://zienjournals.com>).
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti//Darslik –T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. //–T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
5. Ратанова Т.А, Шляхта Н.Ф. Психодиагностические методы изучения личности: Учебное пособие. – Переработанное и дополненное издание пособия Т.А.Ратанова, Л.И. Золотарева, Н.Ф.Шляхта «Методы изучения и психодиагностика личности» - М.: Московский психолого – социальный институт: Флинта, 1998. 101 – 102 б
6. Налоговый Гайд для репетиторов в Великобритании [Электронный ресурс]. – Режим доступа: // URL: <https://www.taxback.co.uk/tax-guide-for-tutors-in-the> (дата обращения 26.05.2020).

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ВОСИТАЛАР АСОСИДА СПОРТ КОУЧИНГИГА ТАЙЁРЛАШ

¹Ўтаева Феруза Шавкатовна, ²С.А.Ахмедова

¹Навоий давлат педагогика институти Жисмоний маданият факультети талабаси,

²Илмий раҳбар: п.ф.б.ф.д.(PhD), доцент.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676643>

Аннотация. Мақолада бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини ахборот-коммуникацион воситалар асосида спорт коучингига тайёрлаш масалалари ўз аксини топган. Муаллиф унда бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини келгусидаги касбий фаолиятини таъкил этишида коучинг стратегиялари кўп жиҳатдан ахборот-коммуникация воситаларига ҳам боғлиқлигини ўқтиради.

Калим сузлар: ахборот, коммуникация, технология, восита, жисмоний тарбия, спорт, коучинг, ўқитувчи, касбий фаолият, мотивация, шахсий-касбий сифатлар, ривожланиш.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с применением информационных технологий в стратегиях коучинга для будущих учителей физического воспитания. В ней автор считает, что планирование стратегий коучинга в некоторой степени зависит и от информационных технологий в организации педагогической деятельности будущих учителей физической культуры.

Ключевые слова: информация, коммуникация, технология, средства, физическое воспитание, спорт, коучинг, обучение, профессиональная деятельность, мотивация, лично-профессиональные качества, развитие.

Дунё ҳамжамяти таълим тизимини барқарор тараққиёт тенденцияларига мослаштириш шароитида жисмоний тарбия соҳасида коучинг стратегиялари ва механизмларини замонавий ривожланиш тамойилларига мослаштириш муҳим аҳамият касб этади. Жисмоний тарбия ўқитувчилари таълим жараёнида амалий топшириқлардан ташқари турли электрон таълимий ресурс воситаларидан фойдаланишлари ахборотлашган таълим муҳитини яратиш, замонавий ахборот технологияларини кенг татбиқ этиш, таълим ресурслари базасини такомиллаштириш, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг келгусидаги касбий фаолиятини ташкил этишда коучинг стратегияларини ташкил қилишга хизмат қилади. Жисмоний тарбияни ўқитишда электрон таълим ресурслари бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг келгусидаги касбий фаолиятини ташкил этишда замонавий рақамли электрон қурилмалар, интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланиш, шунингдек, компетенциявий ёндашув асосида фаолият талаблари ва касбий ривожланиш методологияси билан интегратив уйғунликни келтириб чиқаради.

Бугунги кунда Ўзбекистон спорти ривожланаётган паллада спорт коучинги касбий компетентлиликни ривожлантиришнинг ташкилий-дидактик механизмлари асосида шакллантирилган, лойиҳавий таълим, аралаш ўқитиш, тьюторлик хизмати ва инновацион-интерактив технологияларга асосланган вариатив фаолиятдир. Шу жиҳатдан олганда, жисмоний тарбия машғулотларида электрон таълимий ресурслардан фойдаланиш жисмоний тарбия методикасининг янги йўналишларини ҳосил бўлишида, мавжуд таълимий жараёнларни ахборотлашган таълим муҳити билан интеграциялашнинг педагогик-психологик муаммоларини ечишдек муҳим вазифага қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Мамлакатимизда узлуксиз таълим тизимида ахборотлашган таълим муҳитини яратиш, ўқув фанларига мўлжалланган мультимедиали иловаларни кенг жорий, янги авлод ўқув-методик адабиётлар базасини халқаро таълим стандартларига, таълим сифатини баҳолашнинг халқаро дастурлари тизимида мослаштириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Зеро, Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида «Таълимда мультимедиа маҳсулотларини ишлаб чиқиш ва уларни қўллаш жараёнини тизимли ташкил этиш чораларини кўриш» каби устувор вазифалар белгиланган [1-5]. Бу эса, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг келгусидаги касбий фаолиятида улардаги хусусий компетенциялар ривожланишини интерактив электрон таълимий ресурслар воситасида ташкил этилишини таъминлайди.

Мамлакатимизда сўнгги йилларда кураш, гимнастика, теннис, қиличбозлик, велоспорт, ўқ отиш, дзюдо, енгил атлетика, оғир атлетика, таэквондо, эшкак эшиш, шахмат, футбол, болалар спорти, волейбол, гандбол, каратэ, кикбоксинг, муайтай, от спорти, регби, стол тенниси каби спорт турлари ривожланмоқда. Шу билан бирга, **бутун жаҳонда кенг**

кўламда қулоч ёзаётган спорт коучингини ривожлантиришга ҳам эҳтиёж сезилмоқда.

“Коуч” (“coach”) атамаси спорт соҳасида XX асрда пайдо бўлди. “Инглиз тилида: “coach” - «тренер», “мураббий” деган маънони билдириб, раҳбарлик қилиш, спортчиларга устоз ва мураббийлик фаолиятини олиб бориш мазмунида ишлатилади” [6, 71-б.]. Замонавий спорт жамоаларида гуруҳ менежерлари, раҳбарлари билан бирга, коуч маслаҳатчиларига бўлган эҳтиёж ҳам пайдо бўла бошлаганининг гувоҳи бўлмоқдамиз.

Коучинг – спорт соҳасида мураббийлик, йўлбошчилик қилиш, таҳсил олувчи ва тарбияланувчиларда ижобий сифатларни қарор топтириш фаолиятидир. Демак, муайян спорт турида муваффақиятга эришиш йўлларини билган ҳолда мураббий ўз спортчиларини ўқитади ва унга ҳамроҳ бўлади, у билан бирга жисмоний тарбия бўйича машғулотларга ва мусобақаларга қатнашади. Айниқса, жамоавий спортда мураббий учун унинг фаолияти мураккаб бўлиб ҳисобланади, чунки, у гуруҳ билан ишлаганда ҳар бир иштирокчининг гуруҳдаги ролини тақсимлаши, жамоавий ҳолатда уларни жипслаштириши, жамоа ичидан етакчиларни аниқлаши ва гуруҳ аъзоларининг ўзаро психологик киришимлилигини таъминлаши лозим. Бунда ундан психологик, физиологик, бошқарувчанлик билимлар ва малакалар талаб этилади. Шунингдек, спорт соҳасида раҳбар, тренерлик вазифаларини бажариш, бизнес спортини ривожлантиришга йўналтирилган вазифаларни амалга оширишда спорт коучинги алоҳида аҳамият касб этади.

Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг касбий компетентлилигини шакллантиришда ахборот-коммуникацион технологиялар воситасида қуйидаги таълимий шакллардан фойдаланилиши мақсадга мувофиқ:

1. Дарсда намоиш моделларидан фойдаланиш;
2. Дастурлаштирилган машғулотларни ташкил қилиш;
3. Малумот моделларини лойиҳалаш;
4. Билимларни тизимлаштиришга мўлжалланган дарс ва дарсдан ташқари машғулот.

Жисмоний тарбия машғулотларида ахборот-коммуникацион технологиялар воситасида талабаларга билим беришдаги ахборот коммуникация имкониятлари қуйидагиларга қаратилади: машғулотда ўтилаётган ўқув материални визуализациялаш жараёнига самарали таъсир кўрсатиши; бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисининг ўрганаётган спорт турини, жисмоний чиниқтирувчи вазиятларни анимация, гиперматн, мультимедиа, чизмалар, графиклар, моделлаштириш элементлари, товуш орқали виртуал билим эгаллашлари имкониятларини кенгайтириш; маълумот эгаллаш ва билим ўзлаштиришга бўлган мотивацияни кучайтириш; таълим натижаларини кафолатлаш. Бу албатта, дидактиканинг интерфаоллик тамойили асосида содир бўлиб, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисининг креатив фикрлашига ва уларда коучинг стратегияларини ташкил қила олиш кўникмаларини ривожлантиради.

Спорт коучинги талабаларнинг келгуси фаолиятида ҳамда жисмоний чиниқишларини юксалтиришда ва бу соҳада натижавийлиликка эришишда муҳим бўлиб, мутахассисларни спорт клублари, секциялари ва тўғарақларида фаолият юритиши учун тайёрлайди. Айниқса, “спорт коучинги бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини умумий ўрта таълим мактабларида спорт ишларини жонлаштиришга хизмат қилади. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини келгуси педагогик фаолиятига тайёрлашда спорт коучинги талабаларда ўз устида ишлаши - жисмоний, маънавий, интеллектуал жиҳатдан ўз-ўзини ривожлантириб бориши, ўз ҳиссиётини бошқаришни назарда тутади ва бу албатта, ахборот –коммуникацион технологиялар воситасида амалга ошса, жараён янада самарали

бўлади” [7, 54-б.]. Шундай қилиб, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг келгусидаги касбий фаолиятини ташкил этишда ахборот-коммуникацион воситалар уларнинг коучинг стратегиялари, акмеологик мезонлар (касбий мотивация, шахсий-касбий сифатлар, ўзини ўзи бошқариш, рефлексивлик, креативлик)нинг фаолият талаблари ва касбий ривожланиш методологияси билан интегрatív уйғунлигини таъминлайди.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. - Тошкент, 1997й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш Миллий Дастури. -Тошкент, 1997 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон қарори
4. Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги «Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3151-сон қарори
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги «Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3775-сон қарори
6. Абдуллаева Ш.А. Педагогик диагностика-Ташкент: Университет,2019. 310б
7. Столяренко Л.Д. Педагогическая психология. - Ростов на Дону: Феникс», 2006.-544 с.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

¹Хаирова Динара Римовна, ²Такташева Динара Ринатовна

¹кандидат экономических наук, профессор, Филиал РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в городе Ташкенте

² и.о.доцента, Филиал РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в городе Ташкенте

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676648>

Аннотация. Данная статья посвящена изучению возможностей дуального образования в современной системе образования в аспекте формирования профессиональных компетенций будущих специалистов. В частности, авторами проведен сравнительный анализ зарубежной практики применения дуального образования, а также перспективы использования его элементов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: дуальное образование, образовательный процесс, теоретическое обучение, стажировка, практика.

На сегодняшний день, когда в современном обществе образование является важнейшим средством достижения успеха и символом социальной позиции человека, происходит активная интеграция всех стран в мировую систему образования. Как известно, от качества образования во многом зависят темпы его развития во всех сферах жизнедеятельности страны и её статус на международной арене.

В современном Узбекистане высшее образование является одной из самых быстроразвивающихся сфер, так как сильное государство с инновационной рыночной экономикой, крепкое гражданское общество, где обеспечиваются все права и интересы

человека, невозможно построить без создания достойного кадрового резерва. Эффективное решение данной задачи требует поиска новых подходов к организации образовательного процесса, основной целью которого является подготовка высококвалифицированных кадров, востребованных на современном рынке труда.

Дуальное обучение - это такой вид обучения, при котором теоретическая часть подготовки проходит на базе образовательной организации, а практическая - на рабочем месте.

Родоначальником системы дуального образования считается Германия. Опыт этой страны служит образцом для всего Европейского Союза. Немецкая система профессионального образования отличается развитым институтом наставничества, практико-ориентированным обучением и активным участием бизнеса в подготовке кадров. Дуальное обучение в Германии введено в строгие законодательные рамки и осуществляется с помощью торгово-промышленных и ремесленных палат.

Одним из первых нормативных документов, регулирующих систему профессионального образования и обучения в Германии, стало промысловое уложение, принятое в 1869 г. По нему в Северогерманских землях вводилось обязательное получение образования для несовершеннолетних в целях совершенствования рабочих навыков. Последующими поправками к образовательному процессу привлекались палаты квалифицированных ремесел, на которые возлагалась обязанность осуществления надзора за профессиональным ремесленным обучением [1]. А уже принятый под давлением движения малого бизнеса в 1897 г. закон, регулирующий деятельность ремесленников, стал основой современного законодательства о дуальной системе профессионального образования и обучения в Германии - Закона о профессиональном обучении. В документе оговаривалась квалификация учителей, фиксировалась трехлетняя система ученичества с экзаменом по завершении, на весь ремесленный сектор распространялась система контрактов. Таким образом, принятым законодательством были заложены основные принципы дуальной корпоративной структуры профессионального образования и обучения в Германии.

В итоге в Германии дуальная система профессионального образования и обучения стала неотъемлемой частью системы общего образования и обучения. У учащихся имеется несколько возможностей получить профессиональную квалификацию после окончания школы: в профессиональной школе полного цикла; в рамках дуальной системы профессионального образования и обучения; в университете прикладных наук, который также дает возможность обучения по дуальной системе или в обычном университете. И многие выбирают обучение именно по дуальной системе, длящееся, как правило, 3 года (36 месяцев) [2]. Дуальная система профессионального образования и обучения имеет высокую репутацию в Германии также у работодателей, поскольку все ученики активно участвуют во многих повседневных производственных процессах. В Германии в ней участвуют 25% предприятий. Благодаря дуальной форме обучения студент не только получает диплом о профессиональном образовании, но и проходит длительную оплачиваемую практику на предприятии. После окончания вуза студенты получают гарантированные рабочие места.

Дуальное обучение в школе в России реализуется за счёт УПК (учебно-производственных комбинатов) и дополнительного образования в колледжах. УПК берут начало в 70-х годах прошлого века, когда школьники на базе таких комбинатов получали дополнительное профессиональное образование. У школьников была возможность выбрать

специальность, по которой они хотят получить дополнительное образование, и оценка по ней вносилась в школьный аттестат. Сегодня в ряде школ остались УПК, благодаря которым школьники могут освоить дополнительную профессию, а также получить дополнительную профессиональную квалификацию на базе колледжей. Количество занятий и форму дуального обучения школьников определяет образовательная организация.

На сегодняшний день дуальное образование успешно внедряется и в Республике Казахстан – государстве, которое является ближайшим соседом Узбекистана. Система дуального образования в Казахстане внедряется в течение уже более 10 лет. Первоначально ее внедрили в колледжах, а в 2016 году – в высших учебных заведениях.

В Казахстане образовательные программы технического и профессионального образования с использованием дуального обучения предусматривают теоретическое обучение в организациях образования и не менее шестидесяти процентов производственного обучения, профессиональной практики на базе предприятия (организации). С 2021-2022 учебного года казахстанским колледжам предоставлена академическая самостоятельность. Теперь они сами совместно с работодателями будут определять содержание образовательных программ и сроки обучения. В Казахстане предприятие участвует в разработке рабочих учебных планов и учебных программ учебного заведения, а также учебно-методических комплексов. Колледжи совместно с работодателями определяют содержание образовательных программ на основе профессиональных стандартов и региональных особенностей, определяют сроки, объем учебного времени и вводят дополнительные дисциплины (профессиональные модули) по необходимости. Таким образом, работодатели совместно с учебными заведениями имеют возможность самостоятельно регулировать содержание образовательных программ в соответствии с потребностями быстро меняющейся экономики [3].

Внедрение дуального образования в образовательный процесс Узбекистана произошло относительно недавно. 29 марта 2021 года было принято постановление Кабинета Министров № 163 «О мерах по организации дуального обучения в системе профессионального образования». Данным постановлением была предусмотрена организация дуального образования с 2021/2022 учебного года в системе профессионального образования в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об образовании», а также в целях создания широких возможностей для поддержки заинтересованности молодежи в приобретении профессий и специальностей.

На основе изучения зарубежного опыта в области дуального образования, его эффективная реализация в Республике Узбекистан на сегодняшний день осуществляется в разрезе следующих аспектов: увязка образовательного процесса образовательного учреждения с условиями производства на предприятии (организации), организация практической части обучения на предприятиях (организациях) и теоретической в образовательных учреждениях, повышение инвестиционной привлекательности регионов и улучшение подготовки кадров среднего звена с учетом реальных потребностей экономики, разработка форматов и моделей сотрудничества предприятий (организаций) и образовательных учреждений; формирование компетенций при реализации программ обучения в сочетании с трудовой деятельностью, совершенствование программы обучения с учетом требований работодателей и их технологических инноваций.

В заключении хотелось бы отметить, что успешная реализация дуального образования будет способствовать дальнейшей интеграции учебного процесса с практикой и производством, будет организована работа по расширению партнерских отношений с ведущими профильными зарубежными научно-образовательными учреждениями, оптимизации направлений и специальностей обучения с учетом перспектив комплексного развития регионов и отраслей экономики, потребностей реализуемых территориальных и отраслевых программ Республики Узбекистан.

REFERENCES

1. Gewerbeordnung. URL: <http://www.gesetze-im-internet.de/gewo/>
2. Vocational Training "Made in Germany" Germany's Dual System of Vocational Education and Training (VET). URL: https://www.gtai.de/GTAI/Content/EN/Invest/_SharedDocs/Downloads/GTAI/BLG/blg--most-wanted--dual-vocational-training-in-germany-pdf.pdf
3. <https://newtimes.kz/obshchestvo/140769-dualnoe-obuchenie-v-kazakhstane-tseli-zadachi-problemy-i-puti-ikh-resheniia>

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA UNI TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHDAGI O'RNI

Xanberdiyeva Mumtoza

Nordik Xalqaro Universiteti Ta'lim Muassasalarini Boshqaruvi Yo'nalishi 1-Kurs Magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676654>

Jamiyatda har qanday kasb bo‘lmasin, avvalambor, uning darajasi mavqeyi bilim bilan o‘lchanadi. Mana shu bilim esa malaka bilan shakllanadi. Aynan, pedagog kasbining sub’ekti boshqa shaxslardir. Shu bois, unda bilim va malaka uning mahorati orqali yuzaga chiqadi. Xo‘sh, pedagog kasbiy kompetentligi va uni ta’lim jarayonini boshqarishdagi o‘rni qay darajada ahamiyat kasb etadi? Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Kasbiy ta’lim ustalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning asosiy faoliyat mazmuni shaxs bilan bog‘liq, ular bola faoliyatini, ularning yosh xususiyatlarini boshqarish jarayonida “generator” vazifasini bajaradi. Shu bois, ular kasb doirasida bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Azaldan sharq xalqlari pedagoglik kasbiga juda katta hurmat bilan qarashgan. Chunki ular boshqa kasb egalaridan farqli o‘laroq inson kamoloti bilan shug‘ullanadi. Ularning ma’nan yetuk, barkamol shakllanishida eng asosiy ustun vazifasini bajaradi. Pedagog tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, tushuntirishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlarini uchun tarbiya jarayonlariga ta’sir qilish va uni boshqarishni nazarda tutadi. O‘qituvchilik kasbi dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati va qadri hech qachon kamaymaydi, so‘nmaydi. Jumladan, g‘azal mulkinging sultoni mir Alisher Navoiy ijodida muallimlarga munosib alohida e’tibor berilgan. Uning fikricha, har bir inson o‘ziga ta’lim va tarbiya bergan ustozini umrbod eslashi va hurmat qilishi kerak. Tarbiyachi mehnatini har qanday xazina bilan o‘lchab bo‘lmaydi, aslida.

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

***Аннотация.** Данная статья об инновации в образовании, которые необходимы для постоянного совершенствования системы обучения. Анализ, оценка и поддержка внедрения педагогических инноваций помогут создать более эффективную и современную систему образования, способствующую развитию будущих поколений.*

***Ключевые слова:** развитие инноваций в образовании, педагогическо-инновационная деятельность, совершенствование системы подготовки, эффективная и современная система образования, политические и социальные тенденции, проблемы качества образования.*

С изменением социально-экономических условий, появлением новых тенденций в развитии образования в Республике Узбекистан перед национальными педагогами-исследователями и практиками встали новые практические задачи, связанные с разработкой методологических основ политики в сфере образования и прикладных исследований, обеспечивающих качественное развитие институтов образования на всех его ступенях.

Развитие образования – это процесс, управляемый государством, научно-педагогическими учреждениями, педагогами, родителями, учащимися. К основаниям развития образования следует отнести новые концепции и модели на уровне государства, учебного заведения, новые образовательные стандарты [1]. В Узбекистане развитие инноваций в образовании играет важную роль. Реформы способствуют не только воспитанию подрастающего поколения, но также привлекают его к инновационной деятельности, что способствует совершенствованию системы подготовки высококвалифицированных специалистов, соответствующих мировым стандартам, для ведущих отраслей экономики страны [2]. Актуальными направлениями в системе образования становятся анализ и оценка вводимых учителями педагогических инноваций, создание условий для их успешной разработки и применения [2]. Важно продолжать совершенствовать образовательные и педагогические технологии, чтобы обеспечить качественное образование и подготовку кадров, способных эффективно работать в современном мире. Анализ и оценка вводимых учителями педагогических инноваций – важный шаг для понимания эффективности новых методов обучения.

С начала XXI века в Узбекистане и за рубежом наметились политические и социальные тенденции, которые привели к возрастанию насущных проблем качества образования, поиску новых подходов повышения эффективности управления образовательными системами. На современном этапе можно выделить следующие тенденции развития образования. Эти тенденции развития присущи как узбекскому, так и мировому образовательному процессу:

1. Демократизация. Одним из направлений образовательного процесса является демократизация образования, которая выражается в предоставлении больших прав и академических свобод образовательным учреждениям и обучающимся в них с целью

реализации права каждого человека на образование и предоставление образовательным учреждениям самостоятельности и автономности [2]. Пути осуществления демократизации образования: равное и обязательное право на получение образования; децентрализация системы образования, самоуправление учебных заведений, традиционное и нетрадиционное образование; непрерывность образования; государственные и негосударственные учебные заведения.

Демократизация образования предполагает: ликвидацию монополии государства на образование и переход к общественно-государственной системе; четкое разграничение полномочий между центральными, региональными и местными органами управления с максимальной передачей управленческой функции на места, что включает участие местной власти и местной общественности в управлении образованием; самостоятельность образовательных учреждений в выборе целей, содержания, организации и методов работы, а также юридическая, экономическая и финансовая самостоятельность; право педагогов на творчество, свободу выбора концепций и технологий, учебников и учебных пособий, методов оценки деятельности учащихся, участие в управлении образовательным учреждением; право учащихся на выбор школы и профиля образования, на домашнее образование и обучение в негосударственных учебных заведениях, на ускоренное обучение и обучение по индивидуальным учебным планам, на участие в управлении образовательным учреждением [2].

2. Непрерывность. Впервые концепция «непрерывного образования» была представлена на форуме ЮНЕСКО крупнейшим теоретиком П.Ленграндом и вызвала огромный теоретический и практический резонанс. В предложенной им трактовке непрерывного образования воплощена гуманистическая идея: она ставит в центр всех образовательных начал человека, которому следует создать условия для полного развития его способностей на протяжении всей жизни [3]. Из этого следует, что под непрерывностью образования имеется в виду не образование, полученное один раз на всю жизнь, а процесс постоянного образования-самообразования человека в течение всей жизни в связи с быстро меняющимися условиями жизни в современном обществе.

Непрерывное образование – это процесс роста образовательного (общего и профессионального) потенциала личности в течение всей жизни. Оно основано на использовании системы государственных и общественных институтов, а также соответствует потребностям личности и общества [1].

Важные аспекты непрерывного образования включают: образование на протяжении всей жизни (life-long learning): это обучение, которое продолжается на протяжении всей жизни человека. Людям необходимо постоянно обновлять свои знания и навыки; образование взрослых (adult education): включает в себя обучение взрослых, которое может быть, как формальным (в учебных заведениях), так и неформальным (курсы, семинары, самообразование); непрерывное профессиональное образование (continuing vocational education and training): это обучение, направленное на повышение квалификации и развитие профессиональных навыков, которое позволяет специалистам быть в курсе последних тенденций и инноваций в своей области; непрерывное образование помогает людям развиваться интеллектуально, повышать свою конкурентоспособность на рынке труда и успешно адаптироваться к изменениям в обществе и технологиях.

3. Диверсификация выражается в необходимости значительного расширения объема содержания образования в условиях научно-технического процесса. Под

диверсификацией понимают введение новых методов обучения, большое многообразие учебных заведений, образовательных программ и органов управления на всех уровнях образования. Примером практического исполнения диверсификации может послужить: группировка учащихся по признаку их успеваемости; разделение учебных дисциплин на обязательные и по выбору; разделение учебных заведений на элитные, массовые и предназначенные для учащихся с задержками или отклонениями в развитии.

Диверсификация в системе высшего образования – это процесс, который отражает формирование новой образовательной парадигмы, ориентированной на личность, а не только на производство. Она характеризует повышение гибкости образовательной системы, ее способность к быстрой перестройке и учету возросших требований общества к результатам деятельности образовательной системы. На первом этапе диверсификации системы высшего образования, который связан с численным приращением учебных заведений и количества студентов, акцент делался на расширении количества учебных заведений. Однако следующий этап диверсификации исходит из решения проблем содержательного характера и связан с преобразованиями в другой глобальной системе – науке. На данный момент начинается второй этап диверсификации, который ориентирован на формирование более гибкой и индивидуально ориентированной системы образования.

4. Индивидуализация. Индивидуализация в образовании – это важный принцип, который учитывает уникальные потребности и способности каждого учащегося и направлена на создание условий для развития индивидуальных способностей в процессе обучения и воспитания.

5. Интернационализация вызвана политическим и экономическим сближением стран мира, она предусматривает обеспечение общего образовательного пространства с сохранением позитивных национальных традиций учебных заведений Узбекистана.

Перечисленные тенденции развития образования позволяют действительно улучшить учебно-воспитательный процесс в вузе. Создание условий для успешной разработки и применения педагогических инноваций включает в себя создание поддерживающей среды, обучение педагогов новым методам, доступ к ресурсам и технологиям. Учителя должны иметь возможность экспериментировать, обмениваться опытом и получать поддержку со стороны коллег. Инновации в образовании необходимы для постоянного совершенствования системы обучения. Анализ, оценка и поддержка внедрения педагогических инноваций помогут создать более эффективную и современную систему образования, способствующую развитию будущих поколений.

REFERENCES

1. Указ Президента Ш. Мирзиёева «Концепция развития системы высшего образования в Узбекистане до 2030 года» от 9 октября 2019 года.
2. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: Монография / Под ред. Б.Дендева. – М.: ИИТО ЮНЕСКО, 2013. – 320 с.
3. Баранов А.А., Шарафутдинов Р.Н. Дидактические условия формирования проектной компетенции у будущего педагога // Современные проблемы науки и образования. – М., 2012. – № 3.

TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI MULTIMEDIALI VOSITALAR ASOSIDA O'QITISH

¹Abduraxmanov Muxtor Xujayarovich, ²Rashidov Bahodir Mutallib o'g'li

¹O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti (PhD), dotsenti

²O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1067669>

Annotatsiya. Axborot texnologiyalarni multimedial vositalar orqali o'qitishda talabalarni qiziqitirish, ma'lumotlarni o'rganishga qiziqishlarini oshirish, ularning o'zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, talabalarning e'tiborini jalb qilish, bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishga kumaklashadi.

Kalit so'z: multimedia, axborot texnologiyalari, samarali ta'lim, elektron darslik, multimedial ilovalar.

Mamlakatimizda mavjud barcha oliy ta'lim muassasalari uchun turli hildagi ko'rgazmali materiallar, kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishga mo'ljallangan multimedial didaktik vositalar yaratish va ulardan foydalanish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalangan holda axborot texnologiyalarini o'qitishni uslubiy ta'minlash samarali ta'lim olish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, zamonaviy elektron darslik, ayniqsa, multimedial ilovalarni yaratish dolzarb muhim muammoga aylanib, undan nafaqat axborot texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash, balki undan boshqa fanlarni harakatli, ko'rgazmali, tovushli, sermazmun tarzda qo'llash o'qitish jarayonida samarali natijalarga olib kelinmoqda.[1]

Multimedia (multi - ko'p, media - muhit) - bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k) turli xil tashuvchilarda (optik disk, disketa, flesh xotira va h.k.) mavjud bo'lgan axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir.

Multimedial ilovalar – harakatli, tovushli, ko'rgazmali va multimedia imkoniyatlariga ega bo'lgan elektron manbalardir. Boshqacharoq aytganda, multimedial ilovalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, talabaning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga oluvchi o'quv resurslarini tushunamiz.

Multimedia ilovalarini yaratish uchun bugungi kunda bir nechta dasturiy vositalar mavjud. Eng ko'p qo'llanib kelinayotgan dasturlar PowerPoint, Prezi, ISpring, Yenka, Blender, Adobe Flash, Autoplay, Camtasia Studio dasturlaridir.

Multimedia vositalari –bu foydalanuvchi ovoz, video, tasvir, matn, animatsiya yordamida muloqotda bo'ladigan apparat va dasturiy vositalarning yig'indisi.

Multimedia vositalari – amaliy dasturiy vositalar bo'lib, ular o'qitish jarayonining barcha sohalarida dasturiy tizimlarni yaratish, tayyorlash, tashkiliy materiallarni va ma'lumotlarni jamlash, grafik yoki animatsiyalarni qo'shish hamda namoyish uchun mo'ljallangan.

Multimedial didaktik vositalar – harakatli, tovushli, ko'rgazmali va multimedia imkoniyatlariga ega bo'lgan vositalar to'plamidir. Boshqacharoq aytganda, multimedial didaktik vositalar multimedia texnologiyasi yordamida axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi elektron qo'llanmadir.

Multimediali didaktik vositalar zamonaviy informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, saqlash va taqdim etish imkoniyatlariga asoslangan zamonaviy o‘quv qo‘llanmalardir.[2]

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy masalasi – insonning intellektual imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Hozirgi vaqtda o‘qitish uslubiyatining o‘zi o‘zgarib bormoqda: bilimlarni o‘zlashtirish – axborotlardan foydalana olishga, uni kompyuter yordamida egallashga o‘rnini bermoqda.

Oliy ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirish o‘zining yuqori darajasiga ko‘tarilib, kompyuterlar asosida yangi axborot texnologiyalarini hayotga tatbiq qilish keng amalga oshirilmoqda. Axborotlar jamiyatiga o‘tishda har qanday yetuk darajali zamonaviy mutaxassis kompyuterlar, telekommunikatsiya va boshqa aloqa vositalaridan unumli foydalana olishni bilishi zarur. Shunday ekan, bo‘lajak mutaxassislarimizni bilimli va zamon talablari darajasida tayyorlash uchun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Auditoriyalarni zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash va ulardan dars jarayonida foydalanish, Axborot texnologiyalari fanidan amaliy mashg‘ulotlarni olib borishda zamonaviy texnika vositalari, ya’ni kompyuterlar, proektorlar, video, audio vositalarni qo‘llay bilish ta’lim sifatini yanada oshiradi.[3]

Xulasa qilib aytganda talabalarga axborot texnologiyalari ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradigan qiziqarli va interaktiv o‘quv muhitini yaratishdir.

REFERENCES

1. Ахмедов А., Тайлақов Н.И. Информатика. Академик лицей ва касб- хунар коллежлари учун дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2008. - 272 б.
2. Рахимов С., Абдурахмонов М. Олий таълим муассасаларида Информатика фанини ўқитишда мультимедиа ўқув ресурсларининг ўрни // “Фаол инвестицион муҳитни шакллантиришда таълим, фан, ишлаб чиқариш интеграциясининг долзарб муаммолари” мавзусида ёш олимлар, докторантлар, мустақил тадқиқотчилар, магистрант ва иқтидорли талабаларнинг XVI республика илмий-конференцияси материаллари, 7 июнь, 2019 й. – Т., 2019.
3. Рахимов С. ОТМларда “Ахборот технологиялари” фанини мультимедиа дидактик воситалар асосида ўқитишнинг айрим усуллари // “XXI асрда илм-фан тараққиётининг ривожланиш истикболлари ва уларда инновацияларнинг тутган ўрни” мавзусидаги Республика 9-илмий онлайн конференцияси. – Т., 2018.

TA’LIM JARAYONIGA WEB VA BULUTLI TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISH VA UNDAN FOYDALANISH

¹Abduraxmanov Muxtor Xujayarovich, ²Maqsimov Sardorbek Murodil o‘g‘li

¹O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, (PhD) dotsenti

²O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676706>

Аннотация. Та’лим jarayonida o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatni rivojlantirishda jamiyat va

davlat taraqqiyotini ta‘minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirishga zarurat mavjud.

Kalit so‘z: *Bulutli texnologiyalar, infra tuzilma, provayderlar, platforma, operatsion tizim, virtualizatsiya, masofaviy ta‘lim, web ilovalar.*

Ta‘lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish farzandlarimizning mustaqil fikrlash, bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ta‘lim sohasi vakillarining oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Albatta zamonaviy ta‘limni IT va raqamli texnologiyalarsiz tassavur etish qiyin. Hozirgi kunda ko‘p qo‘lanilayotgan sohalar qatorida ITning “Bulut” texnologiyasi ham 2008-yildan boshlab (Cloud technology) ishlab chiqilgan bo‘lib, Bulutli texnologiyalar so‘zi dunyo miqyosida keng tarqaldi. Bir qarashda “Bulutli texnologiyalar” tushunarsiz ko‘rinsada: bu model o‘zida biror bir tizim (serverlar, ilovalar, saqlash tizmlari va xizmatlar)dan tez, qulay va samarali foydalanish imkonini beradi. Faqatgina provayder orqali tarmoqqa ulanganda ortiqcha urinishsiz, tez va aniq taqdim etiladi.

Bulutli texnologiyalardan foydalanishdagi afzalliklar. Bulut ichida saqlanayotgan ma‘lumotlardan har kim foydalanish mumkin bunga faqatgina, kompyuter, planshet, mobil telefon internet tarmog‘iga ulangan bo‘lishi yetarli. Bulutli texnologiyalar va ularni o‘quv jarayonida qo‘llashga to‘xtalib o‘tamiz.

Foydalanuvchilar DT sotib olishlari shart bo‘lmaydi;

- Ishlash kuchi iste‘molchilar kompyuterlari harakteristikalariga bog‘liq emas. - Iste‘molchilar uchun kompyuterlarning ishlash sifati oshadi.
- IT infratuzilmadan foydalanish samaradorligi oshadi va chiqimlar soni kamayadi.
- Xizmat ko‘rsatishdagi va DTni sotib olishdagi harajatlarni kamaytirish.
- Hisoblash kuchi o‘shishi. Oddiy shaxsiy kompyuter is‘temolchisi ma‘lumotlarini saqlashga joy yetmaganda, bunday xolat bulutli hisoblash istemochilarida yuzaga kelib chiqmaydi;
- Operatsion tizim bilan mos kelishi. Bulutli texnologiyalar Iste‘molchilarda qanday operatsion tizim turganligiga qaramaydi.
- Hujjat formatlari bilan mos kelishi.
- Iste‘molchilarning bir guruh bo‘lib ishlashidagi qulayliklari. Bulutli hisoblash tizimlarida bir vaqtning o‘zida bir necha iste‘molchilar ish olib borishlari mumkin. Hujjatlarni bir kompyuterdan boshqasiga ko‘chirib o‘tkazish kerak bo‘lmaydi.
- Bulutli hisoblashlarda fayllardan erkin foydalanish imkoniyati mavjudligi.
- Tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirish.
- Ma‘lumotlarni yoqolishiga bardoshligi

Kamchiliklari:

- Doimiy internet tarmog‘i bilan aloqada bo‘lishi lozim.
- Ishlash tezligi sekinligi. Ko‘pgina bulutli servislar to‘laqonli ishlashi uchun normal internet ulanishni talab qiladi.
- To‘liq funksional imkoniyatlarga ega bo‘lmagan holda dasturlarni sekin ishlashi.
- Ma‘lumotlar xavfsizligiga xavf borligi.

Hozirda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda maktab va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan ta‘limni boshqaruvchi elektron platformalarga o‘tilgan albata bu tizimlar

orqali ma'lumotlar tizimlashtirilgan va bu web bulut texnologiyalaridan foydalanishga misol bo'la oladi.

Ma'ruzada bulutli texnologiyalarning maktab va maktabgacha ta'lim tizimlaridagi elektron platformalari keltiriladi.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: 2017-yil.
2. Axmadov A, Toylaqov N, “Informatika” Toshkent 2001yil Internet saytlari:
3. www.ziyonet.uz-O‘zbekiston yagona axborot ta’lim tarmog‘i
4. www.search.re.uz-O‘zbekistonning axborotlarni izlab toppish haqida ma’lumotlar
5. <https://moluch.ru/archive/62/9448/>-Применение облачных технологий в образовании. www.arxiv.uz

RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM SHAROITIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM – TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH OMILI SIFATIDA

¹Barakayev Murod, ²Allado'stova Dilrabo, ³A'zamov Yusupjon

¹Ped.f. n., professor v.b. (TDPU)

²II bosqich magistrant (TDPU)

³MI ta'lim yo'nalish IV bosqich talabasi (TDPU)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676710>

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim sharoitida raqamlashtirish muhim o'rin tutub, unga erishishda ixtisoslashtirilgan ta'lim muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish - mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat va xizmatlar bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda malakali mutaxassislar tayyorlashdek asosiy masalalarini samarali hal etilishiga olib keladi.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi tahlillari shuni ko'rsatadiki:

ilm-fan jadal rivojlanib borayotgan;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kundalik hayotga keng joriy etilgan;

jamiyatda turli fan sohalarida bilimlar tez yangilanib borayotgan bir sharoitda

o'quvchi-talabalar va barcha soha xodimlaridan doimiy ravishda mustaqil holda o'z bilimlarini oshirib borish malakalariga ega bo'lishi talab etilar ekan. Bunda raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslari grafik, matnli, nutqli, musiqiy, video, audio, foto va boshqa axborotlar to'pamidan foydalanish muhim hisoblanadi. [1, 2].

Elektron ta'lim resurslari ta'lim jarayonida elektron vositalar hisoblanib, bilimlarning mos ilmiy-amaliy sohasi bo'yicha tizimlashtirilgan, o'quvchi-talabalar tomonidan shu sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy va faol egallashni ta'minlaydigan elektron nashrdan iborat bo'ladi [4]. Ular ishlarni samarali va sifatli bajarilishi, badiiy bezalishi, axborotlarning to'liqligi, metodik qo'llanmalarining sifati, ko'rgazmaliligi, mantiqiyliigi va bayon qilish ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, multimedialarning imkoniyatlari katta o'rin egallaydi va an'anaviy ko'rgazmalilik o'rganilayotgan ob'ektning aniqligini hisobga olgan bo'lsa, kompyuter texnologiyasidan foydalanish ilmiy qonuniyatlar, nazariyalar va tushunchalarni ifodalash imkoniyatlari yaratiladi [5].

Mazkur vazifalarni hal etish dunyo hamjamiyatida o'zligini yuksak darajada anglab yetgan, o'z qobiliyati darajasida samarali kasbiy faoliyat yurita oladigan shaxslarni tarbiyalab

yetishtirish talab etiladi. Chunki, bunday shaxslar: mustaqil fikrlovchi, ishbilarmon, shaxsiy yaratuvchanlik faoliyatiga ega, insonlarga nisbatan mehr-oqibatli, fidoiy, vatanparvar, o‘z egallagan kasbi bo‘yicha yuqori malakaga ega bo‘lish kabi xislatlarni o‘zida to‘la mujassamlashtirgan bo‘ladi.

Ushbu masalaga mamlakatimiz nuqtai nazaridan yondashsak, tan olish kerak bugungi ta’lim tizimimiz bitiruvchilarining juda katta qismi talab darajasidan ancha orqada.

Bu borada shuni alohida qayd etish joizki, haqiqatan ham XXI asr axborotlar asri. Bu juda to‘g‘ri. Ammo, har bir o‘quvchi yoki talaba yoki mutaxassis juda ko‘p axborotga ega bo‘lishi (hatto aqliy bilimlarga asoslangan axborotlar bo‘lsada) bu uning shaxs sifatada shakllanishi uchun yoki kelgusida biror oliy o‘quv yurtida yetarli kasbiy bilimlarni egallashi uchun yoki samarali kasbiy faoliyat yuritishi uchun asos bo‘la olmaydi. Ming afsuski, hozirgi kunda ko‘pchilik bilim bilan axborotni farqiga bormay qoldi. Ya’ni, bugungi kun kishisi “zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni samarali boshqara olsa, shuni o‘zi yetarli” - degan aqidaga asoslanib ish yurita boshladi. Bu to‘g‘ri yo‘l emas ekanligini bugungi kun to‘la ko‘rsatib turibdi [3].

Xo‘sh unda nima qilish kerak? Ta’lim jarayonini tashkil etishda nimaga e’tiborni kuchaytirish kerak?

Bizning nazarimizda bitmas-tuganmas axborotlarni ongli ravishda egallash uchun birinchi navbatda, mamlakatimizdagi har bir o‘quvchi yoki talaba yoki ishchi yoki oliy ma’lumotli mutaxassis dastlab hech bo‘lmaganda yetarli darajada fundamental bilimlarni egallashi zarur. Ana shunda insonni bugungi kunda yo‘l qo‘yadigan xatolari kamayadi va u komillik sari yaqinlashadi.

Bu borada ijobiy natijaga erishish uchun nima qilish kerak? (matematika fani misolida o‘z fikrlarimizni o‘rtoqlashmoqchimiz):

1) *Ta’lim tizimini imkoni boricha tez shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari asosida, ya’ni ixtisoslashtirish, ya’ni ijtimoiy-gumanitar, aniq-tabiiy fanlar va kasbga ixtisoslashgan sinflarga ajratgan holda tashkil etish (To‘g‘ri hozirgi paytda bu borada ma’lum ishlar amalga oshirilmoqda, lekin u maktablarda har bir ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitiladigan fanlar mazmunini to‘la islohga muhtoj).*

Bunday sinflarga ajratish hech bo‘lmaganda VII sinfdan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda mumkin qadar o‘quvchilar qiziqishlarini aniqlashda asosiy imkoniyatni tashxis markazlari amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yigirma birinchi asrda **shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi** asosida ta’limni tashkil etmasdan turib, ta’lim maqsadlariga erishib bo‘lmaydi. Ya’ni, hozirgi kunda shaxs ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’limni tashkil etish nachog‘li samarali ekanligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatib turibdi. Albatta, shaxs ehtiyojidan kelib chiqqan holda ta’limni tashkil etish deganda biz bitta shaxs nuqtai nazaridan yondoshmasligimiz kerak, balki bir xil ta’limiy ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhi nuqtai nazaridan yondoshish kerak. Hozirgi ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim elementlari nazarimda faqatgina qog‘ozlarda, hisobotlardagina mavjud. **Aks holda biz bo‘lg‘usi buyuk tarixchi bilan bo‘lg‘usi buyuk matematik yoki bo‘lg‘usi buyuk xuquqshunos bilan bo‘lg‘usi buyuk dorishunosni bitta partada to‘qqiz yil majburiy o‘qitmagani bo‘lar edi** [3]. Shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlashni joiz deb bilaman: Ayrim pedagoglar, ayrim ota-onalar maktab o‘quvchilarini dars jarayonida sho‘xlik qilishini ularni tarbiyasizlikda ayblashadi. Tan olish kerak, tarbiyasiz, be’zorilikka moyilligi bo‘lgan o‘quvchi turli xil bahonalarni izlab topib bo‘lsada, o‘quv mashg‘ulotlarida qatnashmaslikka harakat qiladi. Dars jarayonida darsni borishiga

to‘sqinlik qilayotgan o‘quvchini yomon o‘quvchiga yo‘yish mutlaqo noto‘g‘ri deb hisoblaymiz. U bechora, o‘qituvchi tushuntirayotgan narsalarga aqli yetmagani uchun, zerikkani uchun darsni borishiga zimdan halaqit bermoqda.

Vaholanki, har qanday kishi o‘zi uchun tushunarli, o‘z aqli yetgan va u uchun qiziqarli bo‘lgan narsaga butun vujudi bilan quloq soladi. Aslida hattoki, yoshi katta kishilar ham biror tadbirda o‘zi uchun tushunarsiz yoki qiziqarli bo‘lmagan ma‘ruzularni oxiricha tinglamasdan atrofida qilgan o‘ziga jalb qilishga harakat qilishiga har birimiz juda ko‘p bor duch kelganmiz. Shuning uchun, maktablarimizda tashkil etiladigan ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi sinflarda o‘rganiladigan matematika mazmunini keskin soddalashtirish kerak. Bunda bu o‘quvchilarning kelgusida ijtimoiy-gumanitar soha xodimi bo‘lishi uchun ta‘lim oladigan muassasalarda o‘qishida zarur bo‘ladigan matematik bilimlarni va shaxs sifatida shakllanishi uchun yordam beradigan mazmundagi matematikani o‘rgatish va bu orqali yuzaga kelgan bo‘sh soatlarni ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi fanlarni o‘rganishga yo‘naltirish ta‘lim samaradorligini oshishiga olib keladi. Xuddi shuningdek, aniq-tabiiy fanlarni o‘qitishga ixtisoslashgan sinflarda yuqoridagining aks holatidaga qoidaga amal qilish albatta ta‘lim maqsadlariga erishishni kafolatlashda muhim o‘rin tutadi.

To‘g‘ri yuqoridagilar asosan davlatdan ma‘lum miqdorda qo‘shimcha mablag‘larni sarflashni talab etadi. Lekin ertangi kunimiz farovon va obod bo‘lishi pirovard maqsadimiz ekan, buni amalga oshirish bosh maqsadlardan biri bo‘lishi muhimdir. Bularga erishish, kelajakda har bitiruvchi ongli ravishda kasb tanlashiga va malakali kasb egasi bo‘lmasdan turib mehnat va xizmatlar bozorida o‘ziga munosib o‘rin topa olmasligini, bu esa o‘zining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini hech bo‘lmaganda minimal darajada bo‘lsa ham ta‘minlash imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishini va pirovardida o‘zi yashayotgan jamiyat uchun boqimandaga aylanishini anglangan holda oldindan tushunib yetishiga olib keladi. Bu esa ularning nafaqat bilim olishga, balki chuqur bilim olishga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantiradi. Natijada, mamlakat hayotiga sog‘lom fikrli, bilimli, malakali shaxslar kirib keladi. Bu har qanday sharoitda mamlakatimiz ma‘naviy, iqtisodiy va siyosiy hayotida biz uzoq yillardan beri orzu qilib kelayotgan orzularni ro‘yobga chiqishi uchun to‘la asos bo‘la oladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son Farmoni, “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi.
2. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyeti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.
3. Barakayev, M., Shamshiyev, A., O‘rinov, X., Abduraxmonov, D. (2020). Problems of Teaching Mathematics in Modernization. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 19(2), 201-203
4. Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta‘limda axborot texnologiyalari, Toshkent, 2019. – 340 b.
5. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING DASTURLASHGA DOIR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV ILOVALAR VA KREATIV USULLARNI QO‘LLASH

¹Bektemirova Gulrux Otabek qizi, ²Shukurov Erkin Sodiq o‘g‘li

¹Samarqand davlat universiteti

²SamDu Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi


<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676712>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv ilovalar va kreativ usullarni qo‘llash masalasi tadqiq qilingan. Bunda kreativ usullarning mazmun va mohiyati, ta‘lim jarayonida kreativ usullarni qo‘llashning tahlili keltirib o‘tilgan. Kreativ usullar asosida talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish samaradorligi asoslangan. Dasturlashda kreativlikni oshirish uchun onlayn contest tizimlaridan foydalanishning uslubiy jihatlari taklif qilingan. Kreativ usullar yordamida dasturlash fanini yangi metodik qo‘llanmalar orqali o‘qitish muammosi va bu muammoni yechish bosqichlari qadam va qadam algaritmik ko‘rinishida ishlab chiqilgan [1].

Kalitli so‘zlar: Kreativlik, kreativ usullar, kompetensiya, slosson testi, torrens testi, vekslerov shkalasi, kreativ tafakkur, contest dasturlar.

Talabalarda dasturlash asoslari fanini tez va samarali o‘rganishdagi bir qancha muammolar o‘rganilib shu muammolarni tahlil qilgan holda bo‘lajak dasturchilarning kreativ fikirlashini oshirish va ularda dasturlash kompetensiyasini hosil qilish uchun kreativ dars jarayonini tashkil qilish maqsadida quyidagi metod ishlab chiqildi.

Dasturlash asoslarini o‘rgatishda talabalar 2 guruhga bo‘linadi va talabalarga dars jarayonini quyidagicha tashkil qilinadi:



1-rasm. Darsni tashkil qilish bo‘limlari.

1-Nazariy qism: Dastlab o‘tgan darsda o‘tilgan mavzu qisqacha savol javob orqali tahlil qilib olinadi. Mavzu bayoni ochiladi bunda ma‘lumotlar interfaol metodlar orqali qisqa savol javob ketma-ketligida tushuntiriladi. Bu jarayon quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi.

- 1) O‘tgan dars savol-javob qilinadi, aqliy hujum metodi qo‘llaniladi.
- 2) Darsning asosiy mazmuni tushuntiriladi, interfaol metodlar qo‘llaniladi.
- 3) Vaqtga qarab 1 yoki 2 ta dastur onlayn contest tizimi yordamida tuzib ko‘rsatiladi.
- 4) Talabani bilim-ko‘nikmasi kreativ testlar asosida tekshiriladi.

2-fmaliyot: Mashg‘ulot davomida o‘tgan darsda berilgan misollarning natijasi test dasturlari orqali teshirtiriladi va bugun o‘tgan mavzu bo‘yicha misollar **robocontest.uz**,

algo.ubtuit.uz va boshqa contest dasturlar bo‘yicha misollar ishlanadi. Bu jarayon quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi.

- 1) Nazariy qism savol-javob qilinadi, aqliy hujum metodi qo‘llaniladi.
- 2) Amaliy topshiriqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri **robocontest.uz**, **algo.ubtuit.uz**, **neerch.ifmo.ru** onlayn contest tizimlari orqali tuziladi.
- 3) Talabani amaliyot bo‘yicha bilim-ko‘nikmasi tekshiriladi, Torrens testi va oddiy test orqali.

3-Nazarot: Bo‘limida testlar 3 xil usulda olinadi:

- 1) To‘g‘ridan-to‘g‘ri contest dasturlariga murojaat qilish orqali.
- 2) Torres testi va oddiy test orqali.
- 3) Yozma ishlar orqali.
- 4) Og‘zaki savol-javob orqali.

Yuqorida taklif etilgan darsni tashkil qilish bo‘limlari avval qo‘llanilgan kreativ usullar (Torrens testi, Slosson testi) asosida talabalarda dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usuli taklif etiladi, natijada talabalar qisqa vaqt davomida dasturlash elementlarini mukammal o‘rganib olish imkoni yaratiladi. Dasturlashni o‘rganishda kreativ usullarni qo‘llash va onlayn contest dasturlaridan foydalanish asosiy vositalar hisoblanadi [2]. Bajarilgan tadqiqot ishida kreativ usullar asosida talabalarda dasturlash kompetensiyasini rivojlantirish usullari va ularning mazmuni batafsil yoritib o‘tildi. Ta‘lim jarayonida kreativ usullarning mazmun va mohiyati, kreativ usullarni qo‘llashning yondashuvlarini tahlili keltirib o‘tildi.

REFERENCES

1. B. Heuser “Creativity and Identity Formation in Adolescence: A Developmental Perspective”, in *The Creative Self*, Elsevier, <http://dx.doi.org/10.1016/b978-0-12-809790-8.00005-4> (2017),.
2. Nazarov F. Recommendations for the development of the Olympic program. *Scientific-methodical journal of physics, mathematics and computer science*. Toshkent.2017 (3).
3. Torrance, E. P. (1966). *Thinking creatively with pictures: Figural booklet*, Scholastic Testing Service.

PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNI EMOTSIONAL PSIXIK HOLATINING KASBIY RIVOJLANISH DINAMIKASIGA TA’SIRI

Bozorov Abdusodiq Abdurayimovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676717>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada professor-o‘qituvchilarni psixik holati va uning kasbiy rivojlanishiga ta’siri masalalari yoritib berilgan. Oliy ta‘lim professor-o‘qituvchilarning mas’uliyati va kelgusi ishlarida ijtimoiy faolligi uning psixik holati, psixik imkoniyatlarini hisobga olish zarurati haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: professor-o‘qituvchi, psixik holat, kasbiy rivojlanish dinamikasi, mas’uliyat, ta‘lim-jarayoni.

Аннотация. В данной научной статье обсуждаются вопросы психического состояния профессоров и преподавателей и его влияние на профессиональное развитие. Представлены научные сведения о необходимости учитывать психическое состояние и

умственные способности преподавателей высшей школы, их социальную активность в дальнейшей работе.

Ключевые слова: профессор-преподаватель, психическое состояние, динамика профессионального развития, ответственность, учебный процесс.

Abstract. *This scientific article discusses the mental state of professors and teachers and its impact on professional development. Scientific information is presented on the need to take into account the mental state and mental abilities of higher education teachers, their social activity in further work.*

Key words: *professor-teacher, mental state, dynamics of professional development, responsibility, educational process.*

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda ko‘p bosqichli ta‘lim, ta‘limning yangi dasturlari hamda professor-o‘qituvchilardan yangi tajribalar, kasbiy faoliyatining yuqori chuqqilariga erishi kabi xatti-harakatlar borgan sari kuchayib bormoqda. Jahon universitetlar ta‘limi oldida rivojlanayotgan globallashuv davri talablariga mos ta‘limni takomillashtirish o‘quv dasturlari, o‘qitish va uning yangi texnologiyalarini kuchaytirish, jahon hamjamiyati barcha ta‘lim islohotlarining markazida “yangi” o‘qituvchini ko‘rishini xohlayotgani bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Respublikamizda mamlakat ravnaqi va kelajagi uchun ta‘lim sohasini isloh etishga alohida e‘tibor qaratilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-son qarorida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha yangilangan davlat oliy ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari joriy qilish, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish» ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Oliy ta‘lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilar salohiyati, kasbiy kamolotini rivojlantirish ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yochimlarni topish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2023 yil 2 mayda «Pedagog xodimning maqomi to‘g‘risida»gi QL-1010-sonli Qarorlari hamda oliy ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyatiga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar professor-o‘qituvchilarga katta mas‘uliyat yuklaydi. Hozirgi kunda Oliy ta‘lim universitetlari oldida mas‘uliyatli ishlardan ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini yangi innovatsiyalar bilan boyitib borish, talaba yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ta‘lim berish masalalari tinimsiz ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari bilan tanishtirib borish kabi bir qator masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Hozirgi kunda barcha oliy ta‘lim tizimida jadal texnik, texnologik innovatsiyalar, fanlar bo‘yicha ilmiy nazariyalar, dunyoqarashlarning jadal rivojlanayotgan bir davrda professor-o‘qituvchilardan ilmiy izlanishlarga asoslangan yangi ta‘limga har tomonlama tayyorgarlikni talab qiladi.

Professor-o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatni zo‘riqishsiz amalga oshadi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Shuning uchun professor-o‘qituvchilarning o‘z faoliyatidagi zo‘riqish holatlarini bartaraf etishga tayyor turishlarini shakllantirish zarur va bunda ko‘pincha pedagogik

vazifalarni, muammolarni yechish malakasini rivojlantiruvchi maxsus psixologik tavsiyalar va psixotrening mashg‘ulotlar, innovatsion yondashuvlar borgan sari kuchayib bormoqda.

Bugungi kun professor-o‘qituvchilari har tomonlama rivojlangan kuchli mutaxassis bo‘lishi lozim. Professor-o‘qituvchi o‘z fan nuqtayi nazaridagi bilimlarga ega bo‘lishi, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib borishi, o‘zini namoyon qila olishi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni olib borishi, psixologiya bilimlaridan xabardor bo‘lishi, xorijiy tillarni bilishi, kompyuter savodxonligini oshirishi borishi, ijtimoiy tarmoqlarda o‘z veb-sayti, “Google Scholar”da (H-index)ini oshirishi, “Scopus”, “Web of Science” xalqaro jurnallarga ilmiy maqolalarni chop etishi, yuqori impakt faktorli xalqaro jurnallariga va mahalliy VAK ruyhatidagi jurnallarga ilmiy maqola, tezislar yozishi, o‘quv, uslubiy qo‘llanmalar, darsliklarni tayyorlash, chop etishi masalalari bilan shug‘ullanishi hamda fan saho yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy salohiyatga PhD va DSc ilmiy darajalari ega bo‘lishini talab qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Professor-o‘qituvchilarning ko‘pchiligi ko‘rsatilib o‘tilgan ishlar bilan doim band va talaba yoshlarga o‘zlarining bilimlarini yetkazib kelmoqda. Shunday bo‘lsada, professor-o‘qituvchilarni nerv-psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta’siri masalasini ilmiy o‘rganib oydinlik kiritishga harakat qilamiz. Ta’kidlab o‘tish joizki, hozirgi kunda professor-o‘qituvchilarni nerv-psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta’siri masalasi qator oliy ta’lim universitetlari oldida turgan eng muhim vazifalarni to‘liq amalga oshirishda hisobga olinish zarur bo‘lgan tomonlaridan biri sanaladi.

Jamiyatimizga yuqori darajadagi kadrlarni yetishtirishda oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarni hissasi juda katta. Ular, talaba yoshlarga har tomonlama o‘rnak bo‘la olishi lozim. Professor-o‘qituvchilarni kasbiy kamolotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalari hisoblanadi. Ma’lumki, professor-o‘qituvchilar psixologiyasini bilmasdan turib ulardan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ilmiy salohiyatni talab qilishimiz qanchalik o‘rinli ekan. Respublika miqyosidagi mahalliy jurnallarga ilmiy maqola va tezislar tayyorlash, uni chop etishi professor-o‘qituvchidan qancha vaqt talab qilinadi? uning sharoitlari hisobga olinishi kerakmi? Ertangi bo‘ladigan dars mashg‘ulotlariga jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi masalalarini qaysi mezon asoslarida o‘rganib borishimiz yoki bu jarayonlarga tayyor psixodiagnostik tashxis quyilishiga qanchalik e’tiborlimiz?- bir uylab ko‘rish vaqti keldi. Ta’lim jarayonlarida talaba yoshlarning qalbiga yo‘l topa olishi uchun ham ulardan psixologik-pedagogik bilimlar talab qilinadi. Talabalar bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqotda kasbiy tajribalaridagina foydalanib yoshlarga yo‘l yo‘riq ko‘rsatishlarimiz bugungi kunda negadir qoniqarsizdek tuyuladi.

Professor-o‘qituvchilarni kasbiy faoliyati his-tuyg‘ular, milliy xarakter xususiyat, xulq, muomala qoidalari, qonuniyatlar, hodisalar, mexanizmlar, vositalar va ko‘nikmalardan me’yoriy ravishda, maqsadga muvofiq tarzda foydalanishni nazarda tutadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni butun mashg‘ulot davomida ta’lim oluvchi faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda uyg‘otib borish maqsadini ko‘zda tutadi. O‘quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya ta’lim oluvchilarni tezkorlik bilan o‘quv yoki o‘quv-tadqiqiy faoliyatga jalb qilish imkoniyatini beradi. Aks holda zaif, yetarli darajada tushunarli bo‘lmagan yoki aniq natijani ko‘zlamagan topshiriqlar mashg‘ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi. Bunday holatlar ta’lim oluvchining ortiqcha hissiyotlarga berilishi, o‘quv faoliyatiga undovchi rag‘batning pasayishi, o‘qishdan bezishi hamda o‘quv predmeti va o‘qituvchiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Professor-o‘qituvchilar kasbiy faoliyati turli-tuman zo‘riqish holatlari va faktorlari bilan to‘la, o‘zida yuqori emotsional ta’sirning potensial imkoniyatini olib yuruvchi, o‘rtacha qilib olganda o‘qituvchining zo‘riqish darajasi menejer va bankirlar hamda assotsiatsiyalar rahbarlari

zo‘riqishidan yuqoriroqdir. Bevosita odam (talaba)lar bilan ishlaydigan kasbiy faoliyat sharoiti ko‘pincha zo‘riqish holatini egallaydi. Bu zo‘riqish o‘qituvchilarning o‘zaro muvofiq harakatlarining ichki mexanizmlari, psixofiziologik qonuniyatlar, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, omillar, manbalar ta’siri ostida yuzaga keladi. Professor o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanishi faoliyatida psixologik zo‘riqishlar, charchoq holati, stresslarni kelib chiqishi tahlil qilinganda “tashqi” va “ichki” faktorlar dialektikasini obyektiv va subyektiv sabablarning birligini doimo eslab turish kerak. Pedagogik faoliyatda zo‘riqish holatlariga tayyor turishni shakllantirish zarur va bunga ko‘pincha pedagogik vazifalarni, muammolarni yechish malakasini rivojlantirish yordam beradi. Ziddiyatli vazifalarni tahlil qilish bo‘lajak pedagoglarga kelajakdagi faoliyatlarida sodir bo‘ladigan zo‘riqish vaziyatlariga tayyor turishni o‘rgatadi.

Psixolog Arina Miller o‘z ilmiy maqolasida o‘qituvchilardagi yuqori ish intensivligi pedagogik-psixologik charchoq belgilarini ko‘rsatishi mumkinligini hamda o‘qituvchilarning kasbiy charchashiga qanday yordam berishini tasvirlab bergan edi. O‘qituvchining kasbi boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlar va ularning tajribasi bilan aloqa qilish nuqtayi nazaridan katta yukni o‘z ichiga oladi va "yordamchi" kasblar spektriga kiradi-deb ta’kidlab o‘tgan. Yordamchi kasblar - bu boshqa odamlarga yordam berish, ularning muammolarini aniqlash va hal qilish, shuningdek, muayyan vaziyatda ta’limning keyingi harakatlari to‘g‘risida g‘oyalarni kengaytirishga qaratilgan kasblar. Professor-o‘qituvchilarni psixik holatini o‘rganish va uning kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta’sirini o‘rganish faqat bir tomonlama olib boriladigan tadqiqot ishlaridan emas. Har bir shaxsning kasbiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ma’lum vaqtlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shaxs xususiyatlari psixologiyada keng o‘rganilgan, shunday bo‘lsada professor-o‘qituvchi shaxsining psixik holatini o‘rganish alohida bir yo‘nalishni tayinlasa uning kasbiy rivojlanishi, kasbiy kamolotiga erishish masalalarini o‘rganish ikkinchi bir tadqiqotlarga yo‘l ochib beradi.

Psixologik tadqiqotlarda o‘qituvchining psixologik zo‘riqishlari, xavotirlari va tashvishlarining psixologik xususiyatlarinin ochib berishga harakat qilgan ilmiy izlanishlarni uchratish mumkin. Lekin oliy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarni psixik holati kasbiy rivojlanishiga ta’siri doirasidagi ilmiy izlanishlar O‘zbekiston Respublikasi miqyosida psixologik jihatdan amaliy ko‘maklarga muhtojlikni sezamiz. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarga yaqindan amaliy psixologik yordam beruvchi psixolog xizmatini takomillashtirib borish joizdir.

O‘qituvchining pedagogik qobiliyati, pedagogik mahorati, psixologik kompetensiyalari kabi sifatlarga ega bo‘lsada, professor-o‘qituvchi-shaxsdir. Uning ichki psixik imkoniyatlarini albatta hisobga olgan holda ularga psixokorreksion mashg‘ulotlarni doim olib borishni tavsiya etamiz. Professor-o‘qituvchilar faoliyatini samaradorligini oshirish, turli xil innovatsion texnologiyalar bilan boyitilishi va ilmiy salohiyatni ko‘tarish kabi bir qator ishlarining hajmi juda ko‘pligi, ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan ta’sirining psixologik o‘rganilishni taqoza etmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2023 yil 2 mayda «Pedagog xodimning maqomi to‘g‘risida»gi QL-1010-sonli Qarori
2. Анисимова О. А. Здоровье учителя - проблема современной школы // Психология созидания - Т.7. - Вып. 2. - Казань: РПО, 2000.

3. Бабич О.И. Профилактика синдрома профессионального выгорания педагогов: диагностика, тренинги, упражнения/Авт.-сост. Волгоград: Учитель, 2009.
4. Березина Т.С. Становление профессиональной идентичности педагога // Педагогическое образование и наука. 2008. № 7. С. 24–27
5. Ғозиев Э.Ғ., Мамедов К. Касб психологияси Тошкент, 2005. – 126 б.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLEKULYAR BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY-SHAXSIY RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Valixanova Aqida Kamoliddin qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676719>

***Annotatsiya.** Maqola ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida molekulyar biologiya mavzularini o'qitishda o'qituvchining kasbiy faoliyatining xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan. Oliy ta'lim talabalarini o'qitishda o'qituvchining an'anaviy pedagogik faoliyatini amalga oshirishga o'zgartirishlar kiritish zarurati muammosi yangilandi. Maqsad - ta'limni raqamlashtirish ta'siri ostida va sharoitida tabiiy fanlarni, xususan, molekulyar biologiya mavzularini o'qitishda shakllangan o'qituvchining yangilangan kasbiy funksiyalari majmuasini aniqlash va asoslashdan iborat.*

***Kalit so'zlar:** ta'limning raqamli transformatsiyasi, ta'lim faoliyati, molekulyar biologiya, pedagogik funksiyalar, o'qituvchilarning kasbiy rollari, ta'limni insonparvarlashtirish, pedagogik o'zaro ta'sir.*

Jamiyatimizda raqamlashtirishning yuqori dinamikasi zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunga kelib, dunyo bo'ylab, ta'lim tashkilotlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faol joriy etilmoqda, elektron ta'lim muhiti jadal shakllantirilmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o'qitishda ushbu texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llari ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy ta'lim amaliyoti tabiiy fanlarni, xususan, molekulyar biologiya fanini o'qitishda o'qituvchilar va talabalarning turli xil ma'lumotlar manbalaridan erkin foydalanishi kabi yangi xususiyatlarga ega bo'lmoqda; o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ishlarning ahamiyati, miqdori va sifatini oshirish; o'qitishning prinsipial jihatdan yangi uslub va shakllarini joriy etish shular jumlasidandir. Shu munosabat bilan raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish zarurati bilan bog'liq holda, molekulyar biologiya mavzularini o'qitishda ta'lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga an'anaviy yondashuvlarda jiddiy o'zgarishlarni talab etadi. Barchaga ma'lum bo'lgan quyidagi savollarni, ya'ni, an'anaviy sinf tizimida o'rganishni individuallashtirish masalalari; ta'lim jarayonini raqamli vositalar bilan ta'minlashning maqsadga muvofiqligi; mavjud raqamli ta'lim resurslarini kengaytirish zarurati va boshqalarni ham qayta ko'rib chiqishni ma'qullaydi. Biroq, zamonaviy pedagogik amaliyot va unda raqamli texnologiyalarni joriy etish sharoitida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ta'limning to'liq ko'lamliligi raqamli transformatsiyasi deb bo'lmaydi [1]. Raqamli ta'lim ko'pincha pedagogik texnologiyalarning yuzaki o'zgarishi darajasida rivojlanadi. Amalda, bu an'anaviy pedagogik vositalarni raqamli vositalar bilan almashtirish yoki vizual o'qitish usullarini takomillashtirish va optimallashtirish (taqdimotlarni tayyorlash) kabi ko'rinadi. Zamonaviy ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida, tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchi nafaqat o'qituvchi-tarbiyachi sifatida, balki butunlay boshqa kasbiy ko'rinishlarda ham o'zini anglay oladigan pedagog kadrlarga muhtoj. O'zgaruvchan ta'lim

sharoitida molekulyar biologiya mavzularini o‘qitishda pedagogning yangi kasbiy rollari talab qilinadi, masalan, tarmoq fanlar metodisti, ta’lim mazmuni menejeri, shaxsiy tyutor, ta’lim bo‘yicha murabbiy, o‘quv murabbiyi va boshqalar. Bunday g‘ayrioddiy fazilatlarida o‘zini samarali amalga oshirish uchun o‘qituvchiga sezilarli darajada o‘zgartirilgan kasbiy funksiyalar kerakligi aniq. Biroq, bizga ularning tarkibi va mazmuniy xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagandek tuyuladi [2].

Raqamlashtirilgan dunyoda o‘qituvchining asosiy vazifasi bu - qanday o‘rganishni o‘rgatishdir. Bu shuni anglatadiki, pedagogning o‘z rivojlanishiga qiziqqan talabaga hamrohlik qilish bo‘yicha umumiy missiyasi paydo bo‘lgan shaxsning oldinga siljishini, ya’ni o‘rganilishi kerak bo‘lgan bilimga ega bo‘lish yo‘lida ta’minlaydigan hamma narsani birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shu munosabat bilan zamonaviy o‘qituvchi faoliyatining funksional tuzilmasida muvozanatni saqlash zarurligi bizga o‘rinli tuyuladi [3]. Bugungi kunda barkamol didaktik tizimni qurish uchun shaxsning gumanistik yo‘nalishini va o‘zgartirilgan (shu jumladan virtual) ta’lim muhitida turli xil ta’lim subyektlari bilan samarali o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyatini birlashtirgan o‘qituvchi kerakligini tushunish juda muhimdir. Gap pedagogik faoliyatning gumanistik asoslarini (an’anaviy ma’nolari) va raqamli texnologiyalarning namoyon bo‘lishi (innovatsion amaliyotlar) saqlab qolish haqida bormoqda. Ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o‘qituvchining kasbiy faoliyati sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda: uning pedagogik o‘zaro ta’sir bilan bog‘liq mazmunli va funksional xususiyatlari yangilanmoqda. Doimiy ravishda o‘sib borayotgan axborot oqimlari, molekulyar biologiyani o‘qitishni oson va yengil o‘qitish yo‘llarini o‘quv jarayoniga kiritilishi, malakali tuzilishni, mazmunli tanlashni, talabalarning e’tiborini jalb qilish va ushlab turish uchun motivatsion daqiqalarni aniqlashni, mustaqil o‘quv, kognitiv va tadqiqot faoliyatini faollashtirishning yangi usullarini va boshqalarni talab qiladi. Zamonaviy ta’lim amaliyoti o‘qituvchining kasbiy faoliyatining ayrim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi, ular orasida talabalarning ta’lim motivatsiyasini boshqarish (pedagogik murabbiylik); turli manbalardan o‘z ta’lim dasturingizni yaratish yoki yig‘ish (ta’lim dizayni); o‘quv mashg‘uloti uchun senariy yaratish (pedagogik rejissorlik); qo‘llab-quvvatlash va pedagogik yordam ko‘rsatish (shaxsiy repetitorlik); inklyuziyaga qiziqishni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim faoliyatining urg‘usini natijadan jarayonga o‘tkazish (pedagogik animatsiya) shular jumlasidandir.

Zamonaviy o‘qituvchi uchun pedagogik murabbiylik texnologiyalarini o‘zlashtirish, talabalarning molekulyar biologiyani o‘rganish jarayonining o‘ziga va undan kelajakdagi ta’lim faoliyatining individual natijalari bilan bog‘liq bo‘lgan umidlariga doimiy qiziqishini saqlab qolish juda muhimdir. Raqamli ta’lim sharoitida bu juda qiyin, chunki o‘qituvchi har doim ham talabalar bilan hissiy munosabatda bo‘lish imkoniyatiga ega emas. Umuman tabiiy fanlarni o‘qitishda ijobiy hislarni jalb qilishni rag‘batlantirish sifatida qiziqishni faollashtirish o‘qituvchi tomonidan turli xil pedagogik faoliyat turlarida shakllanadigan va mustahkamlanadigan mahoratdir. Misol uchun shuni aytishimiz mumkinki, tabiiy fanlar, xususan, molekulyar biologiya mavzularini o‘qitishda dars mobaynida faqatgina tushunarsiz formulalar, tenglamalar bilan olib borilsa, talabaning fikri chalg‘ib nimani o‘rganishi lozimligi ham yodidan ko‘tarilib qoladi. Bunda, mavzularni talabaning turmush tarzi, ovqatlanishidan tortib, uyqu rejimlarida hujayralarda molekulyar darajada nimalar sodir bo‘lishi mumkunligi bilan qiziqtilsa, butun diqqati pedagogda bo‘lishiga erishilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu albatta har bir pedagogning o‘z mahorati hamda, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga bog‘liqdir. Fikrimizcha, bu ko‘nikma ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida ayniqsa talabga aylanib bormoqda.

Nazariy tahlil natijasida o‘qituvchi faoliyatidagi kasbiy funksiyalar va ta’lim jarayonining raqamli transformatsiyasi sharoitida ta’limning asosiy tamoyillari o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik o‘rnatildi. Ushbu tamoyillar yangi ta’lim voqeligidagi muhim o‘zgarishlarni aks ettiradi va quyidagilardan iborat: talabalarning hozirgi ta’lim ehtiyojlarini qondirishga e’tibor berish; amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish va axborot jamiyati hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashga e’tibor qaratish; ta’lim jarayonini o‘quv jarayoniga amaliy kiritish shaklida tashkil etish; ta’lim subyektlarining individual xususiyatlarini qabul qilish sifatida pedagogik o‘zaro munosabatlarni insonparvarlashtirish; ijodkorlikni, erkinlikni va mustaqil tanlovni rag‘batlantirish. [4]

Molekulyar biologiyani o‘qitishda har bir darsga kiritilgan ijodiy g‘oyani topish va hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati, raqamli ta’lim muhitida o‘zaro munosabatlarning rasmiylashtirilishiga qaramay, o‘quvchi shaxsining ma’naviy kuchlarini aktuallashtirishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi shaxsining asosiy psixologik tarbiyasi sifatida uning badiiy va ijodiy tasavvurining yuqori darajada rivojlanishini hisobga olish kerak, bu unga pedagogik g‘oyani loyihalash, ta’lim tadbirining keyingi rivojlanishini va uni batafsil rejalashtirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Aqida Valikhanova “Methodology of teaching subjects of the department of molecular biology based on an integrative approach” 19-november 2023, International journal of pedagogics (ISSN – 2771-2281).
2. Aqida Valikhanova “Use of interactive educational technologies in teaching subjects of molecular biology department” 23-august 2023, International journal of pedagogics (ISSN – 2795-7683).
3. Шульга И. И. “Педагогическая культура: ценностно-смысловой контекст цифровой трансформации образования”. Вестник педагогических инноваций. 2022. № 1. С. 5–12.
4. Шульга Ирина Ивановна. “Особенности профессиональной деятельности учителя в условиях цифровой трансформации образования”. Новосибирский государственный педагогический университет, Россия, Новосибирск. 31.05.2022.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TALABALARDA IJTIMOY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH OMILLARI

Gulyamova Nadira Gafurovna

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676723>

***Annotatsiya.** Maqolada talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda inobatga olinishi zarur bo‘lgan omillar, sub’ektlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tashkil etiladigan ijtimoiy funksiyalar aks ettirilgan. Shuningdek, talabalarning huquq va erkinliklarini ta’minlash tizimini takomillashtirish, intilishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ilg‘or islohotlar bayon etilgan. Ta’lim talablari asosida yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishni nazarda tutuvchi o‘quv jarayonlarning samarali shakllari va usullarini joriy etishni ishlab chiqish haqida fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy faollik, talabalar, sotsium, tarbiyalash, jamoat, jamiyat, ta’lim, madaniyat, tizim, innovatsion g‘oyalar, e’tiqodli, mustaqil, erkin fikrli, fuqaro.*

Jahondagi globallashuv jarayonlar, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti talaba-yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko‘plab talablarni qo‘ymoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda «inson kapitali», «shaxsiy kompetentlik», «boqiy ta’lim», «intellektual madaniyat» yo‘nalishlari ustuvor hisoblanadi [4, 13-b.]. Bunda har jihatdan faol mutaxassislarni tayyorlash jamiyat istiqbolining negizi hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning o‘z sohasining bilimdoni, innovatsion g‘oyalar egasi, ijtimoiy faol bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Hozirda yoshlarning irodali, iymon e’tiqodli, mustaqil va erkin fikrli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar qilib tarbiyalash bilan birga ta’limda talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Yosh avlodning sog‘lom bo‘lib o‘sishi, sifatli ta’lim olishi va barkamol shaxs bo‘lib voyaga etishini ta’minlash, shuningdek, madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali ishlar amalga oshirilmog‘da. Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog‘chalar, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, “Temurbeklar maktabi”, “Prezident maktablari”, “Ijod maktablari” deb, nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan etuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o‘rganib borish, amalda aprotatsiyadan o‘tgan xalqaro tajribaning mahalliy sharoitda yangicha mexanizm va yondashuvlar asosida amaliyotga joriy etishda qator ishlarning amalga oshirilishi, jumladan O‘zbekistonda yoshlar intilish va iqtidorlarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha mustahkam tizim ishlab chiqildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va amaliy ko‘magi asosida yoshlar hayotiga bevosita taalluqli bo‘lgan jami 40 ta Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan:


- O‘zbekiston Respublikasining 3 ta Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta Farmoni, 8 ta Qarori, 2 ta Farmoyishi;
- Vazirlar Mahkamasining 18 ta Qarori va 4 ta Farmoyishi imzolandi.

Bugungi kunga qadar Qonunchilik palatasida, siyosiy partiya fraksiyalarida o‘tkazilgan 20 dan ortiq yig‘ilishlarda 500 nafarga yaqin yoshlar o‘zlarining 30 ga yaqin takliflari bilan qonunlar muhokamalarida ishtirok etishiga imkon yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan 5 ta tashabbus amaliyotga joriy etildi. Jumladan, 5 ta tashabbusni amalga oshirish doirasida 2019-2020 yillarda 2 million nafar yoshlarni madaniyat va san’atga jalb etish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha ob’ektini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulash, har bir hududga 1 million donadan badiiy, tarixiy, ilmiy, ommabop mavzulardagi kitoblar etkazish hamda axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlesh, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish, har bir tumanda engil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollarni band etish kabi vafalar belgilangan [1, 53-b.].

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va 26 dan ortiq davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan shuningdek, 11 ta xorijiy davlat yoshlar

tashkilotlari bilan o‘zaro tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlar bilan hamkorlik bitimlari imzolandi.



Yoshlar hayotiga bevosita taalluqli bo‘lgan Qonun va qonunosti hujjatlarga oid ma’lumot

Zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o‘rganib borish, amalda aprobatsiyadan o‘tgan xalqaro tajribaning mahalliy sharoitda yangicha mexanizm va yondashuvlar asosida amaliyotga joriy etishda qator ishlarni amalga oshirish vazifasi o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ijtimoiy faollik ”sub’ektning ijtimoiy yaxlitlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini amalga oshirishdagi integrativ tavsifi” sifatida talqin qilinadi [3, 256-b.]. Ushbu tavsiflarning faoliyatga oid ekanligini, sotsiumda birga mavjud bo‘lish va hayotning barcha sohalarida o‘zini amalga oshirish imkonini berishini ta’kidlaydi.

Talabada ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish jarayoni tashkil etishda darsdan tashqari imkoniyatlarini belgilash va hisobga olishni taqozo qiladi. Bu faoliyat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- talaba va pedagoglarning ijtimoiy pedagogik qobiliyatlarini ochish, rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy mehnat faoliyatini bajarish uchun zarur bo‘lgan individual amaliy bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish;
- ijtimoiy tajriba, madaniyatdan faol foydalanish.

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi ijtimoiy faoliyatining yuqori darajasini, pedagoglarning umummadaniy va ijtimoiy tayyorgarligini talab qiladi. Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish bo‘yicha tashkil qilingan faoliyatning natijasi kognitiv, emotsional-qadriyatga, dunyoqarashga oid va axloqiy belgilarni, gumanistik, amaliy va fuqarolik sifatlarni va shaxsning ijtimoiy tajribasini qamrab oladi.

REFERENCES

1. Gulyamova N.G. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak menejerlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq:2023 y. – 53 b.
2. Kodjaspirova, G.M. Slovar po pedagogike. – M.: IKS «MarT»; Rostov n/D: Izdatelskiy sentr «MarT», 2005. – 448 s.
3. Slovar sotsialnogo pedagoga i sotsialnogo rabotnika/ pod red. I.I. Kalachevoy, Ya.L. Kolominskogo, A.I. Levko. 2-e izd. – Minsk : BelEn, 2003. – 256 s.
4. Shirinov M.K. Ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarlik faoliyati (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida). Zamonaviy ta'lim. 2015, №1. 13-17 b.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Гулямова Азиза Отабек қизи

Қори Ниёзий номидаги ЎзПФТИ таянч докторанти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10677261>

Талабаларнинг танқидий фикрлашини шакллантириш натижасида ҳар бир режали ўқув жараёнининг дидактик таъминоти эътиборга олинади, таҳсил олувчи ўқув материални қандай ўзлаштираётгани доимий мониторинги ишлаб чиқилади, таълим жараёнидаги муаммоларнинг ечимини топишга ҳаракат қилинади. Моҳир педагог ўқув жараёнида туғиладиган қийинчиликларни бошқалардан кўра яхшироқ тушунади.

Талабаларнинг танқидий фикрлашларини шакллантириш шундай услубий хизматни талаб этадики, бунда ёшларнинг шахсиятига зарар келтирмаслик, уларнинг педагогик даҳлсизлигини таъминлаш ҳамда миллий қадриятлар, урф-одатлар, анъаналар орқали уларга ижобий таъсир кўрсатиш лозим бўлади. Демак, Ўзбекистон давлатининг ҳар томонлама ривожланиши ва амалга оширилаётган ислохотларнинг муваффақияти ёш авлоднинг мустақил фикрлаши, кенг билими, тарбияси ва умумий маданиятининг шаклланиши даражасига боғлиқ. Шу сабабли, жамиятимиздаги барча ёшларда эркин мушоҳада қилиш, танқидий фикрлаш кўникмаларини шакллантириш лозимлиги ижтимоий эҳтиёж касб этади.

Талабаларга танқидий фикрлаш учун энг аввало, уларнинг ўзлари масъул эканликларини англашиш лозим. Педагогнинг вазифаси танқидий фикрлашни рағбатлантириб турувчи муҳитни яратишдангина иборат бўлади.

Танқидий фикрлашни пайдо қилиш учун қуйидагиларга эътиборни қаратиш лозим:

- Талабада ўзига хос нуқтаи-назарни пайдо қилиш;
- бир фикрдан бошқасининг афзаллигини асослаш маҳорати;
- мураккаб муаммоларни ечиш маҳорати;
- далилларга асосланган ҳолда баҳслашишга одатлантириш;
- ягона фикрни ишлаб чиқиш учун ўзаро ҳамкорликда ишлаш маҳорати;
- Талабаларда мавжуд бўлган билимлар танқидий фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга қай даражада хизмат қилишини аниқлаш.

Талабаларни фаол ўйлаш жараёнига киритиш, муаммоли вазиятни ечиш, мантикий жараёнларни оқилона ҳал этишга ўргатиш билим ўзлаштиришда ижобий натижаларга олиб келиши муқаррар.

Танқидий фикрлашни ривожлантириш осон нарса эмас. Бу муайян ёш даврида тугалланиши ва унутилиши мумкин бўлган масала ҳам эмас. Танқидий фикрлашга олиб борадиган аниқ-равшан йўллар йўқ. Бироқ, ўқитиш шартларининг муайян тўплами борки, унинг ёрдамида танқидий фикрловчиларни тарбиялаш мумкин. Жумладан, қуйидаги шартларга алоҳида эътибор бериш зарур:

1. Танқидий фикрлаш тажрибасини орттиришга вақт ва имконият бериш;
2. Талабаларга фикрлаш имкониятини бериш;
3. Турли ғоя ва фикрларни қабул қилиш;
4. Ўқув жараёнида Талабаларнинг фаол қатнашишларига имкон бериш;
5. Талабаларни танқидий мулоҳаза юритишга қодир эканлигига ишонтириш.

Шу билан бирга, Талабалар:

1. Ўз-ўзига ишончни ривожлантириб, ўз ғоя ва фикрларининг қимматини тушунишлари керак;
2. Таълим жараёнида фаол қатнашишлари лозим;
3. Турли фикрларни ҳурмат билан эшитишлари керак;
4. Ўз мулоҳазаларини шакллантиришга тайёр бўлишлари ёки ундан ўзларини тийишлари лозим.

Танқидий фикрлаш хусусиятлари қуйидагилар:

- танқидий фикрлаш- бу мустақил фикрлашдир;
- ахборот- танқидий фикрлашнинг бошланишидир;
- танқидий фикрлаш саволнинг қўйилиши ва ҳал қилиниши зарур бўлган муаммони аниқлашдан бошланади;
- танқидий фикрлаш ишончли далилларга интилади;
- танқидий фикрлаш-ижтимоий фикрлашдир.

Биринчидан, танқидий фикрлаш- бу мустақил фикрлашдир.

Талабаларда танқидий фикрлаш тамойиллари бўйича яратилар экан, ҳар бир иштирокчи бошқаларникидан мустасно ҳолда ўзининг ғояси, қадриятларни баҳолаши ва ишончига эга бўлади. Демак, фикрлаш яқка тартибли ҳарактерга эга бўлгандагина, уни танқидий фикрлаш деб аташ мумкин. Талабалари ўз ақли, фикрлаши ва энг мураккаб саволларга ҳам ўзлари жавоб топа олиш эркинлигига эга бўлиши керак. Қандай фикрлаш зарурлигини ҳар бир Талаба ўзи учун ўзи ҳал қилади. Шундай қилиб, мустақиллик танқидий фикрлашнинг энг муҳим жиҳатларидан биридир.

Иккинчидан, ахборот танқидий фикрлашнинг натижаси эмас, балки унинг бошланишидир. Билим Талабани танқидий фикрлашга ундовчи мотив бўлиб ҳисобланади. Мураккаб фикрни яратиш учун анчагина «хом ашё»- далиллар, ғоялар, матнлар, назариялар, маълумотлар, концепцияларни қайта ишлаш зарур.

Узлуксиз таълим тизимида таҳсил олаётган ҳар қандай ёшдагилар ҳам танқидий фикрлаш қобилиятига эга бўлишади, Талабаларда ҳам ҳаётий тажриба ва билимлар мавжуд бўлади. Болаларнинг фикрлаш қобилиятлари ўқитиш натижасида янада такомиллашиб боради. Ҳатто жуда ёш болалар ҳам танқидий фикрлаш ва бутунлай мустақил фикрлаш қобилиятига эга. Айнан танқидий фикрлаш туфайли одатдаги билиш жараёни алоҳидалик ва англашувчанлик, узвийлик ва самарадорлик касб этади.

Учинчидан, танқидий фикрлаш, саволнинг қўйилиши ва ҳал қилиниши зарур бўлган муаммони аниқлашдан бошланади. Инсоният ўз табиатига кўра қизиқувчандир. Биз бирон-бир янгиликни сезар эканмиз, албатта унинг моҳиятини билишни хоҳлаймиз. Қандайдир тарихий обидани кўрар эканмиз, бизда унинг ичкарасига кириш истаги пайдо бўлади.

Қизиқувчанлик ҳар қандай тирик мавжудотнинг ажралмас хусусиятидир. Бу хусусият ёш болаларда айниқса кучли бўлади. Бироқ, ҳар қандай босқичдаги ҳақиқий билиш жараёни Талабанинг муаммони ҳал қилиши, ўзининг шахсий қизиқишлари ва эҳтиёжларидан пайдо бўлган саволларга жавоб излаши билан белгиланади.

Бундан хулоса қилиш мумкинки, талаба дарсга тайёргарлик кўрар экан, Талабалар тўқнашиши мумкин бўлган муаммолар доирасини аниқлаши, сўнгра эса, Талабаларни бу муаммоларни ўзлари мустақил равишда шакллантиришларига тайёрлаши зарур. Танқидий фикрлаш туфайли ўқитиш аниқ мақсадга йўналган, мазмунли фаолиятга айланиши ҳамда бу фаолият давомида Талабалар ҳақиқий ақлий иш бажариб, ҳаётий муаммоларни ҳал қилишга қодир бўлишлари лозим. Уларни далиллар асосида матнларни таҳлил қилишга, тенг кучли нуқтаи-назарларни таққослаб ҳамда жамоа имкониятларидан фойдаланиб, ўзларини қизиқтирган саволларига жавоб топишга ундаш таълимни технологик ёндашувлар асосида қуришга замин яратади.

Тўртинчидан, танқидий фикрлаш ишончли далилларга интилади. Танқидий фикрловчи киши муаммонинг ўз шахсий ечимини топади ва бу қарорни оқилона, асосли далиллар билан мустаҳкамлайди. Талаба бошқа қарорлар бўлиши мумкинлигини ҳам тан олиши мумкин, лекин ўзи танлаган қарор бошқаларникига нисбатан энг мантиқий ва оқилона эканлигини исботлашга ҳаракат қилиши таълим жараёнининг самарадорлигини оширади. Ҳар қандай ишончли далил уч асосий қисмдан иборат бўлиб, тасдиқлаш-далил маркази, унинг мазмуни бўлиб ҳисобланади (баъзан у тезис, асосий ғоя ёки қоида деб юритилади). Тасдиқлаш бир неча далиллар билан мустаҳкамланади. Далилларнинг ҳар бири ўз навбатида исботлар билан мустаҳкамланади. Статистик маълумотлар, матн парчаси, шахсий тажриба, умуман олганда, ушбу ишончли далилларни исботлашга ёрдам берувчи ва муҳокаманинг бошқа иштирокчилари томонидан тан олиниши мумкин бўлган барча ғоялардан исботловчи сифатида фойдаланиш мумкин. Ишончли далилларнинг юқорида қайд қилинган барча қисмлари тасдиқ, далил ва исботлаш негизида, унинг тўртинчи қисми бўлган асос туради. Асос- бу муайян йўналтирувчи бошланғич нуқта бўлиб, у нотик учун ҳам, ёки ёзувчи ва унинг мухлислари учун умумий ҳисобланади.

Ишончли далиллар, унга қарама-қарши далилларни мавжуд бўлиши, уларни гиперболик тарзда (ошириб кўрсатилиши), ёки қабул қилиниши мумкинлигини ҳам ҳисобга олгандагина ўз самарасини кўрсатади. Бошқача нуқтаи назарларнинг тан олиниши ишончли далилларнинг таъсир кучини янада оширади. Ўта таъсирчан далиллар билан қуролланган танқидий фикрловчи киши, ҳатто катта обрўга эга бўлган фикрга ҳам қарши тура олади, амалиётда бундай кишининг фикрини ўзгатириш мумкин эмас.

REFERENCES

1. Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Diss. avt. Тошкент, 2016.

2. Нишонова З. Мустақил ижодий фикрлаш ва шахс хислатлари. //Халқ таълими. –Тошкент, 2001
3. Халперн Д. Психология критического мышления. — СПб.: Питер, 2000.
4. Нуруллаева Ш. Бошланғич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш усуллари. Пед. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. – Тошкент: 2007

TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF STUDENTS OF PRIMARY PROCESSING TECHNOLOGY OF NATURAL FIBERS (COTTON)

Djamalova Dilafroz Komiljon qizi

PhD student of Namangan State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10677271>

Abstract. *The development of oral communication skills in students studying the primary processing technology of natural fibers, such as cotton, is very important in roles related to processing technology. By explaining processes, communicating instructions, and engaging in discussions with colleagues and stakeholders, smooth operations and successful project delivery are high. And problem-solving skills in this area are enhanced: Competent oral communication skills allow students to effectively communicate ideas, ask questions, and participate in collaborative problem-solving. In the context of textile processing, the ability to solve problems, propose solutions and discuss strategies with team members is essential for optimizing production processes and troubleshooting. Plus professional development and career advancement: Strong verbal communication skills are often viewed as a key competency in the workplace. Students who excel in oral communication are better equipped to confidently present their ideas, participate in negotiations and demonstrate leadership qualities that can contribute to their professional growth and development in the textile industry.*

Keywords: *textile Industry Communication. Cotton Processing Education. Oral Speech Development. Technical Communication Skills. Primary Processing Technology. Natural Fibers Education. Industry-Specific Vocabulary. Hands-On Communication Activities. Technical Terminology Acquisition. Oral Presentation Skills. Industry Communication Strategies.*

The technology for developing oral speech skills among students studying primary processing technology of natural fibers, such as cotton, can be crucial in preparing them for effective communication within the textile industry. Here are some tailored strategies to enhance oral speech development in this specific academic context:

✓ **Industry-Specific Vocabulary Building:** Focus on teaching students specialized vocabulary related to the primary processing of natural fibers, particularly cotton. Include terms like ginning, carding, spinning, weaving, and other relevant terminology to help students communicate fluently and accurately in discussions related to their field.

✓ **Hands-On Demonstrations and Lab Sessions:** Encourage students to explain the processes involved in primary processing technology verbally. Organize hands-on demonstrations and lab sessions where they can practice describing each step of cotton processing aloud, reinforcing their understanding and ability to articulate technical procedures.

✓ **Storytelling and Narration Exercises:** Incorporate storytelling and narration exercises into the curriculum. Ask students to narrate the journey of cotton from harvesting to the final textile product, emphasizing clear and structured oral communication.

✓ **Role-Playing Scenarios:** Create role-playing scenarios based on real-life situations in cotton processing plants or textile factories. Assign students different roles where they have to communicate with each other using industry-specific language, fostering interactive speech development.

✓ **Presentations on Cotton Processing:** Assign students research projects or presentations on various aspects of cotton processing. This will require them to organize their thoughts, conduct thorough research, and deliver informative speeches on topics like cotton cultivation, processing techniques, or quality control measures.

✓ **Debates on Industry Issues:** Organize debates on current issues in the cotton processing industry, such as sustainability practices, technological advancements, or market trends. Encourage students to voice their opinions, engage in discussions, and defend their viewpoints, honing their persuasive and argumentative speaking skills.

✓ **Peer Feedback and Peer Teaching:** Implement peer feedback sessions where students provide constructive criticism to each other on their oral presentations. Additionally, encourage peer teaching, where students explain concepts to their classmates, promoting collaboration and communication skills development.

By incorporating these tailored strategies into the curriculum for students studying primary processing technology of natural fibers, educators can effectively cultivate their oral speech abilities, enabling them to communicate proficiently and confidently within the specific context of cotton processing and the broader textile industry.

When exploring the topic of the technology for developing oral speech skills among students studying primary processing technology of natural fibers, specifically focusing on cotton, there are several areas of research and works that could be valuable for further study and implementation. Here are some key areas and potential sources to explore:

- **Research Papers:** Look into studies that delve into the cognitive processes involved in language acquisition and speech development in educational settings.

- **Books:** Books like "Educational Psychology" by Anita Woolfolk and "Language Acquisition: The Growth of Grammar" by Maria Teresa Guasti could provide insights into effective teaching methods for oral speech development.

- **Textbooks:** Textbooks on textile technology and cotton processing that include sections on effective communication within the industry.

- **Research Journals:** Journals focusing on textile engineering and communication in industrial settings could offer valuable research findings.

- **Educational Research:** Explore research on pedagogical strategies tailored to technical fields, aiming to enhance oral communication skills among students.

- **Educational Conferences:** Attendance at conferences focusing on technical education and communication skills development could provide exposure to best practices and innovative approaches.

- **Case Studies:** Analyze case studies of successful language programs in technical fields or industries to draw parallels and gather insights for implementing similar practices in the context of cotton processing technology.

- **Best Practice Guides:** Look for guides and manuals that provide recommendations for teaching oral communication skills in technical disciplines.

- Literature Review: Review studies on speech therapy and communication disorders to understand potential challenges students may face in speech development and ways to address them effectively.

- Professional Organizations: Engage with organizations related to speech therapy and language development for additional resources and expertise.

By delving into these areas of research and works, educators and curriculum developers can gain a deeper understanding of the technology for enhancing oral speech skills among students of primary processing technology of natural fibers, with a specific focus on cotton processing. Integrating findings from these sources can enrich teaching practices and promote effective communication skill development tailored to the needs of students in this specialized field.

REFERENCES

1. J.Jalolov. Foreign Language Teaching Methodology. Toshkent -2012 ISBN 978-9943-02-498-4
2. Abdullayeva, B.U (2022) “ Using various teaching methods in English Lessons”. WSRJournal.com Volume 4, Issue 4 may 2022. Journal of New Century Innovations.126-128 pp.
3. Emily Brown, Michael Lee. “The Impact of Oral Presentation Skills on Career Success in Textile Processing Industries”
4. Publisher: Textile Education Publishers. "Speaking Success: Teaching Oral Communication Skills in Textile Engineering"

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILADIGAN DIDAKTIK QADRIYATLAR

Jalilova Nilufar Toxir qizi

Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10677279>

***Annotatsiya.** Maqolada oliy pedagogik ta’limda talabalarning didaktik qadriyatlarni bilish va tegishli ma’lumotlarni o‘z pedagogik faoliyatida ta’lim mazmuni va o‘quv vaziyatlariga mos ravishda qo‘llay bilishni ifodalovchi didaktik-qadriyatli kompetentlikni rivojlantirish komponentlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** didaktik qadriyatli kompetensiya, innovatsion faoliyat, konstruktiv transformatsiya*

Kompetentlik tushunchasi haqida dastlabki qarashlar Buyuk Britaniyalik psixolog olim Djon Raven tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u kompetentlikka xos xususiyatlarni yagona bir tizimga birlashtiradi hamda emotsional-intellektual xususiyatga ega kompetentlik “motivatsiyalashgan qobiliyatlar” asosida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi [1, 43].

“Pedagogika” II ensiklopediyasida kompetentlilik “pedagogning barcha imkoniyatlaridan foydalana olishi, o‘ziga va o‘z ishiga nisbatan talabchanligi, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘ya olishi, o‘z ishining ustasi bo‘lgan, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi hamda o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la ishga sola biladigan ped. layoqat” [2, 184] ekanligi uqtiriladi. Kompetensiya kasb egasiga zarur kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik meyorlar yig‘indisini anglatadi. Kompetentlik yesa shaxs amaliy faoliyati bilan bogliq bo‘lib,

kompetensiya me‘yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezoni samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi [3, 62].

Yuqoridagi asoslanib, kompetentlikni favqulodda vaziyatlarga mos munosabat usulini topa bilish, yangi usullarni yangicha sharoitga moslab qo‘llash, zarur ma‘lumotdan o‘z o‘rnida foydalanish, o‘z ustida uzluksiz ishlash, o‘zidagi BKM tizimini izchil ravishda rivojlantirib borishdan iborat deb hisoblash mumkin.

Bizningcha, didaktik qadriyatlarni bilish va tegishli ma‘lumotlarni o‘z pedagogik faoliyatida ta‘lim mazmuni va o‘quv vaziyatlariga mos ravishda qo‘llay bilishni ifodalovchi talabning didaktik-qadriyatli kompetentlikka ega bo‘lishi talabi bo‘lajak o‘qituvchi egallashi zarur bo‘lgan tanyach kasbiy kompetentlikning muhim komponentlari tarkibiga kiradi.

Talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik qadriyatlarni aniqlashda shaxsiy-kasbiy kompetensiya, uning tarkibidagi asosiy komponent sifatida didaktik kompetentlik, qadriyatli didaktik kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim, “qadriyatlarga asoslangan innovatsion faoliyat” tushunchalari muhim o‘rin tutadi.

Didaktik kompetentlik bo‘lajak talabning o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorligini ifodalovchi asosiy mezon hisoblanib, kasbiy-didaktik faoliyatga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlikni ifodalovchi kasbiy kompetentlikning muhim komponentlaridan biridir [4].

Bo‘lajak o‘qituvchining didaktik qadriyatli kompetentligi esa uning bo‘lajak kasbiy-didaktik faoliyatida turli didaktik qadriyatli o‘quv topshiriqlarni hal etishga nazariy-amaliy tayyorligini ifodalovchi integrativ kasbiy sifati hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta‘limning asosiy maqsadi talabada shaxsiy-kasbiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish, uni bo‘lajak pedagogik faoliyatida yosh avlodni davr talablariga mos bilimli, iqtidorli qilib tarbiyalay oladigan mahoratli pedagog qilib yetishtirishdan iborat. Mazkur jarayon o‘ziga xos psixologik-pedagogik mexanizmlar asosida amalga oshirilib, oliy ta‘lim jarayonida talaba o‘quv-kasbiy kompetentligining kasbiy kompetentlikka konstruktiv transformatsiya usuli orqali o‘tishini talab etadi. Buni rus olimi L.V.Lvov pedagogik-psixologik jihatdan quyidagicha **izohlaydi**: “O‘quv-kasbiy kompetentlikni shakllantirish **konstruktiv transformatsiya usuli orqali amalga oshadi**. Konstruksiya bir vaqtning o‘zida, ammo rivojlanmagan shaklda o‘quv-kasbiy kompetentlik negizlarini vujudga kelishini ta‘minlaydi, transformatsiya esa, uning keyingi rivojlanish holatini talab darajasiga yetkazadi. Shu tarzda o‘quv-kasbiy faoliyatning kasbiy faoliyatga tomon **konstruktiv transformatsiyasi amalga oshadi**” [5, 143]. Masalan, didaktik qadriyatlarning konstruktiv transformatsiyasi ta‘lim jarayonida talabada didaktik qadriyatli kompetentlik asoslarini, ya‘ni didaktik qadriyatlarga oid bilim va boshlang‘ich ko‘nikmalarni vujudga kelishiga xizmat qilsa, transformatsiya esa, amaliy-ijodiy mashg‘ulotlar orqali talabada istiqbolga qaratilgan innovatsion didaktik qadriyatlarni yaratishga, keyinchalik o‘qituvchilik faoliyatida mavjud malakalarini yanada rivojlantirishiga sharoit yaratadi.

Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni, jumladan, uning muhim komponenti sifatida didaktik qadriyatli kompetentlikni rivojlantirishga bir necha omillar, jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish, ma‘lumot va axborotlar ustida ishlash, tahlil qilish, izohlash hamda foydalanish kabilar ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, xorijiy tillar bo‘yicha o‘qitishning yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali pedagog shaxsini rivojlantirish, ijodiy izlanish va birgalikda ishlash, o‘quv dasturlarining eng maqbullarini tanlash yoki yangilarini yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Chunki kasbiy-ijodiy faoliyat yuritish uchun

kasbiy potensial (bilim, ko‘nikma, tajriba, kasbiy-shaxsiy fazilat kabilar)ni yetarlicha to‘liq amalga oshirish, o‘z-o‘zini shaxsiy-kasbiy takomillashtirish zarur [6,34-42b].

L.M.Mitina kasbiy kompetentlikning psixologik modeliga kasbiy bilimlar, pedagogik yo‘nalganlik, pedagogik qobiliyatlar, umumiy madaniyat va rivojlanish, pedagogik bilimlar (gnostik loyihalash, konstruktivlik, kommunikativlik, tashkilotchilik) ni kiritadi [7, 76].

Ye.F. Zeer talaba kasbiy rivojlanishining quyidagi bosqichlarini aniqlaydi:

- talabada kasbiy niyatlarning shakllanishi – kasbni ongli ravishda tanlash;
- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning vujudga kelishi, ijtimoiy kasbiy-shaxsiy sifatlarning tarkib topishi;

- o‘quv faoliyati davomida kasbga moslasha borish, kasbiy tajriba kurtaklarining shakllana boshlashi, kasbiy fazilatlarining vujudga kela boshlashi;


- kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish kabilar [8, 66-67-b.].

Yuqoridagilarga asoslanib, biz didaktik qadriyatlardan foydalanishga oid didaktik qadriyatli kompetentlikka ega bo‘lishda talabada o‘quv faoliyatiga nisbatan quyidagi yondashuvlar mavjud bo‘lishini taklif qilamiz:

- shaxsiy-faoliyatli yondashuv, bunda talabaning kasbiy faoliyati va insoniy fazilatlariga milliy-ma‘naviy qadriyatlarning ta’siri nazarda tutiladi. Talaba o‘qituvchilik kasbini egallayotgan mutaxassis sifatida didaktik qadriyatlarni bilishi bilan birga, shaxs sifatida ma‘naviy qadriyatlarni ham o‘ziga singdirib olishi zarur;

- funksional-faoliyatli yondashuv, talabaning istiqbolagi o‘qituvchilik faoliyatida tarixiy, innovatsion va zamonaviy didaktik qadriyatlarni qo‘llash orqali sifatli ta’lim berishga erishishida namoyon bo‘ladi. Bu talabaga o‘quv faolligi, ijodkorlik, o‘z pedagogik mahorati va o‘qituvchilik qobiliyati kurtaklarini ko‘rsata bilishi, “hayot davomida o‘qib-o‘rganish” mezoni asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash va pedagogik mahoratini shakllantirishiga imkon beradi.

Demak, didaktik qadriyatlarga asoslangan didaktik kompetentlikning zarur elementlari: milliy-ma‘naviy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlariga ega bo‘lish - didaktik qadriyatlarning turlarini bilish - didaktik qadriyatlarni zamonaviy kontekstda qo‘llay bilishdan iborat. Har biriga misol bilan izohlash kerak. Qaysi qadriyatlarni qaysi modulda organish haqida qaysi oquv materialini taklif qilamiz. Uning innovatsion-didaktik qadriyatlarga asoslangan kasbiy qadriyatli kompetensiyasi ta’limni modernizatsiyalash maqsadida egallayotgan amaliy qobiliyatlarida o‘z ifodasini topadi. Talabada kasbiy rivojlanish imkoniyatlarning doimiy vujudga kelishi va namoyon bo‘lishiga sharoit yaratish uning jamiyat, o‘quv muhiti, kursdoshlari bilan munosabatlarining kengayib, chuqurlashib borishini taqozo etadi.



Rasm: Didaktik kompetentlikka oid asosiy tushunchalar

Demak, bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida unda didaktik qadriyatlarga oid bilim, uni amaliyotda qo‘llashga qaratilgan ko‘nikma va malakalarning **uzluksizlik, izchillik va uzviylik prinsirlari asosida**, “didaktik qadriyat”, “didaktik qadriyatli kompetentlik”, "innovatsion faoliyat" kabi tushunchalarga asoslanib shakllantirilishi pedagogik amaliyot davrida didaktik bilimlarning didaktik qadriyatlar negizida rivojlanishini talab qiladi. Bu talabaning innovatsion didaktik qadriyatli faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda didaktik qadriyatli kompetentlikni shakllantirishda davlat ta‘lim siyosatida pedagogik merosimizga hamda ta‘limga innovatsiyalarni tatbiq etish qaratilgan yuksak e‘tibor (fikrimizcha, innovatsiyalarni o‘quv modullari mazmuniga singdirish zarur) innovatsiyalarning ta‘lim sifatini oshirishiga maksimal ta‘sir ko‘rsatib, o‘quv jarayoni sifatini belgilab beradi.

REFERENCES

1. Равен ДЖ. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие, и реализация/пер с англ. – М.:” Когито -Центр”, 2002. – 396 с. – с 43.
2. Safarova R.G, Jo‘rayev R.H Pedagogika ensiklopediya II jild. Ж-М. Т: “Ozbekiston milliy ensiklopediysi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.-376b-184b
3. Рискулова К.Д. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими: Автореф. Дисс.... пед. фанлар.докт. – Т., 2017.- 62 б.
4. Ж.А. Каско. Дидактическая компетентность будущего учителя как основной компонент профессиональной компетентности. Электронный ресурс. Под редакцией Т. И. Шукшиной. - Саранск, Издательство: Мордовский государственный педагогический институт имени М.Е. Евсевьева, 2018.

5. Л.В. Львов. Психолого-дидактический механизм формирования профессиональной компетентности // Вестник ФГОУ ВПО МГАУ № 6/2'2008. – С. 138-143
6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. № 3. С. 34-42.
7. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развитие учителя: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: академия, 2004. – с.76.
8. Зеер Э.Ф. Психология профессий: учебное пособие. 3-е изд., перераб., доп. М.: Академический Проект; Фонд «Мир», 2005. 336 с.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR UCHUN ELEKTRON KUNDALIKDAN TO‘G‘RI FOYDALANISH, UYGA VAZIFALARNI YUKLASH VA YUKLAB O‘LISH, MASOFAVIY TA‘LIMNI SHAKLLANTIRISH

¹Jamolova Nodirabegim Jobir qizi, ²Nadirov Jahangir Eldar o‘g‘li

¹Buxoro davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

²Buxoro davlat Pedagogika instituti, 3-kurs kimyo yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10677293>


Hozirgi vaqtda o‘quv dasturlarini uy vazifasiz amalga oshirish mumkin emas, ammo darsning o‘zi etarli darajada samarali bo‘lmasa, uy vazifasi tarbiyaviy ahamiyatga ega emas. Muntazam mustaqil ishlash odati, har xil murakkablikdagi topshiriqlarni bajarish - bu biz uygaz vazifa berishda ko‘zlagan maqsadlarimizdir. Shuningdek, u o‘quvchilarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, chunki u ularda mehnatsevarlik va mustaqillikni shakllantirishga yordam beradi, maktabdan tashqari vaqtni oqilona va mazmunli tashkil etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, maktab o‘quvchilari uchun uyda maktab mehnati o‘quv jarayonining juda muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni tashkil etishning muhim shakllaridan biridir[1]. O‘quvchilarning uy vazifasi o‘rganilayotgan materialni takrorlash va yaxshiroq o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash, ijodiy qobiliyat va iste‘dodlarni rivojlantirish, ta‘lim malakalarini oshirish bo‘yicha o‘qituvchi topshiriqlarini mustaqil bajarishdan iborat. Bu ta‘rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish uchun uy vazifasi ikkita asosiy xususiyat – o‘qituvchi tomonidan berilgan tarbiyaviy topshiriqning mavjudligi va uni bajarish bo‘yicha o‘quvchilarning mustaqil ishlashi bilan tavsiflanadi [3, 25].

Zamonaviy ta‘limda elektron kundalikdan o‘quvchilarga vazifa berish va vazifalarni masofadan turib tekshirish, kamchilik hamda xatolarni tuzatish bugungi kunda ommalashib bormoqda. Fanda yangi bilimlarni axbarot kommunikatsiya vositalari bilan birga olib borish, raqamli texnologiyalarni ta‘limda qo‘llagan holda o‘quvchilarga yanada tushinarli va chuqurroq o‘rgatish imkonini beradi. Ushbu maqolada umumta‘lim maktab “O‘qituvchi va o‘quvchilari uchun elektron kundalikdan to‘g‘ri foydalanish, uyga vazifalarni yuklash va yuklab olish, masofaviy ta‘limni shakllantirish haqida yoritib berilgan.


Internetni portlatgan kunalik.com platformasi haqida batafsil ko‘rib chiqamiz. Kundalik.com Tizimi – onlayn rejimda darslarning jadvalini tuzish, o‘qituvchilar uchun darsbay rejalarni shakllantirish, davomat va o‘quvchilarning o‘zlashtirishini jurnal va kundalikning elektron shakllarida qayd etish, shuningdek, ta‘lim tashkilotlari va ta‘lim organlariga statistik hisobot tuzish vositalarini taqdim etish imkonini beradi.

«Kundalik» – o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar, ta‘lim muassasalari ma‘muriyatlari hamda ta‘limni boshqarish organlari vakillari uchun yagona elektron ta‘lim platformasini ishlab

chiquvchi Axborot texnologiya kompaniyasidir. «Kundalik.com» tizimiga obuna bo‘lish ota-onalar uchun ixtiyoriy sanaladi. Vazirlikka ko‘ra, foydalanuvchilar to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar «O‘zbektelekom» serverlarida saqlanadi. Bu esa o‘quv jarayonlariga aloqador barcha ishtirokchilarning shaxsiy ma‘lumotlari ishonchli himoyada ekanligini anglatadi [4].



Bosh ekranda kirganimizda xohlangan internet provadniki orqali ochilgan oynada xodimning elektron kundalikka kirishi uchun shaxsiy login va paroli mavjud. Har o‘qituvchi o‘zining shaxsiy kabinetiga kimgach menyular satri bilan qarshilashadi[3]. U yerda asosiy o‘qituvchi uchun berkitilgan sinflar dars soatlari mashg‘ulotlar va mazvular keltirilgan bo‘ladi.



Mazkur tizim ota-onalar uchun qator qulayliklarni yaratadi. Jumladan, onlayn tarzda:


- farzandlarining darsga qatnashayotgani;
- darsni qay darajada o‘zlashtirib borayotgani;
- ertangi kungi uy vazifalari xususida tezkor ma‘lumotlarga ega bo‘lishi mumkin.

Ta‘lim tashkilotlari uchun

Hozirki kunda maktablarni ulash markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi:

1. Maktab ma‘muriyati Ulanish formasini to‘ldiradi (Yuklab olish...);
2. Maktab ma‘muriyati to‘ldirilgan anketani quyidagi manzil bo‘yicha o‘z viloyat ta‘lim boshqarmasiga yuboradi;
3. Ta‘lim boshqarmasi ulanish uchun maktablarning ro‘yxatini tuzadi va uni Ta‘lim vazirligiga yuboradi;
4. Tizimga kirish uchun ma‘lumotlar so‘rovnomada ko‘rsatilgan elektron manzilga yuboriladi.

Xususiy maktablar Tizimga ulanish uchun team@kundalik.com manziliga murojaat qilishlari lozim.



Mazkur tizimning afzalliklari shundaki: bu orqali, avvalo, o‘qituvchining vaqti tejaladi, ularga elektron jurnaldan foydalanish bepul taqdim etiladi. Misol sifatida aytish lozimki, qator rivojlangan mamlakatlar o‘qituvchilari buning yordamida har chorakda 20 soatdan ortiq ish vaqtini tejaydi. Mazkur tejalgan vaqtni esa o‘qituvchi bolalar bilan ijodiy shug‘ullanishga yoki qo‘shimcha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga sarflashi mumkin.

REFERENCES

1. N.G‘.Rahmatullaev, H.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov. Kimyo o‘qitish metodikasi: darslik.– Toshkent: „Iqtisod-Moliya“ nashriyoti, – 2013. -320 b.
2. Meliboyeva G.S. KIMYONI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR“ o‘quv qo‘llanma. – T., 2020.
3. [KIMYO DARSLARINI O ‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O ‘RNI](#)
N Jamolova - Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti ..., 2022
4. <https://corp.tsue.uz/>

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TINGLOVCHILARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI SHALLANTIRISH MASALALARI

Jumanazarov Sirojiddin Salaydinovich

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10677299>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida tinglovchilarning raqamli savodxonligini shakllantirish masalalari qaralgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, axborot savodxonligi, mediasavodxonlik, kommunikativ savodxonlik.

Hozirda pedagoglar tomonidan darslarni samarali tashkil etishga qaratilgan raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion bilimlarni egallash va ularni kasbiy faoliyatlarida foydalanishlari zamon talabiga aylanib bormoqda. Shu bois zamonaviy maktablarning zamonaviy o‘qituvchisining dolzarb vazifalaridan biri ta’limning raqamli transformatsiya sharoitida o‘zining raqamli savodxonligini oshirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6079-farmoni bilan ma‘qullangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ham aholining barcha qatlamlarida raqamli savodxonligini oshirish borasida muayyan tadbirlar belgilangan [1]. Mazkur maqolada malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning raqamli kompetentligini shakllantirishning asosi bo‘lgan raqamli savodxonlik darajasini baholash hamda tahliliy natijalar asosida malaka oshirish jarayonidagi o‘quv modullari mazmuniga yangicha yondashuvlarni kiritish masalasi qaralgan.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning raqamli savodxonligini shakllantirish uchun dastlab ularning raqamli savodxonlik darajasini axborot, kompyuter, media va kommunikativ savodxonliklari hamda innovatsiyalarga bo‘lgan ijobiy munosabatlarini baholash zarurati paydo bo‘ladi [2-3]. Mazkur qobiliyatlarni qamrab olgan savolnoma asosida Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasidan tinglovchilarning raqamli savodxonlik indeksini hisoblash bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Mazkur tadqiqotda 6 ta fan yo‘nalishi tanlab olindi va 284 nafar tinglovchi ishtirok etdi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tinglovchilarga ta’limni raqamli transformatsiyasi sharoitida ta’lim tizimida bo‘ladigan quyidagi yangilanishlar haqida ham ma’lumotlarga ega bo‘lishliklariga ehtiyoj sezildi:

1. *Ta’lim mazmuni va kutiladigan ta’lim natijalari.* Insonlar o‘zlarining kundalik hayotida raqamli kompetensiyalarga ko‘p ehtiyoj seza boshlashdi. Jumladan, davlat organlari bilan deyarli barcha o‘zaro aloqalar endilikda elektron “Davlat xizmatlari” orqali, banklar bilan esa, raqamli ilovalar orqali amalga oshirilmoqda. Insoniyat o‘z kundalik faoliyatini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaydi. Bu shuni anglatadiki, maktablarda o‘quvchilarni raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish va kundalik hayotida samarali foydalanish kompetensiyasini shakllantiruvchi ta’lim mazmunini yangilash talab etiladi.

2. *Ta’lim texnologiyalari va pedagogik usullar.* Raqamli muhitda o‘tiladigan darslar sinfdagi an’anaviy darslardan ko‘p jihatdan farq qiladi. Pedagoglardan dars jarayonida zamonaviy raqamli qurilmalardan foydalanishlari uchun yangicha yondashuv talab etiladi. Bu esa, hozirda raqamli didaktika tushunchasini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

3. *O‘quv ishlarni tashkil etish.* Bu borada o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi zaruriy raqamli texnik vositalar yangilanadi.

Tahlil natijalariga asoslangan holda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy faoliyatlarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishlarini ta’minlovchi o‘quv dasturlarining mazmuni shakllantiriladi. Bu esa, ularning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishari orqali innovatsion pedagogik faoliyatini shakllantirilishida muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tizimidagi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘layotgan o‘zgarishlar nafaqat ilmiy bilimlarning rivojlanishiga, balki ta’limda pedagogik va psixologik bilimlarning takomillashiga ham tez ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ta’limga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini baholash hamda olingan natijalarni tahlili asosida raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, zamonaviy o‘qituvchining kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi uchun o‘ziga xos bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079 “Raqamli O‘zbekiston – 2010” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Давыдов С.Г., Логунова О.С. Проект «Индекс цифровой грамотности»: методические эксперименты // Социология: методология, методы, математическое моделирование. – 2015. – № 41. – С. 120-141.
3. Jumanazarov S.S. Tinglovchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish // Fizika, matematika va informatika. – T., 2023. – 2-son. – B. 97-101.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA IJTIMOY-GUMANITAR YO‘NALISH PEDAGOGLARINI KASBIY-SHAXSIY RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

O‘zDJTU, pedagogika fanlari doktori

***Annotatsiya.** Maqolada raqamli ta’lim sharoitida oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy sohalar va ta’lim-tarbiya jarayonlariga raqamli o‘qitishni kirib kelishi natijasida rivojlanib borayotgan raqamli pedagogikaning imkoniyatlari, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari uchun tavsiya etiladigan individual kasbiy rivojlanish dasturi haqida bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** evristika, mantiqiy fikrlash, kreativ o‘quv muhiti, o‘zini o‘zi ijodiy rivojlantirish*

Hayot davomida o‘qishning asosiy xususiyatlari cheksiz o‘rganish; tezkorlik; eng yangi texnologiyalardan foydalanish; o‘z-o‘zini boshqarish; kechiktirmasdan amalda qo‘llash; keng qamrovlilik; dinamiklik; boshqalar bilan ulashish; ishlash mezonlarini erkin tanlanishi; ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishdan iborat bo‘lib, yangi bilimlar uzluksiz, ixtiyoriy ravishda o‘rganiladigan shaxsiy ta’lim tizimini nazarda tutadi.

Pedagogning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishning bosh g‘oyasi hayot davomida o‘qish konsepsiya bo‘lib, eskirgan g‘oyalar va yondashuvlarni yangi usullar va ilg‘or qarashlar bilan almashtirish uning bosh maqsadi hisoblanadi hamda shaxsiy ta’limni amalga oshirishda zamonaviy ta’limiy va axborot texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil kasbiy rivojlanish jaaryonlarini tashkil etish uchun yetarli pedagogik, metodik, texnik va tashkiliy shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda pedagogning individual kasbiy rivojlanish dasturini samarali amalga oshirish imkoniyatlari yuqori bo‘ladi.

XXI asrning boshida rivojlangan Yevropa va Osiyo davlatlari hamda AQSH ta’lim tizimida raqamli gumanitar fanlar tushunchasi paydo bo‘lgach, Yevropa miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AKTdan foydalanishda bugungi kunda ham o‘qituvchilar dars berishdan ko‘ra darsga o‘quv materiallarini tayyorlashga ko‘proq vaqt sarflashadi (European Schoolnet and University of Liège, 2013). Raqamli gumanitar ta’lim- bu ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish va ilmiy tadqiqotlarni olib borishda raqamli texnologiyalar va kompyuter usullaridan foydalanish bilan bog‘liq zamonaviy fan sohasi bo‘lib, ijtimoiy-gumanitar fanlar kesimida raqamli mahsulotlar-onlayn kurs, onlayn dars, vebinarlar, interaktiv onlayn ma’ruzalar, elektron darslik, o‘quv qo‘llanma va kitoblar, onlayn ta’lim resurslari, ijtimoiy-gumanitar fanlar

mazmunini 3D modellashtirish, elektron formatdagi mahsulotlarni va internet orqali taqdim etiladigan ta’lim xizmatlarini yaratish, tarqatish va o‘qitishni o‘z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalarni ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayoniga joriy etilishi pedagoglardan yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etadi. Raqamli texnologiyalar va raqamlashtirilgan gumanitar ta’lim ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshiradi, pedagogik mahoratning yuqori darajasini ta’minlab, o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Bugun raqamli gumanitar ta’lim muhiti: ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunini va o‘quv materiallarini vizualizatsiya qilish zarurati mavjudligi (gumanitar fanlarda o‘rganilayotgan obyektning qisqacha vizual ko‘rinishini yaratish eslab qolishni osonlashtiradi, ma’lumotlarni tezda baholashga imkon beradi va bilimlarni tarqatish, ommalashtirishga hissa qo‘shadi)ni yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida katta hajmdagi ma’lumotlarning paydo bo‘lishi, ularni saqlash, tahlil qilish va auditoriyaga taqdim etishning bugungi talabiga muvofiq pedagoglardan yangi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lish (raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish, matnni avtomatik qayta ishlash, nazariya tarmoqlari va geoinformatikani o‘rganish, raqamli gumanitar ta’lim resurslaridan foydalanish)ni talab etadi.

Ijtimoiy sohalar va ta’lim-tarbiya jarayonlariga raqamli o‘qitishni kirib kelishi natijasida rivojlanib borayotgan raqamli pedagogikaning imkoniyatlaridan (ta’lim oluvchilarga onlayn yaratish, tahrirlash, aks ettirish va rivojlantirish, metakognitsiya, tanqidiy tahlil, nashr etish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi) keng foydalanib, kreativ yondashuv asosida o‘z-o‘zini rivojlantirish, individual kasbiy rivojlanishning axborot maydonini shakllantirishni va raqamli gumanitar fanlar doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishning asosiy yo‘nalishlari, metodikalari va usullarini o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Raqamli gumanitar fanlarda ma’lumotlar bazalaridan foydalanishga misol sifatida 2008 yilda Kaliforniya, Indiana va Illinoys universitetlarida tashkil etilgan Hathitrust (*HathiTrust raqamli kutubxonasi*) loyihasini keltirish mumkin. Bu loyiha AQSHning 60 ta tadqiqot kutubxonalaridan to‘plangan uch milliondan ortiq tadqiqot yozuvlarining (kitoblar, hisobotlar, nashrlar va boshqa hujjatlar) elektron nusxalarini birlashtirgan bo‘lib, loyiha doirasida kiritilgan manbalar tadqiqotchilarga izlash, o‘qish, tahlil qilish va umumlashtirishda qulaylik yaratish, manbalarni asl variantlari bilan ishlash imkoniyatini taqdim etish maqsadida to‘liq shaklda raqamlashtirilgan. Bugungi kunda insoniyat qo‘lida kamida 130 milliondan ortiq kitob mavjud. Millionlab manbalarni o‘rganish va adabiyotlarni keng jamoatchilikka tushunarli va ochiq qilish uchun ma’lumotlar tahlili va falsafani birlashtirgan holda raqamli muzeylar, yangi media kontent yaratish talab etiladi. Oddiy qilib aytganda, an’anaviy gumanitar (tarix, tilshunoslik, adabiyot, pedagogika yoki musiqa) fanlarni o‘qitish metodikalarini axborot texnologiyalari bilan birlashtirishni talab etadi. Adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik, san’at tarixi va ijodiy sohalarida ma’lumotlarni tahlil qilish, raqamli nashriyot, loyihalarni xaritalash, madaniy tendensiyalarni aniqlash, vizuallashtirish, gumanitar fanlar bo‘yicha tarmoqlar va grafiklar yaratish gumanitar fanlarning raqamli asrdagi muammolari hisoblanadi.

To‘liq raqamlashtirish dunyosida tilshunoslik, filologiya, tarix, san’at tarixi, pedagogikada bugungi kunda "raqamli burilish" sodir bo‘lmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi tufayli yangi tadqiqot obyektlari: millionlab matnlar to‘plami, tarixiy ma’lumotlar bazalari, raqamli arxivlar, elektron muzeylar paydo bo‘lmoqda. Ushbu obyektlar til, madaniyat va jamiyat haqida juda ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, ammo ularni an’anaviy gumanitar usullar bilan yetarli darajada o‘rganib bo‘lmaydi. “Raqamli burilish” tubdan yangi tadqiqot malakalarini talab qiladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmuni va o‘qitish metodikalaridagi bu o‘zgarishlar ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining quyidagi texnik-texnologik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishini talab etadi:

asosiy texnologik tushunchalar: texnologiya, texnologik madaniyat, texnologik muhit, transformatsion faoliyat usullari, texnologik etika, texnologik estetikani bilish;

texnika va texnologiyani insonning intellektual, hissiy, aqliy va mehnat faoliyati natijasi sifatida tushunish;

ta’limga oid amaliy va istiqbolli texnologiyalar haqida ma’lumotga ega bo‘lish;


kasbiy o‘z-o‘zini belgilash va shaxsni rivojlantirishning raqamli texnologiyalarini bilish va ular bilan ishlash malakalariga ega bo‘lish;

texnologik va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilim sohalarining aloqadorligi va o‘zaro rivojlanishini tushunish;

texnikaning inson, tabiat va jamiyatga ijobiy va salbiy ta’sirini hamda sivilizatsiya mavjudligining sharti sifatida texnosferaning optimal rivojlanishi zarurligini asoslash;

texnologiyalarning iqtisodiy jihatlarini shaxsning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorligi ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashtirish.

Ma’lumki, oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirishi 3 yillik davriy muddatda takrorlanib boradigan jarayon sifatida qaraladi, ya’ni bevosita malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchi keyingi malaka oshirishgacha bo‘lgan davrda mustaqil ta’limning mazmunini to‘g‘ri shakllantirishi uchun uch yillik muddatga mo‘ljallangan o‘z-o‘zini individual kasbiy rivojlantirish dasturiga ega bo‘lishi talab etiladi. Chunki uch yillik mustaqil ta’limning natijalari keyingi malaka oshirish shaklini (bevosita yoki muqobil) belgilashda asos hisoblanadi. Ushbu davriy muddatda ta’limning norasmiy va informal shakllari asosida o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishni maqsadli tashkil etish, raqamli gumanitar ta’lim muhitida pedagogning shaxsiy-kasbiy rivojlanish trayektoriyasi va kasbiy axborot maydonini individual-kasbiy rivojlanish dasturi asosida shakllantirish maqsadga muvofiq. Quyida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari uchun tavsiya etiladigan individual kasbiy rivojlanish dasturining mazmuni aks ettirilgan.



1-rasm. Raqamli gumanitar ta'lim muhitida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish o'qituvchisining individual-kasbiy rivojlanish dasturi mazmuni

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi individual kasbiy rivojlanish dasturini tuzish uchun asos bo'ladi, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bunda kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish, texnologik bilimlarni, kasbiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan hayot davomida ta'limni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish ustivorlikka ega bo'ladi. Yangi media, multimedia loyihalari, interaktiv xizmatlar va xaritalar, ma'lumotlar bazalari, muzeylarda immersiv tajriba olish imkoniyati - bularning barchasi raqamli gumanitar fanlar sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Raqamli gumanitar ta'lim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish raqamli muhitda ilmiy tadqiqotlarni olib borishga imkon yaratadi.

Gumanitar fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish pedagoglarga ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish uchun keng imkoniyatlar

yaratadi va o‘quv jarayoni sifatiga, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlariga, mehnat bozorida kelajakdagi mutaxassislariga bo‘lgan raqobat va talabga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

REFERENCES

1. Maria-Luisa Schmitz, Tessa Consoli, Chiara Antonietti, Alberto Cattaneo, Philipp Gonon, Dominik Petko. / Why do some teachers teach media literacy while others do not? Exploring predictors along the “will, skill, tool, pedagogy” model, *Computers in Human Behavior*, Volume 151, 2024, 108004, ISSN 0747-5632, <https://doi.org/10.1016/j.chb.2023.108004>.
2. Schrum, Kelly. Developing student capacity to produce digital scholarship in the humanities./ *Arts and Humanities in Higher Education*. Том 21, Выпуск 2, Страницы 158 - 175 April 2022. ISSN 14740222, DOI: 10.1177/14740222211045246

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Irgashova Maripat Abdinazarovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676681>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogika, kasbiy kompetensiya, rivojlantirish, pedagogik aspektlari, fan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda, qulayliklar yaratilmoqda. Ushbu soha davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganinig guvohimiz. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarga berilayotgan e’tibor, pedagoglarni o‘z ustida doimiy ravishda ishlashi, ta’lim sohasiga innovatsion g‘oyalarni tadbqiq etishi, kelajagimiz egalarini munosib tarbiyalash, ta’lim va tarbiya berish samaradorligini yanada oshirish, ma’nan yetuk va komil insonni tarbiyalash bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. Shuning uchun ham “Pedagogika” fani dunyoviy fanlar tizimida alohida o‘rin egallaydi. Pedagogika tushunchasini A.Avloniy “bola tarbiyasining fani” deb atagan. Pedagogik kompetentlik atamaning quyidagi ma’nolari mavjud. “Kompetentlik” ingliz tilida “competence” so‘zidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini anglatadi. Kompetentlik bo‘lajak kasb egasi tomonidan egallanadigan va o‘z faoliyatida qo‘llaniladigan nazariy bilimlardan unumli foydalanish demakdir. Ya’ni yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahoratni iqtidorli namoyon eta olish tushunchasi bilan izohlanadi. Kompetentlik tizimida kasbiy kompetentlik asosiy metodologik hodisa bo‘lib, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinish demakdir [1]. Kompetensiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyatidir.

Zamonaviy pedagogikada mutaxassislarni tayyorlash uchun turli xil yondashuvlar ma’lum. Ular orasida taniqlilari fanlararo yondashuv, ma’lumotli yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv sanalib, yaqin orada paydo bo‘lgan yangi vaziyatli yondashuvi, axborot, konseptual, ergonomik yondashuvlar ham mavjud.

Pedagogikada kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi XX-asrning 80-yillarida “Perspektivlar” deb nomlangan jurnalda ilk bor tilga olingan. V.D. Landsherning mazkur mavzuda “Minimal vakolat” konsepsiyasi nomli maqolasi yozib, yondashuvlar haqida ma’lumot beradi. Dastlab yondashuv haqida emas, balki faqat “kompetensiya”, “kasbiy kompetensiya” tushunchalari, shuningdek, ta’limning maqsadi va natijasi sifatida shaxsning kasbiy kompetensiyasi haqidagi fikrlar maydonga keldi. U yerda kompetensiya atamasi “mavzuni chuqur bilish” deb tushunilgan. Keyinchalik kompetensiya atamasiga keng ma’no izoh berilib, uning qo‘lami va mazmunini yoritishga harakat qilindi.

Kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik yondashuvlar ma’lum toifalarga ajratiladi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi haqida olimlarning fikrlari mavjud.

Pus pedagog A.M.Mityayeva ko‘p darajali ta’limni loyihalashtirishning uslubiy prinsipi sifatida kompetensiyali yondashuvni amalga oshirishda ta’lim tizimi keyingi bosqichga o‘tishi haqida ma’lumot beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta’limning maqsadi va natijalarining sifat normalari, modellashtirish usuli sifatida belgilaydi, ta’lim natijasini ajralmas shaklda bitiruvchining ma’lum bir faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi belgilarining tizimi sifatida aks ettiradi. Bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash jarayonida ma’lumotli yondashuvga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchilari tomonidan kompetensiyaga asoslangan yondashuv konsepsiyasini o‘zlashtirish masalasi ularning ma’lumotli yondashuvga asoslangan oliy ta’limning uslubiy strategiyasini bilishlari dolzarbdir. Pedagogikada shaxsning o‘qish-o‘rganish natijasida o‘zlashtirgan bilim ko‘nikmalari hajmi, yo‘nalishi va darajasiga ma’lumot deyiladi. Ta’lim-tarbiya hamda mustaqil o‘rganish jarayonida ma’lumot olinadi, ongli faoliyati jarayonida rivojlanantirib boriladi. Ongli faoliyat jarayoni ta’limning ham obyekt, ham subyekt bo‘lmish insonning fikrlash qobiliyati shakllanishidan boshlab, oilada, so‘ngra uzluksiz ta’lim tizimi bosqichlarida amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimi bosqichlarida ma’lum bir ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlarida belgilangan hajm va yo‘nalishdagi ma’lumot o‘zlashtirib boriladi.

Ma’lumotni o‘zlashtirish jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli ta’lim va tarbiya mashg‘ulotlaridan iborat. Ma’lumot olish manbalari darslik, qo‘llanma, qo‘shimcha adabiyotlar, atrof-muhitda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar, ma’lumot olish vositasi o‘quv qurollari hamda mantiqiy tafakkur jarayonidan iborat. Ma’lumot oila, bog‘cha, maktab, akademik lisey yoki kasb-hunar maktabi, oliy o‘quv yurti, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakllari hamda qayta kasbga tayyorlashda o‘zlashtiriladi. Zamonaviy axborot jamiyatida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish ta’limning yetarli natijasidir. Inson tez o‘zgaruvchan axborot oqimlarida harakat qilishi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishi, o‘z-o‘zini o‘rganishi, yetishmayotgan bilimlarni qidirishi va ulardan foydalanishi kerak.

O‘tkazilgan xalqaro qiyosiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar reproduktiv xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda chet ellik tengdoshlariga qaraganda yaxshiroq, predmet bilimlari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirganligini aks ettiradi, ammo bilimlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha vazifalarni bajarishda ularning natijalari pastroq, hayotiy vaziyatlar, ularning mazmuni g‘ayrioddiy, nostandart shaklda taqdim etilgan bo‘lib, unda ularni tahlil qilish yoki sharhlash, xulosani shakllantirish yoki ba’zi o‘zgarishlarning natijalarini nomlash zarur [2]. Shunday qilib, ma’lumotli yondashuvga asoslangan ta’lim sohasida o‘zgarishlarga ehtiyoji bor bo‘lib, bugungi kunda ta’lim sohasida nafaqat bilimdon, balki o‘z bilimlarini amalda qo‘llay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun ta’lim sohasi modernizasiya qilinmoqda. O‘zbekistonda ta’limni davom etayotgan modernizasiya talabalar uchun yangi imkoniyatlardan iborat bo‘lgan

yangi ta‘lim sifatiga erishishni nazarda tutadi, talabalarning oldingi avlodlari hal qilmagan muammolarni hal qilishlari, ya‘ni bugungi o‘qituvchilariga katta mas‘uliyat yuklaydi [3].

O‘qituvchilar muammolarni hal qilish qobiliyatini o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, bir nechta tarkibiy qismlardan iborat: faoliyat motivatsiyalari, axborot manbalarini topish va tahlil qilish qobiliyati, faoliyatning ayrim turlari uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikmalar, muammoning mohiyatini tushunish va uni hal qilish usullarini tanlash uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganish zarurligini talab qiladi.

Kompetentlik va kompetensiya so‘zlari bir-biri bilan bog‘liq va biri ikkinchisini to‘ldiradigan tushunchalardir. Shunga ekan, kompetensiya tizimi amaliy va nazariy tayyorgarlik jihatidan o‘zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni jamlagan. Kompetentli deb, muayyan bir sohaga oid ma‘lumotga ega bo‘lgan va shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kasb egasiga aytiladi. Kompetensiya – davlat standartlarida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, har bir kasb egasining muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun muhim bo‘lgan ta‘limiy (professional) tayyorgarligidir; kasb egasi tomonidan egallangan mutaxassisligiga doir bilim, ko‘nikma, malakalar, shaxsiy va kasbiy sifatleri bo‘lib, muayyan sohada orttirilgan tajribasidir. Ta‘limiy kompetensiyalar shunisi bilan farqlanadiki, ular talabani faoliyatini kelajakda to‘laqonli hayot kechirishi uchun rivojlantiradi. Ma‘lum yoshgacha, davrgacha inson biror bir kompetensiyani namoyon eta olmaydi, ammo bu insonda kompetensiyani rivojlantirmaslik kerak degani emas. Bunday holatda ta‘limiy kompetensiyalar haqida, ya‘ni o‘zaro bog‘liq tushunchalar, bilim, ko‘nikma, malakalar, borliqda mavjud voqeliklarga munosabat nuqtai nazaridan axloq, xulq-atvor, tajribada ifodalangan, ham shaxsiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-nazariy tayyorgarlik to‘g‘risida gap boradi.

Kompetentlik har bir insonning xulq-atvorida, axloq-odobida nazariy va amaliy jihatdan namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlik o‘z faoliyatlarida belgilangan topshiriqlarni bajarish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunda kompetentlik namoyon bo‘ladigan muhitni ko‘rish talab etiladi.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimini jahon standartlari darajasida ko‘tarishda munosib o‘rniga ega bilimli, qobiliyatli va iste‘dodli bo‘lajak o‘qituvchilarmizda kompetentlikni rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish, ta‘lim olish shakli, metod, vositalarini tanlay olish, ta‘limning insonparvarlik, demokratik, shaffoflik, tenglik prinsiplarga amal qilish, ta‘lim va tarbiya jarayoniga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, jamiyat kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida xato va kamchiliklarga boshqalar tomonidan kamsitishlarga yo‘l qoymaslik, ijtimoiy jihatdan himoya qilish bugungi kun jamiyat oldida turgan sharaflil vazifa ekanligini unitmagan holda, o‘qituvchilar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanish, yetuk intellektual salohiyatli kadr bo‘lish kabi tavsialarga amal qilish kerak.

REFERENCES

1. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta‘lim samaradorligining muhim omili. – T.: Yoshlar tashkiloti, 2020. – 52 b.
2. Medetova R.M., Anarboyev A.A. Hamkorlik pedagogikasi asosida bo‘lajak zahiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish // Ta‘lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. 2023-yil 13-noyabr. – T.: O‘zPFITI, 2023. – B. 284-287.
3. Zamonaviy pedagog qiyoqasi: marifat.uz

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СРЕДА ВУЗА КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ

¹Зухра Исмаилова, ²Алишер Тиллаев

¹Профессор НИУ «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства», доктор педагогических наук

²Научный исследователь НИУ «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10676692>

Аннотация. Анализ современных первоисточников по проблеме показал, что в последние годы образовательная среда все чаще становится предметом специальных исследований в педагогике. Авторы приводят примеры о множественных факторах развития профессионально-личностных компетенций.

Ключевые слова: образовательная среда, развитие, компетенция, воспитание, социализация.

Анализ современных первоисточников по проблеме показал, что в последние годы образовательная среда все чаще становится предметом специальных исследований в педагогике, где ее рассматривают:

- как условие существования образовательных систем;
- как совокупность отношений, формирующихся между субъектами образования;
- как взаимосвязь процессов превращения наличного социокультурного окружения в средства осуществления современного образования;
- как конструирование образовательной среды применительно к практике обучения и воспитания.

Ретроспективный анализ позволяет сделать вывод о том, что значение образовательной среды в социализации и воспитании человека осознавали многие ученые (Н.В. Крупенина, П.Ф. Лесгафт, Н.И. Пирогов, В.Н. Сорока-Росинский, Л.Н. Толстой, К.Д. Ушинский, С.Т. Шацкий, В.Н. Шульгин и др.).

Определенные исторические аспекты данной проблематики получили освещение в трудах В.Г. Бочаровой, Р.Б. Вендровской, З.А. Галагузовой, Т.Н. Мальковской, В.З. Равкина, В.Д. Семенова, М.М. Скаткина, Ф.А. Фрадкина и др.

Также в научной литературе описываются компоненты, составляющие образовательную среду любого образовательного учреждения, при которых творческое развитие будущего специалиста может быть наиболее эффективным, а именно:

1) *Пространственно-семантический компонент*, подразумевающий архитектурно-эстетическую организацию жизненного пространства (архитектура здания и дизайн интерьеров, пространственная структура учебных и рекреационных помещений, предметная организация среды, трансформация помещений для минимизации чувства неуверенности, тревожности учащегося и др.) и *символическое пространство* (различные символы – герб, гимн, традиции и др.);

2) *Содержательно-методический компонент*, включающий насыщенность среды культурно значимыми объектами, концепции обучения и воспитания, образовательные и учебные программы, учебный план, учебники, дидактические пособия и др.; формы и методы организации образования (формы организации занятий, исследовательские

общества, структуры самоуправления, творческие коллективы и др.), выбор образовательного маршрута;

3) *Коммуникационно-организационный компонент*, подразумевающий распределение статусов и ролей в образовательной среде, половозрастные и национальные особенности студентов и педагогов, их ценностные установки, стереотипы, стиль взаимоотношений и преподавания, организацию различных видов отношений в соответствии с обозначенными нормами и правилами, организационные условия (особенности культуры менеджмента, наличие творческих объединений преподавателей, инициативных и творческих групп и др.).

Помимо этого, образовательную среду конкретизируют:

- по стилю взаимодействия (конкурентная – кооперативная, гуманистическая – технократическая и т. д.);
- по характеру отношения к социальному опыту и его передаче (традиционная – инновационная, национальная – универсальная, классическая – коррекционная и т. д.);
- по степени творческой активности (творческая – регламентированная);
- по характеру взаимодействия с внешней средой (открытая – закрытая).

Необходимо обратить внимание и на тот факт, что в одном образовательном учреждении возможно сочетание различных, иногда весьма противоречивых условий образовательной среды. Вместе с тем активное взаимодействие с различными образовательными средами: в вузе, где индивид обучается, учреждениях постдипломного образования (институтах повышения квалификации), профессиональных сообществах, творческих группах, литературных источниках, спортивных секциях, информационных сетях и др., способствует раскрытию личностных и профессионально значимых качеств будущих специалистов любой области.

Научные исследования Э.З. Галимовой позволяют сделать вывод о том, что образовательная среда именно высшей школы – это педагогически организованное пространство учебного заведения, в котором формируется личность будущего специалиста (в конкретной профессиональной области), обладает значительным потенциалом в осуществлении профессиональной компетентности студентов. Поэтому педагогический потенциал именно такой среды учреждения заключается в совокупности возможностей (условий, принципов, факторов и т.д.) для формирования гуманной личности будущих специалистов.

Проведенный анализ научных исследований подтверждает нашу мысль о том, что образовательная среда обладает достаточно высокой мерой сложности, так как имеет несколько уровней:

- глобальный уровень образовательной среды – общемировые тенденции развития культуры, экономики, политики, образования;
- региональный уровень образовательной среды (страны, крупные регионы) – относятся те же позиции, но в соответствии с социальными и национальными нормами, обычаями и традициями;
- локальный уровень образовательной среды (конкретные образовательные учреждения) – микрокультура, микроклимат, ближайшее окружение, семья.

Анализ психолого-педагогической литературы по теме исследования позволил выделить основные составляющие образовательной среды учреждения, на основе которых

могут быть разработаны критерии мониторинга определения качества формирования гуманистической направленности студента учебного заведения.

С практической точки зрения в учебном заведении должна быть организована соответствующая работа по формированию гуманистически направленной личности студентов и осуществляться она должна в виде множества взаимосвязанных «цепочек»:

- воспитательная организация (вуз) – составляющие ее формализованные и неформализованные группы (коллективы), коллектив (учебная группа) – личность студента;
- коллектив (учебная группа) – входящие в него микрогруппы – личность студента;
- преподаватель – коллектив (учебная группа);
- преподаватель – личность студента;
- студент – студент и др.

Основными формами работы преподавателей со студентами в рамках данного компонента выступают: фестивали, форумы, олимпиады, тренинги, пресс-конференции, брифинги, мастер-классы, круглые столы, дискуссионные клубы и пр.

Учитывая требования менеджмента образования, к образовательной среде учреждения также следует отнести его внутреннюю и внешнюю среды.

Любая организация – это открытая система, которая не может существовать без взаимодействия с внешней средой, являющейся источником, питающим ее различными ресурсами, необходимыми для поддержки внутреннего потенциала организации на должном уровне. Внутренняя среда учебного заведения, как формальной организации, является основным источником ее жизненной силы и представляет собой тот позитивный потенциал, который дает возможность образовательной организации функционировать, то есть существовать и выживать определенное время. В данном случае сильные стороны служат той базой, на которую вуз опирается в конкурентной борьбе. Слабые стороны – это предмет пристального внимания со стороны руководства учебного заведения, которое должно делать все возможное, чтобы избавиться от них.

К основным факторам внутренней среды учебного заведения относятся:

- цели учреждения;
- организационная структура учреждения;
- задачи деятельности учреждения;
- образовательные и кадровые технологии;
- кадровый менеджмент и др.

Внешняя среда учреждения характеризуется взаимозависимостью ее факторов, сложностью, подвижностью и неопределенностью. В данном случае целесообразно говорить:

– о факторах среды прямого воздействия (факторы, которые непосредственно влияют на деятельность учебного заведения) – законы федерального и регионального уровней, органы государственного регулирования деятельности учреждения, трудовые ресурсы учреждения, потребители образовательных услуг, профсоюзы, школы региона и конкурирующие вузы;

– о факторах среды косвенного воздействия - состояние экономики и образования регионального и федерального уровней, научно-технический прогресс, инновации,

социокультурные и политические взаимоотношения с сообществами, где расположен вуз, международное сотрудничество и др.).

Резюмируя изложенное, можно сделать вывод о том, что образовательная среда учебного заведения – это довольно широкое понятие, включающее в себя множество факторов, оказывающих непосредственное влияние не только на ее развитие, но и на развитие всех участников образовательного процесса.

REFERENCES

1. Никандров, Н.Д. Воспитание и социализация в современной России: риски и возможности / Н.Д. Никандров // Народное образование. – 2006. – № 9. – С. 21–27.
2. Нифанов, А.Н. Территориальное общественное самоуправление как элемент народовластия / А.Н. Нифанов // Актуальные проблемы современного российского общества и государства: тезисы докл. науч.- практ. конф. – Ростов –н/Д, 2001. – С.10–16.
3. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / под ред. Е.С. Полат. – М.: Академия, 2001. – 272 с.
4. Носова, Л.Н. Инструмент мониторинга образовательной среды высшего учебного заведения / Л.Н. Носова // Педагогическое образование и наука. – 2009. – № 11. – С. 78–83.
5. 3. Исмаилова, А.Тиллаев Необходимость модернизации образования на основе компетентностного подхода // Высшая школа - № 2 – 2021 г. С.27-29.

6. Т. Яровава, А.Тиллаев Профессионально-личностное развитие обучаемых в стратегии реализации гуманистического подхода // Сборник статей Международного профессионально-исследовательского конкурса. – Россия: МЦНП «Новая наука», - 2023. ISBN 978-5-00174-917-2. 22-28 с.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

¹Qaraxonova L.M., ²Uchqurova Z.Sh.

¹T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI bo‘lim mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

²T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Ta'limni kompyuterlashtirish insonning aqliy rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi. Chunki kompyuter yordamida o'qitish jarayonida inson fikrlash usul va metodlari qatoridan induksiya va deduksiya, umumlashtirish va aniqlashtirish, tahlil va sintez, tasniflash va tizimlashtirish, abstraksiyalashtirish va o'xshatish kabilar tabiiy ravishda o'rin oladi.*

***Kalit so'zlar:** Blum taksonomiyasi, test usuli kompetensiyasi, kompetentsiya yondashuvi, asosiy kompetentsiya, nutqiy kompetentsiya.*

Bilim va ilmning shakllanishi esa, bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni

tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o‘quv dargohlarida yo‘lga qo‘yilgan ta‘lim berish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Ta‘lim tizimida baholash doimiy tizimli jarayon hisoblanadi. Raqamlar yordamida faqat o‘quvchi faoliyatidagi shaxsiy fazilatlar emas, balki ularning shakllanish jarayoni va natijalari baholanishi mumkin, talabning ta‘lim bosqichda bilim va ko‘nikmalar darajasini anglashi va to‘g‘ri baholashi va o‘z holatini qanday yaxshilashni tushunishi juda muhimdir.

Kompetensiya – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim ko‘nikmalarni, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘limdir. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta‘lim o‘quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida o‘qitiladigan umumta‘lim fanlari mazmunining izchilligini ta‘minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi.

Tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. Umummadaniy kompetensiyalar;
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Kompetensiyaga ega bo‘lish shunchaki bilim, ko‘nikmalarni egallab olishnigina anglatmasdan kishining shu bilimlarni hayotda aniq maqsadlar asosida qo‘llay olishini bildiradi. Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash o‘quv jarayonining muhim qismi bo‘lib, uni to‘g‘ri shakllantirish ko‘p jihatdan ta‘lim muvaffaqiyatini belgilaydi. Uslubiy adabiyotlarda baholash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi "teskari aloqa" deb ataladigan narsa, o‘qituvchi fanni o‘qitish samaradorligi to‘g‘risida ma‘lumot oladigan o‘quv jarayonining bosqichidir. Shunga ko‘ra, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholashning quyidagi maqsadlari ajratiladi: talabalarning bilim va malakalarini diagnostika qilish va tuzatish; o‘quv jarayonining alohida bosqichining samaradorligini hisobga olish; turli darajadagi ta‘limning yakuniy natijalarini aniqlash. Ushbu ishning maqsadi kadrlar tayyorlashda nazorat tizimiga kompleks yondashuvni ochib berish va uni amalga oshirishning asosiy vositalarini aniqlashdan iborat.

Darsga tayyorgarlik ko‘rayotganda o‘qituvchi zarur baholash shakllarini izlash va uni tashkil etish o‘qituvchining eng muhim vazifasi ekanligini unutmasligi kerak. Kim, qachon, nechta talaba, qanday savollar bo‘yicha, qanday vositalar bilan so‘rash va baholash kerak – bularning barchasini o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishda o‘ylashi kerak. Shu bilan birga, siz o‘quvchilar

o‘z do‘stlari so‘rovi paytida nima qilishlari kerakligi haqida o‘ylashingiz kerak. Har bir o‘qituvchi o‘zining baholash tizimiga ega bo‘lishi kerak, u turli xil ish vositalari va usullarini o‘z ichiga olishi kerak, shunda o‘quvchilar o‘qituvchi o‘zlarining yutuqlarini, bilimlarni egallash darajasi va sifatini doimiy ravishda kuzatib borishini tushunishlari kerak.

O‘quvchilarning bilim va malakalarini baholash bo‘yicha yuqoridagi maqsadlarga diqqat bilan qarajak, nazorat tadbirlarini o‘tkazishda o‘qituvchining maqsadlari mana shu ekanligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, har qanday fanni o‘qitish jarayonida asosiy xarakter o‘quvchi bo‘lib, o‘quv jarayonining o‘zi talabalar tomonidan bilim va ko‘nikmalarni egallashdir, shuning uchun sinfda sodir bo‘ladigan hamma narsa, shu jumladan nazorat faoliyati ham maktabning maqsadiga mos kelishi kerak. Talabaning o‘zi, uning uchun shaxsan muhim bo‘lishi kerak.

REFERENCES

1. Абдукодилов А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин (аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе): Дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 1990. – 360 с.
2. Абдукодилов А.А., Хайитов А.Ф. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асосларидан машқлар тўплами. – Т.: Шарк, 1996. – 48 б.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARI MALAKASINI OSHIRISHNING INNOVATSION AXBOROT-DIDAKTIK SHAKLLARI

Karimov Komiljon Abduraximovich

O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “Texnologiya ta’limi nazariyasi
va metodikasi” bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida professional ta’lim tizimi rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishda axborot-ta’lim muhitining imkoniyatlari bayon etilgan bo‘lib, ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllari, ta’limni axborotlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada axborot-ta’lim muhiti – bu ta’limiy axborotlarni uzatish va tez almashishni ta’minlovchi vosita sifatida talqin qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** professional ta’lim, rahbar va pedagog kadrlar, malaka oshirish, ta’limni axborotlashtirish, axborot-didaktik shakllar, axborot-ta’lim muhiti, muhitli yondashuv, sifat va samaradorlik, motivatsiya, ta’lim muhiti.*

Mamlakatimizda professional ta’lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini isloh qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” [1, 39-b.] ustuvor vazifalarga muvofiq ta’lim portallarida onlayn va offlayn texnologiyalariga asoslangan masofaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining joriy etish orqali pedagoglarning asosiy ishdan ajralmagan holda o‘quv kurslari ta’lim dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratish, pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarida tinglovchilarning malakaviy tayyorgarligini rivojlantirish va ularda yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni ilg‘or axborot-ta’lim muhitida shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

Uzluksiz pedagogik ta‘limning muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobiy baho berib, hozirda shakllangan tuzilmaviy-mazmunli va protsessual tarkibiy qismlar pedagog kasbiy faoliyatining tabiatiga mos kelmasligini ta‘kidlash lozim. Professional ta‘lim tizimi rahbar va pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. O‘quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta‘minlash, malakaviy talablar, o‘quv rejaları va dasturlari asosida kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni yangilab borish malaka oshirish kurslarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta‘lim sifati va samaradorligiga qo‘yilayotgan talablar professional ta‘lim tizimi rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirishning mazmunini, shakllari va metodlarini ana shu talablarga mos ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son [Farmon](#)ida professional ta‘lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta‘limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilayotganligi ta‘kidlangan [2].

Ta‘limning innovatsion axborot-didaktik shakllari – ta‘lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta‘lim-tarbiya mazmunini, ta‘lim maqsadiga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o‘qitish usullarini tadbir etishga yo‘naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir tizimidir.

Professional ta‘lim tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari – yuqori darajadagi samaradorlikni ta‘minlovchi, pedagogik qonuniyatlar, maqsadlar, tamoyillar, mazmun, shakl, uslublar, o‘qitish vositalari va AKT dan hamda tarbiyalash usullaridan tashkil topgan loyihalash va mos ravishda ushbu texnologiyani amaliyotda qo‘llash tizimidir [3; 18-b.].

Ta‘limni axborotlashtirishning maqsadi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash hisobiga intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat. Ushbu muammolarni hal qilish doirasida texnologiyalar va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar o‘tkazish lozim. Bunday tizim sifatida axborot-ta‘lim muhiti taklif qilinishi mumkin.

Axborot-ta‘lim muhiti – bu ta‘limiy axborotlarni uzatish va tez almashishni ta‘minlovchi vosita hisoblanadi. Ushbu muhit asosida ta‘lim oluvchilarni bir-birini tushunishga, o‘z g‘alalar fikrini hurmat qilishga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o‘rgatishga imkoniyat yaratiladi. Natijada yagona ta‘lim sohasiga kirib boriladi.

H.F.Rashidov fikricha, ta‘limiy muhit quyidagicha shakllantiriladi: “Qachonki, ta‘lim olishga motivatsiyasi bo‘lgan shaxs paydo bo‘lsagina, muhit ta‘limiy bo‘ladi. Bunda bitta muhit bir odamga ta‘limiy bo‘lsa, boshqasiga neytral bo‘ladi, har bir odam muayyan ta‘limiy makon chegaralarida o‘zining ta‘limiy muhitini shakllantirish imkoniyatiga ega” [4]. “Ta‘lim muhiti” atamasi V.A.Yasvinning ishida yetarli darajada aniq ta‘riflangan, u ta‘lim muhiti, – deb “shaxsning berilgan namunaga ko‘ra shakllanishining ta‘sirlari va sharoitlari hamda ijtimoiy va fazoviy-predmetli qurshovda tarkib topgan uni, rivojlanishi uchun imkoniyatlar”ni tushunadi [5].

Axborotli-ta‘lim muhitining nazariy yadrosi – pedagogika fanining yangi yo‘nalishi bo‘lib, axborot-ta‘lim muhiti yangilanishga yo‘naltirilganlik mohiyatidan kelib chiqib, pedagogik

jarayonlarni tadqiq qiladi. Shuning uchun an‘anaviy ta‘lim jarayoniga u yoki bu shaklda yangi pedagogik tizimni kiritish ko‘p hollarda samarasizdir. Shu bois yangi sifat tuzilmasiga, tizimni tashkil etishning yangi mezonlariga ega bo‘lgan butunlay yangi didaktik modelni yaratish lozim. Axborot ta‘lim tizimini shakllantirish tadqiqotimiz vazifasi doirasida axborot-ta‘lim muhiti tushunchasi N.F.Abdunazarovanning ishida quyidagicha ta‘riflangan: “Axborot muhiti, axborotni yaratish va qo‘llashning individual-shaxsiy tomonlari bilan yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan tushunchadan iborat. Ta‘lim jarayonining har bir subyekti o‘zining axborot muhitini mustaqil shakllantiradi. Axborot resurslarini yaratar va iste‘mol qilar ekan, ta‘lim jarayoni subyekti nafaqat o‘zi rivojlanadi, balki axborot muhitini ham rivojlantiradi. Shu tarzda individual axborot muhitlaridan ta‘lim jarayonining axborot tizimi bo‘lgan axborot makoni paydo bo‘ladi” [6]. Juda ko‘pchilikni tashkil etadigan bunday ta‘riflarda murakkab hodisa bo‘lgan axborot-ta‘lim muhitining mohiyatini tushunishda fikrlarning anchagina turlichaligini ko‘rish va unda eng muhim xarakterli tomonlarni ajratib olish mumkin. Amalda tatbiq qilingan yoki nazariy yondashuvlar ko‘rinishida tavsiflangan quyidagi uchta asosiy turdagi axborot-ta‘lim muhitini ajratish mumkin: bilimlarni taqdim etishga yo‘naltirilgan muhitlar, bilimlarni olish bo‘yicha mustaqil faoliyatga yo‘naltirilgan muhitlar, muhitlarning aralash turi.

Axborot-ta‘lim muhitini samarali tashkil etish uchun quyidagilar e‘tiborga olinishi zarur: qo‘yilgan muammoni yechish uchun tabiiy, fizik, ijtimoiy va boshqa hodisalar ustidan ko‘p, tizimli, bir martalik yoki uzoq muddatli kuzatish, turli mintaqalardan ma‘lumotlar to‘plash; turli joylarda yuzaga keladigan hodisalar, dalillar, voqealarning aniq tendensiyasini aniqlash uchun taqqoslab o‘rganish, qarorlar qabul qilish va takliflar ishlab chiqish; tarmoq ishtirokchilarining madaniy, etnik, geografik shartlari o‘rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda har bir muammo yoki masalani yechish yo‘llarining (alternativ yoki turli usullarini) samaradorligini taqqoslab o‘rganish; o‘ziga xos madaniy, an‘anaviy va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy va madaniy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish; birgalikda ma‘lum bir muammoni hamkorlikda tadqiq qilish sharti bilan biror bir (amaliy, ijodiy, ilmiy va boshqa) ijodiy g‘oyani ishlab chiqish; ta‘limiy mummmolarni o‘rganish va hal etish bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va bunda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni madaniy, ta‘limdagi an‘analar boshqa sohalar bilan bog‘liq bo‘lishiga qaratish.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlar malakasini oshirishning axborot-ta‘lim muhiti kompyuterli telekommunikatsiya asosida tashkil etilgan, umumiy muammo, maqsad, kelishilgan uslublar va faoliyat usullariga ega, faoliyatning birgalikdagi natijasiga erishishga yo‘naltirilgan ta‘lim oluvchi – hamkorlarning o‘quv-bilish, tadqiqiy, ijodiy, ilmiy faoliyati tushuniladi. Har qanday muammo yechimi integratsiyalashgan bilimni talab etadi. Axborot-ta‘lim muhiti chuqurlashgan bilimlar integratsiyasini, shuningdek, tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan fan bilimlari sohasini, balki hamkorning xususiyatlarini, uning dunyoni bilishi va tushunishini, qarashlarini bilishni ham taqozo qiladi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сон “Профessional таълим тизimini янада такомиллаштиришга доир қўшимча чоратadbirlар тўғрисида”ги [Фармони](#).

3. Макаров С.И. Методические основы создания и применения образовательных электронных изданий (на примере курса математики): Дис. ... д-ра. пед. наук. – М.: ИОСО РАО, 2003. – 242 с.
4. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации Национальной программы по подготовке кадров): Дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2005. – 311 с.
5. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. – М.: Олма-Пресс, 2001. – 365 с.
6. Абдуназарова Н.Ф. Педагогические основы повышения квалификации преподавателей профессиональных колледжей в условиях информатизации образования: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2008. – 151 с.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

¹Kasimova Nargiza Dilmuratovna, ²Adhamov Shohjahon Abdullajon o‘g‘li,
³Latipov Rustamjon Jahongir o‘g‘li

¹Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, ps.f.n.

²Andijon davlat tibbiyot instituti talabasi

³Andijon davlat tibbiyot instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli texnologiyalar bilan faol ishlashga qaratilgan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, kasbiy pedagogik kompetensiyalarning mezonlari, afzalliklari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy faoliyat, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy kompetensiya, rivojlanish, raqamli texnologiyalar.

Bugungi raqamli texnologiyalar asrida ilg‘or xorijiy tajribalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Ma‘lumki, pedagog doimiy ravishda o‘sib o‘zgarib boradigan inson ob‘ekti bilan ishlaydi. Bu esa ular bilan ishlashda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emasligini bildiradi ya‘ni, pedagogdan doimo izlanish, xorijiy tajribalarni o‘rganishni talab etadi.

Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta‘lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishni, yuqori kasbiy salohiyatga, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish degan xulosaga kelinadi [1].

Bo‘lajak o‘qituvchilardan talab qilinadigan kompetentlikning quyidagi ko‘rinishlari tafovut qilinadi. Bular:

- bo‘lajak o‘qituvchi tomonidan o‘z bilimlarini teran ravishda boyitib borish;
- egallangan malakalarni takomillashtirishga tayyor bo‘lish;
- zamon yangiliklaridan boxabar bo‘lish;
- ta‘lim jarayonida axborot kommunikatsiya raqamli texnologiyalarni faol qo‘llay olish;
- tashabbuskorlik;

- tanqidiy fikr yurita olish;
- hamkorlik;
- chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo‘lish.

Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlari sifatida quyidagilar e‘tirof etiladi:

Ixtisoslik bilimdonligi-sohasi bo‘yicha har tomonlama bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida ishlay olish qobiliyatiga ega bo‘lish. Uslubiy bilimdonlik-barcha bilimlarini yoshlarga tushunarli tilda yetkazib bera olish va bunda ta‘limning turli metodlaridan, texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Ijtimoiy bilimdonlik- darslar davomida auditoriya bilan samarali o‘zaro muloqot qila olish, til topisha bilish va sog‘lom ma‘naviy muhitni shakllantira olish.

Kasbiy kompetentlik-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir [2].

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta‘lim tizimi uchun bo‘lajak yosh o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda raqamlashtirish inson faoliyatining, jamiyatimizning barcha sohalarida xususan, ta‘lim tizimida ham jadal ravishda olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalarga asoslangan ta‘lim tizimini yaratish bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli texnologiyalarni faol qo‘lay olish kasbiy kompetensiyalariga mukammal ega bo‘lishni talab etadi. Bu bugungi bo‘lajak o‘qituvchilarning ega bo‘lishi kerak bo‘lgan vazifalardan biridir.

Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- raqamli kasbiy ta‘lim muhitini yaratish;
- raqamli ta‘lim resurslarini yaratish;
- raqamli texnologiyalarni ta‘limning samarali jarayonida faol qo‘llash;
- samarali baholash maqsadida raqamli texnologiya usullaridan foydalanish;
- raqamli texnologiyalarni o‘rganuvchilarni ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish shular jumlasidandir.

Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Raqamli texnologiyalar orqali ta‘lim berilsa ta‘lim oluvchilarga ta‘lim olish usullari osonlashadi.

REFERENCES

1. Berdiyeva H.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” scientific journal impact factor. Volume 1, issue 9, October, 2021, 886-898-pp.
2. Aripov Z.T. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary studies (CARJIS) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari” 1 (2), 2022, 28-mart, 92-96-b.

3. Toshmatova G. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish. Theory and analytical aspects of recent research international scientific online conference. Part 20, December 9th, 2023, 151-155-pp.
4. Mirzahmedova N.D. Raqamli texnologiyalarning ta‘lim sohasida qo‘llanilishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” scientific journal impact factor. Volume 2, issue 5/2, May, 2022, 538-545-pp.
5. N.D.Kosimova. Yosh o‘qituvchilarda komplaensni shakllantirishning psixologik mexanizmlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021.
6. N.D.Kosimova. Zamonaviy shaxsni shakllantirishda komplaensning psixologik mexanizmlari. MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA: MUAMMO VA YECHIMLAR Mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo‘qon-2021 yil.
7. www.oriens.uz
8. www.interconf.org

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘QUVCHI-QIZLARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

¹Komilova Xurshida Toxirovna, ²Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi

¹P.f.b.f.d (PhD) dotsent, “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

²Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘quvchi-qizlarni ilmiy faoliyatga jalb etishda ularni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish haqida. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda gender tengligi va xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan imkoniyatlar to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ta‘lim, o‘quvchi-qizlar, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya, rag‘batlantirish, metod.*


Yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ilmiy faoliyatga jalb etish, innovatsion g‘oyalarini amalga oshirishga ko‘maklashish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarning xuquqiy mavqeini yuksaltirish, gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha so‘ngi yillarda bir nechta qonunlar va Prezident farmonlari qabul qilinib, amaliyotga tatbiq qilindi. 2019-yil 2-sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi [1] qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun hamda farmonlar xotin-qizlarni oilada, maktabda, ta‘lim muassasalarida, ish hamda jamoat joylarida o‘z huquq va erkinliklaridan to‘la qonli foydalana olish imkoniyatini beradi. Ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga, jinsi bo‘yicha kamsitilishining oldini olinishiga, ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishiga xizmat qiladi. 2015-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Taraqqiyot maqsadlari yo‘lida fan, texnika va innovatsiyalar to‘g‘risida”gi rezolyutsiyada “11-fevral – Ilm-fanda xotin-qizlar ishtiroki xalqaro kuni”, – deb e‘lon qilindi. Bu esa 2030-yilgacha Barqaror rivojlanishni belgilashga dastlabki qadam bo‘ldi.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustivor vazifalaridan biri ham ayollarning barcha sohalarda faol bo‘lishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2021-yili 2030-yilgacha mo‘ljallangan Gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Bunda barcha sohalarda ayollar va erkaklar o‘rtasida tenglik tamoyilini tatbiq qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotda gender tenglik tamoyilini tatbiq qilinishini ta‘minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlari amalga oshirish nazarda tutilgan [3]. Bugun Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat olib borayotgan xizmatchilar 4760 ta bo‘lib, ularning 1905 tasini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu esa umumiy xodimlarning 40%ni tashkil etadi. 2020-2021-yillarda ilmiy faoliyat olib borish uchun ro‘yhatdan o‘tgan xotin-qizlar 2456 nafarni tashkil etadi. Shuningdek, ulardan 1185 nafari doktorantura negizida ilmiy tadqiqot olib bormoqda, 80 nafari doktoranturada tahsil olayotgan bo‘lsa, 964 nafari mustaqil izlanuvchi sifatida ro‘yhatdan o‘tgan. Ayni vaqtda xotin-qizlardan akademik darajasini olganlari 7 nafarni, fan doktori (DSc) 271 nafarni, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini esa 1411 nafarni tashkil etadi [5].

Atoqli ma‘rifatparvar olim Abdulla Avloniy xotin-qizlarning ta‘lim olishi bo‘yicha “Qizlar hammadan ko‘ra bilim olishga intilishi kerak, chunki bu bilim bilan kelajak avlodni tarbiyalaydi”, degan fikrlarni bildirgan. Ilmga intilish esa maktabdanoq boshlanishi eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini ilgari surgan. Mamlakatimiz xotin-qizlari o‘rtasida xotin-qizlarning ma‘lumotli bo‘lishi, ularni ilmiy tatqiqotchilikka jalb etish, ilm olishiga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada qatnashgan 186 ta ishtirokchining 86,6% “juda muhim” deb, 10,8% “muhim” deb, 1,6% “u qadar muhim emas” deb, 1% “muhim emas” deb javob berdilar (1-rasm). Bundan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda xotin-qizlarning ma‘lumotli bo‘lishi, ilm yo‘lidan borishi, o‘z ustida ishlashi juda muhim hisoblanadi.

Xotin-qizlarning ma‘lumotli bo‘lishi qay darajada muhim ahamiyatga ega, deb o‘ylaysiz? (1 ta javobni belgilang)
186 ответов



Umumta‘lim maktablarida ta‘lim olayotgan o‘quvchi qizlarni maktab davridanoq ilm fanga qiziqtirish, ma‘lum bir kasbga yo‘naltirish, yangidan-yangi g‘oyalarni qo‘llab quvvatlash bilan bir qatorda ularni munosib rag‘batlantirib borish lozim. Bu esa ularni kelajakda oila va jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishlariga zamin yaratadi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra maktab davrida bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish, yanada yuqori cho‘qqilarni zabt etish istagi o‘g‘il bolalarga nisbatan qizlarda yuqori ko‘rsatgichni ko‘rsatgan. Lekin ularning 50%gina o‘z maqsadini amalga oshirishga erisha olgan. Bunga sabab qilib esa ularda yetarlicha o‘ziga bo‘lgan ishonchining yetarlicha emasligi, ota-ona va atrofdagilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaganligi tasir etadi.

Ta‘limda rag‘batlantirish muhim metod hisoblanib, u o‘quvchi qizlarning nafaqat xulq-atvoriga ijobiy baho berishga balki kelajakdagi faoliyatining yanada yuksalishiga motivatsion omil bo‘lib xizmat qiladi.

Rag‘batlantirish metodi orqali o‘quvchi-qizlarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish maxsus vositalar yordamida insonning shaxsiy ichki harakatlantiruvchi kuchlaridan foydalanadigan nozik jarayondir. Ijtimoiy faollikni oshirish, faol faoliyatga undovchi turtki bu rag‘batlantirish hisoblanadi. Mazkur mavzuning nazriyasi, qonuniyatlari va usullarini I.Z. Glikman, L.Yu. Gordin, Z.I. Rifkin, V.G. Pryanikova va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Pedagogik rag‘batlantirish metodini qo‘llashning asosiy maqsadlari quyidagilar:

1. O‘quvchi qizlarni o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshirish;
2. Fanlarni chuqur va samarali o‘rganishi uchun motivatsiya (kognitiv qiziqish, ilmiy tajribalarda ishtirok etish, jamoaviy ilmiy va kreativ loyihalarda ishtirok etish, ijodkorlik to‘garaklarda ishtirok etishi);
3. O‘qishga ijobiy munosabatni rivojlantirish, javobgarlik, ma’suliyatni oshirish;
4. Shaxsiy rivojlanishi, manaviy-axloqiy rivojlantirish;
5. O‘z-o‘zini o‘rganish, mustaqil xatti-harakatlar, ilmiy faoliyatga undovchi motivatsiyani uyg‘otish;

Pedagogik ko‘nikmalar, ta’lim texnologiyalariga ega bo‘lish, didaktik vositalardan oqilona foydalanish bilan bir qatorda o‘quvchi-qizlarning subyektiv tajribalari, uning ahamiyati, jamoada, oilada tengdoshlar orasida tan olinishi, ular bilan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish ularning akademik ko‘rsatgichlari va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagog olim G.I. Shukina esa pedagogik rag‘batlantirishning bir necha turlari mavjud bo‘lib, tadqiqotchilar tasniflarning asoslarini ta’kidlab, turli xil usullar guruhlarini ko‘rsatib o‘tganlar: o‘quv materialining mazmuniga asoslangan rag‘batlantirishni quyidagicha tasniflagan:

- o‘quv materialining mazmuniga asoslangan rag‘batlantirish (materialning yangiligi, tarixiyli, tarkibining murakkabligi va amaliy ahamiyati);
- faoliyat jarayoniga asoslangan rag‘batlantirish (mustaqil ishlarning xilma xilligi);
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan stimullar(hissiy holat, o‘zaro ishonch) [4, 126-b.].

O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchi-qizlarning faoliyatlarini rag‘batlantirib borish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni yuksaltirish, tanlagan yo‘lida olg‘a intilishga hamda o‘z kasbining malakali kadri bo‘la olishiga, jamiyatda o‘z o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Buning uchun pedagog dastlab o‘quvchisining individual xususiyatlarini, ijodkorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini, qaysi fanlarni o‘zlashtirishga iqtidori bor ekanligini hamda temperament, xarakterlarini to‘la o‘rganishi lozim. Shu asosida ularni sinfda rag‘batlantirish sifatida ma’lum bir sinf faoli etib tayinlashi, o‘z kuchiga munosib vazifani yuklatishi va uni bajara olishiga ishonch bildirishi kerak. Buning uchun quyidagi samarali usullarni keltirish mumkin:

1. Fikr-mulohazalarni ijobiy tarzda bildirish;
2. Tinglash;
3. Empatiya ko‘rsatish;
4. Muvaffaqiyatlarini hayajonli tarzda kutib olish;
5. Yutuqlarini jamoaga e’lon qilish;
6. Qiziqishlarini o‘rganish;

Xulosa qilib aytganda qaysi jamiyatda ayollarga bo‘lgan e’tibor, imkoniyat keng bo‘lsa o‘sha jamiyat taraqqiyoti yuksalaveradi. Har bir oilaning tarbiyachisi ayollar bo‘lishini inobatga olganda yurt ravnaqi uchun munosib xizmat qila oldigan turli soha vakillarining yetishib chiqishi bir so‘z bilan aytganda mamlakat xotin-qizlarining ilmiy darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Ta’lim-

tarbiyani esa ilk maktab davridanoq o‘quvchi-qizlarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, iqtidorli o‘quvchilar qiziqshi bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltirish lozim.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘grisida”gi O‘RQ-562-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘grisida”gi O‘RQ-561-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash” haqidagi SQ-297-IV-son qarori.
4. Nazarova N.M. Spesalnaya pedagogika. – Moskva: Vldos,2003. 186 b.
5. <http://www.insonhuquqlari.uz>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MA’NAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALASI

Mamajonov O‘tkirbek Tojiddinovich

Andijon davlat universiteti, Matematika Fakulteti o‘quv ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari

***Annotatsiya.** Maqolada ma’naviy kompetentligini rivojlantirish masalasi ularni globallashuv jarayoniga nisbatan raqobat bardosh mutaxassis sifatida tayyorlash vazifasini nazarda tutadi. Holbuki, shaxs manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini namoyon qilishdek dolzarb jihatlarga e’tibor qaratish haqida so‘z boradi*

***Kalit so‘zlar:** kompetensiya, kompetentlik, kognitiv, intellektual, ma’naviyat, salohiyat, yuksak, yangi avlod, xulq-atvor, qadriyatli-motivatsion, raqobatbardosh.*

***Аннотация.** В статье под вопросом развития их нравственной компетентности понимается задача подготовки их как конкурентоспособных специалистов по отношению к процессу глобализации. Однако в современной парадигме образования, направленного на удовлетворение интересов личности, говорится, что основное внимание уделяется таким актуальным аспектам, как работа над собой, саморазвитие и самовыражение*

***Ключевые слова:** компетентность, компетентность, познавательная, интеллектуальная, духовность, потенциал, высокий, новое поколение, поведение, ценностно-мотивационный, конкурентоспособный.*

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida “Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish” dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatgabardosh beraoladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish orqali yoshlarga ta’lim va tarbiya berishning xalqaro standartlari va milliy dastur integratsiyasini innovatsion tarzda takomillashtirish kabi vazifalarning belgilab berilganligini alohida e’tirof etish zarur.[1]

Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, umumkasbiy, kasbiy, umummadaniy kompetensiyalarni tarkib toptirishda kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi:

- talabalar va pedagoglarning kasbiy kompetentligi kasbiy va shaxsiy o‘shining asosi sifatida talqin qilinishi;

-umumkasbiy kompetensiyalarni ularning maxsus tashkil etilgan tarbiya jarayonida muvaffaqiyatli shakllantirilayotgan kompetensiyalarning boshqa guruhlar bilan o‘zaro aloqasi, bir-biriga bog‘liqligi, bir-birini to‘ldirishi va boyitishi orqali aniqlanishidir.

Talabalarda umumkasbiy kompetensiyalarning shakllanishi asosini ularning auditoriyadan tashqari faoliyatining tashkil etilishi, shuningdek, oliy pedagogik ta‘lim didaktik tizimining tarbiyaviy salohiyatini oshirish orqali ko‘rib chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati oliy pedagogik ta‘lim tizimida tarbiya jarayonini innovatsion boshqarishda namoyon bo‘lib, uning zamirida kompetensiyalarning – kasb sohibi bo‘lmish shaxsning xususiyatlari vafazilatlarini shakllantirish yotadi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari bir-biriga turlicha nisbatda biz ko‘rib chiqayotgan kompetensiyaviy yondashuvning o‘ziga xos ma’noga ega kategoriyalari sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha turli qarashlar mavjud bo‘lib, xilma-xil dalillarga ega ko‘plab ta‘riflari taklif qilingan. “Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini potensial-dolzarb, kognitiv-shaxsiy tavsif asosida ajratib ko‘rsatgan I.A.Zimnya fikriga ko‘ra, kompetentlik deganda biz “insonning bilimga asoslangan, intellektual va shaxsning ijtimoiy-kasbiy tavsifi sifatida dolzarb, shakllanayotgan shaxsiy sifat” ekanligini tushunamiz. Agar biz kompetentlikni N.Xomskiy taklif qilganidek, qoidalar to‘plami sifatida, strukturani bilish tarzida tushunsak (gap til haqida ketmoqda), unda bunday izoh bilan ko‘plab tadqiqotchilar ta‘kidlaganidek, kompetentlikka asoslangan yondashuv bilim, ko‘nikma va malaka talqinidan hech qanday farq qilmaydi.

Kompetensiyalar ta‘limni modernizatsiyalashning asosiy g‘oyasidir. Bu g‘oya ta‘limning maqsadini mavjud an‘anaviy tasavvurlar doirasidan, ya‘ni bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladigan tizim sifatida qarash bilan cheklanib qolmaydi. Shu bilan birga mazkur tushuncha nazariya va amaliyotda yaqqol o‘z ta‘rifiga ega emas. Uning quyidagicha asosiy tavsifiy jihatlarini ko‘zga tashlanadi: “bilimlar tizimi”, faoliyat tajribasi va motivatsiya, muammolarga yechim topish qobiliyati[2], sifatlar, xususiyatlar birligi [3], shaxsiy va kasbiy faoliyatga amaliy tayyorlikning yuqori darajasi [4]. Kompetensiyalarning ta‘lim jarayonidagi o‘rni ta‘lim-tarbiyaning maqsadi ta‘limning faoliyatga oid tarkibiy qismi, ta‘limiy faoliyatning sifat ko‘rsatkichi, kasb sohibining shaxsiy-individual qadriyatlarini sifatida belgilanadi.

Kompetensiyalar insonga hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy va o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradigan xususiyatlar to‘plamidir. Shunga ko‘ra, kompetensiyalar bo‘yicha “bilim” qanchalik mos va to‘liq bo‘lsa, odamlar turli sohalardagi muammo va vazifalarni, ya‘ni umuman sermahsul hayotiy faoliyatni hal qilishga shunchalik tayyor bo‘ladilar. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, zamonaviy ilm-fan darajasida “kompetensiya” tushunchasi nafaqat insonning faoliyatga tayyorligining operatsion komponentini qamrab oladi (va shuning uchun bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga kirmaydi), balki uning ijtimoiy kontekstdagi ishlari va xatti-harakatlari, xulq-atvorining qadriyatli-motivatsion asoslarini ochib beradigan qadriyatli komponentni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Shunday qilib, TUNING Yevropa ilmiy loyihasi kompetensiyalarning quyidagi universal strukturasi taklif etadi: 1) bilim komponenti (akademik sohadagi nazariy bilimlar, bilish va tushunish qobiliyati); 2) amaliy komponent (bilimlarni muayyan vaziyatlarga amaliy va operativ qo‘llash); 3) qadriyatli

komponent (qadriyatlar ijtimoiy kontekstda boshqalarni idrok etish usuli va subyekt hayotining ajralmas qismi sifatida, inson xulq-atvorining qadriyatli-motivatsion asoslari) [3].

Kompetentlik psixologiyasining asoschisi, ingliz psixologi J.Raven “kompetentlik kompetensiyalar majmuidir” degan tushunchadan kelib chiqib, ularning ko‘p sonli ekanligini ta’kidlagan. J.Raven kompetentlik komponentlarini insonlarning tabiatidan qat’iy nazar, shaxsiy va kasbiy jihatdan muhim maqsadlarga erishishga imkon beradigan xususiyatlari hamda qobiliyatlari sifatida talqin qilgan [4].

Kompetentlik umumlashgan tavsifda: ta’limdagi va mustaqil kasbiy, ijtimoiy faoliyatda (tug‘ma va rivojlantirilgan emas – ta’kid bizniki) muayyan kompetensiyalarni (kompetentlikning asosi, negizi sifatida) individual o‘zlashtirish va ijodiy tarzda egallash yo‘li orqali shaxsning yangidan shakllangan xislati, kasb sohibi bo‘lgan fuqaroning fazilati. Bu professionalning (kasbiy yetuk shaxsning) hayotiy tajriba, amaliyot, mustaqil ta’lim orqali individual o‘zlashtirilgan kompetensiyalar asosida yangi (kasbiy, ijtimoiy) shart-sharoitlarda ijodiy yondashib ish ko‘rish sifatidir. Ijod, ijodiy fikrlash, ularning shakllanganligi – kompetentlikning muhim ko‘rsatkichidir.

Tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan kompetensiyalar majmui mutlaqlik kasb etmaydi. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida” tarbiya nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni “fazilatlar” sifatida talqin qilinganiga guvoh bo‘lish mumkin. Bizningcha, qachonki, fazilatlar qadriyatlar interiorizatsiyasi (ichki anglanganlik) darajasida namoyon bo‘lsa, u holda mazkur jarayonga nisbatan “kompetensiya” tushunchasini qo‘llash mumkin. Aniqrog‘i, fazilatlarining motivatsion va kognitiv darajada namoyon bo‘lishini kompetensiyaning shakllanganligi sifatida e’tirof etish o‘rinli bo‘lmaydi. Hayotiy va kasbiy ahamiyatga ega kompetensiyalar hamda kompetentliklar – kasb sohibi bo‘lmish mutaxassisning muhim sifatleri majmuiga qarashlar zamonaviy inson-kasb sohibi – mamlakat va dunyo fuqarosiga umumiy davlat-ijtimoiy buyurtmasi bilan; davlat va jamiyatdagi iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy o‘zgarishlar dinamikasi, insoniy salohiyatlar (intellektual, jismoniy, ma’naviy) bilan belgilanadi hamda kompetensiyalar va kompetentliklar shu qarashlar doirasida shakllanadi.

Turli soha vakillarining ma’naviy kompetentligini rivojlantirish masalasi ularni globallashuv jarayoniga nisbatan raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash vazifasini nazarda tutadi. Holbuki, shaxs manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini namoyon qilishdek dolzarb jihatga katta e’tibor qaratiladi. Negaki, ta’lim mazmuni – tarbiyaviy asoslar bilan muvofiqlashtirilgan ijtimoiy- madaniy tajribaning saralangan qismi bo‘lib, bilim berish jarayoni orqali egallanadigan xulq, muomala, hissiyot, fikrlash va amaliy faoliyat madaniyatini o‘zida mujassam etadi. Tabiiyki, bo‘lg‘usi mutaxassislarning kasbiy sifatlarining axloqiy-estetik, ma’naviy kompetensiya nuqtayi nazaridan mazmun-mohiyatini qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji yuzaga keladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108-son Farmoni
2. Зеер.Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход [Текст] / Э.Ф.Зеер, А.М.Павлова, Э.Э.Сыманюк. — М.: Московский психолого-социальный институт, 2005. - 216с.
3. Хуторской, А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования [Текст] / Хуторской А.В. // Народное образование.- 2003.- №

2.- C. 58-64.

4. O.Musurmonova. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning didaktik asoslari.//ped.fan.dok.diss.13.00.01.Toshkent-1993. -B.364

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA’LIM TIZIMINI YUKSALTIRISH ORQALI YOSHLARDA AXLOQIY-MA’NAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Mamatqulova Ozoda Xikmat qizi

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch
doktoranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli texnologiya tushunchasi, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini yuksaltirish va shu orqali yoshlarda axloqiy-ma’naviy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlari xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan tegishli tavsiya va xulosalar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** fan, texnika, bilim, tarbiya, ta’lim, axloq, ma’naviyat, texnologiya, raqamli texnologiyalar, “Besh tashabbus”, “elektron hukumat”, “elektron savdo”, “raqamli iqtisodiyot”, Internet, kompyuter, kompyuter savodxonligi.*

Ma’lumki, mamlakatning yuksalishiga hissa qo‘shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta’lim tizimining rivojiga bog‘liq bo‘lib, bu borada o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi hamda ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o‘zining ifodasini topgan. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga: **“Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!”** [1], – **deb ta’kidlamaganlar.** Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalaridan foydalanish, oliy ta’lim va raqamli texnologiyalarning transformatsiyasini ta’minlash ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Fan va texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda Vatanimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarni har tomonlama yetuk kadrlar etib shakllantirishda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish ko‘zlangan maqsadga erishishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi yuksak texnologiyalar zamonida ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bordi. “Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali kadrlarga bo‘lgan talab ortib, o‘z sohasi bo‘yicha fundamental bilimlarni mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay oladigan ijodkor kadrlarni tayyorlash talab etiladi” [2]. Chunki, biz xohlaymizmi yoki yo‘qmi, bugungi kundagi taraqqiyot ko‘p jihatdan raqamli texnologiyalarining rivojlanish ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘lib qoldi. Prezidentimiz ta’birlari bilan aytganda: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot

texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart”. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga raqamli texnologiyalar chuqur kirib bormoqda. Shuning uchun ham yoshlarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bugungi zamon talabi sanaladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlarning ma‘naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish bo‘yicha “Besh tashabbus”ning uchinchi tashabbusi “aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish”ga [3] qaratilganligi bejiz emas edi.

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ta‘limni samarali tashkil etishda ularning imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanila boshlandi. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda ta‘limni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Zero, bugungi kunda ta‘lim muassasalarida foydalaniladigan multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlarning o‘rni beqiyosdir.

Raqamli texnologiyalar ta‘lim sifatini oshishiga xizmat qiluvchi vositalardan sanaladi. Xususan, bu kabi texnologiyalar ta‘lim jarayonida ta‘lim oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni faollashishiga, turli raqamli texnologiyalardan foydalana olish imkoniyatining shakllanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to‘liq qamrab olish va fanga nisbatan ijobiy munosabatni uyg‘otishga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan ta‘lim tizimida foydalanilishi talabalarga dars mashg‘ulotlarini sifatli o‘tilishini ta‘minlaydi. Birgina, pandemiya sharoitining o‘zi ham ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi.

Raqamli ta‘limga o‘tishning boshqa ijobiy tomonlari xususida fikr yuritadigan bo‘lsak, darsliklar elektron shaklda ekranlarga ko‘chadi, talabalar o‘zlariga qulay bo‘lgan vaqtda ta‘lim olish imkoniga ega bo‘ladi, internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi, ta‘lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi, vaqt va mablag‘ sarfini kamaytiradi va boshqalar. Ayni shuning uchun ham hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalari qatori, ta‘lim tizimining ham jadal raqamli rivojlanishini ta‘minlash, shu jumladan, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega. Buning tasdig‘i o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni 41-maqsadining beshinchi qismida “kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta‘minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish” [4] belgilanganligi juda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, bu boradagi ishlarni takomillashtirish maqsadida 2020 yil 5 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [5] PF-6079-sonli Farmoni qabul qilingan bo‘lib, mazkur huquqiy qonunosti hujjati O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor maqsadlari, muhim yo‘nalishlari hamda istiqbolli vazifalarini belgilaydi. Bundan tashqari, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonini yanada takomillashtirish uchun axborot texnologiyalaridan ta‘lim berish jarayonini yanada optimallashtirish, buning uchun esa, o‘sib kelayotgan yosh avlod orasida axborot texnologiyalarini yanada ommalashtirish, shuningdek,

aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, turli yoshdagi aholiga Internet tarmog‘ida ishlash, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tegishli bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga qamrab olgan kompyuter savodxonligi o‘quv kurslarini tashkil etish, axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar sohasida yuqori bilim va malakaga ega bo‘lgan kadrlarni shakllantirish maqsadida umumta‘lim maktabi o‘qituvchilariga dasturlashni o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratib berish va boshqalardan iborat.

Ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va bu boradagi ishlarning yanada kengaytirilishi ta‘lim jarayoni ishtirokchilari uchun juda katta afzalliklarga ega. Aytaylik, oliy ta‘lim muassasalariga hujjatlarning onlayn shaklda topshirilishi bu ularning ham vaqtini, ham “naqd”ini tejatishiga xizmat qilmoqda. Yokida ta‘lim jarayonida dars mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishi ta‘limdan ko‘zlangan maqsadga erishilishiga olib keladi. Misol uchun, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli vatanparvarlik ruhidagi video-roliklarning namoyish etilishi yoshlarning qalbida o‘z Vatanga nisbatan yuksak fuqarolik burchining shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, ta‘lim sohasida ham raqamli ko‘nikmalarni oshirish muhim ahamiyatga ega va ushbu jarayonni takomillashtirish uchun ta‘lim tizimida ta‘lim oluvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali ularda raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish lozim. Bir so‘z bilan aytganda, raqamlashtirish jarayoni faoliyatimiz samaradorligi, ta‘lim sifati, shaffoflik va hudud xavfsizligini ta‘minlashda, o‘qituvchi va talabalarga qulaylik yaratish barobarida keng imkoniyatlar yaratib berdi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta‘lim va tarbiya bo‘ladi: Daryo yangiliklari
2. ta-lim-sifati-islohotlar-muammolar-yechimlar-va-istiqbollari-haqida-fikr-va-mulohazalar.pdf
3. kun.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni: lex.uz

ДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Махмудов Абдулхалим Хамидович

заведующий отделом УзНИИПН, д.п.н., профессор,
Камилова Аида Бахтияровна, соискатель УзНИИПН

Аннотация. В статье раскрываются вопросы профессиональной подготовки педагогов в условиях цифровой трансформации образования. Выявлена необходимость

построения цифрового образовательного пространства в профессиональной подготовке педагогов на основе цифровой трансформации дидактического процесса.

Ключевые слова: *среда, цифровизация, педагог, образование, цифровые технологии, дидактика.*

Современные преобразования общества в условиях развития информационно-коммуникационных технологий задают направления определения стратегии модернизации образования, инициируют ее фундаментальные изменения. В этих условиях актуальными являются вопросы, ориентированные на рассмотрение цифровизации основных положений педагогической науки, проблемы адаптации системы образования к запросам цифровой экономики и цифрового общества [1].

Цифровизация образования ставит перед педагогической теорией и практикой ряд проблемных вопросов, требующих кардинальных решений профессионально-педагогической подготовки педагогов [2].

В кластере проблемных задач важной научно-педагогической задачей является разработка дидактической модели цифровизации образовательного процесса, отвечающей запросам цифровой экономики и обеспечивающей максимально полное использование дидактического потенциала цифровых технологий. Необходимо отметить, что в этом кластере наиболее сложными являются дидактические и методические проблемы организации деятельности обучающихся и педагогов.

Таким образом, речь идет о проектировании цифровой образовательной среды профессиональной подготовки педагогов и определении методического инструментария на основе цифровых трансформаций [3].

На наш взгляд, новая образовательная среда профессиональной подготовки педагогов основывается на особенностях, закономерностях и тенденциях развития цифровых технологий:

1. Повышенные требования цифровой экономики к педагогическим кадрам выступают основным источником образовательного целеполагания. Перед педагогами ставится задача готовности к использованию цифровых технологий к профессиональной деятельности. Цифровая функциональная грамотность под влиянием цифровизации трансформируется, формируется системное понимание места и роли цифровых технологий как инструмента успешности образовательной деятельности.

2. Появление электронных обучающих платформ на основе возможностей современных цифровых технологий обеспечивает мультисетевое взаимодействие, персональность, интерактивность, субкультурность субъектов образования, создает новые возможности для построения образовательного процесса.

3. Возникает необходимость педагогического управления сетевой социализацией личности как фактора становления его идентичности.

При проектировании цифровой образовательной среды профессиональной подготовки педагогов необходимо учитывать особенности Z-поколения, а именно представители цифрового поколения свободно ориентируются в современных цифровых технологиях, обладают позитивными образовательными характеристиками: способностью к новизне, креативностью, самостоятельностью, нацеленностью на самообразование. Эти особенности определяют психолого-педагогическую специфику целеполагания,

принципов, подходов к формированию содержания, форм и методов цифрового дидактического пространства [4, с. 476].

Сформулируем основные положения проектирования цифровой образовательной среды профессиональной подготовки педагогов:

1. Актуализация учебной самостоятельности в условиях цифрового дидактического пространства, насыщенного образовательными ресурсами.

2. Дифференциация технологий и методов обучения с точки зрения их дидактического потенциала в цифровой образовательной среде.

3. Моделирование профессиональной деятельности педагогов за счет сетевого взаимодействия, средств виртуальной реальности, цифровых тренажеров, позволяющих формировать профессиональные компетенции.

4. Системообразующим компонентом этого процесса является открытая цифровая образовательная среда, позволяющая создать условия воспроизведения будущей профессиональной деятельности в процессе обучения и овладения основными операциями и действиями профессии.

5. Трансформация профессиональной деятельности педагога и его ролевой позиции.

Основываясь на вышеназванные положения можно сделать вывод о том, что в условиях цифровой трансформации профессиональная подготовка педагогов должна быть направлена на понимание структуры профессиональной деятельности в виртуальной среде, на формирование готовности организации цифрового обучения, знание цифрового методического обеспечения учебного процесса.

REFERENCES

1. Васильева А.А. К вопросу о цифровизации образовательной среды современного вуза // Проблемы современного педагогического образования. – М., 2020. – № 69-1. – С. 114-117.
2. Коломейцева А.А., Гасанова Р.Р. Модернизация образовательной среды к вызовам цифровизации высшей школы // Мир университетской науки: культура и образование. – М., 2020. – № 9. – С. 167-175.
3. Махмудов А.Х., Анарбаева Ф.У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари // Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021.
4. Махмудов А.Х., Фелелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва // Современное образование. – 2019. – № 6 (79). – С. 3-9.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘QITUVCHINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Mingboyeva Nargiza Mamasoliyevna

Andijon viloyati Balikchi tumani 42-maktab jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ta‘lim, tarbiya, bo‘lajak o‘qituvchi, innovatsion faoliyat, tayyorlash, takomillashtirish, jarayon, yondashish, mezon, munosabat, pedagogika.*

Pedagogik faoliyat jarayonida muallim har bir o‘quvchining qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o‘quvchiga nisbatan ishonch, o‘quvchining bilimi va xulqini baholashda talabchan, adolatli bo‘lish, bolalarda o‘z-o‘ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatni o‘stirish, mehribon, g‘amho‘r bo‘lishi, mushkul vaziyatga tushib qolganda unga ko‘maklashish, nizolarni axloqiy mezonlar asosida hal etishi, jamoaning fikr-mulohazalarini e‘tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, bolalar bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish, pedagogik takti saqlash muhim hisoblanadi.

Ta‘lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati o‘quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarga mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoit yaratsa, o‘quvchilar bilimlarini bamisoli o‘zlari olayotgandek his etishsa, mazkur metod samarali bo‘ladi. Ta‘lim metodlarida o‘qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik-pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish davomida ko‘pgina omillarni to‘playdi, tahlil qiladi:

– pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda o‘qituvchilik kasbiga qiziqish, havas katta rol o‘ynaydi;

– qiziqish bilan bajariladigan faoliyat, u qanchalik murakkab bo‘lmasin, hatto, muvaffaqiyatsizliklarga uchramasin, kishiga katta ichki qoniqish, mamnuniyatlik baxsh etadi;

– o‘qituvchining bilimi qanchalik keng va chuqur bo‘lsa, unda o‘quvchilarga shu bilimni berish ishtiyoqi shunchalik zo‘r bo‘ladi. Bunday o‘qituvchi eng yaxshi pedagog hisoblanadi, ularning ko‘pchiligi o‘z fanining ustalari, metodistlari bo‘lib qoladi;

– pedagogik faoliyatning nazariy asosiy kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o‘z predmetini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o‘zlashtirishi va ularni muntazam to‘ldirib borishi lozim.

Ilgor pedagogik texnologiyaning markazida ta‘lim jarayonning rahbari hamda shu jarayonning subyekti ham obyekti bo‘lgan o‘qituvchi va o‘quvchi turadi. Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o‘zaro muloqoti, bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi kerak.

Buning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi ta‘lim-tarbiya jarayoni oldiga quyilgan talablar, ta‘limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo‘llari, o‘quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o‘qishga, o‘rganishga yo‘naltirish, o‘quvchi shaxsi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o‘quvchi faoliyatini aniq va to‘g‘ri baholash metodlari bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o‘qituvchining innovatsion faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

– shaxsning ijodiy-motivatsion yo‘nalganligi. Bu – qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o‘z kamolotiga intilish va boshqalar;

– kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo‘lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o‘zicha mushohada yuritish, refleksiya;

– kasbiy faoliyatni baholash. Bu – ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

– o‘qituvchining individual qobiliyati. Bu – ijodiy faoliyat sur‘ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat’iyatlik, o‘ziga ishonch; mas’uliyatlilik, halollik, haqiqatgo‘ylik, o‘zini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o‘qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi meyorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin): innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruriyatni anglash; ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik; shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish; ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik; innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi; innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta’siri; kasbiy refleksiya bo‘lgan qobiliyat.

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o‘qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri – o‘qituvchi shaxsidir. O‘qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo‘lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg‘ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o‘ch bo‘lishi lozim.

O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim: yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish; yangicha harakat qila olishga o‘rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o‘quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish oliy maktab o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сон “Таълим тўғрисида”ги қонуни: <https://lex.uz>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПФ-4623-сонли “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Т., 2020. – 28 февраль.

ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ЖИНСИЙ ТАРБИЯГА
ОИД БИЛИМЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Миракбарова Дилдора Миралишер қизи

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в.в.б. доцент,

Тошкент давлат аграр университети

***Аннотация.** Инсон жамиятда ривожланиб, шаклланиб борар экан инсоний эҳтиёжларини нафақат табиий йўл билан қондириши, балки уни чиройли, ахлоқ нормаларига мослаш каби тамойилларга асосланиб иш кўради. Бунда, албатта, инсон яшаётган жамиятнинг, атроф-муҳитнинг таъсири жуда катта. Ушбу юқорида саналган ижтимоий одоблар нафақат инсоннинг дунёқарашига, балки унинг ошлавий муносабатларига ҳам маънавий таъсир ўтказмай қолмайди.*

***Калит сўзлар:** “оммавий маданият”, жинсий тарбия, жинс, фарзанд, таълим-тарбия.*

Бугунги кунда “оммавий маданият” номи остида инсонийлик, ахлоқ принципларига зид бўлган маданиятсизлик бутун дунёга кенг ёйилиб бормоқда. Энг ачинарлиси, унинг асосий мақсади, ҳаракати ниқоб остида бўлиб, кўплаб инсонлар “оммавий маданият” тарғиботчиларига айланиб қолаётганларини ҳатто ўзлари сезмайдилар ҳам. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, “Биз бугун жаҳолат деган балога иқтисодиёт соҳасида ҳам, таълим-тарбия, соғлиқни сақлаш, маданият тизимида ҳам, кўйингики, ҳаётимизнинг барча жабҳаларида дуч келяпмиз ва бу иллат кўл-оёғимизда бамисоли кишан бўлиб турибди. Бу кишандан халос бўлмасдан туриб, тараққиёт ва ривожланиш ҳақида ҳеч қандай сўз бўлиши мумкин эмас. Айни вақтда, маданият соҳасида жаҳолатга қарши маърифат билан курашиш, ёшларимизни ҳақиқий санъатни англашга ўргатиш, уларнинг эстетик оламини соғлом асосда шакллантириш бўйича олдимизда жуда муҳим вазифалар турибди” [1, 195-б.]. “Оммавий маданият” номи остидаги ахлоқсизлик ғояси ХХ асрнинг ўрталаридан бошлаб тезлик билан бутун дунёга тарқалди ва унинг турли кўринишдаги йўналишлари сони кундан-кунга ортиб бормоқда. Унинг бугунги кундаги асосий тарғиботчилари оммавий ахборот воситалари ва интернет тармоғи бўлиб қолмоқда. Аслида бир қарашда “оммавий маданият” хурфикрлилик, инсон эрки тарафдоридек кўринади, лекин барча “илму амали”нинг негизида эътибор берилса, аслида у инсонни фикрлашига, тафаккур қилишига зид эканлиги аён бўлади. Ҳатто миллий, диний тарбиядан, урф-одатлардан бегоналашиш, уларни менсимасликка даъват қилиш ҳолатлари ҳам кузатилаётгани айниқса, ташвишлидир” [2, 99-б.].

Юқоридаги фикрлар асосли бўлиб, бу жараёнга лоқайдлик миллий ва диний кадрларимиз унутулиши, ўз мустақил фикри, дидига эга бўлмаган “манкуртлар” авлоди етишиб чиқишига сабаб бўлади.

АҚШда айрим ота-оналар фарзандининг жинсини ўзгартиришига оддий ҳолатдек қарайдилар. Улар фарзандларига ўз жинсини танлаш ҳуқуқини топширганлар. Жинсини ўзгартириш мақсадида қабул қилинадиган гармонал дори воситалари АҚШда педиатр ва психотерапевт тавсияси асосида берилади. Ва бунда жинсини ўзгартирмоқчи бўлган шахс 10-12 ёшга етган бўлиши лозим. Россияда ҳам бу муолажа 21 ёшдан қўлланилиши мумкин. Баъзи ота-оналар эса трансгендер болани

ўзлари психологик шакллантириб қўйишади. Фарзандининг бундай танловига рози бўлган ота-оналар шоу бизнес оламида ҳам кўплаб учрайди. Масалан, Брэд Питт ва Анджелины Джолининг 13 ёшли қизи ўзини ўғил болалардек тутуди, кийинади, сочини турмаклайди. Ҳаттоки, ўзининг айтишича, бир йил давомида гармонларни ўзгартирувчи дори воситаларини ҳам қабул қилмоқда. Шарлиз Тероннинг боқиб олган ўғли эса ўзини қизлар либосида эркин ҳис қилишини айтиб ўтган. Муҳлисларнинг кўз олдига бўлаётган бундай ахлоқсиз ҳолатлар уларга ҳам таъсир этмай қолмайди.

Табиийки, жинсини ўзгартириш масаласига ҳар бир инсонпарварликни тарғиб қилувчи дин қарши чиқади. Шунингдек, Ислом дини ҳам. Фикҳ олимлари янги маънавий муаммолардан бири бўлмиш ушбу ҳолатни ўрганиб чиқиб, фатво беришган: “Ислом Фикҳи Академияси Маккаи Мукаррамада, Робитанинг биносида, 1409 ҳ.с. 13-20 ражаб (1989 йил, 19-26 февраль) кунлари бўлиб ўтган ўн биринчи мажлисида эркакни аёлга айлантириш ва аксинча қилиш ҳақидаги масалани кўриб чиқди. Муноқаша ва фикр алмашувлардан кейин Ислом Фикҳи Академияси бир овоздан қуйидаги қарорларни қабул қилди: эркаклик ва аёллик аъзолари тўлиқ бўлган шахсларни бир жинсдан иккинчи жинсга айлантириш мумкин эмас. Бундай ишни қилишга уринишнинг ўзи уқибатга лойиқ жиноятдир. Чунки бу Аллоҳ яратган нарсани ўзгартиришга уринишдир. Аллоҳ таоло Қуръонда шайтоннинг гапини нақл қилиб: “Уларга амр қилсам, Аллоҳнинг яратганини ўзгартирарлар”, деган (Нисо сураси, 119-оят) [3, 619-б.]. Демак, танадаги моддий касалликни бартараф этишга шариат руҳсат беради.

Маънавий иллатни вақтида даволамаслик тузатиб бўлмас оқибатларга олиб келади. Масалан, Ғарб ўзини бирор жинсга мансуб деб билмай, аросатда ҳаёт кечириётган инсонлар кўп учрайди. Шунингдек, баъзилар жинсини ўзгартириб, танлови ёқмаса тиббиёт ходимларидан яна ўз жинсига қайтаришни талаб қилади. Ўзининг аввалги жинсига қайтганда ҳам улар тўлақонли ҳаёт кечири олмай, афсус надоматда яшайдилар. Бизнинг фикримизча, бу муаммонинг асл негизи уларга тўғри жинсий тарбия бермаганлик, ўз жинси ва ўзлигига ҳурматни уйғотмасликдан келиб чиқади. Сабаби инсони ўзини борича, Аллоҳ яратган хилқатда қабул қила олса, шукроналик руҳиятида бўлса, турли ноўрин, бекорчи ҳаёллар уни безовта қилмайди, ўзини бундай хатолардан асраб қолади.

Бугунги кунда долзарб мавзулардан бирига айланган “жинсий тарбия” фанини мактабларга дарс соати сифатида киритиш ҳақидаги мулоҳазалар халқимизнинг аксарият қисми томонидан салбий кутиб олинди. Лекин, бизнингча, “жинсий тарбия” аслида нафақат эр-хотин муносабатларини, балки йигитларда ўғил болаларга хос, қизларда қиз болаларга мос миллий ва диний фазилатларни шакллантириш асосидир. Ва бу масала билан энг аввало, оилада ота ва она шуғулланиши даркор. Чунки балоғатга етиш даврида ўғил болалар ва қизлар айрим “нозик” саволларга жавоб топишда қийналадилар. Ота-она ва фарзанд ўртасидаги гўёки уят деб номланувчи девор, ўсмирларни қизиқтирган саволларига оиладан эмас, балки ижтимоий тармоқлардан жавоб излашга олиб келади. Сир эмаски, ижтимоий тармоқларда доим ҳам фойдали ва тиббий-тарбиявий ўлчовларга жавоб бера оладиган маълумотлар жойлаштирилмайди. Ўсмир ёшлар оилада ўзларига керакли билим ва кўникмаларни олишлари чекланган экан, демак, ўқув муассасаларида жинсий тарбия масаласидаги саволларга шу соҳа мутахассислари томонидан жавоб олиш, гигиена талабларини

сингдириш, тўғри таҳорат ва ғул қилиш шартларини ўргатишга эътибор қаратиш лозим. Демак, фарзанд ва ота-она муносабатлари фақат бир авлодга тегишли бўлибгина қолмай, балки келажак авлод тарбиясини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этар экан, “жинсий тарбия” масаласи ўз долзарблигини таъкидлаб турибди. Шу боис, ушбу масалага лоқайдлик билан ёндошиш келажакимиз учун катта маънавий хавф солиши мумкин.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. М. “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир”. 2-жилд. “Ўзбекистон” НМИУ. Тошкент – 2018 йил.
2. И. Саифназаров, Ф. Саифназарова “Ёшлар ва оила – Ватан таянчи”. “Та’лим nashriyoti”. Тошкент – 2018 йил.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Кифоя” 3-жуз. “HILOL-NASHR” нашриёти. Тошкент – 2015 йил.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY-SHAXSIY RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR

S.A.Mirzayev

Qarshi davlat universiteti doktranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogik innovatsiyalar haqida qisqacha ma’lumot, ularning amaliyotga tadbiiq etishdagi yo‘l qo‘yilayotgan muammolar haqida atroflicha yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsiya, pedagogik innovatsiya, ishonch, xurmati, aqliy hujum metodi, vesi-tarozi texnologiyasi metodi, kichik guruhlar bilan ishlash.*

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimidagi ko‘zga tashlanayotgan eng quvonarli tomonlardan biri chet davlatlarning dunyo tan olgan ta’lim tizimiga monand yangiliklar, o‘zgarishlar va qo‘shimchalar kiritilayotganligini e’tirof etmaslikning, tan olmaslikning imkoni yo‘q. Zamonaviy innovatsiyalar asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari hamda qo‘shimcha to‘garaklar o‘quvchilarning bilimini yangicha usul va uskunalar yordamida yoritib berayotgani har ikkala tomon (o‘qituvchi va o‘quvchilar) uchun ham foydali ekanligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Hozirda barcha sohalardagi kabi ta’lim, maorif sohasida ham bir qancha innovatsiyalar hayotga tatbiiq etilmoqda. Xo‘sh, innovatsiya o‘zi nima? Innovatsiya - (ingl, "innovation" kiritilgan yangilik, ixtiro) Ilg‘or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo‘llanishi [1] ga aytiladi. Innovatsiya XVII asrning o‘rtalarida vujudga kelgan va ma’lum bir sohaga yangilik kiritish, bu sohada bir qancha o‘zgarishlarning vujudga kelishini anglatadi. Innovatsiya, bir tomondan, yangilik yaratish, amalga oshirish jarayoni bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u umuman sub’ekt emas, balki ma’lum bir ijtimoiy amaliyotga innovatsiyani o‘stirish faoliyatidir. Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya deganda ta’lim va tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllariga yangilik kiritish, o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi. [2] Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy xol, nega biz innovatsion ta’limdan foylanishimiz, pedagogik innovatsiyalarga zamin yaratishimiz kerak? Avvalgi davr allomalari Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher

Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur umuman olib qaraganda hech qaysi davlat arbobi, olim va mutafakkirlarimiz innovatsion ta’limdan foydalanib o‘qishmagan ku vaholanki ularning yozgan asarlari va bildirgan fikrlari hali hanuz dunyoda "hukm surmoqda" Bu savolga jo‘ngina qilib, "bu zamon talabi", - deyishimiz mumkin. Ammo, ushbu savolning javobi deya Xazrati Alining purma‘no so‘zlari ila javob bermoqlik maqbul: " Farzandlaringizni o‘z zamoningiz ta’limotlariga ko‘ra emas, ular tug‘ilgan zamon haqiqatlariga mos tarbiyalanglar" [3].

Shu fikrlarga hamohang ravishda jamiyatimizda bugungi kunda ta’lim tizimiga e’tibor ham yetarli darajada deya olamiz. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq: - O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi bir qancha bandlar pedagogik innovatsiyalarning qanchalik kerak va unga muxtoj ekanligimiz isboti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ammo, bu degani amaliyotda hammasi o‘z o‘rnida va o‘z vaqtida bo‘lishi ta’minlangan degani emas.

Hamma jabhada o‘ziga xos qiyinchiliklar bo‘lgani kabi pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda ham ma’lum darajada to‘siqlarga yuz tutmoqdami. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga qiyinchiliklar bilan tatbiq etilishiga quyidagi omillarni keltirib o‘tishimiz mumkin: Ta’lim tizimida ota-onalar va ustoz o‘rtasida o‘zaro xurmat va ishonch. Otaonalarning aynan o‘qituvchilarga bo‘lgan ishonchi qanchalik mustahkam, xurmati baland va bolaning o‘qish faoliyatiga bo‘lgan e’tibori yuqori bo‘lsa, o‘qituvchilarning ta’lim tizimidagi jonkuyarligi o‘zining samarali natijasini keragidanda avvalroq berishi muqarrar; Pedagoglarga bo‘lgan yuklamalarining kamligi ularda innovatsiya (yangilik)lar yaratishga, hayotga tadbiq etishdagi kuch-g‘ayratini yanada oshirib beradi. Tadbirbozlik, qog‘ozbozlik shular jumlasidandir. (Ular kamaymoqda, ammo batamom chek qo‘yilganicha yo‘q). O‘quvchilardagi hayotga, ilm olishga bo‘lgan ichki qiziqishning yuqoriligi, oldiga qo‘ygan maqsadning aniqligi hamda eng avvalo Vatanga va uning kelajagiga daxldorlik oliy tuyg‘usining shakllantirilmaganligi har qanday innovatsiyaning ham natijasini bermasligiga olib keladi.

- Pedagoglarning ilm olishga harakatining past ekanligi, ijtimoiy hayotdan ortib o‘z ustida ishlamayotganliklari avvalo innovatsiyalar yaratilishiga, mavjudlarining tadbiqi susayishiga sabab bo‘lmoqda.

- Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun, ayniqsa, eksperimental o‘qituvchilar uchun zarur pedagogik kadrlar va moliyaviy resurslarning yetishmasligi;

- Eski dasturlar bo‘yicha ishlashga odatlangan o‘qituvchilar hech narsani o‘zgartirishni, o‘rganishni va rivojlanishni xohlamaydilar. Ular ta’lim tizimidagi barcha yangiliklarga dushman.

-O‘ziga ishonchsizlik, qobiliyatlar, kuchli tomonlar, o‘zini past baholash, o‘z fikrlarini ochiq aytishdan qo‘rqish tufayli ko‘plab o‘qituvchilar ta’lim muassasasidagi har qanday o‘zgarishlarga oxirgi imkoniyatgacha qarshilik ko‘rsatadilar.

-Fikrlashning qattiqligi. Eski maktab o‘qituvchilari o‘zlarining fikrlarini yagona, yakuniy, qayta ko‘rib chiqilmaydigan deb bilishadi. Ular yangi bilim, ko‘nikmalarni egallashga intilmaydilar, zamonaviy ta‘lim muassasalaridagi yangi tendentsiyalarga salbiy munosabatda bo‘lishadi.

Pedagogik innovatsiyalar ma‘lum bir algoritm bo‘yicha amalga oshiriladi. P.I. Pidkasti pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning to‘qqiz bosqichini belgilaydi:

1. Isloh qilinadigan pedagogik tizim holatining mezon apparati va hisoblagichlarini ishlab chiqish. Ushbu bosqichda siz innovatsiyaga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashingiz kerak.

2. Pedagogik tizimni isloh qilish zaruratini maxsus vositalar yordamida aniqlash uchun uning sifatini kompleks tekshirish va baholash. Pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari tekshirilishi kerak. Natijada, eskirgan, samarasiz, mantiqsiz bo‘lgan narsalarni isloh qilish kerakligi aniq belgilanishi kerak.

3. Innovatsiyalarni modellashtirish uchun faol bo‘lgan va foydalanish mumkin bo‘lgan pedagogik yechimlar namunalarini izlash. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar bankini tahlil qilish asosida yangi pedagogik konstruksiyalar yaratish mumkin bo‘lgan materialni topish kerak.

4. Hozirgi pedagogik muammolarga ijodiy yechimni o‘z ichiga olgan ilmiy ishlanmalarni har tomonlama tahlil qilish (Internetdan olingan ma‘lumotlar foydali bo‘lishi mumkin).

5. Pedagogik tizimning yaxlit yoki uning alohida qismlarining innovatsion modelini loyihalash. Innovatsion loyiha an‘anaviy variantlardan farq qiladigan o‘ziga xos ko‘rsatilgan xususiyatlar bilan yaratiladi.

6. Islohotlar integratsiyasini amalga oshirish. Ushbu bosqichda vazifalarni shaxsiylashtirish, mas‘ul shaxslarni, muammolarni hal qilish vositalarini aniqlash va nazorat shakllarini o‘rnatish kerak.

7. Mehnatni o‘zgartirishning mashhur qonunini amalda qo‘llashni ishlab chiqish. Innovatsiyani amaliyotga joriy etishdan oldin uning amaliy ahamiyati va samaradorligini to‘g‘ri hisoblab chiqish zarur.

8. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish algoritmini qurish. Pedagogikada ham xuddi shunday umumlashtirilgan algoritmlar ishlab chiqilgan. Ular yangilanadigan yoki almashtiriladigan sohalarni izlash amaliyotini tahlil qilish, tajriba va ilmiy ma‘lumotlar tahlili asosida innovatsiyalarni modellashtirish, tajriba dasturini ishlab chiqish, uning natijalarini monitoring qilish, zarur tuzatishlar kiritish, yakuniy nazorat kabi harakatlarni o‘z ichiga oladi.

9. Yangi tushunchalarning kasbiy lug‘atiga kirish yoki eski professional lug‘atni qayta ko‘rib chiqish. Uni amaliyotga tatbiq etish uchun terminologiyani ishlab chiqishda ular dialektik mantiq, aks ettirish nazariyasi va boshqalar tamoyillariga amal qiladilar.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash joizki, ba‘zan katta kuchlar, moddiy resurslar, ijtimoiy va intellektual kuchlar keraksiz va hatto zararli o‘zgarishlarga sarflanadi. Bundan kelib chiqadigan zarar tuzatib bo‘lmaydigan bo‘lishi mumkin, shuning uchun sohta pedagogik yangilikka yo‘l qo‘ymaslik kerak. Faqat innovatsion faoliyatga taqlid qiluvchi psevdoinnovatsiyalar sifatida quyidagi misollarni keltirish mumkin: ta‘lim muassasalarining ko‘rsatgichlarini rasman o‘zgartirish; yangilangan eskini tubdan yangi deb ko‘rsatish; mutlaqqa aylanish va har qanday innovatsion o‘qituvchining ijodiy usulini ijodiy qayta ishlashsiz nusxalash va hokazo.

REFERENCES

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent

2. <https://muegn.ru/uz/training/innovacionnye-tehnologii-obrazovaniya-innovacionnye.html> © muegn.ru
3. Baqirmaydigan onalar/ Xadicha Kubro Tongar. Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2021, 240-b
4. PF-5712-coH 29.04.2019. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida <https://lex.uz/ru/docs/-4312785?ONDATE=29.04.2019&action=compare>
5. Pedagogika. Qo‘llanma. Ed P.I. Pidkasisty. - M.: Rossiya pedagogika agentligi, 1995 yil

TECHNOLOGY OF FORMING FOREIGN LANGUAGE GRAMMAR SKILLS

Mirzayeva Nasiba Bakhtiyar qizi

EFL teacher of English Department at Tashkent State University

***Abstract.** The ability to correctly combine words, change phrases depending on what you want to say at the moment is one of the most important conditions for using language as a means of communication. Mastering the grammar of the language being studied is important not only for the formation productive skills in oral and written speech, but also for understanding speech other people when listening and reading. Insufficient level of grammatical skills becomes an insurmountable barrier to formation of not only linguistic, but also speech and sociocultural competencies. With the help of a set of lexical units it is impossible to accurately convey an idea, since lexical units only name an object or phenomenon. The relationships between them are reflected in grammatical meanings. Grammar plays an organizing role.*

***Keywords:** written speech, grammatical meanings, grammatical skills, means of communication.*

The importance of studying the grammar of a foreign language also lies in is that it helps to better understand the grammatical structure of the native language, develops logical thinking, observation, ability to analysis and generalization, i.e. in the process of studying it are realized developmental, educational and educational purposes of training. A system of stereotypes operates in the cerebral cortex, which dictates the rules for organizing words into a coherent whole. System of stereotypes determines the existence of an intuitive, unconscious grammar, which every person carries within himself in his native language. When studying foreign language, it is also necessary to launch the mechanism of stereotyping in based on the selected grammatical minimum, i.e. create an intuitive grammar that would contribute to the organization of speech in a foreign language. Mother tongue is the primary means of life communication, the assimilation of which is naturally motivated, since the native language is acquired in childhood in parallel with adaptation child to the environment. Foreign language is a secondary means communication, the use of which is not dictated by life necessity; mastering a foreign language begins in school age when the main means of communication - the native language - has already been formed, therefore, special efforts are required to induce learning motivation language. The native language is acquired in the natural language environment, from which the child without special efforts, i.e. involuntarily and in a short time, identifies patterns. Mastering a foreign language occurs in educational conditions in an environment alien to him. There is not enough base here for involuntary identification of patterns. Therefore, when mastering special attention to grammar in a school foreign language course should be given to theory and its optimal combination with speech practice, as well as the relationship between the voluntary form of attention and involuntary, i.e. consistent

implementation of the principle consciousness. In the methodology of teaching foreign languages, the method is taken to be considered the way to achieve the goal, but it is used for designations of paths of different scales. The method is called fundamental direction in teaching foreign languages, characterized by certain goals, content and principles teaching (grammar-translation method, direct method, etc.). The grammar-translation method was taught with the aim of developing logical thinking and the ability to read and translate texts.

According to this method, ownership language is mastery of grammar and vocabulary. Process improvement is understood as movement from one grammatical schemes to another. Thus, a teacher planning a course on this method, first thinks about what grammatical patterns he wants to illuminate. Then texts are selected for these topics, from which individual sentences are highlighted and the whole thing ends with a translation. First - from a foreign language to your native one, then - vice versa. Concerning text, usually this is the so-called artificial text, in which practically no importance is given to meaning: it is not so important that you say, it's how you say it that matters. Modern lexico-grammatical methodology is aimed at teaching language as a system. First of all, the four main language skills - not only speaking and listening, but reading and letter. Therefore, students pay much attention to text analysis, writing expositions and essays. Moreover, everyone must understand structure and logic of a foreign language, be able to relate it to the native one, understand their similarities and differences. This is impossible without serious studying grammar and without practicing two-way translation. The history of methods of teaching foreign languages knows numerous and varied attempts to find the most rational method of teaching foreign languages. The oldest method was natural, which was no different from the method by which the child is taught their native language. The principle of consciousness underlies all methods used when mastering grammar; within each method, its own relationship between theory and practice. Application of “pure” theory without its confirmation by concrete facts of the functioning of grammatical phenomena, as well as “pure” practice without its comprehension, are not accepted in mastering grammar in a school foreign language course. Productive grammatical skill means the speaker’s ability to choose a model that is adequate to the speech task, and format it according to the norms of the given language. Speech task there is always a communicative intention to communicate something, about something convince, express an opinion. This or that serves to complete tasks. grammatical form. Therefore, emphasizes E.I. Passes, and should be associatively related to each other grammatical form and speech task.

If such a connection exists, then in the process of productive types of speech activity when a communicative task arises what emerges in consciousness is adequate and necessary at that moment grammatical form. Receptive grammatical skill should be understood as the ability of the reader (listener) to recognize grammatical forms the language being studied and correlate with their meaning. V.M. Filatov gives the following definition of the concepts “grammatical skill” and “grammatical ability”. Grammatical skill is the automated use of grammatical material in productive and receptive speech activity. Grammar skill is the flexible communication abilities of students to use mastered grammatical material when solving more complex communicative tasks in various types of speech activity.

REFERENCE

1. Babansky Yu. K. Teaching methods in modern secondary school. – M.: Education, 1985.
2. Bim I.L. Methods of teaching foreign languages as a science and school textbook problems, 1977.

3. Issues of methods of teaching foreign languages in secondary and Higher school, 1961. – 263 p.
4. Galskova N.D. Modern methods of teaching foreign languages languages, 2000.
5. Izhogina, T.A. How to teach kids to read / T.A. Izhogina // Foreign languages at school. – 1993. – No. 1. – P.49 – 51.
6. Kitaigorodskaya G.A. Intensive training methodology foreign languages. M.: Higher School, 1986.
7. Kolesnikova I., Dolgina O. “English-Russian reference book on methods of teaching foreign languages” - St. Petersburg, 2001. – P.52.
8. Leontiev A. N. Activity, consciousness, personality. – M., 1975.
9. Makhmutov M.I. Modern lesson: Theory issues. M.: Pedagogy, 1981. - 192 p.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

¹Mirzakulov Islomjon Xoljigitovich, ²Shaymuradov Taxir Zamonovich

¹Guliston davlat uniaersiteti o‘qituvchisi

²Guliston davlat uniaersiteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Tasviriy san‘at fanidan o‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ta‘limda ularning mustaqil fikrlash kompetensiyasini oshirishda didaktik materiallarning maqsadga muvofiqligini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Maqolada “Barkamol avlod” bolalar markazlari hamda “Bolalar musiqa va san‘at maktablari”da o‘qiydigan o‘quvchilarning orasidan ham eng iqtidorlilarini aniqlash yo‘llari haqida ham fikirlar kiritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** sinfdan tashkari ishlar, mustaqil fikrlash, kompetensiya.*

Tasviriy san‘atdan sinfdan tashqari ishlar asosan maktab to‘garagi, “Barkamol avlod” bolalar markazlari hamda “Bolalar musiqa va san‘at maktablari” qoshida tashkil etilishi mumkin.

Tasviriy san‘at to‘garaklarida o‘quvchilar uchun qiziqarli va sermazzmun mavzular tanlash o‘quvchilarning tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar va maktablarda olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning o‘zlari qiziqadigan mavzular asosida chizgan rasmlari boshqa mavzularda chizgan rasmlariga qaraganda mazmunliroq va sifatliroq bo‘ladi. Bolalar tomonidan chizilgan bunday rasmlar tasviriy san‘atda narsaning o‘ziga qarab, dekorativ rasm chizish, ayniqsa mavzu asosida rasm chizish mashg‘ulotlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday mavzular qatoriga «Men sevgan qahramon», «Yil fasllari», «Hayvonot bo‘g‘ida», «Sirkda», «Ertaklar olamida» va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilarning futbol, boks, tennis, kurashga oid chizgan rasmlari o‘z mazmuni, kompozitsiyasi va ranglari bilan boshqa mavzularda ishlangan ishlaridan keskin farq qiladi. Bunday bo‘lishi tabiiy albatta, chunki bolalarda sportning bu turlariga bo‘lgan kompetensiya mavjud. Bolalar sport bilan shug‘ullanadilar, bunday o‘yinlarni televizor ekranlarida tez-tez tomosha qiladilar. Natijada o‘yin yoki tomoshadan olgan taassurotlari bolalarning tasavvurida uzoq vaqtgacha yaxshi saqlanib qoladi.

Sport bolalarning kundalik faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun tasviriy faoliyatga samarali ta‘sir ko‘rsatsa, fantastik mavzulardagi obraz va ko‘rinishlar o‘zining originalligi (shakl, rang, mazmun) bilan bolalarda qiziqish orttiradi.

Mavzu asosida rasm chizish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishda qiziqarli mavzular muhim bo‘lsa, narsaning o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida esa natura uchun qiziqarli buyum va predmetlar, drappirovkalar tanlash, ularni chizish uchun kompozitsion jihatdan bog‘liq holda o‘rnatish muhimdir. [5]

Ayniqsa chizdirish uchun turli shakl va hajmdagi buyumlar, turli rangdagi narsalarni qo‘yish yaxshi natijalar beradi. Shuningdek, o‘quvchilarning tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda buyuk rassomlarning hayoti va ijodi, ularning hayotidagi qiziqarli voqealardan so‘zlab berish, slaydlar orqali namoyish etish foydalidir.

Maktablarda olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik o‘qituvchilar dars va darsdan tashqari ishlarda turli xil material va ishlash texnikasini qo‘llashga butunlay e‘tibor bermaydilar. Ma‘lumki, rasm ishlashda faqat rangli qalam va akvarelgina emas, guash, tempera, tush, rangli bo‘rlar, pastel, ko‘mir, flomasterlardan ham keng foydalanish mumkin. Bu ham o‘z o‘rnida bolalarda turli materiallar bilan rasm chiza olish kompetensiyasini rivojlanishiga olib keladi.

Rasm ishlashda turli-tuman qog‘ozlar, gazmol, ip, folga, faner, karton kabi materiallardan foydalanib, applikatsiyalar ishlash ham yaxshi natijalar beradi. Rasm ishlashda tabiiy materiallar hisoblangan qovun, tarvuz, bodring, mosh, loviya, jo‘xori, qovoq urug‘lari, yeryong‘oq, quritilgan barg va gullar, shuningdek, rangli tosh, koshin, yog‘och, oyna parchalari, rangli linoleum, plastmassa, turli yo‘g‘onlik va rangdagi simlardan foydalanish mashg‘ulot mazmunini boyitadi hamda o‘quvchilarning badiiy kompetensiyasining ro‘yobga chiqishiga imkon beradi.

Bugungi kunda maktabdan va sinfdan tashqari ta‘lim –tarbiya ishlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda umumta‘lim maktablari, maktabdan tashqari ta‘lim muassalari, mahalla, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlari, bolalar va yoshlar tuzilmalarining hamkorligini muvofiqlashtirish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Tasviriy san‘at fanidan sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulot shakllariga quyidagilar kiradi:

1. Bolalar musiqa va san‘at maktablari;
2. Barkamol avlod markazi;
3. Maktabda tashkil etilgan tasviriy va amaliy san‘at t o‘graklari va hakozi.

Maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashda ular uchun turli xil ta‘limiy didaktik materiallar, savol va topshiriqlar tayyorlashga alohida ahamiyat berish kerak. Ta‘kidlash joizki, ko‘rgazmali qurollar, ta‘limiy-didaktik materiallarning ta‘lim-tarbiyadagi o‘rni va rolini, ularni tayyorlashga qo‘yiladigan talablarni hamma ham yetarli darajada tushunavermaydi. Didaktik materiallarni o‘xshatish joiz bo‘lsa, darsning masalliqdagi deyish mumkin. Ular darsning qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi, samaradorligini oshiradi. Didaktik materiallar va ko‘rgazmali vositalar o‘quv dasturini (mavzu materialini) o‘quvchilar tomonidan yaxshiroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi, ularda erkin va mustaqil fikrlash, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalar o‘rgatadi. Aslida har qanday darsning maqsadi ham shu. Bejizga “eng yaxshi dars- o‘quvchini mustaqil fikrlashga va ishlashga o‘rgatuvchi dars”, deyilmaydi [4]. Dars kabi uning barcha jihozlari ham ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Demak, ko‘rgazmali qurollar va o‘quv-didaktik materiallar darsda qo‘yilgan maqsadlarga erishishning muhim vositasi hamda omili bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘limiy didaktik materiallar (ishlanmalar) foydalanish maqsadiga ko‘ra ikki yo‘nalishda bo‘lishi mumkin:

Birinchiidan, muayyan bir sinfda davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi asosida o‘rganiladigan mavzulardan dars mashg‘ulotlari uchun;

Ikkinchiidan, darsdan (sinfdan) tashqari tashkil etiladigan mashg‘ulotlar (masalan, to‘garak, iqtidorli va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan qo‘shimcha mashg‘ulotlar, bilimlar bellashuvi va fan olimpiada tanlovlari) uchun, maktabda o‘tkaziladigan turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda foydalanish maqsadida.[3]

Bevosita darslarda foydalanish uchun tayyorlanadigan o‘quv-didaktik ishlanmalar quyidagi talab va tamoyillarga javob berishi zarur:

- ilmiy jihatdan to‘g‘riligi;
 - ta‘limiy va tarbiyaviy (pedagogik) maqsadlarga yo‘naltirilganligi;
 - davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturiga mos bo‘lishi;
 - muayyan sinfdagi o‘quvchilarning yoshi, psixofiziologik darajasiga mosligi;
 - ma‘lumotlar, tasvirlar noaniq va mujmal bo‘lmasligi;
 - shakli, tuzilishi va rangi estetik talablarga mos bo‘lishi;
 - foydalanishga qulay bo‘lishi;
 - mazmuni, bajarish usullariga ko‘ra noodatiy, xilma-xil va qiziqarli bo‘lishi,
- o‘quvchilar faolligini oshirishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

- O‘quvchilarda bilish, anglash, mustaqil fikrlash, mushohada qilish kabi rivojlantiruvchi kompetensiyalarni qo‘zg‘atishi lozim.[2]

Shuni unutmaslik kerakki, o‘quv mashg‘ulotlari uchun tayyorlangan ko‘rgazmali qurollar, texnik vositalar, ta‘limiy didaktik materiallar aslida maqsad emas, balki maqsadga erishishni ta‘minlovchi yordamchi elementlardir. Ular qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar, avvalo dars mavzusi mazmunini ochib berishi, o‘quvchilarda muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishi zarur. Dars mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallar tayyorlash bir tomondan, o‘qituvchidan ma‘lum bir ko‘nikma va malakalarni talab qilsa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi, darsni rejalashtirish, loyihalash, didaktik jihozlash bo‘yicha kasbiy mahoratini, tajribasini oshiradi. O‘quvchilarni esa fanga, o‘rganilayotgan mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Darsni mazmunan boyitib, unga rangbaranglik, maroqlilik baxsh etadi. O‘quvchilarda turli xil iqtidor va fazilatlarini rivojlantiradi. Mashq guruhni jipslantiradi, kayfiyatni ko‘tapadi, qizg‘inlikni tanglikni yumshatadiyu.[1]

Xulosa qilib aytganda, darsdan (sinfdan) tashqari mashg‘ulotlar va tadbirlarda foydalanish maqsadida tayyorlanagan didaktik ishlanmalar ham u yoki bu sinfda fanning o‘quv dasturiga mosligi talabidan tashqari, yuqoridagi talab va tamoyillarga javob berishi lozim. Shu bilan birga o‘quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasining rivojlanishini ta‘minlanishiga erishish ko‘zda tutilishi kerak.

REFERENCES

1. A.Berikbayev “Tasviriy san‘atning nazariy va uslubiy asoslari”. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti, 2023 yil. 175 b.
2. Alikulovich, Berikbaev Alisher. "Development of Professional Competence of the Pedagogue through Visual Means." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 1.9 (2023): 438-442.

3. A.A.Berikbayev “Bo‘lajak tasviriy sanat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish” 13.00.01.Dissertatsiya (PhD) Toshkent.:2023y.
4. Alikulovich, Berikbaev Alisher. "Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts." Annals of the Romanian Society for Cell Biology (2021): 8965-8989
5. Alikulovich, Berikbaev Alisher. "Development of Professional Competence of the Pedagogue through Visual Means." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1.9 (2023): 438-442.

STRATEGIES FOR PROFESSIONAL AND PERSONAL DEVELOPMENT OF FUTURE OFFICERS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Mirpayazova Saodat Zafarovna

senior instructor of the Armed Forces Academy of the Republic of Uzbekistan

***Abstract.** This article explores the challenges and strategies for the professional and personal development of future officers amidst the ongoing digital transformation. The rapid integration of technology into education necessitates a comprehensive approach to teacher training, encompassing both technical skills and pedagogical knowledge. Drawing on current research and best practices, this article proposes development strategies that can help future officers thrive in digital learning environments. These strategies include continuous learning and up skilling, fostering digital literacy, and promoting innovative teaching methodologies. By embracing these strategies, educators can prepare themselves for the demands of 21st-century education and ensure the success of their students in an increasingly digital world.*

***Key words:** professional development, personal development, future teachers, digital transformation, education, technology, pedagogy.*

Introduction

Digital transformation is reshaping the way we live, work, and learn. In the field of education, digital technologies are increasingly being integrated into teaching and learning processes, creating new opportunities and challenges for educators. As future teachers, it is crucial to develop the necessary skills and competencies to effectively use digital tools and resources in their teaching practices.

This article explores strategies for the professional and personal development of future officers in the conditions of digital transformation. In recent years, the field of education has undergone a significant transformation due to the rapid advancement of digital technologies.

The integration of technology into teaching and learning processes has created new opportunities and challenges for educators, particularly for future officers who are preparing to enter the workforce. In this digital age, it is crucial for educators to develop the necessary skills and competencies to effectively leverage technology in their teaching practices.

The field of education is undergoing a significant transformation due to rapid advancements in digital technology. This transformation presents both challenges and opportunities for future teachers, who must be equipped with the necessary skills and competencies to excel in this evolving landscape. As such, there is a growing need to focus on the professional and personal development of future officers to ensure they are well-prepared to meet the demands of modern education [1, 1017 p.].

This includes being able to use educational software, online learning platforms, and digital tools to create engaging and interactive learning experiences. Another important aspect of development is the cultivation of critical thinking and problem-solving skills.

Future officers need to be able to think critically about how to integrate technology into their teaching in a way that enhances student learning. This requires the ability to analyze complex information, evaluate different teaching strategies, and adapt to new technologies as they emerge.

Additionally, future officers must also develop strong communication and collaboration skills. In an increasingly connected world, teachers need to be able to communicate effectively with students, parents, and colleagues, as well as collaborate with other educators to share best practices and resources [2, 3-p.].

To address these challenges, several strategies can be employed to enhance the professional and personal development of future teachers. One strategy is to provide ongoing professional development opportunities that focus on digital literacy, critical thinking, and communication skills. This can include workshops, seminars, and online courses that help teachers stay abreast of the latest developments in education technology.

Another strategy is to encourage collaboration and networking among future teachers. By fostering a sense of community among educators, future officers can learn from each other's experiences and share ideas and resources that can enhance their teaching practices [4].

Development Strategies:

Continuous Learning and Upskilling: Future officers should engage in continuous learning to keep pace with the rapid changes in technology and education. This can include attending workshops, conferences, and online courses to enhance their knowledge and skills.

Fostering Digital Literacy: Educators should develop digital literacy skills to effectively navigate and utilize digital tools in their teaching. This includes understanding how to evaluate and use digital resources, as well as how to teach digital literacy to students [5, 112-p.].

Promoting Innovative Teaching Methodologies: Future officers should be encouraged to explore and implement innovative teaching methodologies that incorporate technology. This can include using gamification, virtual reality, and other digital tools to enhance the learning experience.

Collaborative Learning and Networking: Educators should participate in collaborative learning and networking opportunities to share knowledge and best practices with their peers.

This can include joining professional organizations, participating in online forums, and attending conferences. Collaborative learning with peers and experts in the field can help future officers exchange ideas, share best practices, and learn from each other's experiences.

Online communities and social media platforms can be valuable resources for networking and collaboration.

Importance of Professional and Personal Development:

Professional and personal development is essential for future officers to adapt to the changing demands of the digital age. Developing digital literacy skills, pedagogical competence, and a commitment to lifelong learning are critical for effective teaching in the digital era. Future officers need to be able to use digital technologies confidently and creatively to enhance their teaching practices and engage students in meaningful learning experiences.

Strategies for Professional and Personal Development

Continuous Training: Future officers should engage in continuous training to keep up with the latest trends and developments in educational technology. This can include attending workshops, conferences, and online courses to enhance their digital skills and knowledge.

Reflective Practice: Reflective practice involves critically examining one's teaching practices and identifying areas for improvement.

Future officers should regularly reflect on their use of digital technologies in the classroom and seek feedback from students and colleagues to enhance their teaching effectiveness.

Professional Networks: Building professional networks can provide future officers with access to resources, support, and opportunities for professional growth. Joining professional organizations and participating in online forums can help future officers stay connected with the latest developments in educational technology.

Lifelong Learning: Embracing lifelong learning is essential for future officers to stay relevant in the rapidly evolving field of education. Future officers should be open to new ideas, technologies, and teaching methods, and be willing to adapt their practices to meet the needs of their students [6, 118-p.].

Conclusion

In conclusion, the digital transformation presents both opportunities and challenges for future teachers. By developing digital literacy skills, pedagogical competence, and a commitment to lifelong learning, future officers can effectively integrate technology into their teaching practices and enhance student learning outcomes.

The strategies discussed in this article, such as continuous training, collaboration, reflective practice, and building professional networks, can support the professional and personal development of future officers in the conditions of digital transformation.

REFERENCES

1. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017-1054.
2. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3-10.
3. Means B., Toyama Y., Murphy R., Bakia M., Jones K. (2009). Evaluation of evidence-based practices in online learning: A meta-analysis and review of online learning studies. US Department of Education.
4. Fullan, M. (2016). *The new meaning of educational change*. Teachers College Press.
5. Navaridas-Nalda F. et al. The strategic influence of school principal leadership in the digital transformation of schools // *Computers in Human Behavior*. – 2020. – T. 112. – C. 106481.
6. Goulart V. G., Liboni L. B., Cezarino L. O. Balancing skills in the digital transformation era: The future of jobs and the role of higher education // *Industry and Higher Education*. – 2022. – T. 36. – №. 2. – C. 118-127.
7. Ahmedova B. (2023). The role and significance of distance education in the digitalized economy. *Science and technology in the modern world*, 2(8), 63-73.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TALABA-YOSHLAR EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Murtozayeva Mahfuza Murtozayevna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, pedagogika fanlari doktori, dotsent

***Annotatsiya.** Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida talaba-yoshlar ekologik kompetentlikni rivojlantirish va ekologik vaziyatlarni taqqoslashga oid ma’lumotlarning tahlillariga oid samarali tendensiyalar yoritilgan.*


***Kalit so‘zlar:** globallashuv, ekologiya, kompetentlik, ta’lim, islohotlar, tabiiy muhit, texnogen falokat, anropogen faoliyat, texnologik sharoit.*

Ijtimoiy jamiyat hayotida keng ravishda va juda tez sur’atlar o‘zgarib borayotgan kasbiy transformatsiyalar ishlab chiqarish, makro va mikroiqtisodiyotdagi tub o‘zgarishlarni, mehnat bozorida innovatsion talablarni o‘z vaqtida ilg‘ab, ularga yangi avlodlarni mutanosib yo‘naltirishni taqozo etadi [1].

Mazkur holat aslida ijtimoiy jamiyatning istiqboli yuqori texnologik taraqqiyot va bo‘lajak mutaxassislarining ekologik kompetentligini rivojlantirishni ta’minlash deganidir. O‘zbekiston ta’lim jabhalarida islohotlarni amalga oshirishda tabiiy muhitga salbiy ta’sir etuvchi sabablarni, ya’ni inson faoliyatining hozirgi davrdagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga alohida e’tibor berildi. Globallashuv davrida insonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faoliyatining samarali natijasi muqobil, ijobiy ekologik vaziyatda amalga oshishi mumkin. Mamlakatimizda insonning ekologik toza va talablarga javob beradigan texnologik sharoitida faoliyat yuritishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bo‘lajak pedagoglarni ekologik vaziyatga doir taqqoslash ma’lumotlari bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir. Ekologlarning ma’lumotlariga qaraganda dunyoda 2,1 mlrd. kishi toza ichimlik suvga ega emas [5, 204-205-b.].

Tadqiqotlar natijalaridan ma’lumki, rivojlanayotgan davlatlar aholisi orasida uchrayotgan kasalliklarning 10,0% ichimlik suvining ifloslanishi yoki uning etishmasligi oqibatida vujudga kelmoqda. Bunday ekologik muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq joylari aholisi orasida ko‘proq sodir bo‘layapti, chunki ularning 29,0% toza ichimlik suvi ichmaydi, 62% aholining turmush sharoiti sanitariya holati talablariga javob bermaydi [4, 255-b.]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlarining bayonotida er sharida odamlar orasida sodir bo‘layotgan kasalliklarning 25-30,0% ekologik ahvolning chigallashuvi bilan bog‘liqdir (1-rasm)..



1-rasm. Ekologik vaziyatlarni taqqoslashga oid ma’lumotlar


Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, insonning tabiatga nisbatan antropogen faoliyati natijasida hududlar ekologiyasiga salbiy ta’siri muntazam oshib borayapti. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi kamchiliklar ekologik halokatlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Turli texnogen falokatlar soni ko‘paymoqda. Insonlar ekologik farovonligini yaxshilash zaruriyati, atrof-muhitni asrashi va unga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish muhimligi belgilandi. Hozirgi ekologik vaziyat uning genofondiga salbiy ta’siri kuchayib borayotganligini ko‘rsatmoqda, ya’ni iste’mol tovarlari tarkibida konsragen moddalarning ko‘payganligi ham inson faoliyatiga salbiy ta’sir qilayapti.

Bo‘lajak pedagoglar ekologik kompetentligining rivojlanishi ta’limiy mexanizmlar bilan hamohangdir. Jamiyat barqaror taraqqiyotiga xalaqit beradigan faktorlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ozon qatlamining emirilishi, o‘rmonlarning kamayishi, sahrolar hajmining kengayib ketayotganligi, tuproq eroziyasi, sho‘rlanishi va er hosildorligining pasayishi, suv resurslarining ifloslanishi, okean suvlarining ko‘tarilishi, bioxilma-xillikning kamayib ketishi va atmosferada parnik gazlar konsentratsiyasining o‘sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bo‘lajak pedagoglar bunday oqibatlarni tahlil qilishi, mazmuni, mohiyatiga tushunib olishlari umumiy bilim saviyasini, ekologik tayyorgarligini oshiradi. O‘zbekistonda uzluksiz ta’limdagi islohotlar natijasida mavjud ekologik ahvolni yaxshilash uchun qator ishlar va tadbirlar amalga oshirildi. Xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Shu jumladan, bo‘lajak pedagoglarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy, amaliy jihatlari, mazmuni va mohiyatini ilmiy asoslashga alohida ahamiyat berildi.

Mamlakatimizda ta’limni modernizatsiyalash orqali tabiat-inson-jamiyat munosabatlarining uyg‘unlashuvini ta’minlash uchun chora-tadbirlar belgilandi. Bu o‘z navbatida bo‘lajak pedagoglar ekologik kompetentligini rivojlantirishda muhim faktorlar vazifasini bajaradi. Yurtimizda ekologik ahvolning yaxshilanishi va insonlar sog‘ligining mustahkamlanishida, yoshlarda ekologik tarbiyalanganlik, ekologik kompetentlikni rivojlantirishda fizkultura va sport sohalari ham o‘z ifodasini topdi. Natijada mamlakatimizda 2005-2011 yillarda sog‘lom bolalarning soni 52,7%dan 62,9%ga o‘sdi, surunkali kasalliklar bilan og‘riganlar soni sezilarli darajada kamaydi. O‘zbekiston Respublikasi 2011 yilda xalqaro “Bolalarni qutqarish” tashkilotining tuzgan reytingiga binoan bolalar sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilayotgan mamlakatlar orasida birinchi o‘nlikdan joy oldi. 2004-2011 yillarda 1500 zamonaviy bolalar sport inshootlari ishga tushirildi [3, 7-b.].

Bo‘lajak pedagoglarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning muhim jihatlaridan yana biri yurtimiz ekologiyasining global ekologik holatlardagi qiyinchiliklar, jumladan, ichimlik suvining tanqisligi, iqlim isishi, erning eroziyaga uchrashi, atmosfera havosi, suv resurslarining transchegaraviy ifloslanayotganligi bilan bog‘liq muammolarga o‘z shaxsiy munosabatini bildirishida ham namoyon bo‘ladi. Ekologik masalalar majmuasining o‘ziga xos xususiyatlari, global mazmundagi ekologik masalalarning vujudga kelishi va hal qilinish tizimini yaratish bilan birga tilga olinmoqda [2, 4-b.]. Bular sirasiga er resurslari sho‘rlanishi, tuproq eroziyasi, o‘simlik va hayvonot dunyosining yo‘qolib borishi va maishiy chiqindilarning ko‘payish muammolari kiradi. Jumladan, Orol dengizi va Orol bo‘yi ijtimoiy masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va boshqa qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda hal qilish muammosi sifatida ko‘tarildi (2-rasm).

**Sirdayo havzasi bo‘yicha daryo oqimi o‘rtacha ko‘p yillik resurslar yiliga tahminan
38,8 km³ ni tashkil qiladi**



2-rasm. O‘rta Osiyo mamlakatlarida ichimlik suvi tanqisligining oshib borishi

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida mavjud tabiiy suv resurslaridan unumli foydalanish, uni avaylab-asrash muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Amudaryo havzasi bo‘yicha daryo oqimi o‘rtacha ko‘p yillik resurslari yiliga 78 km³dan ortiqni tashkil qiladi, shundan 62,9 km³ (90%dan ortig‘i) [4, 255-b.]. Tojikistonda rivojlanadi, O‘zbekiston ulushiga 4,7 km³ (7%) to‘g‘ri keladi. Shunga qaramasdan bizga qo‘shni bo‘lgan davlatlar, ya‘ni Qirg‘iziston Respublikasi tomonidan Norin daryosiga Qambarota elektrostansiyasining qurilishi, Tojikiston Respublikasi tomonidan Amudaryoning yuqori qismida Rogun elektrostansiyasini barpo etishga kirishilganligi mavjud ekologik muvozanatga salbiy ta‘sir qiladi.

“Bugungi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi 82,5%ga, tabiiy gaz bilan ta‘minlash esa 83,5%ga etdi, sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o‘ta og‘ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat‘iy choralar ko‘rildi” [4, 255-b.]. Ekologik muammolarning hal qilinishi, umumiy ekologik ahvolning yaxshilanayotganligi natijasida aholining umumiy umri uzaydi. O‘zbekistonda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1995 yilga nisbatan 4,6 yilga oshdi va 2022 yilga kelib 74,8 yoshni tashkil etdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yillik muammolariga bag‘ishlangan anjumanida jahon hamjamiyatining diqqati global masshtabdagi Orol dengizi qurishi munosabati bilan vujudga kelgan ekologik muammoga qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan

ekologik masalalar bo‘yicha 35 dan ortiq qonunlar, 350 dan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, qarorlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi. Shu munosabat bilan alohida qayd etish lozimki, mintaqamizdagi ekologik muammolarning hal qilinishida Davlat tashkilotlarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda ekologik muvozanatni nazorat qilish, mavjud tabiiy resurslarni qo‘riqlash va ulardan unumli foydalanishda O‘zbekiston Respublikasida faqat mustaqillik yillaridagina mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik siyosat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bo‘lajak pedagoglarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan yana bir manba, ekolog mutaxassislarining ilmiy kuzatuv natijalarini tahlil qilib borishdir.

Talaba-yoshlarga mamlakatimizdagi barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada keng miqyosda olib borish, ijtimoiy jamiyatimizni rivojlantirish, ayniqsa ularning bilim olish, o‘z ish joyiga, mulkiga ega bo‘lish huquqlarini himoya qilish bo‘yicha olib borilayotgan sa‘y-harakatlarning amaliyotdagi ifodasini aks ettirish maqsadga muvofiq. Muammoning echimiga bunday yondashuv oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil vazifasini bajaradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-uy 11-sentabrdagi 721-sonli “Innovatsion faoliyatni yanada qo‘llab quvvatlash shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Alixonov B. Ekologik ta‘lim – atrof-muhit musaffoligining asosiy omili// Fuqarolik jamiyati, 2018 № 1(53)-son, B. 4-6.
3. Mustafoev S. Ekologik tarbiya – milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ajralmas qismi // Fuqarolik jamiyati, 2018 № 1(53)-son, – B.7-10.
4. Murtozayeva M.M. Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglar ekologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDPU, 2022 y. – 255 b.
5. Sherqo‘zieva G.F. va boshq. Ichimlik suvining bakteriologik ko‘rsatkichlarini gigienik baholash. Zamonaviy infektologiya: yuqumli ichak, virusli va parazitlar kasalliklarning davolashiga zamonaviy yondashuv. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. TTA Urganch filiali, 2016 y. 204-205 b.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARNING RIVOJLANISH SHARTLARI

Muxidova Olima Nurilloevna

T.N.Qori Niyoziy nomli O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalarining texnologik ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda transversal kompetensiyalarning rivojlanish shartlariga diqqat qaratadi. Transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy uslubiy yondashuvlari va texnologiyalarini tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirish zarur samaradorlikni ta‘minlash uchun aniq didaktik tamoyillar va shartlarga rioya qilishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi va malakasi bilan bog‘liqdir.*

***Kalit so‘zlar:** kompetensiya, transversal kompetensiya, kognitiv qobiliyatlar, mustaqillik va ijodkorlik, induksiya, deduksiya.*

Bugungi kunda ta'lim jarayonida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Transversal kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish nafaqat idrok etish, balki malakaga aylanishi shart bo'lgan ko'nikma va odatlar ko'rinishidagi bilimlarni amalga oshirishning texnologik sxemalari va modellarini ishlab chiqish bilan bog'liq yondashuvlarni izlashga rahbarlik qiladi. Bu kompetensiyalarning talabaga yo'naltirilgan bo'lishi yetarli emas. Aksincha, ular talaba markaziy rol o'ynaydigan mavzuga yo'naltirilgan ta'lim muhitida rivojlanishi kerak [1, 39-b.].

Talabalarining transversal kompetensiyalarini rivojlantirish kognitiv qobiliyatlarni o'rganish va ko'nikma darajasida ishlab chiqilgan bilimlarni sharhlash uchun foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Bu jarayon muammoga yo'naltirilganlik, mustaqillik va ijodkorlikni ta'minlash uchun shart-sharoitlarni talab qiladi. O'qitishda aniqlikdan mavhumga va mavhumdan yangi aniqlikka uzluksiz o'tishlar amalga oshiriladi. Umuman bilimlar tizimini o'zlashtirish kognitiv jarayon bo'lib, modellarining uzluksiz dizayni bilan tavsiflanadi, bu orqali talabalar aniqlikdan mavhumga va aksincha, tinimsiz o'tish jarayonida ma'lumotlarni kodlaydi, qayta kodlaydi va dekodlaydi. Bu esa transversal kompetensiyalarni rivojlantirish shartlaridan biri sifatida mantiqiy usullarni – tahlil, sintez, induksiya, deduksiyani model metodi bilan birgalikda ataylab qo'llashni taqozo etadi [2, 330-b.].

Ta'limdagi kognitiv faoliyat ma'lum bir mavzuning vositalari va resurslariga asoslanadi, ular "parchalanish" ni, ya'ni o'quv kognitiv vazifalari va muammolarini hal qilishda fikrlash jarayonlarini ochishni ta'minlash uchun tanlanishi kerak. Kognitiv vazifalar transversal kompetensiyalar asosidagi ko'nikmalarni rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. [3, 260-b.].

Shuning uchun ham o'quv jarayonining o'zi kognitiv vazifalarni hal qilish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Ushbu tartib, shuningdek, o'quv kognitiv vazifalarni hal qilishga asoslangan o'quv vaziyatlari ketma-ketligi sifatida konstruktivistik vaziyatli o'qitish modelining asosi hisoblanadi, undan keyin yuqori qiyinchilikdagi vazifalar. Bu tegishli transversal kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun kognitiv ta'lim vazifalari tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Shunday qilib, ta'limda kognitiv modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar guruhlari ishlab chiqilgan:

- 1) modellashtirish vazifalari;
- 2) ma'lumotni bir turdagi modeldan boshqasiga qayta kodlash vazifalari;
- 3) belgilovchi munosabatlarni modellashtirish uchun tasniflash vazifalari;
- 4) abstraksiyalarni taqqoslash va modellashtirish uchun topshiriqlar;
- 5) turlarini modellashtirish uchun umumlashtirish vazifalari;
- 6) baholash vazifalari va sabab-oqibat munosabatlarni modellashtirish vazifalari [3, 331-332-b.].

Shu asosda kognitiv vaziyatlarni yaratish zarurati bilan bog'liq bo'lgan, transversal kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradigan navbatdagi shartni olish mumkin. Bu kognitiv ma'lumotni ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ma'noni o'rnatishga hissa qo'shadigan tarzda tuzilishi bilan bog'liq yangi talabni qo'yadi [5, 254-b.].

Transversal kompetensiyalarni rivojlantirish shartlarini tahlil qilishda atrof-muhit rolining konstruktivistik kontseptsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. O'quv vazifalari kontekstual ma'noga ega, ya'ni ular haqiqiy muammolar bilan bog'liq. O'quv muhiti kognitiv faoliyatning samaradorligi va zarurligini baholash uchun sharoit yaratish uchun haqiqatning tabiiy murakkabligini taqdim etishi kerak. Bularning barchasi konstruktivizmga xos

shartlarga rioya qilishni taqozo etadi va I. Ivanov [6, 155-b.] tomonidan quyidagicha umumlashtiriladi.

- talabalarni savol berishga, farazlar qilishga va ularning to‘g‘riligini tekshirishga undash kerak;
- ichki kognitiv ziddiyat yoki ikkilanishni keltirib chiqarish uchun talabalarning g‘oyalari va tajribasiga qarshi turish kerak;
- talabalarning xatolarini fikrlash va tushunishni qo‘zg‘atish uchun ijobiy imkoniyatlar sifatida ko‘rish kerak;
- muhit muloqot, faoliyat va mulohaza yuritish uchun yetarli imkoniyatlarni ta‘minlashi kerak.

Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchi quyidagilarni bajarishi kerak:

- talabalarni ularning oldingi tushunchalari va bilimlariga zid bo‘lgan tajriba orttirishga jalb qilish;
- dars davomida talabalarning javoblari, tashabbuslari va qiziqishlariga imkon berish;
- savollar, mulohaza yuritish va muhokama qilishni rag‘batlantirish;
- vazifalarni belgilashda “tasniflash”, “tahlil qilish”, “loyihalash”, “modellash” tipidagi kognitiv terminologiyadan foydalanish;
- vaziyat ustidan nazoratni yo‘qotmagan holda talabalarning mustaqilligi va tashabbusini rag‘batlantirish va qabul qilish;
- didaktik (interaktiv, moslashtirilgan) materiallar bilan bir qatorda dastlabki ma‘lumotlar va manbalardan foydalanish;
- muqobil axborot manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish;
- talabalarni vaziyatlarning sabab-oqibatli tushuntirishlarini izlashga va ularning natijalarini bashorat qilishga undash;
- o‘z-o‘zini tahlil qilish, bahslashish, fikr va g‘oyalarni rivojlantirish (o‘zgartirish) ni rag‘batlantirish;
- mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish va talabalarga ular hal qiladigan muammolarni aniqlashga yordam berish [6, 156-b.].

Yuqoridagi tahlil transversal kompetensiyalarni rivojlantirish shartlari va tegishli muhitga qo‘yiladigan talablarni faoliyat kontekstidagi material (o‘rganish mazmuni), ijtimoiy-psixologik (ijtimoiy-psixologik iqlim, qulaylik, ijodkorlik va jamoaviy ish), psixologik (qiziqishlar, rag‘batlantirish, harakatga tayyorlik va tayyorgarlik) va pedagogik (samaradorlik, moslashuvchanlik va bajarish) sharoitlar o‘rtasidagi integratsiya sifatida sinergik tarzda ko‘rib chiqish uchun asos beradi [7, 15-b.].

Ta‘lim, har qanday inson faoliyati kabi, tuzilishi o‘zaro bog‘liq elementlarni o‘z ichiga olgan murakkab tizim bo‘lib, uning genezisi (vujudga kelishi) va rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiradi. Kognitiv faoliyatning tuzilishi uning elementlari sifatida ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, vazifalar, harakatlar, operatsiyalar, vaziyatlar va shartlarni o‘z ichiga oladi. Transversal kompetensiyalarni rivojlantirish muammosiga bunday yondashuv umumiy jarayonning asosiy bosqichlarini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

REFERENCES

1. Muxidova O. N. (2023). Ta‘lim tizimida transversal kompetensiyaning ahamiyati. Pedagogik mahorat 3-son, 38-41.

2. Mukhidova O. N. (2023) The importance of transversal competencies in the training of future teachers (2023) Science and innovation 2 (B3), 328-332
3. Kuysinov O.A. (2018) Developing Professional-Pedagogical Creativity of Future Professional Education Teachers based on Competencial Approach. Eastern European Scientific Journal №4. pp.257-263.
4. Tsankov, N. (2012). Educational and cognitive tasks for the formation and development of competence for modelling in Chemistry and Environmental Sciences. Chemistry: Bulgarian Journal of Science Education, 21 (3), 327-340, (In Bulgarian).
5. Kuysinov O.A. (2018) Some Aspects of Modular Educational Technologies Forming Professional Competence of Future Teachers. Eastern European Scientific Journal №4. 251-257.
6. Ivanov, I. (2004) Theories of education. Shumen, (In Bulgarian).
7. Muxidova O. N. (2023). Oliy ta‘lim muassasalarida transversal kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari. “Xalq ta‘limi” jurnali. 3-son, 14-16.
8. Kuysinov O.A. (2021) Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency. Actual problems of modern science, education and training. Electronic Journal. 4-8
9. Muxidova O. N. (2023). O‘qituvchining transversal kompetensiyasi - uning kasbiy va shaxsiy sifatlarining namoyandasi sifatida. “Ta‘lim, fan va innovatsiya” jurnali 3-son, 300-302.
10. Мухидова О.Н. (2023). Значение трансверсальных компетенций в подготовке будущих учителей. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. Материалы международной научно-практической конференции. 242-248
11. Muxidova O. N. (2023). Talabalarni o‘qitish jarayonida transversal kompetensiyalarning zaruriyati. “Uzluksiz ta‘lim tizimida tabiiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 122-124.

ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В 7-Х КЛАССАХ СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ СОГДИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Норбобоев Маъруфджон Олимович

старший преподаватель ГОУ “ХГУ имени академика Б.Гафурова”,
г. Худжанд, Республика Таджикистан

***Аннотация.** В данной статье рассмотрена методика преподавания информационных технологий в 7-х классах средних общеобразовательных учреждений Согдийской области.*

***Ключевые слова:** преподавание, методика, обучение, информационные технологии, средние общеобразовательные учреждения Согдийской области.*

Современные технологии все больше проникают в образование, влияют на преподавание и изучение различных дисциплин, методик и всего процесса образования – формируется качественно более сильный новый этап компьютеризации школы.

Одним из приоритетных направлений развития учащихся является организация эффективного использования ими компьютерных технологий и интернета. Происходит

интеграция информационных технологий во все уровни учебно-воспитательного процесса с целью улучшения общего среднего образования и профессиональной подготовки в системе образования.

На базе действующих общеобразовательных школ Согдийской области поэтапно создаются специализированные школы с углубленным изучением информатики и информационных технологий. Кроме того, предмет «Информационные технологии» в 7-классах Согдийской области будет интегрирован с учебными программами проекта «Один миллион программистов». Учащиеся, как и преподаватели, должны осознать преимущество использования современных технологий в процессе обучения, поскольку намечен прорыв информационных технологий в преподавании некоторых предметов. При реализации этих положений одной из основных работ является интенсивное развитие возможностей информационных технологий в общеобразовательных школах, а именно в 7 классах Согдийской области.

Ведь стремительное проникновение компьютеров и компьютерных технологий в общие средние школы вынуждает пересмотреть ранее подготовленные учебные планы и образовательные стандарты.

По данным международных и национальных исследований, учащиеся 7 классов большую часть времени проводят за компьютером. Возникает необходимость принятия соответствующих мер, которые позволили бы включить информационные технологии во все возможные этапы образования с целью формирования качественно нового этапа преподавания и обучения.

Сравнительное исследование развития информационных технологий в общих средних школах, предложенное ЮНЕСКО, показывает, что школы находятся в процессе передачи между применяемыми и внедряемыми подходами. Первый из них связан со школами, в которых сложилось новое понимание вклада информационных технологий в обучение.

Диффузионный подход связан со школами, которые используют целый ряд компьютерных технологий, учителя исследуют новые способы, с помощью которых информационные технологии изменяют их личную продуктивность, учебная программа начинает объединять предметные области, чтобы отразить реальные приложения. Здесь весьма важно умение использовать инструменты информационных технологий для достижения той или иной цели. Этот этап связан с внедрением и трансформацией подходов к развитию информационных технологий. Естественно, что регулярный пересмотр учебных программ по информационным технологиям в формировании модели обучения жизни в школе будет способствовать переходу к целостному общему среднему образованию. Вот почему одной из главных задач, поставленных в стратегии внедрения информационных технологий в средние общеобразовательные учреждения, является обучение учащихся 7 классов Согдийской области использованию информационных технологий. Эта задача становится естественной и важной для совершенствования и модернизации всего образования. Задача идет еще дальше: информационные технологии должны все глубже проникать в образовательный процесс и становиться неотъемлемой частью содержания образования.

Интернет и использование мобильной связи стали повседневными инструментами. Важно создать условия для того, чтобы учащиеся удовлетворяли свои современные потребности в обучении и самообразовании. Необходимо стремиться к тому, чтобы

ученики 7 классов могли развивать свои информационные навыки и находить материал, пригодный для разностороннего обучения, чтобы учителя советовали, что и как использовать, соотносили бы академические знания с интересами учащихся и социальными потребностями.

Как отмечается в рекомендациях ЮНЕСКО, содержание информационных технологий в средних общеобразовательных учреждениях играет чрезвычайно важную роль. При этом основные компетенции рассматриваются как сочетание чтения, письма и арифметики, а также поиск чего-то фундаментального и необходимого. Курс информационных технологий состоит из трех основных частей: поиск информации, обработка текста и работа с числовыми данными. Эти три вопроса актуальны везде и для всех.

Следовательно, именно эти вещи должны составлять основную часть школьного курса информатики, обязательного для учащихся 7 классов. К тому же, одним из важнейших стратегических направлений модернизации образования в Республике Таджикистан является внедрение в учебный процесс новых средств информационных и коммуникационных технологий, обеспечивающих условия для становления образования нового типа, отвечающего потребностям развития и саморазвития личности в новой социокультурной ситуации.

Информатизация общества, создание и использование компьютерной технологии для обучения учащихся 7 классов, появление инновационных форм обучения, адекватных целям развития участников образовательного процесса приводит к изменению уровня подготовки учителя и повышению его компетентности, а также совершенствованию содержания, форм и методов его педагогического мастерства к применению компьютерных технологий, особенно, на основном этапе обучения учащихся 7 классов.

Сегодня именно образование является одной из первых областей информатизации общества, призванной формировать новую информационную культуру ученика – личности, умеющей работать в условиях внедрения информационных технологий, информатизации всех сфер деятельности школьника. В этой связи особую роль играют учителя средних общеобразовательных учреждений, которые должны подготовить учащихся 7 классов к изучению постоянно усложняющегося курса информатики, оказать им помощь в процессе социализации. Ведь профессия учителя относится к такому роду профессиональной деятельности, которая в отличие от других профессий требует профессионального образования и систематического повышения знаний, совершенствования практических умений. Однако, изучение вопроса о том, насколько соответствуют учителя школ основному роду занятий, показало, что часть учителей информатики общеобразовательных школ, в особенности, основных школах области, не осведомлены об актуальных проблемах информационного общества; недостаточно владеют инновационными процессами в школе, новыми информационными технологиями в стране.

Новые целевые установки образования основываются на приоритете человеческой личности, развитие которой должно стать главной ценностью и важнейшим результатом образования. Эти новые ориентиры системы образования проявляются в различных направлениях ее развития: в появлении форм альтернативного обучения, разработке новых подходов к формированию содержания образования на основе вариативных программ, создании новой информационно-образовательной среды и т.д. В таких условиях вопрос

совершенствования содержания методической подготовки учителя получает все большую актуальность.

Перечисленные факторы подтверждают необходимость совершенствования содержания и форм обучения учащихся 7 классов, пересмотра существующих технологий обучения. Кроме того, современные подходы к содержанию и форм обучения информационных технологий по-новому ставят вопрос о профессиональных компетенциях и критериях готовности личности к будущей педагогической деятельности.

REFERENCES

1. Юсупова Ф.А. Совершенствование подготовки будущего учителя информатики к оптимизации содержания и выбору форм обучения в общеобразовательной школе Республики Таджикистан: Дис. ... канд. пед. наук. – Душанбе, 2013. – 183 с.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-prepodavaniya-informatiki-v-sredneobrazovatelnoy-shkole>

KIMYO DARSLARIDA 4K KOMPETENSIYALARDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

¹Nurmurodova Munisa Azamat qizi, ²Sh.H.Raxmatilloeva

¹Buxoro davlat pedagogika institute Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, ²Buxoro davlat pedagogika instituti, Kimyo yo‘nalishi 3-kurs talabasi

¹Email: munisa.nurmurodovaa@gmail.com, ²Email: shahkzoda3644@gmail.com

¹Tel: +998 (93) 083-80-30, ²Tel: +998 (99) 456-36-44

Annotatsiya, Ta’limda o‘quv laboratoriya xonalarida o‘quvchilarga kimyoviy tajribalarni o‘tkazishda kompetensiyasining tuzilmaviy komponentlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fanda kimyoviy birikmalarni o‘quvchilarga yanada tushunarli va chuqurroq o‘rgatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, fanga bo‘lgan qiziqishni oshirishdan iboratdir.

***Kalit so‘zlar:** Texnologik innovatsiya, pedagogik innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim, dizayn va tadqiqot faoliyati, o‘yin texnologiyalari, elektron ko‘rgazmalar.*

***Аннотация.** В образовании использование современных информационных технологий при преподавании химических соединений в науке учащимся в более понятной и глубокой форме, информирование учащихся о структурных компетенциях компетентности в проведении химических экспериментов в учебных лабораторных кабинетах, к науке является повысить интерес.*

***Ключевые слова:** Технологические инновации, педагогические инновации, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), студенческо-ориентированное образование, проектно-исследовательская деятельность, игровые технологии, электронные выставки.*

Ta’limda maktab o‘quv laboratoriya xonalarida o‘quvchilarga tajribalarni kompetensiyaviy usullar doirasida mavzularni tushuntirib berish. Qolaversa o‘quvchilarning kimyo fanidan qiziqishini uyg‘otish to‘g‘risidagi metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari

asosida o‘quvchilarga 3D hamda 4K ko‘rinishdagi modellar asosida ularga birikmalarning tuzilishini ko‘rsatish to‘g‘risida fikrlar keltirilgan.

Boshlang‘ich ta‘lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e‘tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida «o‘quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta‘lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma‘rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogika oliy ta‘lim muassasalari (OTM)da “Kimyo” (bakalavriat) yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarning “Umumiy kimyo” kursini o‘qish jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarning umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi kimyosi mazmunidagi laboratoriya ishlari va eksperimentlarni mustaqil ravishda o‘tkazish, ularni amalga oshirishga ijodiy yondashishlarida ayrim kasbiy muammolar sezilmoqda. Ushbu muammolarning tahlili, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining laboratoriya mashg‘ulotlarini mustaqil o‘tkazish tayyorgarligi, ko‘nikma va malakalari yuqori darajada emasligini namoyon etmoqda. Bundan umumta‘lim, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi muassasalarida kimyo fanini o‘qitish jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlarini yuqori darajada olib borish uchun talabalar bilan individual ishlash muhimligi kelib chiqadi.

Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e‘tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz.

Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovasion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida yuqori samara bera olmaydi. Chunki laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, avvalo, o‘quvchilarning shu fandan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, turli sifat va miqdoriy reaksiyalarning rang va miqdor o‘zgarishi bilan borishi, cho‘kma tushishi va gaz ajralishi bilan boradigan tajribalarni ko‘rganda va bajargandagina to‘laroq tushunadi. Kimyoviy eksperiment nafaqat o‘quvchilarda uni o‘tkazishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, balki o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarning haqqoniyligini asoslab beradi. Shuning uchun kimyo amaliy mashg‘ulotlarini axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib tashkil qilish bir qancha afzalliklarga ega.

Kollaboratsiya – darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik – darsliklar o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar,

innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Amaliyotda AKTdan foydalanishning afzalliklarini kimyo darslarida va darsdan tashqari ishlarda faol o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin. Shuning uchun, kimyo ta‘limida videodarslarning quyidagi afzalliklari mavjud, masalan:

- maktab kimyo laboratoriyasida mavjud bo‘lmagan eksperimentlarni ko‘rish;
- masofaviy seminarlar va laboratoriya ishlari, shu jumladan cheklangan imkoniyatlarga ega bolalar va hududiy masofaviy maktab o‘quvchilari bilan o‘zaro aloqalar;
- ish tezligi, reagentlarni tejash;
- maktab o‘quvchilarining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish.
- har bir darsdan oldin barcha o‘rnatishni qayta to‘plashning hojati yo‘q, asboblarni tekshirish uchun vaqt sarflash, ularni joyiga qo‘yish;
- xavfsizlik texnikasi normal sharoitdan ko‘ra ancha yuqori;
- qisqa vaqt ichida turli xil bir nechta eksperimentlar ko‘rishingiz, so‘ngra natijalarni umumlashtirishingiz va xulosalar chiqarishingiz mumkin;
- namoyish vaqtini sekinlashtirish yoki tezlashtirish mumkin.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta‘limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta‘limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratadi.

Yangi yondashuvni qo‘llay olish asosan o‘qituvchilarga bog‘liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkentda Respublikadan yig‘ilgan 300 dan ortiq trener o‘qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi boshqa barcha o‘qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘shida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta‘limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish

jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Ulug‘ donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta‘lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas‘uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi.

XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi model – 4K haqida

Yangi o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta‘lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya‘ni bu tamoyilda quruq ma‘lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish/yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa, savol-topshiriqlar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo‘q deb aytish noto‘g‘ri.

Yangi yondashuvni qo‘llay olish asosan o‘qituvchilarga bog‘liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkentda respublikadan yig‘ilgan 300 dan ortiq trener o‘qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi boshqa barcha o‘qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o‘shida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta‘limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Ilm maktab ostonasidan boshlanadi deyilishi bejiz emas. Chunki inson butun umri davomida oladigan bilim, ko‘nikma, malakani boshlang‘ich sinflarda maktab partasida egallaydi.

Boshlang‘ich maktab – inson hayotidagi butunlay yangi sahifa ekanligi uchun ham o‘ta muhimdir. Bu yoshda bola uchun yangi olam bo‘lmish maktab davri, bilim olish bosqichi boshlanadi. Aynan shu pallada o‘quvchining maktabga nisbatan mehrini qozonish, ta‘limga qiziqтира olish uning kelgusidagi muvaffaqiyatlari uchun asos bo‘ladi. Bu esa oson ish emas.

Maktabga endigina qadam qo‘ygan bolalarga yangi darsliklar tayyorlashda “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e‘tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Yangi tajriba bilan esa bolalarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi.

REFERENCES

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. “Ta‘limda innovatsion texnologiyalar” Amaliy tavsiyalar. – T: -- Istedod jamg‘armasi, 2008.
2. Olimov Q.T. “Pedagogik texnologiyalar”. --- T: --- Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2011.
3. “ Biz bilgan va bilmagan kimyo” M. Primqulov, R.Ziyayev, B.Akbarov, U.Haydarov---- O‘qituvchi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2011.

4. Бабашев, Ф. А. (2018). Реформы, нацеленные на дальнюю перспективу. Вопросы науки и образования, (1 (13)), 118-119.
5. Джураев, Б., Шодмонов, Ш.А. (2014). Правовое воспитание учеников подросткового возраста в различных видах деятельности // Педагогика: традиции и инновации. Р. 189-191.
6. Кузнецов В.И. Эволюция представлений об основных законах химии. М.: Наука, 1967, 311 с.
7. Omonov N.N., Jo‘rayev M.M. Maktabda kimyo amaliy mashg‘ulot darslarini AKT dan foydalanib tashkil etish (7-8-sinflarda). “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 8-sonli respublika ilmiy konferensiyasi 2023. T 8. №.8. 44-47 betlar.
8. Saminova M. T. et al. Ta’limda AKT va undan foydalanish //Science and Education. 2022. T. 3. №. 4. c. 708-710.

ИННОВАЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ: КАК АЛГОРИТМЫ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ТРАНСФОРМИРУЮТ АДАПТИВНЫЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ

¹Омонов Алишер Ахмад угли, ²Ахаткулов Сохобиддин Абиркулович,
³Саттаров Кувондик Мавлонович

^{1,2,3}Самаркандский государственный университет им. Ш.Рашидова

***Аннотация.** Статья рассматривает влияние алгоритмов машинного обучения на эволюцию адаптивных методик преподавания. Исследование охватывает современные тенденции в образовании, где инновационные технологии, основанные на алгоритмах машинного обучения, постепенно преобразуют традиционные подходы к обучению. Рассмотрены некоторые вопросы оптимизации образовательного процесса, индивидуализации подхода к учащимся и создания устойчивых и эффективных систем обучения. Анализируются конкретные примеры успешного применения алгоритмов машинного обучения в адаптивных методиках преподавания, которые подчеркивают перспективы, стоящие перед образовательной системой в эпоху цифровой трансформации.*

***Ключевые слова:** машинное обучение, линейная и логарифмическая регрессия, машины опорных векторов (SVM), k-ближайший сосед (k-NN), наивный алгоритм Байеса, адаптивные методики преподавания, индивидуализация обучения, цифровая трансформация образования, учебные алгоритмы, инновационные технологии в образовании*

Bunda ustoz quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borish orqali amalga oshiradi: 1) Ustozlar milliy urf-odat va an‘analarimizda va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o‘zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar. 2) Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko‘nikma va malakalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida har bir ustoz o‘zining shahsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi. 3) O‘quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o‘zlashtiradilar. 4) O‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtirish uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar. 5) Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan foydalanish asosida o‘z kasbiy

mahoratlarini shakllantiradilar. Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi ustozni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko‘ra olishga o‘rgatadi. Har bir ustoz shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o‘z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o‘rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo‘lishni tarbiyalaydi.

Pedagog olimlardan biri pedagogik mahoratni pedagogik san‘atning bir qismi sifatida ta’riflab [1, 45-b.], shunday yozadi: “Pedagogik mahorat deganda, ustozning pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”. Uning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi: o‘qituvchilik kasbiga sadoqat; o‘z fanini o‘qitish metodikasini mukammal bilishi; pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi; pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi. Shuni alohida qayd etib o‘tish zarurki, ustoz kasbi murakkab va mas’uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliigi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo‘lmish insonning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanib, u bilan muloqot olib boradi. Ongli va tirik jonzot esa, aqliy, ruhiy, jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi [4, 42-b.].

Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta’minlovchi omillar quyidagilar: a) ixtisoslik bo‘yicha o‘quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minlash malakasiga ega bo‘lishi; b) ta’lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi; v) ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o‘z faoliyatini tapisil etishi; g) o‘quv-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik-psixologik, metodik ma’lumotga ega bo‘lishi; d) fanlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi; e) jamoani “ko‘ra bilish”, o‘quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchilikparni tushunish va hamdard bo‘la olish, o‘z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo‘lishi; j) o‘z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo)ni takomillashtirish malakasiga ega bo‘lishi.

REFERENCES

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.
2. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество: Библиотека учителя и воспитателя. – М.: Педагогика, 2010. – 144 с.
3. Каримов И.И. Ўқитувчи, устоз, мураббий...: Талабалар ва ёш ўқитувчилар учун рисола. – Қўқон: ҚДПИ, 2009. – 99 б.
4. Кайковус. Қобуснома / Форсчадан Муҳаммад-Ризо Огаҳий таржимаси, С.Долимов. – Т.: Ўқитувчи, 2006. – 208 б.

TALABALARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INSONPARVARLIK G‘OYALARINING ASOSLARI

Tashmetova Shaxla Xusanovna

TDPU katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish asoslari, shuningdek, bu holatda insonparvarlik g‘oyalarining ahamiyati muhokama etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** insonparvarlik, kompetentlik, metod, o‘qitish, g‘oya.*

Mamlakat iqtisodiyotida mehnat bozorlari rivojlanib borayotgan bir vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda zaruriy kompetensiyalarni tezkor egallashga hamda ularni zamon va vaqt makoniga mos ravishda takomillashtirib turishga qodir mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Ta’lim o‘zgaruvchan jarayon, u globallashtirish darajasiga muvofiq takomillashtirilishi lozim, bu, albatta, ta’lim jarayoni subyektlarining turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiyasi va mobilligi bilan amalga oshiriladi. Ta’limni insonparvarlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tamoyil ta’lim va shaxs munosabatlari orqali namoyon bo‘lib, bunda uning shaxsiy yo‘nalish sifatlarini qayta takomillashtirish nazarda tutiladi. Ta’limni bozor munosabatlari sharoitida bu jarayon shaxsning rivojlanishi va o‘zini-o‘zi tasdiqlash natijasida ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy himoya vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Insoniylikka yo‘naltirilgan ta’lim falsafasi barcha bosqichlarda ta’lim jarayonini sifatli yangilashning strategik dasturiga aylanadi.

Mamlakatimizda pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, undagi uzluksizlik, uzviylik va izchillik va boshqa tamoyillari, uning innovatsion modeli hamda uning amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G‘.I.Muxamedov, Sh.Q.Mardonov, U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova, N.M.Koshanova, G.N.Sharipova va boshqalarning ishlarida muayyan darajada yoritilgan [2-7].

Shuningdek, pedagoglar kasbiy xislatlarini rivojlantiruvchi omillar, xususan, o‘qituvchi kasbiy faoliyatining psixologik muammolari bo‘yicha tadqiqotlar A.I.Rasulov, A.M.Jabborov, D.G.Muxamedova, Yu.M.Asadov; bo‘ljak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash va tarbiyalash masalalari Sh.X.Abdullaeva, G.M.Maxmutova, N.S.Saidahmedov, A.G.Morozov, B.X.Raximov, N.D.Shodiev, O‘.Q.Tolipov, N.N.Azizxodjaeva, Yu.A.Axrorov, L.M.Mitina, R.H.Jo‘raev, B.R.Djuraeva, J.G‘.Yo‘ldoshev, A.N.Markova, U.N.Nishanaliev kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Kompetentli o‘qituvchi ijodiy va ilmiy pedagogik faoliyatsiz yashay olmaydi, demak bo‘ljak o‘qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirish jamiyat uchun yuqori natijalarni kafolatlaydi.

Ta’lim klasterida pedagogik-kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bir qator vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi:

1. Yo‘nalishga mos mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikalarni takomillashtirish. Ma’lumki, o‘quv fanlaridagi amaliy qism talabaning mustaqil faoliyatga yo‘naltirishdan ko‘ra dogmatik jarayonlar asosidagi nazorat va qabul qilishlardan iboratligicha qolib ketmoqda. Fanlarni bo‘ljak pedagogga qanday samarali metodikalar orqali olib borishi mumkinligi, “o‘qishni emas o‘rganishni o‘qitish”ga nisbatan xarakteristikalar amalga oshirilmaydi. Ba’zi o‘qituvchilarning ishlarida quyidagi tamoyil ustuvor “o‘z fanimni bilsam, o‘qitish qo‘limdan keladi”, lekin o‘qitishning metodikasi bo‘yicha zaruriy bilimlar, pedagogik-kasbiy kompetensiyalar bo‘lishi shart emas deb hisoblaydi.

2. Talabalarning pedagogik amaliyotga tayyorlash. Pedagogik amaliyot shakllanishiga qaratilgan kasbiy malaka va ijodiy salohiyatni rivojlantirish ularning maktabdagi faoliyatga

moslashish imkonini beradi. Amaliyot jarayonlarida bo‘lajak o‘qituvchi maqsadga muvofiq o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, nazariyani amaliyotda qo‘llash, tashkil qilinadigan reja va loyihalarni prognozlashtirish kabi ta‘lim metodikalari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladi.

3. *Bo‘lajak pedagog-o‘qituvchiga zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirib borish.* Oliy ma‘lumotli mutaxassisning kompetentligi bilan kasbiy kompetentlik farq qiladi va bugungi kunda kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarni tayyorlashga katta e‘tibor qaratish lozim. Bo‘lajak pedagoglarda shakllanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar “kompetentlikka asoslangan ta‘lim”da rivojlantiriladi.

Takomillashtirilgan metodikalar bo‘lajak o‘qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatini tasvirlab beruvchi asosiy bloklardan tashqari, o‘zining shaxsiy va kasbiy nuqtai nazariga tanqidiy baho berish, har qanday faoliyatga, jarayonga asoslangan yondashuv hamda shaxsiy maqsadlarni ishlab chiqish, muvaffaqiyatning muhim omillari, samaradorlik ko‘rsatkichlari, ta‘lim maqsadlar va takomillashtirish choralarini o‘z ichiga olgan to‘rtta jihat: moliya, iste‘molchilar, ichki jarayonlar, bilim va o‘rgatish nuqtai nazaridan shakllantirilishi zarur.

Insonparvarlashtirishning asosiy xususiyati bo‘lgan insonparvarlik ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishning markaziy qismlaridan biri bo‘lib, darajasi va holatidan qat’iy nazar, ta‘limdagi asosiy ijtimoiy muammolarni inson nomi bilan, erkin muloqot qilish orqali amalga oshirishini ta‘minlaydi. Ushbu chora-tadbirlar tizimi ta‘lim mazmunidagi umumiy madaniy tarkibiy qismlarni birinchi o‘ringa qo‘yish va shu bilan o‘quvchilarning shaxsiy yetukligini shakllantirishga yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi 213-son “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. – T., 2021. – 09/21/213/0330-son.
2. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta‘lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariyasoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – Chirchiq, 2020. – 270 b.
3. Botirova Sh.A. Adabiy ta‘lim klasterining ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – Chirchiq, 2021. – 265 b.
4. Sharipova G.N. Pedagogik ta‘lim klasteri sharoitida talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish: Ped. fanl. bo‘yicha fals. d-ri ... Dis. – Chirchiq, 2020. – 180 b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Tilavova Sayora Bekmuratovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarga ekologik ta‘lim berish, STEAM ta‘limi fanlararo va o‘quvchilarni amaliyotga yo‘naltirish fanlararo hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta‘lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, ta‘lim, texnologiya, didaktika, savodxonlik, amaliy, yondashuv, ta‘lim dasturi, loyiha, integratsiya.

XXI asr jahonda ta‘limni modernizatsiya qilish va yangilash yo‘llaridan biri bu STEAM ta‘lim tizimini rivojlantirishdir. Uni amalga oshirishning asosiy maqsadi o‘qituvchi va talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda STEAM tarmoqlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish asosida, texnik va tabiiy fanlar ta‘limini rivojlantirish orqali bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilar imkoniyatlarini kengaytirishdir[1]. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari zamonoviy bilim va ko‘nikmalarini egallashga yordam berish uchun ko‘proq haqiqiy hayot muammolarini hal qilishga qodir. STEAM fan, texnologiya, muhandislik va matematika ta‘limi boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarga tushunchalarni yaxshiroq tushunishga, muammolarni hal qilish kabi Shunga qaramay, sinfda integrativ yondashuvni qanday qo‘llash mumkinligi noaniqligicha qolmoqda. boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi ta‘limi dasturlarida ham integratsion yondashuvning etishmasligi mavjud. Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarni tayyorlash ko‘pincha fanlararo diskret mantiqiy tahlil orqali dunyoni bilishga qaratilgan. Shuningdek BTY talabalari amaliyotlarni o‘rgatish uchun ilmiy izlanish, texnologiya, dizayn va muhandislik bo‘yicha keng qamrovli tayyorgarlikka ega bo‘lmasligi mumkin. Ushbu dolzarb muomani bartaraf etish uchun boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda STEAM yondashuv orqali, BT darslarida integratsiyalashgan tarzda o‘qitishga tayyorlash uchun BTMPM kursi joriy etildi. Kursning dizayni fanni o‘qitish kontekstida ilmiy tadqiqot va dizayn tushunchalarini. BTY talabalari STEAM ta‘lim faoliyati bilan shug‘ullanadigan BTY talabalari ishtirok etdi.

Jumladan: Oliy pedagogik ta‘limning hozirgi rivojlanishi tadqiqotning fanlararo integratsiyalashuviga bog‘liq. Fanlararo integratsiya tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan va fanlararo muammolarni, shuningdek, turli xarakterdagi muammolarni hal qilishga qodir bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asosdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya va pedagogik malakani baholash talablarini hisobga olgan holda bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlash metodikasini yangilash yo‘llarini topishdan iborat[2].

Ilg‘or fanlararo ta‘lim texnologiyalarini tahliliy ko‘rib chiqish STEAM ta‘limiga e‘tiborni qaratish imkonini berdi. Tadqiqot o‘tkazilib, unda talabalarining tabiiy fanlar bo‘yicha kompetensiyalari hamda tanqidiy fikrlash rivojlanishi baholandi. Tadqiqot jarayonida, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari tomonidan ham kasbiy, ham ilmiy va amaliy xarakterdagi fanlararo muammolar aniqlandi va yanada hal qilindi. Shu bilan birga, STEAM ta‘limi bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarni uchun o‘quv jarayonini loyihalashning asosi bo‘ldi. Ushbu ish natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi: o‘quv fanlari tarkibi va mazmuniga fanlararo vazifalarning kiritilishi bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga yordam beradi, chunki o‘quv jarayoni amaliyotga yo‘naltirilgan va ilmiy xususiyatga ega bo‘ladi[3]. Ilmiy-tadqiqot va amaliy yo‘nalishning fanlararo vazifalari orqali amalga oshiriladigan universitet pedagogik ta‘limi darajasidagi fanlararo integratsiya;

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarning integratsiya tushunchasi bilan bog‘liq manbalarni tahliliy ko‘rib chiqish uning murakkab va o‘zaro mustahkamlovchi xususiyatini ko‘rsatadi. Har qanday o‘ziga xos fanning rivojlanishi doirasida katta bloklar o‘rtasidagi aloqani o‘rnatadigan integratsiya mavjud. Ko‘rinib turibdiki, bu aloqani ta‘minlash doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Oliy pedagogik ta‘lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashning yangi modeliga nisbatan

fanlararo aloqalar g‘oyasi kontseptual bo‘ladi. Ilm-fan ham, ishlab chiqarish ham turli kasbiy sohalarida va fanlararo fan sohalarida bilimga ega bo‘lgan mutaxassislarni qidiradi. Oliy pedagogik ta‘limning zamonaviy makonida kadrlar tayyorlash alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirayotgan pedagogik ta‘lim o‘quv jarayonining tuzilishi va mazmunini shunday tashkil etadiki, yakuniy natija bitiruvchilar faoliyatining sifati, ularning kompetensiyasi bilan o‘lchanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarning sifat holati – uning pedagogik kompetensiyasini strategik qadriyatlar bilan bog‘lash mumkin, ularning rivojlanishi milliy miqyosdagi vazifani-yuqori malakali xalq ta‘limi xodimlarini tayyorlashda pedagogik ta‘limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Muammoning dolzarbligi pedagogik kadrlar tayyorlashning tarkibi va mazmuni yangi oliy ta‘lim davlat standartlarini joriy etish natijasida sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. O‘quv rejadagi bloklari fanlari sonining ko‘payishi fanlarni o‘rganish uchun ajratilgan o‘quv soatlari soniga ta‘sir qilmadi. Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarning tayyorlash mazmunini ratsionallashtirish yechimlaridan biri fanlararo integratsiyani amalga oshirish ekanligini tushunish muhimdir.

Tadqiqotda kelajakdagi o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya masalasini o‘rganishda ikkita asosiy muammo aniqlandi.

Birinchidan, oliy ta‘limda bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarni tayyorlashda tabiiy va ilmiy, shuningdek, insoniy bilim sohalarini sintez qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

Ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning butun davri davomida pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan laboratoriya va amaliyotga asoslangan darslardan, shuningdek ma‘ruzalardan foydalanish bo‘yicha yangilanishlar.

Tadqiqot maqsadi, fanlararo ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni qo‘llashga qodir bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan o‘quv jarayonida erishilgan natijalarga e‘tibor qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya talablarini hisobga olgan holda bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi usullarini yangilash yo‘llarini topishdan iborat.

Tadqiqotda Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari ishtirok etdi. Pedagogik ta‘lim texnologiya va hayot xavfsizligi yo‘nalishlari. O‘qishning analitik bosqichi mantig‘iga ko‘ra fanlararo amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni o‘rganish, taqqoslash, umumlashtirish amalga oshirildi. Dastlabki tajriba-sinov bosqichida talabalar o‘rtasida so‘rov o‘tkazildi, shuningdek, integratsiyalashgan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar va ma‘ruzalar joriy etilgandan so‘ng o‘quv faoliyati natijalari tahlil qilindi. Fanlararo integratsiya orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zgarishlar qayd etildi. Shu bilan birga fanlararo kompetensiyalarning rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun statistik ma‘lumotlarni olish bosqichida universitet talabalari bilan kuzatishlar va suhbatlar o‘tkazildi. Diagnostika usullari mazmunli, indikativ va baholashga bo‘lingan. Har bir blokning o‘z maqsadi bor. Ushbu tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning fanlararo kompetensiyasini rivojlantirishning turli darajalari ta‘kidlangan. Fanlararo kompetensiya motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyati sifatida muammoga qiziqishning mavjudligi, shaxsning bilim olishga yo‘naltirilganligi va ularni amaliy qo‘llash ko‘rib chiqildi. Talabalarga berilgan savollar ushbu xususiyatlarni aniqlashni nazarda tutgan.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv g‘oyasi kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi bo‘lgan fanlararo vazifada ifodalangan. Turli fanlararo

vazifalarning yig‘indisi ushbu mashg‘ulot mazmunining yaxlitligini tashkil qiladi. Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar davomida nazariy asoslab berilgan va amalga oshirilgan fanlararo integratsiya bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini ta‘minladi. Kasbiy va ilmiy faoliyatning fanlararo vazifalarini amalga oshirish fanni o‘rganish jarayonida kasbiy va motivatsion vaziyatlarni ishlab chiqish kabi usullardan foydalangan holda amalga oshirildi; bilimlarni o‘zgartirish. STEAM ta‘lim texnologiyasiga asoslangan integrallashtirilgan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar va ma‘ruzalar bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv jarayonini loyihalash vositasi bo‘lib xizmat qildi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son farmoni.
2. Yuldashovich K. A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.
3. Arshanskiy, Ye.Ya. STEAM-obrazovanie: ot modeli k prakticheskoy realizatsii / Ye.Ya. Arshanskiy, N.S. Sologub // Adukasыya i vxavanne. – 2020. – № 9. – S. 22–30.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK OQITUVCHILARNI KASBIY-SHAXSIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Tojiddinova Rayxona Ilyosxo‘jayevna

Andijon viloyati Baliqchi tumani 42- maktabning informatika fani o‘qituvchisi

Maqolada mamlakatimiz ta‘lim tizimida transformatsiya jarayonlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonning turli oqibatlarini va samaradorlik xususiyatlarini tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, kasbiy rivojlanish, ta‘lim tizimi, texnologiya.

Ta‘lim yoshlarga o‘z mafkurasini shakllantirish va o‘zlariga yoqadigan narsa bilan shug‘ullanish, ishtirok etish va demokratiya hamda hamjihatlik bilan ajralib turadigan davlatimiz kelajagini shakllantirishga yordam berishi kerak bo‘lgan jarayonlardir. Iqtisodiy muhitning o‘zgarishi davridagi ta‘limni raqamlashtirish nafaqat ta‘limga, balki tegishli sohalarga ham ta‘sir qilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot ta‘siri ostida o‘quv muhiti tezlashtirish va qisqa vaqt ichida malakali mutaxassislarni shakllantirish tomon asta-sekin o‘zgarib bormoqda.

Oliy ta‘limning raqamli transformatsiyasi ta‘limning mavjudligi, uzluksizligi va sifatini ta‘minlashda raqamli resurslardan foydalanishning yangi istiqbollarini ochib beradi. Ta‘limdagi raqamli transformatsiya - bu o‘quvchilarimizga ta‘lim berish usulini o‘zgartirishdir. Bu yangi texnologiyani sinfga kiritishdan tortib, talabalar taraqqiyotini baholash va kuzatish usullarini o‘zgartirishgacha bo‘lgan hamma narsani anglatishi mumkin.

Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar oliy ta‘limdagi xalqaro kommunikatsiyalar, akademik harakatchanlik vektorlari, oliy ta‘lim tizimini global va milliy darajada boshqarish texnologiyalaridagi o‘zgarishlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro oliy ta‘lim tendentsiyalari dinamikasi, o‘z navbatida, nafaqat oliy ta‘lim tizimini o‘zgartirishga yordam beradi, balki hozirgi vaqtda va uzoq muddatli istiqbolda milliy davlatlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi, chunki intellektual kapital shu erda yaratiladi va milliy davlatchilikning raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy xalqaro ta‘lim makonini tahlil qilish dolzarb nazariy muammo va amaliy muhim vazifaga aylanadi.

Zamonaviy ta‘lim makonining asosiy tendensiyalari globallashtirish, ommaviylashtirish, tijoratlashtirish, xalqarolashtirish, integratsiya va mintaqa-viylashtirishdir. Raqamlashtirishning jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta‘sirini hisobga olgan holda, jahon ta‘lim bozorining tizimni shakllantirish tendentsiyasi oliy ta‘limning xalqarolashuviga aylanib bormoqda, uning boshqaruv texnologiyalari talabalar, o‘qituvchilarning transchegaraviy kanallari oqimini tartibga soladi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirish zaruriyatini hisobga olgan holda oliy ta‘lim tizimi faoliyatining eng samarali mexanizmlarini joriy etishga harakat qilinmoqda. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ta‘limning asosiy muammosi uning sifatini oshirish va jamiyatni modernizatsiya-lash jarayonida uning rolini oshirishdan iborat bo‘lmoqda. Demak, mamlakatda ta‘lim sifatini oshirish jamiyatning samarali rivojlanishining hal qiluvchi sharti bo‘lishi kerak. Ko‘rinib turibdiki, oliy ta‘limning innovatsion rivojlanishini o‘rganish juda dolzarb ko‘rinadi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab Universitetlarga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berildi. Universitetlar tuzilmasida Strategik rivojlantirish bo‘yicha birinchi prorektor lavozimi joriy etiladi. 2023-yil 1-martga qadar bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini xalqaro ta‘lim va kasb klassifikatorlariga muvofiq maqbullashtirildi.

Xo‘sh bundan kutiladigan asosiy maqsad nimalardan iborat. Uning ijobiy va salbiy jihatlari nimalarda namayon bo‘ladi.

Ijobiy tomonlari:

- Raqamli dunyoning yetakchi korxonalarini turli darajadagi rivojlangan mamlakatlar barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanadilar va mablag‘larining bir qismini raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va jamiyat hayotiga tatbiq etish uchun sarflaydi. XXI asrda ta‘limni raqobatbardosh qilish uchun ta‘lim muassasalari eng so‘nggi texnologik ishlanmalar va elektron ta‘lim vositalaridan foydalanishi kerak. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish barcha ta‘lim faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi, raqamli texnologiyalardan foydalanish esa axborotga kirish va saqlashni osonlashtiradi.

- Interfaol sinflar muhitida virtual darslar, 3D formatidagi jonli tarix sifatida namoyon etiladi.

- Yaxshilangan hamkorlik - interaktiv raqamli doskalarga, videokonferensiyalarga, onlayn uchrashuvlar va ma‘ruzalarga oson kirish.

- Shaxsiylashtirilgan ko‘rsatmalar - cheksiz miqdordagi dars rejalari mavjud; o‘qitish usullari har bir bolaga kerakli narsani va kerak bo‘lganda aniq berish uchun tezda moslashtirilishi mumkin.

- Kirish va baholash imtihonlarini raqamlashtirish jarayoni uni yanada shaffof va o‘qituvchilar tomonidan baholashni osonlashtiradi.

Salbiy tomonlari

- Talabalarga keraksiz saytlar va tarmoqlarga kirishni cheklovchi to‘siqlarning va filtrlarning mavjud emasligi.

- Bu kabi ishlarni saralash o‘qituvchilardan ortiqcha vaqt sarfini talab etadi.

- Raqamli ko‘nikmalarni egallash erta yoshdan boshlanishi va butun hayot davomida davom etishi kerak.

- Onlayn xavfsizlik va kibergigiena uchun raqamli transformatsiyalar natijasida yuzaga kelgan muammolarni samarali hal qilishga ko‘proq e‘tibor qaratish lozim. Biz yoshlarning tanqidiy fikrlash va media savodxonligini kuchaytirishimiz kerak. (Izoh 2022 yil oktyabr oyida

Universitetning 1-4 kurs talabalariga qo‘shimcha ravishda "Axborot texnologiyalari" kafedrasida o‘qituvchilari 12 soatlik mediasavodxonlik darslarini o‘tkazdi).

- Qizlar va o‘g‘il bolalar raqamli texnologiyalarga qiziqish va malaka darajasi bir xil bo‘lsada, kam sondagi qizlar o‘qishga yoki o‘z martabalariga qiziqishni rivojlantirishda davom etmoqda.

- oliy ta’lim muassasalarining axborot tizimlarini raqamli ulanishni ta’minlash;

O‘zbekiston va Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimining barcha afzalliklari va kamchiliklari hamda jamiyat taraqqiyoti istiqbollari haqida xulosalar chiqarilib, ta’lim tizimini boshqarishning strategik rejasi aniqlashda quyidagi parametrlarga e’tibor qaratilmoqda:

- ilmiy faoliyatning axborot tizimini yaratish;
- tashkiliy faoliyatning axborot tizimini yaratish;
- ma’naviy-madaniy faoliyatning axborot tizimini yaratish;

Ta’lim sohasidagi raqamli transformatsiyaning asosiy afzalliklaridan ba’zilari talabalarning taraqqiyotini tezroq va aniqroq kuzatish, hamkorlikda o‘rganish, kelajakka yo‘naltirilgan muhokamalar yoki ma’ruzalar, vaqt va iqtisodiy samaradorlik, o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi aloqani yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

REFERENCES

1. I.Abduvakhidov A.M., Mannapova E.T., Akhmetshin E.M. Digital Development of Education and Universities: Global Challenges of the Digital Economy. International Journal of Instruction January 2021 Vol.14, No.1
2. Karimov A.A. On the Foundation of Multimedia Applications, Teaching "Information Technology in Construction". International Journal on Integrated Education <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE>. Volume 6, Issue 3 |
3. M Kh Eshmurodov, K M Shaimov, I Khujaev and J Khujaev. Method of lines for solving linear equations of mathematical physics with the third and first types boundary conditions/Journal of Physics: Conference Series 2131, 2021.

Mundarija

1	Ибраимов Холбой Ибрагимович, ИНТЕГРАЦИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ – КАК ВАЖНЫЙ МАЯК НА ПУТИ ПРОГРЕССА	6
2	Dr. Anita Banerjee, NEW EDUCATION POLICY SHAPING THE FUTURE OF TEACHER TRAINING IN	9
3	Р.Х.Джураев, ОЦЕНКА СФОРМИРОВАННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ	13
4	Сафарова Рохат Гайбуллаевна, БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ПРОГНОЗЛАШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ИМКОНИАТЛАРИ	20
5	Азимова Машхураҳон Ходжиевна, ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА	23
6	O‘rinova Nilufar Muxammadovna, TRANSFORMATSION JARAYONLARDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI	27
7	Shukurov Shuhrat Nasimovich, MULTIMEDIA VOSITALARI YORDAMIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH	30
8	Алибаев Д.Ш., СИНХРОНИЗАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ	33
9	Abdullayeva Barno Umidullo qizi, ABOUT THE PURPOSE, TASKS AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF FORMATION OF LISTENING COMPREHENSION COMPETENCE OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH CLASSES	37
10	Abduraxmanov Muxtor Xujayarovich, Buriyev Javohirbek O‘tkir o‘g‘li, TA‘LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MASOFAVIY TA‘LIMNING AFZALLIKLARI VA QULAYLIKLARI	39
11	Абдуганиев Озод Турсунбой ўғли, ЯНГИ ЎЗБЕКТИСТОН ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАРДА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ОИД КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	41
12	Axmedova Dilafro‘z Qudratullayevna, FANLARARO TADQIQOTLAR JARAYONIDA INTEGRAL KURSLARNING SHAKLLANISH OMILLARIGA OID XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI	46
13	Axmedova Sarvinov Azatovna, BO‘LAJAK JISMONIY TARBIIYA O‘QITUVCHILARINI SPORT KOUCHINGI ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH IJTIMOY-PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA	48
14	Базарбаева Альбина Мингалиевна, КОГНИТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЗНАНИЙ О МИРЕ ПОСРЕДСТВОМ ЦВЕТОБОЗНАЧЕНИЙ	52
15	Базарбаева Альбина Мингалиевна, НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ КОГНИТИВНОЙ СТИЛИСТИКИ	55
16	Bakieva Durdona Baxtiyarovna, TITLE: ENHANCING READING COMPREHENSION SKILLS AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS LEARNING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPREHENSIVE APPROACH	57
17	Begmatova Dilnoza Mukhtarovna, THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR THE FORMATION OF CULTURAL IMMUNITY IN STUDENTS BASED ON THE ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCES	62
18	Gafurova Gulruh Baxtiyarovna, TA‘LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PUBLITSISTIK USLUBDAGI MATNLARNING LINGVISTIK ASPEKTARI	65
19	G‘ulomova Maftunaxon Ravshanbek qizi, Xotambekova Shahloxon Mirzohidjon qizi, PISA 2022 XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI NATIJALARI VA KELGUSI REJALAR	68
20	Dexqonova Muhpira Ne‘matjonovna, XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASH JARAYONINING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI	71
21	Davutova Charos, XORIJIY TAJRIBALARI TAHLILI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TAJRIBANI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH KONTSEPTSIYASI	73
22	Jabborova Onaxon Mannapovna, To‘rayeva Gulhayo Temirqul qizi, ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH	76
23	Jabborova Onaxon Mannapovna, BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI	78
24	Jumanova Ozoda Eshpo‘lat qizi, INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA I-SINIF O‘QUVCHILARINI MAKTABDAGI O‘QUV-TARBIIYA MUHITIGA MOSLASHTIRISH MEXANIZMLARI	80
25	Ziyayeva Shoiraxon Raximberdiyevna, ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR-DARS SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA	83
26	Ibroximov Maqsadjon Axmedovich, XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TALABALAR IJTIMOY-KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK MEXANIZMLARI	87
27	Imomova Madina, BIOLOGIYANI O‘QITISHDA KLASTER METODINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI	89
28	Kobilova Surayyo, ILG‘OR TAJRIBALAR RIVOJLANGAN TA‘LIM TIZIMIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH MASALASI	91
29	Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich, XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI STEAM TA‘LIMIGA TAYYORLASHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI	93
30	L.M.Qaraxonova, MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	96
31	Mavlanov Shavkat Yusupovich, TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI PEDAGOGIK ATAMALAR VA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA RIVOJLANIRISH	99
32	Maxmudova Darmonjon Vozorboevna, TA‘LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASH	102
33	Медетова Раушан Мамадияровна, Жаббаров Зарифбой Рустамович, КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ИНЖЕНЕРНЫХ ВОЙСК НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА	105
34	M.Mirqosimova, XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TA‘LIMGA KOMPETENTLI YONDASHUV IMKONIYATLARI	108
35	Маннопова Феруза Абдувахидовна, УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИГА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎРГАТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ	115
36	Морхова Инесса Вячеславовна, ЗНАЧИМОСТЬ СМАРТ-ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ	118

37	Muradova Maftuna Komilovna, Mirsalimova Noila Mirsoatjon qizi , TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATIV TA'LIM VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	121
38	Ниетова Гулдана Валихановна, Галущенко Ирина Георгиевна , ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ АЛЬБОМА ДЛЯ ФОРТЕПИАНО КОМПОЗИТОРА ХАБИБУЛЛЫ РАХИМОВА В ОБУЧЕНИИ И ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ МУЗЫКАНТОВ	123
39	Nisanbayeva A.K. , O'QITUVCHINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING JAHON TAJRIBALARI	125
40	Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna , BO'LAJAK TEKNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING DIZAYNERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI	128
41	Nurillaev Mukhammadkhon Isroilkhon ugli , FOREIGN EXPERIENCES CAN EMPOWER UZBEK EDUCATION AND TEACHER COMPETENCE	132
42	Olimova Feruza Karimjonovna , XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN O'QITISH TEKNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA TAMOIYILLARI	134
43	Raxmatov Otabek Urinbosarovich , BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING METODIK ASOSLARI	140
44	Raxmonova Dilovar Ostanaqulovna , SOG'LOM AVLOD TARBIYASIGA ZARURIY BIOLOGIK-EKOLOGIK JIHATLAR BO'YICHA RIVOJLANGA MAMLAKATLARINING TAJRIBALARI	143
45	Sayliyeva Mashkura Muxtor qizi , BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING 4 K XALQARO MODULI BO'YICHA KRISTIZIM KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	145
46	M.R.Tashpulatova , RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARIDA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH MASALALARINING QIYOSIY TAHLILI	147
47	Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna , XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA GENDER OMILLARINING ROLI	150
48	Sh.E.Toxtiyarova , BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INKL YUZIV TA'LIM KONTEKSTIDA FAOLIYAT YURITISHGA TAYYORLASH ASPEKTLARI	153
49	I.I.Tuychiyeva , XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNI HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	155
50	Turdiboyev Ithomjon Hayotjon o'g'li , BO'LAJAK KIMYO FANI O'QITUVCHILARINING KIMYO DARSLARIDA TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASI	158
51	O'rinova Nilufar Muhammadovna, Muhammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi , XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TYUTORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA PSIXOLOGIK-ANALITIK METOD VA VOSITALAR.	161
52	Ўтаева Феруза Шавкатовна, С.А.Ахмедова , БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ВОСИТАЛАР АСОСИДА СПОРТ КОУЧИНГИГА ТАЙЁРЛАШ	163
53	Хаирова Динара Римовна, Такташева Динара Ринатовна , ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ	166
54	Mumtoza Xanberdiyeva , PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA UNI TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHDAGI O'RNI	169
55	Xasanova Maftuna Sherali qizi , DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF UNDERGRADUATE STUDENTS DURING THE ENGLISH STUDYING PROCESS	172
56	Хусейнова Умедахон Умаровна , РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА	174
57	Shakirova S.B, Egamova Sh.B. , INVESTITION LOYIHALAR ASOSIDA ZAMONAVIY IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	179
58	Yusupova Kamola Fozilxonovna , ASTRONOMIYA FANINI O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH TIZIMI	181
59	Абдуллаева Нилуфар Махамаджановна , СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ОБЕСПЕЧИВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПОДГОТОВКИ КАДРОВ	185
60	Abduraxmanov Muxtor Xujayarovich, Rashidov Bahodir Mutallib o'g'li , TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA QULAYLIKLARI	188
61	Abduraxmanov Muxtor Xujayarovich, Maqsimov Sardorbek Murodil o'g'li , TA'LIM JARAYONIGA WEB VA BULUTLI TEKNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISH VA UNDA FOYDALANISH	189
62	Barakayev Murod, Allado'stova Dilrabo, A'zamov Yusupjon , RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM SHAROITIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM - TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH OMILI SIFATIDA	191
63	Bektemirova Gulrux Otabek qizi, Shukurov Erkin Sodik o'g'li , BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING DASTURLASHGA DOIR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV ILOVALAR VA KREATIV USULLARNI QO'LLASH	194
64	Bozorov Abdusodiq Abdurayimovich , PROFESSOR-O'QITUVCHILARNI EMOTSIONAL PSIXIK XOLATINING KASBIY RIVOJLANISH DINAMIKASIGA TA'SIRI	195
65	Valixanova Aqida Kamoliddin qizi , RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLEKULAR BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY - SHAXSIY RIVOJLANISH STRATEGIYALARI	199
66	Gulyamova Nadira Gafurovna , RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TALABALARDA IJTIMOY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH OMILLARI	201
67	Гулямова Азиза Отабек кизи , БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	204
68	Djamalova Dilafruz Komiljon qizi , "TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF STUDENTS OF PRIMARY PROCESSING TECHNOLOGY OF NATURAL FIBERS (COTTON)"	207
69	Jalilova Nilufar Toxir qizi , BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILADIGAN DIDAKTIK QADRIYATLAR	209
70	Jamolova Nodirabegim Jobir qizi, Nadirov Jahangir Eldar o'g'li , RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR UCHUN ELEKTRON KUNDALIKDAN TO'G'RI FOYDALANISH, UYGA VAZIFALARNI YUKLASH VA YUKLAB OLISH, MASOFAVIY TA'LIMNI SHAKLLANTIRISH	213
71	Jumanazarov Sirojiddin Salaydinovich , RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TINGLOVCHILARINING RAQAMLI SAVODXONLIGINI SHALLANTIRISH MASALALARI	215

72	Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA VA IJTIMOIIY-GUMANITAR YO‘NALISH PEDAGOGLARINI KASBIY-SHAXSIY RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI	217
73	Irgashova Maripat Abdinazarovna , BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI	221
74	Зухра Исмаилова, Алишер Тиллаев , ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СРЕДА ВУЗА КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ	224
75	Qaraxonova L.M, Uchqurova Z.Sh , OLIY TA‘LIM TIZIMIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	227
76	Karimov Komiljon Abduraximovich , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA PROFESSIONAL TA‘LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARI MALAKASINI OSHIRISHNING INNOVATSION AXBOROT-DIDAKTIK SHAKLLARI	229
77	Kasimova Nargiza Dilmuratovna, Adhamov Shohjahon Abdullajon o‘g‘li, Latipov Rustamjon Jahongir o‘g‘li , RAQAMLI TECHNOLOGIYALAR MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH	232
78	Komilova Xurshida Toxirovna, Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA O‘QUVCHI-QIZLARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	234
79	Mamajonov O‘tkirbek Tojiddinovich , BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MA‘NAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALASI	237
80	Mamatqulova Ozoda Xikmat qizi , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA TA‘LIM TIZIMINI YUKSALTIRISH ORQALI YOSHLARDA AXLOQIY-MA‘NAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	240
81	Махмудов Абдулхалим Хамидович , ДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	242
82	Mingboyeva Nargiza Mamasoliyevna , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA O‘QITUVCHINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH	245
83	Миракбарова Дилдора Миралишер кизи , ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ЖИНСИЙ ТАРБИЯГА ОИД БИЛИМЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	247
84	S.A.Mirzayev , BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY-SHAXSIY RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIIYALARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR	249
85	Mirzayeva Nasiba Bakhtiyar qizi , TECHNOLOGY OF FORMING FOREIGN LANGUAGE GRAMMAR SKILLS	252
86	Mirzakulov Islomjon Xoljigitovich, Shaymuradov Taxir Zamonovich , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	254
87	Saodat Zafarovna Mirpayazova , STRATEGIES FOR PROFESSIONAL AND PERSONAL DEVELOPMENT OF FUTURE OFFICERS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION	257
88	Murtozayeva Mahfuza Murtozayevna , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA TALABA-YOSHLAR EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	260
89	Muxidova Olima Nurilloevna , BO‘LAJAK TECHNOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINING RIVOJLANISH SHARTLARI	263
90	Норбобоев Маъруфджон Олимович , ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В 7-Х КЛАССАХ СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ СОГДИЙСКОЙ ОБЛАСТИ	266
91	Nurmurodova Munisa Azamat qizi, Sh.H.Raxmatilloeva , KIMYO DARSLARIDA 4K KOMPETENSIYALARDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TECHNOLOGIYALARNI QO‘LLASH.	269
92	Омонов Алишер Ахмад угли, Ахаткулов Сохобиддин Абиркулович, Саттаров Кувондик Мавлонович , ИННОВАЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ: КАК АЛГОРИТМЫ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ТРАНСФОРМИРУЮТ АДАПТИВНЫЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ	274
93	Radjabova Jayron Ikram qizi , USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING CORRESPONDENT STUDENTS ENGLISH LANGUAGE COMPONENTS	277
94	Раупова Мехринигор Хайдаровна, Акрамова Мохинабону Мирголибовна , ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЛИЧНОСТНОЕ РАЗВИТИЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ: КЛЮЧЕВЫЕ СТРАТЕГИИ НА ВЕБ-ПЛАТФОРМАХ	279
95	Сулейманова Рамзия Марсильовна , ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ	282
96	Tadjibayev Salimjon Sabirjanovich , BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TASVIRIY FAOLIYAT BO‘YICHA KASBIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI	285
97	Tadjibaeva Shoxida Abdurazakovna , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA KASBIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI	287
98	Tashmetova Shaxla Xusanovna , TALABALARINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INSONPARVARLIK G‘OYALARINING ASOSLARI	290
99	Tilavova Sayora Bekmuratovna , BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	291
100	Tojiddinova Rayxona Plyosxo‘jayevna , RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK OQITUVCHILARNI KASBIY-SHAXSIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI	294

2024-yil 20-fevral kuni T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tomonidan o‘tkazilgan “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLAR TO‘PLAMI

Nashr etilgan sana: 20.02.2024.

“Times New Roman” garniturasini. Adadi: 50 dona.

“Science and innovation” MCHJ

Litsenziya №:038864 15.09.2022

Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.

www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654